

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**S.I. XOLMUHAMEDOV, R.J. HAKIMOVA**

# **AERODROMLARNI QIDIRISH VA LOYIHALASH**

*Oliy va o'rtalik maxsus talim vazirligi tomonidan 5580200 va 5A 580206  
mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim oluvchi talabalar uchun darslik  
sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT  
«VORIS-NASHRIYOT»  
2012

УДК: 657.71(075)

КБК 39.513

X-72

**Taqrizchilar:**

**S.Y. Tulyaganov** – «O'zavtoyo'l» DAK bosh mutaxasisi;  
**A.A. Ishanxodjayev** – «K va TT» kafedrasi mudiri, professor

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ta'lim yo'naliishi 5580200-«Bino va inshootlar qurilishi», 5A580206 – «Avtomobil yo'llari va aerodromlar» mutaxassisligi bo'yicha ta'lim oluvchi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida chop etilgan.

Darslikda aerodromlarni qidirish va loyihalash asoslari: havo trassalari va fuqaro aviatsiyasi aeroportlari, aeroportning rejaviy yechimlarini asoslash, aerodromlarning uchsh tasmalarini loyihalash, aerodromlarning uchish-qo'nish tasmalari va aeroportlarning o'tkazuvchanlik qobiliyatni, rullash yo'llari, perroni va havo kemalari to'xtash joylarini loyihalash tamoyillari, aeroport ma'muriy-texnik hududlarining bosh rejasi, aeroportlarning atrof-muhitini muhofaza qilish, aerodromlarni vertikal rejalashga qo'yiladigan talablar, aerodromlarning grunt yuzalarini vertikal rejalashni loyihalash, aerodromlarning sun'iy qoplamlarini vertikal rejalashni loyihalash, tuproq ishlari hajmini aniqlash, aerodromni vertikal rejalash loyihasini rasmiylashtirish, uchish maydoni gruntingin suv rejimi va suv qochirish, drenaj tadbirlari, aerodromlarda suv qochirish va drenaj tizimlari, sun'iy qoplamlarning turlari, bikir qoplamlar, bikir bo'lgan qoplamlar, gruntli uchish tasmalari, havo kemalarining aerodrom qoplamlariga ta'siri, aerodrom asoslaridagi gruntingarning ishi, aerodromlarning bikir bo'lgan qoplamlari mustahkamligini hisoblash, aerodromlarning bikir qatlamlari mustahkamligini hisoblash masalalari batafsil bayon etilgan.

Darslik **G. I. Glushkovning** «Изыскания и проектирование аэродромов». – М., «Транспорт», 1992 darsligi asosida mahalliy sharoitlarga moslab yozilgan.

**Xolmuhamedov S. I.**

**Aerodromlarni qidirish va loyihalash.** /S. I. Xolmuhamedov, R. J. Hakimova. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. – T., «Voris-nashriyot», 2012, – 320 b.

I. Hakimova, R.J.

УДК 657.71(075)  
КБК 39.513

ISBN 978-9943-375-57-4

© «VORIS-NASHRIYOT», 2012-y

## KIRISH

Havo yo'llarida muntazam va xavfsiz tashishlarning asosiy va hal qiluvchi shartlaridan biri aeroportlar va rivojlangan havo trassalari tarmog'ining mavjudligi bo'lib, ular havo kemalari xavfsiz uchishi, harakatning zaruriy jadalligini ta'minlab berishga xizmat qiladi.

Aviatsiya XX asrda rivojlana boshladi, lekin samolyotni (bug'dvigateli bilan) yaratishga 1885-yili dengiz zobiti A. F. Majayskiy tomonidan birinchi marta urinib ko'rilgan edi. Aerodinamika fanini rivojlantirish va uchuvchi apparatlar yasash ishiga rus olimlari D. I. Mendeleyev, I. E. Jukovskiy, S. A. Chaplin, V. P. Vetchinkin, B. N. Yuryev, A. N. Tupolyev va boshqalar katta hissa qo'shgan. K. E. Siolkovskiy reaktiv uchishlar nazariyasini va raketalarni hisoblash ishlarini ishlab chiqdi.

Uchuvchi apparatlar paydo bo'lishi bilan ular uchun uchish-qo'nish sharoitlarini yaratish, ya'ni zaruriy uskunalar bilan jihozlangan maydonchalar tayyorlash muammosi yuzaga keldi. Bunday maqsadlar uchun dastlab shahar hududi chegarasida joylashgan tekis yer uchastkalari (ippodromlar, harbiy-o'quv poligonlari) dan foydalanilgan. Keyinchalik maxsus yer maydonlari – aerodromlar qurish zarurati yuzaga kelgan.

Fuqaro aviatsiyasi aerodromlari 3 toifaga bo'linadi. Birinchi toifa aerodromlari havo aloqalarining bosh bo'g'ini sifatida yirik shaharlar atrofiga joylashtirilgan. Ular angarlar, yonilg'i va moylash materiallari ombori, ta'mirlash ustaxonalari, aloqa vositalari, yorug'lik ogohlantiruvchi asboblari va boshqa maxsus uskunalarga ega bo'lgan. Ikkinci toifaga oraliq qo'nish punkti

vazifasini bajaruvchi aerodromlar kirgan. Ularda angarlar, samolyot va motorlarni ta'mirlash hamda yonilg'i-moylash materiallarini saqlash binolari bo'lмаган. Uchinchi toifali aerodromlar oddiy maydonchalar bo'lib, samolyotlarning uchishi va qo'nishini ta'minlagan va majburiy qo'nishlar uchun mo'ljallangan.

Sobiq ittifoqda eng birinchi havo yo'li 1923-yili Moskva – Nijniy-Novgorod shaharlari o'rtaida ochilgan, uzunligi 420 km bo'lgan, shundan keyin Xarkov – Odessa, Nijniy Novgorod – Kazan, Tbilisi – Boku, Toshkent – Olmaota, Buxoro – Dushanbe, Moskva – Xarkov kabi yo'nalishlardagi havo yo'llarida uchishlar boshlangan. Birinchi xalqaro havo yo'lini 1922-yili «Moskva – Kaunas – Kaliningrad» yo'nalishida ochishgan.

# **1-bob. HAVO TRASSALARI VA FUQARO AVIATSIYASI AEROPORTLARI**

---

## **1.1. Aeroportning qismlari va ularning vazifasi**

*Havo aloqalari* – havo kema (HK) larining havo hududida uchishi – havo trassalari, mahalliy havo yo'llari va tayinlangan yo'nalishlarda bajariladi.

Havo trassasi yer yuzasi ustidan, maxsus yo'lak ko'rinishida o'tadi. Havo trassasi, mahalliy havo yo'llari va yo'nalishlarining eni, yo'nalishi hamda uchishlar balandligi, uchish xavfsizligi talablari va tegishli tashkilotlarning manfaatlari asosida belgilanadi.

Havo trassalari va mahalliy havo yo'llari havo kemalarining xavfsiz uchishlarini ta'minlaydigan radionavigatsiya va boshqa vositalar bilan jihozlanadi. Ular uchish uchun zarur bo'lgan fizik-geografik va iqlimga oid ma'lumotlar berilgan aviatsiya-iqlimiylar bayonga ega.

Havo kemalariga xizmat ko'rsatish uchun passajirlarni, yuklar va pochtalarni tashish hamda boshqa maqsadlarda aeroport va aerodromlar quriladi. Aeroport – inshootlar majmuasi bo'lib, aerodrom, aerovokzal va yer usti inshootlari va maxsus uskunalardan tashkil topgan bo'lib, havo kemalarini jo'natadi, qabul qiladi va ularga xizmat ko'rsatadi. Aeroportda boshqarishning avtomatik sistemasi, statsionar va ko'chma mexanizatsiya vositalari, muhandislik va aloqa kommunikatsiyalari, passajirlar tashishga xizmat qiladigan texnologik uskunalar bo'ladi.

*Aerodrom* – aeroportlarning asosiy qismi bo'lib, yer (gidro-aerodrom uchun suv uchastkasidan) uchastkasidan iborat bo'lib, u havo kemalarining uchishi, qo'nishi, rullanishi va ularga xizmat ko'rsatilishiga mo'ljallangan maxsus uskunalar bilan jihozlanadi. Aerodrom chegaralari atrofida, aerovokzalga yondoshadigan perronda,

passajirlarni havo kemasiga o'tqazish, undan tushirish ishlari, passajirlarni aerovokzaldan havo kemasiga tashish yoki piyoda o'tkazish, yuklar, bagaj va pochtani ortish-tushirish ishlari bajariladi. Aerodromga aerodrom oldi joyi yondashgan bo'lib, uning tepasidagi havo bo'shilg'iда havo kemalari manevr harakatlarini bajaradi. Aerodrom ustidagi havo hududi va unga yondashgan joyning reja va balandlik bo'yicha belgilangan chegaralariga «*aerodrom hududi*» deyiladi.

*Xizmat ko'rsatish-texnikaviy hududi* (XTH) – aeroportning aerodromga yondashgan qismi bo'lib, u yerda ma'muriy-jamoaviy, ishlab chiqarishga oid va yordamchi bino va inshootlari joylashadi.

Aeroport hududida vertolyotlar uchun ko'tarilish va qo'nish maydonlari qurilib jihozlanishi mumkin, bunda qo'nish uchun band bo'limgan tasmalar ajratiladi va yon tomondan to'siqlar qo'yiladi. Vertolyotlar bilan passajirlar va yuklar tashish uchun vertolyot maydonchasi yoniga maxsus bino quriladi yoki aeroport binosidan maxsus joylar ajratiladi.

## **1.2. Havo trassalari, aeroportlar va aerodromlarni tasniflash**

Tasniflash – bir-biriga bog'liq tushunchalar (obyektlar) o'rtaсидаги aloqalarni о'rnatuvchi tizimli yondashuv va ularni muayyan belgilariга qarab guruhlarga, razryadlarga, toifalarga ajratishdir. Bunda ko'rilayotgan tushunchalarning belgilari va xususiyatlaridan kelib chiqib, ular o'rtaсидаги qonuniy bog'lanishlarga urg'u beradi. Masalan, aeroportlarni tasniflash uchun eng muhim bo'lgan belgi – passajirlarni tashish hajmi, aerodromlar uchun esa – uchish tasmalarining o'lchamlari, ularning vazifasi va boshqalar hisoblanadi. Barcha tasniflar singari, havo trassalari, aeroport va aerodromlarni tasniflash ham ularga bo'lgan umumlashgan ekspluatatsiya va boshqa talablarni ishlab chiqish imkonini beradi, bunda ularning u yoki bu guruh va toifaga tegishli ekanligi e'tiborga olinadi hamda ilmiy-texnikaviy tizimlash uchun zarur hisoblanadi.

Havo trassalari xalqaro, magistral va mahalliy (mahalliy havo yo'llarida) turlarga bo'linadi.

Shuningdek, xalqaro aeroportlarga xalqaro havo trassalarida uchadigan havo kemalarini qabul qiladigan va uchiradigan, mamlakatimiz va chet ellarning yirik shaharlarini birlashtiradigan aeroportlar kiradi. Magistral aeroportlar mamlakatimizning yirik ma'muriy va madaniy markazlarini tutashtiradigan (respublika va viloyat ahamiyatidagi) havo trassalari bo'ylab asosiy tashishlarni bajaradi.

Mahalliy aeroportlarga viloyat markazlari, tumanlar markazlarini va alohida ovullarni tutashtiruvchi yirik aholi punktlari, tashuvlarining aksar hajmini mahalliy havo yo'llarida bajaradigan aeroportlar kiradi.

Aviatashish hajmlarini toifalar bo'yicha bo'lish (guruhash) aeroportlarni ko'p yillik ekspluatatsiya qilish tajribalariga, havoda tashishlarni tashkil etish va ta'minlashga hamda istiqboldagi o'zgarishlarga asoslaniladi. Aeroportlarning bunday tasniflanishi 1.1-jadvalda berilgan.

*1.1-jadval*

Aeroport toifasi	Passajirlar tashish yillik hajmi, ming kishi	Passajir HKning har bir guruhi bo'yicha yillik harakat jadalligi				Aeroportlarda HK ning yillik uchish-qo'nish jadalligi, ming
		I	II	III	IV	
I	7000–10 000	11–17	36–47	10–15	–	57–79
II	4000–7000	3–10	23–31,5	16–24,5	–	42–66
III	2000–4000	–	14–29	12–21	4–10	36–54
IV	500–2000	–	2–11	7–16	6–13	15–40
V	100–500	–	2–0	2–7	3–6	5–15

**Izoh:** HK qatnovi jadalligining katta qiymatlari tashuvlarning eng yuqori hajmiga, kichik qiymatlari kichik hajmiga mos.

HK ning guruhlari salonning passajirlar sig‘imi va HK ning massasiga qarab tasniflanadi (1.2-jadval)

1.2-jadval

HK ning guruhi	Passajirlar sig‘imi, kishi	HK ning massasi, <i>t</i>
I	160 dan ortiq	100 dan ortiq
II	70–20	45–100
III	30–70	10–45
IV	10–30	10 gacha

Aerodromlar aeroportlarga qaraganda ko‘proq belgilar asosida tasniflanadi. Asosiy belgilar – uchish-qo‘nish tasmasi (UQT) ning o‘lchamlari va yuk ko‘tarish qobiliyati (me’yoriy yuklama). Shularga qarab aerodromlar *A*, *B*, *B*, *G*, *D*, *E* toifalarga bo‘linadi.

Uchish tasmalari (UT) ning (standart sharoitlarda), chekka va yon xavfsizlik tasmalari, aerodrom oldi hududlarining o‘lchamlari fuqaro aerodromining ekspluatatsiyaga yaroqlilik me’yorlari asosida belgilanadi. Odatda, aeroport toifasi nufuziga ko‘ra aerodrom toifasi bilan bir-biriga to‘g‘ri kelishi kerak. Masalan, I toifa aeroporti A toifa aerodromiga, II toifa aeroporti B toifa aerodromga ega bo‘lishi lozim. Ayrim hollarda, ijtimoiy-iqtisodiy yoki davlat ahamiyatidagi zaruriyatga ko‘ra, bunday moslik bo‘imasligi mumkin.

Ekspluatatsiya vazifasiga ko‘ra aerodromlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- *trassa aerodromlari* (aeroportlarning aerodromlari) – havo tras-salari yoqasida joylashgan aerodromlar bo‘lib, passajirlar, yuklar

va pochtani tashiydigan transport HK ni ekspluatatsiya qilishga mo'jallangan;

- *xalq xo'jaligida ishlataladigan aerodromlar* – xalq xo'jaligining turli sohalarida aviatsiya ishlarini bajarishda ishlataladi: qishloq xo'jaligi (dalalarga kimyoviy ishlov berish, aviatsiya bilan urug'lik sepish), o'rmon xo'jaligi (yong'inni aniqlash maqsadida qo'riqlash, o't o'chirish), aerofotosyomka, ekspeditsiyalarga xizmat (geologiya-qidiruv), baliqchilik va hayvon ovlash), qurilish (baland inshootlardagi konstruktsiyalarni montaj qilish), aholiga tibbiy va sanitariya xizmatlarini ko'rsatish va h.k.;
- *zavod aerodromlari* – aviazavodlar va aviata'mirlash korxonalardan chiqariladigan HK larining sinov uchirishlariga xizmat qiladi;
- *o'quv aerodromlari* – HK ning o'quv uchishlari uchun xizmat qiladi.

Aerodromlarni sutka davomida ekspluatatsiya qilish vaqtiga qarab, tunu-kun va kunduzi xizmat qiladigan turlari bo'ladi.

Joylashuviga va foydalanilishiga qarab aerodromlarning quyidagi turlari bor:

- *bazaviy* – HK larini bazalash va buning uchun zaruriy inshootlarga ega; uchish va tayinlash, oraliq va zaxira aerodromi bo'lishi mumkin; HK lari uchish va tayinlash aerodomlaridan berilgan yo'nalish bo'yicha uchishni boshlaydilar yoki tugatadilar, ortish yoki tushirish ishlarini bajaradilar, uchishdan oldingi yoki keyingi texnik xizmatdan o'tadilar;
- *oraliq* berilgan yo'nalish bo'yicha uchayotgan HK si qisqa muddatli to'xtashi (jadvalga muvofiq) uchun;
- *zaxira* uchishlar rejasida ko'rsatilgan va agar manzil aerodromda qo'nish mumkin bo'lmasa, uchish oldidan yoki uchish davomida tanlash uchun.


Dengiz sathidan balandligiga va relef tavsifiga qarab «tog‘lik», ya’ni past-baland relefli, nazorat nuqtasidan 25 km radiusda 500 m va undan ortiq nisbiy balandlikka ega joydagi aerodrom bo‘ladi; dengiz sathidan 1000 m va undan baland joylashgan va nisbatan tekis yerlarda joylashgan «tekis» aerodromlar ham bo‘ladi.

### **1.3. Aeroportdagи transport amallari va texnologik jarayonning umumiy tavsifi**

Aeroport ishining texnologik jarayoni bir-biri bilan bog‘liq uch yo‘nalishni qamrab oladi: passajirlar va bagajlarni tashish; yuklar va pochtani tashish; HK lariga texnik xizmat ko‘rsatish. Bunda moddiy-texnika ta’minoti muhim o‘rin tutadi.

Aeroportdagи texnologik jarayonlarni o‘rganayotganda HK ning harakati qanday tashkil qilinganiga e’tibor berish zarur: havo kemalari uchish-qo‘nishni UQT ning ikkala uchidan boshlashi mumkin. Bu HK larining halqa sxema bo‘yicha harakat yo‘nalishini belgilab beradi, o‘z navbatida, aeroport elementlarining umumiy rejasiga, texnologik binolar va inshootlarni joylashtirishga ta’sir etadi.

Aeroportlarda HK lari harakatining texnologik sxemasi (1.1-rasm), turli transport va mexanizatsiya vositalarining harakati, passajirlar va yuklar oqimi quyidagi talablarni kafolatlashi lozim: passajirlar va aeroport xodimlarining hudud bo‘ylab harakat xavfsizligini: passajirlar, yuklar, pochta va HK larining aeroportda eng qisqa vaqt bo‘lishi; HK lari maxsus avtotransport va mexanizatsiya vositalarining bir-biri bilan eng kam miqdorda to‘qnash kelishi va bir-birining yo‘lini kesib o‘tishi; passajirlarning piyoda yurishi yoki ularni bortga oziq-ovqat, bagaj, pochta va yuklar tashib berish yo‘lining eng qisqa bo‘lishi.



*1. I-rasm. Aeroportlarda havo kemalari harakatining texnologik sxemasi  
(qo'nish kursi Sh-F):*

1 – qo'nish; 2–2'–3 – perronga rullash yo'li; 3–4 – perrondan yuk omboriga rullash yo'li; 4–5–5' – yuk omboridan TJ ga rullash yo'li; 6 – aerovokzal; 7 – yuk ombori; 8 – havo kemalari yo'li; 9 – tranzit HK yo'li.

Zamonaviy aeroportlardagi barcha texnologik jarajonlar mexani-zatsiya va avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda bajariladi. Ularning samaradorligi aeroport transport ishining muhim ko'rsat-kichlaridan hisoblanadi.

**Passajirlarga xizmat ko'rsatish** uchish vaqtida HK ning bortida, uchishdan oldin va keyin ko'rsatiladigan xizmatlardan iborat; aeroport (aerovokzal) da uchib ketadigan, kelib qo'nadigan, tranzitli, transferli passajirlar, kuzatuvchi va kutib oluvchi odamlar bo'ladi. Transfer passajir aeroportga bir reys bilan kelib, boshqa reys bilan uchishni davom ettiradi; tranzit passajir esa bir reys bilan kelib, o'sha reysda uchishni davom ettiradi.

HK sining bortida passajirga xizmatlar uchish davomiyligiga qarab ratsionga muvofiq ovqat berishni, madaniy-oqartiruv tadbirlarni (gazeta, jurnal, radio, televidenie va b.) qamrab oladi. Bunday xizmatlar texnologiyasi uchish joyidan boshlanadi. Bularga chipta sotish va turli ma'lumotlar bilan ta'minlash, passajirlarni HK

larga o'tkazish uchun aerovokzalga yetkazib kelish kabi ishlar ham kiradi. Passajirlarning bir qismi shahar jamoa transporti (avtobus, trolleybus, elektropoezd, taksi avtomobillar)dan ham foydalanadi.

**Yuklarni qabul qilish va jo'natish.** Yuklar ikki usulda tashiladi: maxsus yuk HK larida va passajir HK larida. Bunday tashishlar uchun yuk perroni, yuk hovlisi, omborlari, pochta yuklamalari bo'limi va yordamchi inshootlar bo'lishi kerak.

Yuklarni perrondan HK lariga ortish yoki tushirish tijorat asosida bajarilishi mumkin. Yuk hovlisi yuklarni jo'natuvchidan qabul qilib va oluvchiga yuborish uchun mo'ljallangan.

Passajir HK siga o'tirishdan oldin topshiradigan bagajga xizmat ko'rsatish, asosan, uning egasi ketayotgan aeroportga yo'naltirishdan iborat. Bunda HK siga yuklaydigan saralash va markazlash tizimini hisoblash uchun bir passajirga to'g'ri keladigan bagajning o'rtacha og'irligi muhim ahamiyatga ega.

**Havo kemalariga xizmat ko'rsatish.** Havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish, uchishga tayyorlash yoki uchishdan keyin qabul qilish amallarining ketma-ketligi va bajarilish usullari reys turi (uchish punktidan chiqish yoki qo'nish punktiga kelish) ga qarab, reglamentli ishlarning texnologik ko'rsatmalaridan kelib chiqadi.

Texnik xizmat – passajirlar va yuklar tashishda transport ishining zaruriy samaradorligini ta'minlash uchun HK larini ekspluatatsiya qilish jarayonida amalga oshiriladigan texnikaviy va tashkiliy tadbirlar majmuasidir. Texnik xizmat muayyan qoidalar asosida bajariladi; bu qoidalar har qaysi tur HK siga tegishli reglamentlarda ko'rsatiladigan xizmatlar tizimini hosil qiladi.

Texnik xizmat ko'rsatish tizimida ikkita muhim bo'lakni ajratish mumkin: profilaktika va ta'mirlash; bular HK sini ekspluatatsiya qilish shartlarini hisobga oladi va profilaktika ishlari ro'yxatidan iborat bo'lib, ularni bajarish davriyligini ko'rsatadi. Reglamentlar

HK lariga profilaktik, tezkor va davriy texnik xizmatlar ko'rsatishni ko'zda tutadi. Profilaktik texnik xizmat rejali tartibda bajariladi va HK sining holati qandayligidan qat'iy nazar uning konstruktiv elementlari va qismlarining ishlash qobiliyatini tekshiradi. Tezkor texnik xizmatlar HK si perronda qisqa muddatli turganida, uchish oldidan va uchishdan keyin ko'rsatiladi. Davriy texnik xizmat HK sining holatiga qarab yoki ma'lum vaqt uchganidan keyin ko'rsatiladi.

## **2-bob. AEROPORTLARNING REJAVIY YECHIMLARINI ASOSLASH**

---

### **2.1. Aeroportning bosh rejasiga va texnik xizmat hududlariga talablar**

Bosh reja – aeroport loyihasining eng muhim qismi hisoblanadi va geografik o‘rnini ko‘rsatadi, shuningdek, reja va hududni obo-donlashtirish kompleks yechimlarini, binolar, inshootlar, transport kommunikatsiyalari, muhandislik tarmoqlari, havodagi harakatlarni boshqarish, radionavigaiya va qo‘nish tizimlari uskunalarining joylashuvini, ijtimoiy-maishiy xizmatning tashkil qilinishini aks ettiradi.

Bosh rejada bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan texnologik, shaharsozlik, arxitektura-qurilishi, sanitariya va gigiena, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy masalalar qanday hal qilinganligi ko‘rinib turadi.

Aeroport bosh rejasining tarkibi quyidagi omillar bilan aniqlanadi: aerodrom uchish tasmalarining joylashuvi, shahar tomonidan kirib kelinishi, bino va inshootlarning qurilish xarakteri, aeroport ichidagi yo‘llar, transport yo‘llari, maydonlar sxemasi, yondashib keladigan temiryo‘l va avtomobil yo‘llarining trassalangan ish shartlari, asosiy muhandislik kommunikatsiyalari, qurilish uchastkalarining tabiiy sharoitlari. Bosh reja loyihalashga berilgan topshiriqqa asoslab ishlab chiqiladi. Topshiriqda bo‘lajak aeroportning toifasi, demak, yillik tashish hajmi, harakat jadalligi, ro‘yxatdagi HK parki, aeroport ekspluatatsiyasining texnologik xusuiyatları ko‘rsatiladi. Bosh reja loyihasi quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- aeroportning bino va inshootlari HK larining muntazam uchishlari va xavfsizlik shartlarini bajarish sharti bilan berilgan o‘tka-zuvchanlikni ta’minlash;
- passajirlarga xizmat ko‘rsatishda, HK lariga texnik xizmat ko‘rsatishda, uchishlarni tashkil etish, aeroport zonasida havodagi

harakatlarni boshqarishda ishlab chiqarish, ekspluatatsiya qilish va uchish jarayonlariga taaluqli zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;

- aeroportning kelajak 25–30 yilda bo‘ladigan taraqqiyotini hisobga olgan holda, aviatsiya texnika va uskunalarini rivojini e’tiborga olish;
- texnologik jarayonlar va aeroport elementlarining o‘zaro bog‘liqligini yagona tizimli uslubiyat asosida loyihalab, aeroportning hamma binolari va inshootlarini texnologik kompleks rejalshtirish;
- binolar va inshootlar joylashishining iqtisodiy samaradorligini, ularni zichroq o‘rnatish, blokirovkalash, transport va muhandislik kommunikatsiyalarini qisartirish evaziga ta’minalash;
- aeroport bosh rejasи va shaharsozlik masalalarining yagona arxitektura-qurilish yechimlarini, «shahar-aeroport» tizimi rejali yechimining organik bog‘liqlik asosida, binolarni loyihalashda estetik me’yorlarga rioya qilgan holda ta’minalash;
- aeroportni qurish va ekspluatatsiya qilish jarayonlarida atrof-muhitni tiklash va boyitish yo‘li bilan himoyalash;
- inshootlar oralig‘ida me’yoriy masofalar (sanitariya va yong‘inga qarshi) qoldirish, hududdan tejamli foydalanish;
- aeroport hududini obodonlashtirish, u yerda tranport va passajirlar harakatini tashkil etish, xodimlarga ijtimoiy-maishiy xizmatni ta’minalash;
- aeroportning bosh rejasи topografiya qoidalari bilan 1:5000 miqyosda (texnik-iqtisodiy tahlil bosqichida) va 1:2000 miqyosida (ishchi hujjalarni tayyorlash bosqichida) ishlab chiqiladi. Unda quyidagilar ko‘rsatiladi: mavjud, qayta ko‘riladigan, buzib tashlanadigan, loyihalanadigan binolar va inshootlar;
- havodagi harakatni boshqaradigan, radionavigatsiya va qo‘ndirish obyektlari;
- hamma turdagи yo‘llar; ajratilgan yondosh yerlar, hudud;
- binolar va inshootlarning to‘samlari; ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish elementlari, hududning zaxira uchastkalari.

Bosh rejada shamollar yo'nalishini ko'rsatuvchi diagramma ham beriladi.

Bosh rejaga tushuntirish matni ilova qilinadi. Unda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

- aeroport joylashadigan yer uchastkasiga qisqacha tavsif;
- bosh rejani komponovka qilish, transport, muhandislik tarmoqlari, fuqaro mudofaasi bo'yicha qabul qilingan muhandislik yechimlarini asoslash;
- asosiy ko'rsatkichlar (aeroport uchun ajratilgan yer maydoni, qurilishlar zichligi). Bulardan tashqari aeroportning vaziyatlar rejasи, vertikal rejalah loyihasи, muhandislik tarmoqlarining jamlanma rejasи ham qo'shiladi.

Aeroport XTH ining rejasiga quyidagi talablar qo'shiladi:

- texnologik jarayonlarni aniq tashkil etish va qurilishlarni hudud bo'ylab oqilona taqsimlash;
- aeroportda ishlovchilar uchun qulay va xavfsiz sharoitlar yaratish, akustik holatlarni hisobga olgan holda atrof-muhitni muhofaza qilish;
- passajirlar yo'lini, yuklar va pochta yuklarini tashish yo'lini iloji boricha kamaytirish; passajirlar, aeroport xodimlari va maxsus transport vositalari xavfsiz harakat qilishini ta'minlash;
- ayrim binolar va inshootlarni rivojlantirish imkonini ta'minlash (zaxira yer uchastkalari tomon kengaytirish yoki qayta qurish);
- yer uchastkalaridan tejamli foydalanish va kapital mablag'larning eng katta samarasini ta'minlash.

Bu talablarni amalda bajarish uchun XTH ning bosh rejasida quyidagilar ko'zda tutiladi:

- bino va inshootlar bo'yicha qabul qilingan loyiha yechimlarining aeroport ishi texnologiyasiga, quvvati va o'tkazish qobiliyatiga mosligini dalillash va asosiy xarajatlarni iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bilan muvofiqlashtirish;
- binolar va inshootlarning ixtisoslashganligi, ularning texnologik va transport aloqasi, sanitariya-gigiena va yong'in xavfsizligi talablari, qurilish navbatи asoslarida aerodrom hududini zonalarga ajratish;

- XTH ichida ishlab chiqarish bilan bog‘liq, transport va muhandislik aloqalari oqilona bo‘lishini ta’minlash;
- bunda yondosh aholi punkti va XTH ning aloqa yo‘llari, aeroport va aholi punkting kelajakdagi rivoji e’tiborga olinadi;
- inshootlar oralig‘ida bo‘sh masofa me’yorlariga rioya qilish, hudud maydonidan oqilona foydalanish;
- qurilish uchastkasini obodonlashtirish va shovqin darajasi me’yordan oshmasligini ta’minlash;
- havodagi harakatni boshqaruv (HHB), radionavigatsiya va qo‘ndirish vositalarini joylashtirish;
- bunda xizmat qiluvchi xodimlar va mahalliy aholini yuqori chastotali nurlanishdan muqofaza qilishni ta’minlash;
- muhandislik kommunikatsiyalarini tarmoqlarini trassalash, optimal yotqizishni kompleks hal qilish;
- bino va inshootlar qurilishini va ekspluatatsiyaga ishga tushirilishini komplekslar va navbatlar bilan amalga oshirish imkoniyati;
- atrof-muqit muhofazasi bo‘yicha kompleks talablarga rioya qilish.

Bosh rejani loyihalashda XTH ni aerodrom chegarasiga, asosiy kommunikatsiyalar tarafiga joylashtirish lozim; bunda muhandislik kommunikatsiyalar qisqa bo‘lishini, yer uchastkasidan oqilona foydalanishni ta’minlash kerak.

Birinchi toifa aeroportlarning bosh rejasini loyihalashda XTH ning arxitektura-qurilish yechimi bitta yoki ikkita uchish-qo‘nish tasmasi (UQT) qurishni ko‘zda tutishi kerak.


Ikki yoki undan ortiq uchish tasmasi, individual loyihalana-digan binolari va inshootlari bor bo‘lgan, xalqaro va toifasi yo‘q aeroportlarni loyihalashda yer uchastkasining o‘lchamlari loyiha asosida aniqlanadi.


## **2.2. Aeroportning vaziyatlар rejasи**

Aeroportning bosh rejasini loyihalashda inshootlarni joylashtirish bo‘yicha loyihaviy yechimlarni joyning vaziyatlari elementlari: aholi punktlari, sanoat korxonalari, transport va muhandislik kommunikatsiyalarini, relyef va boshqa omillar bilan moslashtirish lozim.

Shuningdek, aerodrom tashqarisiga olib chiqilgan radionavigatsiya va qo'ndirish inshootlarining aeroportda tutashuvchi transport yo'llari va muhandislik tarmoqlarining aeroportga bog'lanish masalalarini ham hal qilish kerak. Bu maqsadlarda bosh reja kompleksida vaziyatlar rejasidagi ishlab chiqiladi. U kartografiya qoidalari bilan 1:25000 – 1:100000 miqyoslarda tuziladi. Vaziyatlar rejasida (2.1-a rasm) aholi punkti, uning kelajakda kengayish chegaralari, aeroportning joylashuvi, havodan kirib kelish tasmalari ko'rsatiladi.

O'rmon va qishloq xo'jalik ekinlari chegaralari, daryolar, temiryo'l va avtomobil yo'llari ham ko'rsatiladi. Aeroportga eltadigan loyihibiy yo'llar, muhandislik kommunikatsiyalari liniyalari va trassalari (aloqa, elektr ta'minoti, suv ta'minoti va b.), aeroportning alohida turgan inshootlari (suv ta'minoti, suv olish va tozalash kabi) ham vaziyatlar rejasiga kiritiladi. Bulardan tashqari, atrofdagi hududda shovqin darajasi, HK larining harakat trassasi ham ko'rsatiladi. Yirik aeroportlarni loyihalayotganda shovqinning tasir darajasi alohida chizma bilan beriladi. Shamollar yo'naliishi diagrammasi, qurilayotgan va mavjud inshootlar ro'yxati, UQT ning o'qiga nisbatan uchish-qo'nish joyining profili va rejasidagi (2.1-b rasm), xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan to'siqlarni ko'rsatgan holda beriladi.






2. I-rasm. Aeroportning vaziyatlar rejasi (a) va havodan kirib kelish profili (b):  
 1 – aerodrom; 2 – БПРМ, 3 – ДПРМ; 4 – havodan kirib kelish tasmasi; 5 – loyi-halanayotgan YET; 6 – avtomobillar kirib keladigan yo'l; 7 – temiryo'l bilan kirib kelish; 8 – XTH.

### 2.3. Aerodromoldi hudud va havodan kirib kelish tasmalari

Aerodromoldi hudud – aerodromga yondashgan yerlar bo'lib, ularning tepasidagi havoda HK lari manevr harakatlarini bajaradilar. U yerlarda tabiiy va sun'iy to'siqlarning (tepaliklar, tog'lar, o'rmon massivlari va binolar, inshootlar) balanddag'i gorizontal va qiyalama shartli tekisliklar bilan cheklandi. Bunday tekisliklar cheklovchi tekisliklar deya ataladi va ularning ko'rsatkichlari me'yordarda ko'r-satiladi; o'lchamlari va qiyaliklari HK larining texnik tafsiflariga qarab belgilanadi va aerodromning toifasiga qarab me'yorlanadi.

Aerodromning minorali to'sig'i deganda HK lari harakat qiladigan zonada joylashgan va cheklovchi tekisliklardan tepaga chiqib turadigan barcha qo'zg'almas va muvaqqat yoki doimiy va qo'zg'aluvchi obyektlar tushiriladi.

Aerodromoldi hudud rejasi, odatda, uch qismdan iborat to'rtburchak shaklda bo'ladi: o'rtadagi va ikki chekkadagi qismlar (2.2-a rasm).



**2.2-rasm. Aerodromoldi hududlari bir tomonda (b) va ikki tomonida (a) bo‘lgan aerodrom sxemasi:**

$I$  – havodan kirib kelish tasmalari;  $\Gamma$  – eng chekka qismlar;  $\Delta$  – o‘rta qism;  $B$  – aerodromoldi hududning eni;  $C$  – uzunligi;  $l$  – o‘rta qismning uzunligi;  $f$  – eng chekka qismining uzunligi.

Aerodromoldi hudud elementlarining o‘lchamlari aerodrom toifasiga bog‘liq.  $B=25\ldots40$  km,  $\Gamma=25\ldots30$  km,  $\Delta=20\ldots60$  km. Bundan:  $C=100$  va undan ortiq, eni esa umumiy uzunlikning 1/3 ulushiga teng.

Eng chekka qismlardagi to‘sqliarning balandligi ruxsat etilgandan ortiq bo‘lsa, u qismlarning bittasidan yo ikkalasidan voz kechish mumkin, lekin HK lari qo‘nish uchun kirib kelishi xavfsiz bo‘lishi kerak. Qo‘shni aerodromlarning joylashish sharoitlari va to‘sqliar mavjudligida aerodromoldi hudud uchish tasmasi o‘qiga nisbatan bir tomonda bo‘lishi mumkin (2.2-b rasm). Bunday holda HK larining xavfsiz uchish-qo‘nish sxemalari ishlab chiqiladi.

## **3-bob. AERODROMNING UCHISH TASMALARINI LOYIHALASH**

---

### **3.1. Uchish tasmalarining elementlari va ularning vazifalari**


Uchish tasmasi (UT) – aerodromning bir qismi bo‘lib, havo kemalarining uchishi va qo‘nishi uchun mo‘ljallangan; uchish-qo‘nish tasmasi (UQT), xavfsizlikning chekka tasmasi (XChT) va yonlama tasmasi (XYT) dan tashkil topadi. Aerodromda bir yoki bir nechta UT bo‘lishi mumkin.

Ko‘tarilish deganda HK sining harakati tezlashgandan boshlab, havoda xavfsiz tezlikka erishgunicha bo‘lgan masofa tushuniladi; u ikki bosqichdan iborat (3.1-a rasm): HK sining UQT sida tezlashuvi va ko‘tarila turib tezlanish olishi. Yugurib borish (tezlanish) HK sini yerdan uzib oladigan ko‘taruvchi kuch hosil qiladi. Tezlik ma’lum darajaga ortgach, uchuvchi hujum burchagi (ugol ataki) ni ko‘paytirib, oldingi g‘ildiragini yerdan uzib oladi va keyingi tezlanish asosiy tayanch g‘ildiraklar ustida kechadi. Yerdan uzilishda qanotlarda hosil bo‘lgan ko‘taruvchi kuch og‘irlik kuchidan birmuncha ortiq bo‘ladi va samolyot havoda ucha boshlaydi. Keyingi tezlanish va ko‘tarilish, 10 m balandlikkacha, traektoriya gorizontiga qiyalama to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tekis tezlanma harakatdan iborat.

Yugurib borish uzunligi (dlina razbega) deganda HK si start joyidan boshlab yerdan uzilgunicha o‘tgan masofa tushuniladi. Ko‘tarilish distansiysi – gorizontal tekislikdagi yo‘l bo‘lib, HK qo‘z-g‘algan nuqtadan boshlab, 10 m balandlikka ko‘tarilgan nuqtagacha oraliqda yotadi; bunda HK keyingi ko‘tarilish uchun yetarli va xavfsiz tezlikka erishgan bo‘lishi kerak.

Qo‘nish havodagi samolyot glissadaga kirib sekinlashganidan boshlab, to‘liq to‘xtamaguncha o‘tgan masofadan iborat (3.1-b, rasm). HK si qo‘nishga kirganidagi harakat traektoriyasi quyidagi uchastkalardan iborat: qo‘nishdan avvalgi pasayish (glissada bo‘ylab pasayish), parashutlanish, qo‘nish va yugurish.

Glissada bo'ylab 15 metrgacha pasayish va keyingi 6–10 metrgacha (to'g'rilanib olish balandligigacha) pasayish qiyalama traektoriya bo'ylab to'g'ri chiziqli harakatdan iborat. To'g'rilanib olish uchastkasida HKsi egri chiziqli traektoriya bo'ylab harakat qiladi va asta-sekin gorizontal rejimga o'tadi. UQT siga 1 metr qolganda to'g'rilanib olish tugaydi. Keyin tutib turish (viderjivanie) uchastkasi boshlanadi; u UQT sidan 0,5–0,25 metr balandlikkacha davom etadi. Shundan so'ng samolyot tezligi shu darajagacha pasaytiriladiki, natijada qatnovlardagi ko'tarilish kuchi og'irlik kuchidan kamayib, parashutlanish (yerga tushib ketish) ro'y berib, g'ildiraklar UQT sining yuzasiga tegadi. Xuddi shu ondag'i samolyot tezligining gorizontal tashkil etuvchisi «qo'nish tezligi» deb ataladi. Shu ondan boshlab qo'nishning so'nggi bosqichi «yugurish» boshlanadi. Yugurib borish uzunligini kamaytirish maqsadida aerodinamik qarshilik ko'rsatiladi (qanotning interseptorlari chiqariladi, dvigatelning revers kuchi ulanadi, g'ildiraklardagi avtomat tormoz ishga tushiriladi), natijada samolyotning kinetik energiyasi so'ndiriladi.



3.1.-rasm. HK uchish va qo'nish sxemasi:

$l_t$  – tezlanish uzunligi,  $l_{k.t}$  – ko'tarilish tezligi uzunligi,  $l_{uch}$  – uchish distansiyasi,  $l_p$  – glissada bo'yicha pastlanish,  $l_{mu}$  – muvozanatlanish uzunligi,  $l_{ush}$  – ushanish uzunligi,  $l_{yu}$  – yugurish uzunligi,  $l_{qo'}$  – qo'nish distansiyasi.

Yugurib borish uzunligi deganda samolyot yerga tekkandan boshlab to'liq to'xtagunicha o'tilgan yo'l tushuniladi.

Qo'nish distansiyasi – samolyot qo'nayotganda UQT si ostonasidan 15 m tepalikda o'tayotgan ondan boshlab, yugurish oxiri (to'liq to'xtash) gacha o'tilgan yo'lning gorizontal proeksiyasi uzunligidir.


Uchish tasmasi (UT) qoidaga muvofiq, uchish-qo'nish amallarini ikki tomonlama bajarish imkoniga ega bo'lishi lozim. Ayrim hollarda bir yo'nalishli bo'lishi mumkin.

Uchish tasmasi quyidagi elementlardan iborat (3.2-rasm).

Uchish-qo'nish tasmasi (UQT) – UT sining bir qismi bo'lib, HK ko'tarilishi va qo'nishi uchun maxsus quriladi; sun'iy qoplamlari (SUQT) va gruntli (GUQT) bo'ladi. Trassali aerodromlarda ikkalasi bo'ladi. UQT chegaralaridagi uchish va qo'nish distansiyasining havodagi bo'shlig'i, HK larini boshqarishda me'yordan og'ishlar bo'lganda tasmaning zaxirasi o'rniغا o'tadi. Bir UT da bir yoki bir nechta UQT si bo'lishi mumkin.

Chekka xavfsizlik tasmasi (ChXT) – uchish tasmasining UQT si uchlaridagi maxsus uchastka bo'lib, samolyot bexosdan tasmasidan chiqib ketganda xavfsizlikni ta'minlaydi.

Yon xavfsizlik tasmasi (YXT) – UQT ning yoniga tutashgan uchastka bo'lib, samolyot tasmasidan yon tomonga chiqib ketganda kerak bo'ladi.



### 3.2-pas. Uchish tasmasi elementlari:

1 – sun'iy qoplamlari uchish-qo'nish tasmasi (SUQT); 2 – gruntli uchish-qo'nish tasmasi (GUTM); 3 – xavfsizlikning yonlama tasmasi (XYT); 4 – xavfsizlikning chekka tasmasi (XChT).

Erkin zona (EZ) – UT ning bir qismi bo‘lib, ChXT ga tutashadi va ko‘tarilish distansiyasining havo uchastkasida HK sining xavfsizligini ta‘minlaydi. Samolyotning bitta dvigateli ishdan chiqqanda davom ettilgan balandlash distansiyasi uzilib qolgan ko‘tarilish distansiyasidan katta bo‘lganda hosil bo‘ladi.

ChXTQEZ yig‘indi, xususiy ChXT (EZ yo‘q bo‘lsa) uzunligidan UQT uzunligining yarmisigacha bo‘lgan oraliqda o‘zgaradi.

Havodagi harakatni boshqarish (HHB) HK lari uchishlarini rejalashtirish, muvofiqlashtirish, bevosita boshqarish va belgilangan rejimga rioya qilinayotganini nazorat qilish kabi tadbirlar majmuasidan iborat. Bunda asosiy qo‘llanma vazifasini o‘taydigan hujjat fuqaro aviatsiyasida uchishlarni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar (FAUBK) hisoblanadi.

Aerodrom atrofida havodagi harakatlarni boshqarish vositalarini bayon etarkanmiz, aerodromda HHB obyektlarining umumiy joylanish sxemasini ko‘rib chiqamiz.

Aerodrom atrofida havodagi harakatlarni kirib kelish dispatcherlik punkti (KDP), ko‘tarilishi va qo‘nish zonasida qo‘ndirish tizimining dispatcherlik punkti (QTDP), shuningdek, start dispatcherlik va meteokuzatuv punkti (SDP) bajaradilar. HHB obyektlari (3.1-jadval) radionavigatsiya va qo‘ndirish obyektlarining A, Б, В toifa aerodromlarda umumiy joylashuv sxemasi 3.3-rasmda berilgan.

Radionavigatsiya va aloqa xizmatlari uchish metereologik va markaziy dispatcherlik punktlari , dispatcherlik buyruqlari punkti (DBP) da joylashadi.

*3.1-jadval*

Uskunalar	Ifodalanishi		Soni
	O‘zbek	Rus	
Dispatcherlik buyruqlari xizmati	DBP	КДП	1
Start dispatcheri va meteokuzatuv punkti	SDP	СДП	2
Trassani kuzatish lokatori	TKL	ОРЛТ	1
Aerodromni kuzatish lokatori	AKL	ОРЛА	1
Qo‘ndirish lokatori	QRL	ПРЛ	1

Uchish maydonini kuzatish lokatori	UML	ОЛП	1
Meterologik radiolokatorlar	MRL	МРЛ	1
Yaqin navigatsiyaning radiotexnik tizimi	YaNRT	РСБН	1
Uzoqdagi radiomarkerli radiostantsiya	URMR	ДПРМ	2
Yaqindagi radiomarkerli radiostantsiya	YaRMR	БПРМ	2
Kurs radiomayog‘i	KRM	КРМ	2
Glissada radiomayog‘i	GRM	ГРМ	2

SDP da turib havo kemalari UQT sidagi harakatlari kuzatiladi, shuningdek, uchish-qo‘nish hududidagi meteovaziyat haqida axborot to‘plab, qayta ishlanadi va DBP ga uzatiladi.


Havoda (trassa) dagi va aerodrom hududidagi samolyotlarni kuzatish va nazorat qilish uchun TKL va AKL qo‘llaniladi. Qo‘nish chizig‘iga rioya qilish va glissadadagi holatni tutib turishni nazorat qilish uchun QRL ishlatiladi.

HHB va 30 km radiusdagi aerodrom hududida nazorat qilish, shuningdek, yerdan beriladigan buyruqqa asosan samolyotlar qo‘nishga kirishini boshqarish uchun kuzatuv-qo‘ndiruv radiolokatori (KQRL) xizmat qiladi.

MRL radiolokatorlarning ta’sir doirasidagi meteovaziyatni baholaydi, momaqaldoq, jala, yomg‘ir, qor va bulutlarning xarakteri va o‘lchamlarini aniqlaydi.

UML 50 metrdan pastdagi samolyotlarni ularning UQT si va RY dagi harakatlarini kuzatish, shuningdek, yerda, ICAO bo‘yicha III toifa ko‘rinish sharoitlaridagi harakatlarini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan.

Kurs va glissada radiomayog‘lari (KRM, GRM) ning antennalari bo‘shliqda, bir vaqtning o‘zida ikkita nurlanish diagrammasini hosil qiladi. Ikkala diagramma kesishgan joyda samolyotning lapanglash kursi va glissada rejasi ko‘rinadi. Uchuvchi shunga qarab HK sining bort sistemalarini qo‘nish jarayoniga moslab boshqaradi.



3.3-rasm. А, Б, В тоифа aerodromlarda ННВ, radionavigatsiya va qo'ndirish obyektlarining joylashish sxemasi.

### 3.2. Uchish-qo'nish tasmalarining uzunligini aniqlash

**Samolyotning ko'tarilishi.** Yugurib borish uzunligi va ko'tarilish distansiyasining uzunligi HK sining ko'tarilishini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. HK sining ko'tarilish sifatlariga uning konstruktiv va ekspluatatsion omillari, uchuvchining mahorati ta'sir etadi. Yugurish uzunligi HK sining to'g'ri chiziqli, o'rtacha tezlanish ( $J_{cp}$ ) bilan tezlanuvchan harakati orqali aniqlanadi.

$$l_{yug} = \frac{v_{uz}^2}{2j_{ot}}, \quad (3.1)$$

bu yerda:  $v_{uz}$  – samolyotning yerdan uzilgandagi tezligi.

Yerdan uzilgandagi tezlik:


$$v_{uz} = \sqrt{\frac{2mg}{\rho Sc_{yuz}}}$$

yoki  $\rho = P/RT$  ni hisobga olganda:

$$v_{uz} = \sqrt{\frac{2mgRT}{PSc_{yuz}}} \quad (3.2)$$

(3.1) formulaga (3.2) ni joylab, quyidagini hosil qilamiz:

$$l_{yug} = \frac{mgRT}{PSc_{yuz} j_{ot}}$$



3.4-rasm. Havo kemasi yugurib borganda (a), muvozantlashda (b) va tezlikni so'ndirishda (d) unga ta'sir etuvchi kuchlar:

$m$  – HK sining ko'tarilish massasi;  $g$  – erkin tushish tezlanishi;  $\rho$  – havoning zichligi;  $S$  – qanot yuzasi;  $c_{yuz}$  – yerdan uzilishda samolyot qanotini ko'tarish kuchi koefitsiyenti;  $\rho$  – atmosfera bosimi;  $R$  – gaz doimisi;  $T$  – havoning absalut harorati.

Tezlanish qiymati HK si yugurayotganda unga ta'sir etayotgan quyidagi kuchlarga bog'liq (3.4-a rasm): og'irlilik kuchi  $G$ , g'ildiraklarning ishqlanish kuchi  $T$ , ro'paradan qarshilik qilayotgan aerodinamik kuch  $Q$ , aerodinamik ko'taruvchi kuch  $Y$ , dvigatelning o'rtacha tortish kuchi  $P_{or}$ . Samolyot yugurib borganda bu kuchlarning qiymati o'zgaradi, natijada tezlanish qiymati ham o'zgaradi.

**Samolyotning qo'nishi.** Qo'nish distansiyasining uzunligi samolyotning muvozanatlash va tezlikni so'ndirish uzunliklari orqali aniqlanadi.

$H$  balandlikdan boshlab muvozanatlash uchastkasining uzunligi

$$l_{reja} = H / \operatorname{tg} \theta_{reja},$$

bu yerda:  $\theta_{reja}$  – HK sining lapanglash burchagi.

Muvozanatlash kuchlari sxemasi (3.4-b rasm) orqali quyidagi ifodalarni topish mumkin:

$$Q = G \sin \theta_{reja} = c_x \frac{\rho \omega^2}{2} S;$$

$$Y = G \cos \theta_{\text{reja}} = c_y \frac{p \omega^2}{2} S,$$

bulardan:

$$\operatorname{tg} \theta_{\text{reja}} = \frac{c_x}{c_y} = \frac{1}{K},$$

bu yerda:  $K$  – HK sining aerodinamik sifati.

Shunda muvozanatlash uchastkasining uzunligi:

$$l_{\text{reja}} = HK.$$

Yugurib borish kabi tezlikni so‘ndirish uzunligi ham qo‘nish tezligi  $v_{\text{qo‘n}}$  va o‘rtacha tormozlanish tezlanishi  $j_{\text{o‘r.t}}$  orqali aniqlanadi:

$$l_{\text{t.s.}} = \frac{v_{\text{qo‘n}}^2}{2j_{\text{o‘r}}} \quad (3.3)$$

Qo‘nish tezligi qo‘nish oldidagi ko‘taruvchi kuch bilan og‘irlik kuchining tenglik shartidan kelib chiqadi:

$$v_{\text{qo‘n}} = \sqrt{\frac{2m_{\text{qo‘n}}g}{\rho c_{y\text{qo‘n}}S}}. \quad (3.4)$$

Tormozlash tezlanishi HK si yurganda unga ta’sir etadigan kuchlar (3.4-b rasm), ro‘paradan qarshilik kuchi  $Q$  va g‘ildiraklarning ishqalanish kuchi  $T = T_1 + T_2$  ga bog‘liq. Bular yurish jarayonida o‘zgaradi. Samolyot tezligi kamayganda  $Q$  ning kamayishi harakat tezligining kvadratiga proporsional bo‘ladi. Ishqalanish kuchi  $T$ , g‘ildiraklarning UQT yuzasida ishqalanish koeffitsiyentiga va HK sining UQTsiga tik tushgan og‘irlik kuchiga bog‘liq.

$T$  quyidagicha hisoblab topiladi:

$$T = (m_{\text{qo‘n}}g - Y)f_{\text{kel}}, \quad (3.5)$$

bu yerda:  $m_{\text{qo‘n}}$  – HK sining qo‘nish massasi;  $f_{\text{kel}}$  – keltirilgan ishqalanish koeffitsiyenti; u samolyot g‘ildiraklarining yurishning birinchi uchastkasida tebranib ishqalanish va oxirgi uchastkasida tormozlanish koeffitsiyentlarini tavslaydi ( $f_{\text{kel}}$  ilashish koeffitsiyentiga yaqin).


Tezlik pasaygan sari  $T$  uzliksiz oshib boradi, chunki ko‘tarish kuchi avval kamayib, oldingi tayanch tushirilgach, sakrab-sakrab ko‘payadi.

### 3.3. Standart hisobiy sharoitlarda havo kemasining ko'tarilishi uchun zarur bo'lgan uchish tasmasi uzunligini aniqlash


Hozirgi paytda, aeroportlarni loyihalash amaliyotida UQT va UT ning zaruriy uzunklarini hisoblash uchun HK si ko'tarilish jarayonida bir dvigateli ishlamay qoladigan holat qabul qilingan. Fuqaro aviatsiyasining ikki va undan ortiq dvigateli, hamma reaktiv havo kemalaridagi bitta dvigatel ishlamay qolsa ham kema ko'tarilishda davom eta oladi.

Dvigatellardan biri ishlamay qolganda uchuvchi qabul qiladigan qarorga bog'liq ikki holat bo'lishi mumkin (3.5-rasm): ko'tarilishni davom ettirish va to'xtatish. Birinchisida uchuvchi ishlab turgan dvigatellarning butun imkoniyatini ishga solib, yo'nalishda uchishni davom etadi va ko'tarilish bosqichini oxiriga yetkazadi («davom ettirilgan ko'tarilish»). Ikkinci holatda uchuvchi o'z qo'lida bo'lgan hamma vositalarni (aerodinamik tormozlash, tortish reversi va b.) tezlikni so'ndirishga qaratadi («to'xtatilgan ko'tarilish»). Uchuvchining vaziyatga reaktiyasi davomiyligi dvigatel ishlamay qolgan ondan boshlab bir qarorga kelguncha o'tgan vaqt bo'lib, shartli ravishda 3 sekund qabul qilingan.

a)



b)



3.5-rasm. Davom ettirilgan (a) va to'xtatilgan (b) ko'tarilish sxemalari.

UQT va UT uzunliklarini belgilashda yuqorida ko‘rilgan holatlarni tahlil qilish uchun «qaror qabul qilish tezligi» degan tushuncha kiritiladi. Ya’ni, yugurish tezligi  $v_1$ ; bunda dvigatellardan biri ishlamay qolsa, ko‘tarilishni bexatar davom ettirish ham, to‘xtatish ham mumkin. Uchuvchi bu tezlikni bilsa, muayyan ko‘tarilish sharoitlarida uzil-kesil qarorga kelishi osonlashadi. Dvigatel  $v_1$  dan kichik tezlikda ishlamay qolsa, ko‘tarilishni to‘xtatish haqidagi qarorga kelinadi. Chunki bunday vaziyatda dvigatelning tortish kuchi va tezlik kam bo‘ladi, ko‘tarilishni oxiriga yetkazish uchun yugurish uzunligi va ko‘tarilish distansiyasini ancha ko‘paytirishga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun ko‘tarilishni to‘xtatish qarori HK sini UT ning mavjud o‘lchamlarida xavfsiz to‘xtatishga kifoya qiladi.

Dvigatel  $v_1$  dan katta tezlikda ishlamay qolsa, ishlab turgan dvigatellarning quvvati ko‘tarilishni distansiyaning qolgan qismida davom ettirib, nihoyasiga yetkazishga kifoya qiladi.

**Gruntli UQT sini hisoblash xususiyatlari.** Havo kemasi gruntli yuzada harakatlanganda g‘ildiraklarga tushadigan qarshilik SUQM siga qaraganda sezilarli o‘zgaradi. Bunga gruntning mustahkamligi har xil darajada, ayniqsa, namgarchilik paytida, bo‘lishi sabab bo‘ladi. Gruntda g‘ildirak izlari hosil bo‘lib, gruntning qarshilik koeffitsiyenti ortadi, natijada ko‘tarilish distansiyasini uzaytirishga to‘g‘ri keladi.

Gruntli UQT sining uzunligini aniqlashda gruntning ko‘paygan qarshilagini hisobga olish uchun tuzatish koeffitsiyenti kiritiladi:

$$L_{\text{GUQT}} = L_{\text{SUQM}} k_f,$$

bu yerda:  $L_{\text{SUQM}}$  – SUQT sining 3.4- va 3.7-§ larda berilgan usul bilan hisoblangan uzunligi;  $k_f$  – tuzatish koeffitsiyenti; HK sining gruntda yugurish distansiyasi sun‘iy qoplamacagiga qaraganda necha marta ko‘pligini ko‘rsatadi, u quyidagicha hisoblanadi:

$$k_f = \frac{\frac{P_{ot}}{G} - 0,07}{\frac{T}{G} - 0,77 \frac{g_{as}}{\sigma_m \xi} - 0,44} \quad (3.6)$$

bu yerda:  $g_{as}$  –  $R_k/DB$  – HK si asosiy tayanch g'ildiraklarining solishtirma yuklanganligi;  $R_g$  – asosiy tayanch g'ildirakka tushgan yuklama;  $D, B$  – aviag'ildirak pnevmatik shinasining tashqi diametri va profili eni;  $\sigma$  – gruntning mustahkamlik parametri – g'ildirak yuklamasidan plastik deformatsiya chegarasi;  $m$  – g'ildiraklar grunt yuzasida tebranganda pnevmatikadagi deformatsiyani hisobga oladigan koeffitsiyent; « $\sigma$ » ga qabul qilinadi;  $\xi$  – pnevmatikadagi haqiqiy va normal bosimlar farqini hisobga oladigan koeffitsiyent; « $\sigma$ » ga qarab aniqlanadi. (3.6) formula taxminiy bo'lib, dastlabki hisoblarda ishlatalidi.

Hisoblar ko'rsatishicha, aksariyat HK lari uchun  $K_f$  1,15 dan os-hmaydi, ya'ni grundagi yugurish uzunligi sun'iy qoplamlardagiga qaraganda o'rta hisobda 10% ko'p bo'lar ekan. Shunday qilib,

$$L_{GUQT} = 1,1 L_{SUQT}$$

### 3.4. Uchish-qo'nish tasmasi enini tayinlash

UQT sining zaruriy enini aerodromni loyihalashda hisoblab topish uchun ikki usul qo'llanadi: analitik va hisobiy-statistik. Birinchisida, HK sining UQTsida harakatlanish matematik modelidan foydalilaniladi va turli tasodifiy va qonuniy omillar ta'siri hisobga olinadi. Ikkinchisida, amaldagi uchish-qo'nish jarayonlarida HK sining UQT si o'qidan qancha oqib ketgani haqida ma'lumotlar to'planib, ishlov beriladi.

UQT sining eng kichik enini nazariy asoslab bergan olim F. Y. Spasskiy bo'lgan (1946-y). Uning usuli HK sining ko'tarilishini UQT si chegaralarida tugatish talabi asosida qurilgan. Bunda HK si yugurayotganda UQT si o'qiga nisbatan  $10^\circ$  siljishiga ruxsat berilishi,

shuningdek, HK si yerdan uzilish onidan boshlab ko'tarilishi tugashigacha o'tgan vaqtida shamol ta'sirida surilib ketishi hisobga olinadi. Keyinchalik (1946-y.) o'sha olim UQT si eniga ta'sir etadigan omillarni quyidagicha aniqlab berdi: HK si ko'tarilish jarayonida yugursa ham, qo'ngandan keyingi tezlik so'nishda ham UQT si o'qi bo'y lab yo'nalishini yondan bo'ladigan ta'sirlarga qaramay saqlab qolish xususiyati; qo'nayotganda UQT si o'qiga nisbatan qo'nish aniqligi.

Keyingi tadqiqatlarda aerodromlarni loyihalashda UQT si enini turli rusumdag'i HK lari uchun hisoblashning yangi-yangi talablari ishlab chiqildi.

Havo kemasi yurishni boshlagan dastlabki kezlarda UQT sining o'qiga parallel harakatlanadi. Keyin tasodifiy ta'sirlar tufayli samolyotning bo'ylama o'qi to'satdan, yo'nalishga nisbatan  $4^{\circ}$  burchakka oqib ketadi. Natijada, samolyot qoplama chetiga yonlamasiga surilib ketadi ( $\Delta B_2$ ). Bu surilish shassining oldingi tayanch g'ildiraklari yerga tekkunicha, ya'ni uchuvchi berilgan yo'nalishni tutib turish uchun yangi boshqarish vositasiga ega bo'lmaguncha ortib boradi.

UQT si enini hisoblash uchun quyidagi ifoda hosil qilindi:

$$B_{\text{UQP}} = 2(\Delta B_1 + \Delta B_2 + c) + B_{\text{sh}}$$

bu yerda:  $c$  – SUQT si qoplamasining chetidan asosiy tayanch g'ildiraklarga bo'lган ruxsat etiladigan eng kam masofa,  $m$ ;  $B_{\text{sh}}$  – tashqi pnevmatik g'ildiraklar gabariti bo'yicha shassi o'lchami (izlar oralig'i),  $m$ .

### **3.5. Gruntli uchish-qo'nish tasmasi enini aniqlash xususiyatlari**


Gruntli uchish-qo'nish tasmalarining eni sun'iy UQT larinikiga qaraganda keng bo'ladi, chunki startlar tasmaning eni bo'yicha surilib turadi. Bir vaqtning o'zida chim qoplama ta'mirlanib, tiklanib turiladi;

bundan tashqari quyi toifa aerodromlarda GUQM si asosiy tasma hisoblansa, yuqori toifalarda – zaxira hisoblanadi.


Shu sababdan UQT sining ruxsat etilgan eng kam enini aniqlashda hisoblashning ikki holatiga e'tibor berish kerak. Birinchisi – zaxira GUQT sining enini aniqlash (SUQT sida ta'mir ketayotgan yoki qor tozalanayotgan vaqtarda, avariya yoki qo'ndirishlarda). Ikkinchisi – muntazam uchishlar bo'ladigan GUQT sining enini topish. SUQT si yonidagi zaxira GUQT sining enini aniqlayotganda qishki va yozgi holatlardan qay biriniki katta bo'lsa, o'sha qabul qilinadi. GUQT si enining asosini ko'p olimlar o'rganib chiqishgan, tadbiq etishgan. Shulardan biri GUQT si enini aniqlash uchun quyidagi usul taklif qilgan.

Yozgi ekspluatatsiya uchun (3.6-a rasm):

a)



b)



3.6-rasm. Zaxira GUQT si enini (a) va qishda samolyotlar qo'ndiriladigan gruntli tasmaning enini (b) hisobiyl topish sxemalari.

$$B_{\text{GUQT}} = B'_{\min} + d_{yo} + d_{za},$$

bu yerda:  $B'_{\min}$  – GUQT sining ruxsat etilgan eng kichik eni; bunda tanlangan rusumdagি HK sini xavfsiz qo'ndirish, shuningdek, yoz paytlari samolyotni avariyaviy qo'ndirish ta'minlanishi kerak;  $d_{yo}$  – SUQT sining yon qirrasidan yorug'lik signali uskunalarigacha bo'lgan masofa;  $d_{za}$  – chiroqlardan  $B'_{\min}$  enli grunt tasma chegarasigacha bo'lgan masofa ( $\approx 1$  m qabul qilinadi).

### **3.6. Uchish-qo'nish tasmalari yo'nalishining shamollar rejimiga bog'liqligi**

SUQM sining soni, o'lchamlari va yo'nalishi aeroport hududining o'lchamlari va shakliga bog'liq bo'ladi. Uchish tasmalari quyidagi omillar orqali aniqlanadi:

- HK lari harakati jadalligi; aerodromdagи hukmron shamollar;
- shamol to'siqlarning yuzasi; qo'shni aerodromlardagi UT ning yo'nalishi va joylashuvi;
- yaqin atrofdagi aholi punktlarida bo'ladigan qurilish va rivojlanish istiqbollari;
- joy rele'fi; aerodromlarning qishki ekspluatatsiya xususiyatlari.

SUQT sining soni tashishlarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqadi va HK lari harakatining berilgan jadalligi asosida texnik-iqtisodiy hisoblarga binoan aniqlanadi.


UQT larining dunyoning tomonlariga nisbatan joylashuvi masalasini hal qilayotganda HK larining xavfsiz uchish-qo'nishini, aerodrom hududidagi to'siqlarni, atrof-muhit muhofazasini, aholi punktlarida bo'ladigan shovqinni, aeroport qurilishida tejamkorlikni va shu kabi omillarni hisobga olinadi.

UQT larining yo'nalishi shunday tanlanishi kerakki, HK lari esayotgan shamolga qarshi yo'nalishda ko'tarilsin va qo'nsin

hamda bo'sh havo yo'llari ham qolsin. Biroq bunday joylanish uchishlar sonini cheklab qo'yadi. Shuning uchun shamol yon tomondan qarshi esganda ham bo'laveradi. Yon tomondan qarshi esadigan va yonlama esadigan shamollarning tezligi ruxsat etilgan kritik qiymatdan katta bo'lmasligi kerak. Kritik qiymat esa HK sining rusumi va konstruktiv xususiyatlari orqali aniqlanadi. Shamolning ruxsat etilgan chegaraviy tezligi shunday tezlikki, undan yuqorida HK sining turg'unligi va boshqarilishi keskin yomonlashadi. Bunday tezlik turli HK lari ko'tarilishi va qo'nishi uchun turlicha qiymatga ega bo'ladi. Bu qiymatlar aerodinamik hisoblar va uchish sinovlari orqali topiladi.

Yo'l-yo'lakay va yo'l-yo'lakay yonlama esadigan shamollar uchun ham chekllovlar bor. Masalan, yo'l-yo'lakay shamol deyarli hamma rusumdagagi HK lari uchun 5 m/s. Qarshi esadigan shamol tezligi katta bo'ladi, lekin HK larining turg'unligini tutib turish maqsadida samolyotlarga 25–40 m/s, vertolyotlarga 15–25 m/s qilib cheklangan.

Yo'lma-yo'l yonlama va ro'para-yonlama shamollarning tezligini aniqlash uchun HK si ko'tarilayotgan va qo'nayotgan ondagi uning shamol bilan o'zaro ta'sir sxemasi 3.7-rasmda berilgan.



**3.7-rasm. Ro'para-yonlama ( $\omega_{ar}$ ) va yo'lma-yo'l yonlama ( $\omega_{ay}$ ) shamollar hamda HK si qo'nayotgan va ko'tarilayotgan paytdagi o'zaro ta'siri sxemasi.**

Ro'para-yonlama va yo'lma-yo'l yonlama shamollarning ruxsat etilgan tezligi quyidagi formulalardan topiladi.

$$W_{\alpha x} = W_{\alpha y} = \frac{W_{u,r}}{\sin \alpha} \quad \alpha > \alpha_{ch.r} (\alpha_{ch.u}); \quad (3.7)$$

$$W_{\alpha x} = W_{\alpha y} = \frac{W_{u,r}}{\cos \alpha} \quad \alpha > \alpha_{ch.r} (\alpha_{ch.u}); \quad (3.8)$$

$$\alpha_{tr.v.} = \arcsin \sqrt{\frac{W_{u,r}^2}{W_{b,r}^2 + W_{u,r}^2}};$$

$$\alpha_{tr.p.} = \arcsin \sqrt{\frac{W_{u,r}^2}{W_{y,r}^2 + W_{u,r}^2}};$$

bu yerda:  $\omega_{\alpha x}$  – ro'para-yonlama shamol tezligi,  $\alpha$  burchak ostida ta'sir etadi;  $W_{\alpha y}$  – yo'lma-yo'l yonlama shamol tezligi,  $\alpha$  burchak ostida ta'sir etadi;  $\alpha_{ch.r}$ ,  $\alpha_{ch.u}$  – burchaklar; bunda ro'para-yonlama yoki yo'lma-yo'l yonlama shamollarni aniqlashning chegaraviy sharti  $\alpha$  burchak ostida ta'sir etayotgan shunday shamollarnigng ruxsat etilgan yonlama shamol tezligi;  $W_{y,r}$  – o'sha, yo'lma-yo'l shamol uchun;  $\alpha$  – kesib o'tish burchagi (HK sining o'qi bilan ro'para-yonlama yoki yo'lma-yo'l yonlama shamol yo'nalishi orasidagi burchak).

Uchish bo'yicha qo'llanmalar (UBQ) da berilishicha,  $W_{u,r} = 6-14$  m/s.

(3.7) va (3.8) formulalardan yonlama shamolning ruxsat etilgan chegaraviy qiymati (HK sining harakat o'qiga tik yo'nalgan tashkil etuvchi), turli kesib o'tish burchaklari uchun aniqlanadi va hisobiy darajalari aniqlanadi. Bunda kesib o'tish burchaklari to'g'ri burchakning  $1/4$  va  $1/8$  ulushiga teng olinadi, ya'ni  $45^\circ$ ,  $22,5^\circ$  va  $11,25^\circ$ .

UQT larining rejada optimal joylashuvi shundayki, HK larining uchish-qo'nishi ko'proq shamol bo'ladigan kunlarga to'g'ri kelsin. Ma'lum yo'nalishli UPQ da ehtimoliy uchish-qo'nishlarning, shamollarning hamma yo'nalishlariga nisbatan foizda olingan soni tasmaning «shamol yuklamasi» deyiladi.

## **4-bob. AERODROMLARNING UCHISH-QO'NISH TASMALARI VA AEROPORTLARNING O'TKAZUVCHANLIK QOBILIYATI**

---

### **4.1. Aeroportlarning o'tkazuvchanlik qobiliyatini baholashda tizimli yondashish**

Havo yo'llarida tashishlar muttasil ortib borayotgan, ko'p o'rinci yangi HK lari ekspluatatsiya qilinayotgan va tashish mudatlari qisqarishi zarur bo'lgan sharoitlarda aeroportlarning samarali faoliyati uchun yetaricha o'tkazuvchanlik qobiliyati bo'lishi kerak. «O'tkazish qobiliyati» deganda ma'lum hajmdagi ishni bajarish uchun mayjud texnik imkoniyatlar tushuniladi. Bu imkoniyatlar HK larining soni, vaqt birligi (soat, sutka, yil) ichida tashiladigan yuklar va passajirlar soni bilan o'lchanishi mumkin. Bunda xizmat ko'rsatish va xavfsizlik darajalari talab etiganidek bo'lishi kerak.

Aeroportning o'tkazuvchanlik qobiliyati kelayotgan va ketayotgan passajirlar, yuklar, HK lari oqimini o'zidan o'tkazib turgan elementlari va qismlariga bog'liq. Aeroportning o'tkazuvchanlik qobiliyatini belgilaydigan inshootlardan biri UQT sidir. Qolgan elementlarning o'tkazuvchanligi shunga moslanadi.

Aerodromlarga nisbatan olganda UQT larining nazariy, amaliy va hisobiy o'tkazuvchanlik qobiliyatları ko'rildi.

Nazariy o'tkazuvchanlik qobiliyati, deganda UQT sida, vaqt birligida bajarish mumkin bo'lgan ko'tarilish-qo'nish amallarining eng ko'p soni tushuniladi, albatta, xavfsizlik to'la ta'minlanish sharti bilan. Bu holda uchish va qo'nishlar ketma-ket uzlusiz hamda ruxsat etilgan eng kam vaqt oraliqlarida bajariladi, deb faraz qilinadi.

Amaldagi o'tkazuvchanlik qobiliyati aerodromning haqiqiy o'tkazuvchanligini bildiradi va amaldagi vaqt oraliqlari asosida hisoblab topiladi. Bu vaqt oraliqlari esa turli-tuman tasodifiy omillar ta'sirida UQT laridagi harakatning uzluksizligi va bir tekisda kechishini buzadi, natijada nazariy o'tkazuvchanlikka nisbatan pastroq natija beradi.

HK lari uchish va qo'nish uchun optimal miqdorda navbat kutishi hisobga olingan o'tkazuvchanlik «hisobot» deyiladi.

#### **4.2. UQT larining hisobiyl o'tkazuvchanligini baholash bo'yicha umumiyl qoidalar**

Aerodrom-aeroportning o'tkazuvchanligini ta'minlaydigan asosiy qismidir. O'tkazuvchanlik quyidagi omillarga bog'liq:

- ekspluatatsiyadagi HK larining turi;
- ularning uchish rejimi;
- aerodrom planirovksi va o'lchamlari, uning uzunligi, UQT larining soni va joylashuvi;
- magistral va tutashtiruvchi rullash yo'llarining (RY) darajasi;
- havodagi harakatni boshqarish va qo'ndirish vositalari;
- aeroport hududida ruxsat etilgan shovqin darajasining cheklanishi;
- HK larining ko'tarilish-qo'nish tavsiflari;
- navigatsiya tizimining bort uskunalari imkonlari, metereologik sharoitlar;
- aerodromning joylashuv balandligi va boshqalar.

Bu omillarning hammasi birqalikda HK lari bajaradigan ko'tarilish-qo'nish amallari oraliq'idagi ruxsat etilgan eng kam vaqtini va u orqali UQT sining o'tkazuvchanligini belgilaydi. Bu oraliqlar HK larining uchish tartibiga ham bog'liq; tartib vizual kuzatuv ostida uchish qoidalardan (VKU) yoki asboblar kuzatuvida uchish qoidalari (AKU) dan iborat. Ko'tarilish-qo'nishning oldinma-

keyin amallari orasidagi eng kam vaqt ni aniqlashda quyidagi shartlar hisobga olinishi lozim.

HK si rullashni startga o'tishni kutish joyidan avvalgi HK si yugurishni boshlagan yoki UQT siga qo'ngan onda boshlashi mumkin.

HK si shiddat bilan yurishni UQT si oldingi samolyotlardan bo'shangandan keyingina boshlashi mumkin.

Uchishni asboblarga qarab bajarish oldin ko'tarilgan samolyot tayinlangan balandlikka chiqqandan keyingina amalga oshiriladi.

Asboblarga qarab uchish va uzlusiz radiolokatsiya nazoratida glissada bo'yicha pasayib kelayotgan samolyotlar orasidagi eng kam masofa 5 km dan kam bo'lmasligi kerak; bunday nazorat bo'limgan holda glissada ichida faqat bitta samolyot bo'lishi mumkin. Viziual kuzatuv tartibi bilan uchishda HK lari orasidagi eng kam masofa 2 km bo'lishi kerak.

Ko'tarilgan yoki qo'ngan HK si UQT sini, qo'nishga kirib kelayotgan samolyot ikkinchi davraning xavfsiz balandligiga yetgunicha bo'shatib qo'yishi kerak.

Ketma-ket uchishlar yoki qo'nishlar orasidagi, shuningdek, yakka-yu yagona UQT da bajariladigan uchish va qo'nish orasidagi eng kam vaqt oralig'i 45 sekunddan kam bo'lmasligi kerak.

Uchish yoki qo'nish amallarini bajarishda UQT sinning bandlik davomiyligi uchishning quyidagi qoidalarini hisobga olgan holda toplidi:

– ko'tarilishda UQT sinning bandlik vaqtı HK si kutish joyidan startga chiqishidan boshlab, UQT sinning ko'ndalang yuzasidan (torets) o'tgunicha (VKU qoidasida) yoki ma'lum balandlikka ( $H_{uchish}$ ) ga chiqqunicha (AKU qoidasida) aniqlanadi. Ko'rsatilgan balandlik, doira bo'ylab aylanish tezligi 300 km/soat bo'lganda 200 m qabul qilinadi, tezlik 300 km/soat gacha bo'lsa – 100 m olinadi;

– qo'nishda UQT sining bandlik vaqtি qaror qabul qilish balandligidan o'tgan ondan boshlab, rullash yo'lidan borib, UQT ining yon chegarasiga yetib, keyin yurib ketgunicha aniqlanadi.

Zamonaviy ekspluatatsiya amaliyoti ko'rsatishicha, HK sini bajari-ladigan startga olib chiqish va uning startda turishi, undan oldin uch-gan yoki qo'ngan samolyotning yakuniy harakatlari bilan to'la yoki qisman bir vaqtga to'g'ri kelishi mumkin. Keyingi yillar amaliyotida bajariladigan startda to'xtamasdan uchish usuli qo'llanayapti, bu UQT sini kam band qiladi.

## **5-bob. RULLASH YO'LLARI, PERRONNI VA HAVO KEMALARI TO'XTASH JOYLARINI LOYIHALASH**

---

### **5.1. Rullash yo'llari, perronlar va TJ larini rejalashga bo'lgan umumiyl talablar**

Muhandislik kommunikatsiyalari tizimi (rullash yo'llari, perron, turish joylari) HK larining aerodromdagi funksional-texnologik jayronlarni bajarish samarasini va eng katta o'tkazuvchanlikni ta'minlashida muhim ahamiyatga ega. HK lari rullash yo'llaridan yuradi:

- qo'ngandan so'ng SUQT sidan perronga, turish joylariga va maxsus maydonchalarga o'tadi;
- uchish uchun – teskari yo'nalishdagi jarayon ro'y beradi.

Odatda, RY ining eni bitta HK siga mo'ljallab quriladi, demak, HK lari ro'parama-ro'para yurishi yoki biri ikkinchisini aylanib o'tishi mumkin emas, shuning uchun bunday imkoniyatlarga ega bo'lgan rullash yo'llari tizimi quriladi.

Rullash yo'llari, vazifasiga ko'ra, magistral, tutashtiruvchi va yordamchi turlarga bo'linadi. Magistral rullash yo'llari (MRY), qoidaga ko'ra, SUQT si bo'ylab joylashadi va uning bir boshidan ikkinchisiga qisqa masofa bilan borish imkonini beradi. Tutashtiruvchi RY lari SUQT sini MRY bilan bog'laydi. Tutashuv HK si yurishni to'xtatishi mo'ljallangan joylarda bo'ladi, u yerdagi SUQT ning qolgan qismiga ko'tarilish uchun o'tadi.

Yordamchi RY lari turish joylari va maxsus maydonchalarni MRY lari va perron bilan tutashtirishga xizmat qiladi.

SUQT siga ulanadigan tutashtiruvchi RY ning soni va joylashuvini, qoidaga ko'ra, variantlarni texnik-iqtisodiy taqqoslash yo'lli bilan topiladi. Bunda, qatnov cho'qqisiga chiqqan payt-


da SUQT harakatning berilgan jadalligini va o'tkazuvchanlikni ta'minlashi kerak.

RY lari tizimini loyihalashda quyidagi talablar e'tiborga olinishi zarur:

- HK larini, transport va mexanizatsiya vositalari tez va xavfsiz harakatlanishini ta'minlashi;
- HK larining harakat yo'nalishi to'g'ri chiziqli bo'lishi lozim; yo'l o'zgarganda burilish radiusi berilgan tezlikni pasaytirmaydigan va xavfsiz bo'lishi kerak;
- RY larning burilishlari iloji boricha kam bo'lsin;
- aerodrom elementlari orasida eng qisqa masofalarni ta'minlashi va har bir zonadan eng ko'p foydalanishni ta'minlashi zarur;
- RY ning sun'iy qoplamlari mustahkamlik jihatdan SUQT ning uchlari dagi qoplama singari bo'lishi kerak (A uchastkalar guruhi);
- Tamg'alar va uskunalarini rullash belgilari bilan ta'minlash;
- Quyi toifa aerodromlarda, masalan Ѓ toifa yoki xalq xo'jaligi uchun ishlaydigan aerodromlarda magistral va SUQT ning uchlari da tutashtiruvchi RY ni qurmaslik mumkin. Bunday holda SUQM ning chekka qismlarida xavfsiz burilish uchun qoplama eni kengaytirilib, HK si SUQT ning o'qiga tez moslanib olinishi lozim.

Magistral RY larning tutash joylarida, SUQT ning boshlanishida, uning yon qirrasidan kamida 30–60 m narida startoldi maydonchalari quriladi, HK larini unda to'xtatib, dvigatel ishlashi tekshirib olinadi, shuningdek, bajariladigan startga chiqish uchun kutib turiladi, HK si shatakda bo'lsa, shatakchidan chiqarib olinadi yoki unga olinadi (5.1-rasm).

Perron – aerodromning muhim elementi, uchish maydonining bir qismi; HK lari, passajirlarni o'tkazish va tushirish, bagaj, pochta va yuklarni ortish-tushirish maqsadida joylashtirish va boshqa tur xizmatlarni bajarish uchun mo'ljallangan. Perronlar passajirlar uchun va yuqlar uchun bo'ladi. Aerovokzal va perron orasida ko'pincha aviaperron bo'ladi; u yerda passajirlar to'planadi.



*5. I-rasm. Aeroportda startoldi maydonchalarining joylashish sxemasi:*

- a)* Domodedovo, Otar – Chikago va Deyton (AQSh); *b)* Gatvik – London (Angliya);  
*d)* Dallas (AQSh); Istambul (Turkiya); *e)* Orli va Ruassi (Fransiya);  
*f)* Sxipxol (Gollandiya); *g)* Ruzine (Ruminiya).

Aerodrom kompleksida muhim o'rin tutadigan element turish joylari (TJ) dir; ular perron yoki maxsus maydonchalarning bir qismi hisoblanadi. U yerda HK lari turadi va ularga turli xizmatlar ko'rsatiladi. HK lari yakka-yakka yoki guruh-guruh bo'lib turishi mumkin.

## 5.2. Rullash yo'llari tarmog'ini rejalash

To'g'ri loyihalangan va oqilona joylashtirilgan RY lari HK larining aerodromdagи harakatlarini eng yaxshi tarzda tashkil qilish xavfsizlikni ta'minlagan holda kam vaqt sarflash imkonini beradi.

Havo kemalari rullashdagi eng katta ekspluatatsiya tezligi magistrall va tutashtiruvchi RY larda 8,3–13,8 m/s (30–50 km/soat), yordamchi RY larda – 2,8–13,8 m/s (10–20 km/soat). RY larida burilishlar bo'lsa, havo kemalarining tezligi sezilarli pasayadi. Masalan, 90° burchak ostida 3–4 ta burilish bo'lsa, tezlik 25–30% kamayadi.

HK larining harakat jadalligi oshgan sari, ularning RY lari dagi tezligini ko'paytirish zarur bo'ladi. Biroq xavfsizlik, passajirlar qulayligi degan talablar bu tezlikni cheklab turadi. HK lari SUQT sidan tezkor RY iga o'tishida 22–28 m/s (80–100 km/soat) bo'lishi mumkin.

HK larining harakat jadalligi soatiga 15 ta ko'tarilish-qo'nish amal-lariga teng bo'lganda SUQM sining uchlariga tutashadigan magistral RY va tutashtiruvchi RY quriladi. Jadallik soatiga 25 amal bo'lganda tutashtiruvchi RY, SUQM ga  $90^\circ$  ostida bo'lishi kerak. Jadallik 25 amaldan ortib ketsa, shunday tutashtiruvchi RY ni qurish kerakki, SUQM dan tushib kelayotgan HK lari 22–28 m/s (80–100 km/soat) dan ham ortiq tezlikda harakat qila olsin.

Magistral RY lari odatda SUQT ga parallel yotqiziladi, shunda uning uzunligi minimal bo'ladi.

SUQM da RY da havo kemalari mustaqil harakat qilsa, xavfsizlik shartidan kelib chiqib, bu yo'l bilan tasma oralig'i uzoqroq bo'lishi kerak. Bu shart quyidagi shart bajarilishini talab qiladi:

$$l_{m.p.} = H/\operatorname{tg}\beta = 10H,$$

bu yerda:  $H$  – magistral RY da harakatlanayotgan HK sining balandligi;  $\operatorname{tg}\beta$  – xavfsizlikning yonlama tasmasida xavfsizlik chizig'ining qiyaligi, me'yor bo'yicha  $1 : 10(0,1)$ .

Tezkor tutashtiruvchi RY mavjud bo'lganda uni UQT dan uzoqlashtirish, MRY ga chiqayotganda tezlikni odatdagи  $5,5\text{--}8,3$  m/s ( $20\text{--}30$  km/soat) gacha pasaytirish imkonini berishi kerak. Bunda o'rtacha sekinlashuv  $1 \text{ m/s}^2$  atrofida bo'lishi kerak.

### 5.3. Rullash yo'llarining eni va ular orasidagi masofa


Rullash yo'llari eni rullash xavfsizligi sharoitidan kelib chiqib belgilanadi, bunda HK si yo'ldan tashqariga chiqib ketmasligi va yo'l qoplamasining chetlarini buzmasligi lozim. Bu yo'llarda tezlik shundy bo'lishi kerakki, ko'tarish kuchining yengillatuvchi ta'siri kam bo'lsin. Rullashda harakat yo'nalishi RY ning tamg'ali o'q chizig'iga mo'ljallanadi. Biroq bunday harakatga kuchli shamol, qo-

plamaning notekisliklari, oldingi tayanchni boshqarish ishlaringning xususiyatlari, uchuvchining harakatlari ta'sir etadi va sinusonida egri chizig'iga yaqin traektoriyada kechadi.

Loyihalashda RY eni II. 05.08-85 QMQ ning talablari va aerodrom toifasi asosida qabul qilinadi. Muayyan turdag'i HK si uchun RY ning zaruriy enini belgilashda shundan kelib chiqiladiki, HK si harakatlan ganda g'ildiraklar oldingi izlardan oqib ketadi. Bundan tashqari, qoplama chetini buzmaslik sharti hisobidan bir oz zaxira qoldiriladi. Bu shartdan kelib chiqib (5.2-rasm) RY ning eni quyidagi formuladan topiladi:

$$B_{RY} = B_k + B_a + B_{pn} + 2(C_1 + C_2),$$

bu yerda:  $B_k$  – shassi izlari orasi (koleyasi);  $B_a$  – o'sha, shassi aravachasida;  $B_{pn}$  – pnevmatik shina eni;  $C_1$  – asosiy tayanchdagi tashqi g'ildirakdan RY chetigacha bo'lgan ruxsat etilgan eng kam masofa (qoplama chetlarining mustahkamlik shartidan topiladi);  $C_2$  – rullash jarayonida asosiy tayanch markazining RY ning o'q chizig'idan og'ishining statistika bilan asoslangan hisobot qiymati.



5.2-rasm. RY ning enini aniqlash uchun hisobiy sxema.

Turli yuklamalar qoplama chetining mustahkamligini hisoblab topilgan  $C_1$  va  $C_2$  parametrlarning qiymatlari va HK sini rullashda o'q chizig'idan og'ishlarning (tajriba o'lchamlar) statistik qayta ishlangan qiymatlari 5.1-jadvalda keltirilgan.

5.1.-jadval

HK guruhlari	HK turi	$C_1, m$	$C_2, m$
I	Il-62, Il-86, Il-76	1,7	2,5
II	Tu-154, Tu-134, YaK-42	1,2	2,0
III	YaK-24, YaK-40	0,5	1,5
IV	L-410, An-28	0,5	1,0

HK sini o'z dvigateli kuchi bilan yurgizib rullaganda issiq gaz oqimlari ta'sirida RY ning yonidagi grunt uchastkalar buzilishi oldini olish va dvigatel soplosiga grunt zarralari kirib qolish ehtimolini yo'qotish maqsadida RY ning ikki chetidagi grunt mustahkamlanadi va uning eni quyidagicha aniqlanadi (5.2-rasm):

$$B_{ob} = 0,5 B_{oqim} + 0,33 C_2 - 0,5 B_{RY}$$

bu yerda:  $B_{oqim}$  – rullah rejimida issiq oqim maydonining hisobiy eni; uni nazariy (hisoblab) jihatdan belgilab, tajribada tekshiriladi; qiymati turli xil HK lari uchun turlicha, masalan, Tu-154, Tu-134 uchun 18 m, Il-86 uchun 50 m gacha.

#### 5.4. Aerodromda havo kemalari turish joylari sonini aniqlash

Aerodromning rejaviy yechimlari ko'p jihatdan HK larining turish joylari (TJ) soniga bog'liq. TJ ning zaruriy soni quyidagi omillarga bog'liq: Qatnov ko'p bo'lgan paytda HK larining harakat jadalligi; hisobdagи HK lari soni; kelayotgan va ketayotgan HK lari oqimining tavsifi; muayyan turdagи HKga TJ da xizmat ko'rsatish davomiyligi; qatnov ko'p paytlarda HK lari manevrda bo'lgani sababli hamma TJ lari 100% band bo'lmasligi.


Perronning gabarit o'lchamlarini dalillash uchun hisobiy vaqt ichida harakatdagi HK lari tarkibini aniq bilish kerak. Passajir perroni dagi TJ lari soni HK larining kutilayotgan soniga xizmat ko'rsatish uchun yetarli bo'lishi lozim. Ayniqsa, hamma keng va eng uzun fuzelajli HK lari birinchi navbatda TJ bilan ta'minlanishi kerak.

Keyingi yillarda TJ sonini hisoblab topishda yalpi xizmat nazariyasi (navbatlar nazariyasi) degan matematik usul qo'llanayapti. Bu quyidagi holatlardan kelib chiqadi. Aeroportda HK larining harakati doimo muntazam emas. Shu sababdan perron ham muntazam band bo'lmaydi. HK larining kelib qo'nishi vaqtлari ham tasodifiy omillar ta'sirida o'zgarib turadi, ilgari tuzib qo'yilgan jadval 100% aniq bajarilmaydi. HK larining qo'nish oraliqlari, ularga xizmat ko'rsatish davomiyligi ham tasodifiy omillar ta'sirida o'zgaradi.

### **5.5. Havo kemalarini turish joylariga qo'yish**

Turish joylari (TJ) ning geometrik o'lchamlari quyidagi omillarga bogliq: HK sining gabarit o'lchamlari; ularni TJ ga qo'yish sxemasi; TJ ga kirish va undan chiqish usullari; HK lari binolar, inshootlar va TJ ga qo'yilgan uskunalar oralig'idagi masofa.


Havo kemalari passajir perroni dagi joylarga, odatda, o'z dvigatelining kuchi bilan kirib, chiqishda yo o'z kuchi bilan, yo shatakchi yordamida chiqadi. O'z kuchi ostida rullah, odatda, manevr uchun maydon cheklanishi kam bo'lgandagina mumkin. Og'ir reaktiv HK larini perrondan olib chiqish uchun shatakchi ishlataladi. Aerovokzal binosiga yoki o'tkazish galereyasiga yondashgan TJ dan rulni orqaga, oldinga burib chiqish, odatda,  $180^{\circ}$  gacha burilishni talab qiladi. Shuning uchun hisobdagagi HK sini burish radiusi va o'lchamlari TJ larining o'lchamlariga ta'sir etadigan asosiy omil bo'ladi. TJ dan rullanib chiqishning ikki usuli bor. Bittasi ikkita TJ o'rtasidan to'g'ri chiziq bo'ylab chiqish (5.3-a rasm), ikkinchisi HK burilib o'z TJ iga perependikular turib oladi, keyin rullanib chiqadi (5.3-b rasm). Ikkinchisida zaruviy maydon xiyol kichikroq bo'lsa ham kifoya.



**5.3-rasm. HK larini TJ dan rullab chiqarish: to'g'ri chiziq bo'ylab (a), dastlab burib olib (b).**

Hozirgi vaqtida dunyo amaliyotida HK larini perronlar va TJ lariga qo'yishning quyidagi usullari qo'llaniladi.

**«Tumshug'i oldinda, rullah o'qiga qiya»** (5.4-a rasm). Bunday usulda HK lari TJ ga o'z kuchi bilan kiradi va chiqadi. Dvigatelning quvvati nisbatan kichik bo'lganida rulni orqaga burish mumkin, chunki tezlik kam va HK ning massasi yonilg'i sarfi sababli pasayadi, shovqin va gaz-havo oqimlarining ta'siri kamayadi. HK ni oldinga yurgizganda gaz-havo oqimi binolar tomonga yo'naladi, bunda maxsus himoya to'siqlari o'rnatish kerak bo'ladi.



5.4-rasm. Samolyotlarni joylash usullari.

**«Tumshug‘i ichkarida, rullash o‘qiga qiya»** (5.4-b rasm). Joylashning bu usulida HK sini o‘z kuchi bilan TJ ga olib kiriladi, chiqishda shatakchidan foydalaniladi. Agar yon tomondagi TJ bo‘sh bo‘lsa, HK o‘z kuchi bilan ham chiqishi mumkin.

Shunday qilib, qatnov cho‘qqisiga chiqanda HK larini shatakchi tortib yuradi, boshqa payt o‘z dvigateli kuchi bilan yuradi. Bunday joylash usulida shovqin kam bo‘ladi, chunki HK o‘z kuchi bilan TJ dan chiqayotganda burilmaydi va unga kirayotganda issiq gaz-havo oqimlari binolardan chetga yo‘naladi. HK ning oldingi eshigi aerovokzal binosiga yaqin turadi. HK ni TJ dan shatakchi yordamida orqaga itarib chiqarilganda, sun‘iy qoplama maydoni, oldingi usulga qaraganda kamroq talab qilinadi.

**«Rullash o‘qiga parallel».** Bu usulda kattaroq passajir perroni kerak bo‘ladi; joydan chiqarishda esa yuqori chastotali shovqin va reaktiv gaz-havo oqimi qo‘shni TJ ga qaratiladi. Bu usulda shatakchi kuchidan ham foydalaniлади. HK ni bino fasadiga parallel joylashtirganda oldingi va orqa eshiklarni ko‘chmas trap yordamida galereya bilan ulash mumkin (5.4-d rasm).

**«Ikkita RY o‘rtasiga joylash».** HK larini ikkita parallel RY o‘rtasiga, bortlari bilan yonma-yon joylashtirishda ochiq ko‘p qatorli perron paydo bo‘ladi. TJ ga kirish, chiqish oddiy, biroq passajirlar va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar uchun xavfsizlik talablariga to‘la javob bermaydi, chunki ularning harakat yo‘llari maxsus avtotransport va mexanizatsiya vositalari yo‘li bilan kesishadi (5.4-e rasm).

**«Tumshug‘i bilan ichkariga».** Bu usulda HK TJ ga o‘z kuchi bilan kiradi, chiqishda esa shatakchi tortib, dvigatelni ishga tushiradigan joygacha olib boradi (5.4-f rasm). Bu usul dunyo amaliyotida ko‘p qo‘llaniladi. Usul «Tumshug‘i bilan ichkari, burchak ostida» usuli kabi afzallikka ega, lekin bunda sun‘iy qoplamali maydon kamroq talab etiladi.

«Tumshug‘i bilan ichkariga» (aerovokzalga) va «Tumshug‘i bilan tashqariga» (aerovokzaldan) sxemalarining farqi shundaki, birinchisi ancha qulay, chunki passajirlar eshigi aerovokzalga yaqin turadi. Ikkinchisi shovqin va reaktiv oqim ta’sirini kamaytiradi, chunki HK bu yerda burilayotganda kam massaga ega bo‘ladi va kamroq maydon talab qilinadi (5.4-g rasm).

## **5.6. Passajir perronlarini tanlash**

Bosh yo‘nalishning UQT siga nisbatan perron shunday joylashtiriladi:

- UQT ga nisbatan markaziy zonada yoki startlar tez-tez bo‘lib turadigan siljigan holda (bitta yoki bir-biriga yaqin, parallel ikkita UQT si bo‘lgan aerodromlarda);

- UQT lari orasida (tasmalari bitta yoki bir nechta, lekin bir-biri dan kamida 1 km olis bo'lgan aerodromlarda).

Bitta UQT li aerodromlarda HK ni rullash yo'lini kamaytirish maqsadida perron va TJ ni UQT bo'ylab, uzunasiga joylashtiriladi.

Ekspluatatsiya amaliyotida ko'rinishicha, perronlar va saqlash TJ larini bir-biriga yaqin qurish maqsadga muvofiq. Perron va TJ larni bir-biridan ayricha joylashning qator kamchiligi bor. Bulardan asosiysi – qoplama yuzasidan unumli foydalanilmaydi. Kunduzgi harakat jadalligi katta, perrondagi TJ lar band, saqlash TJ lari esa bekor yotadi. Tungi soatlarda perron bo'shab qoladi va HK lari TJ larda to'planadi. Shu tarzda sutka davomida perron yoki TJ larning qandaydir qismi doim bekor yotadi.

Perronlarni loyihalaganda yoki aerovokzalga yaqin (binosiga tutash), yoki undan uzoqroq joylashtiriladi. Keyingi holatda passajirlar TJ ga maxsus avtotransport bilan tashiladi.

Passajirlarni HK ga o'tkazishni tashkil etishga qarab, perronlar bir pog'onali va ikki pog'onali bo'ladi. Birinchisida passajirlar perron sathida yurib chiqadilar. Ikkinchisida passajirlarning yurib chiqishi va HK ga o'tirishi aerovokzalning ikkinchi qavati sathida yoki teleskopik trapning maxsus inshootida kechadi.

## 5.7. Maxsus maydonchalar

Aeroport yoki aerodromda turli vazifalarni bajaradigan maxsus maydonchalar bo'ladi: aviadvigatellar ishga tushiriladigan; angaroldi; ishlar nihoyasiga yetkaziladigan; og'ishlar bartaraf etiladigan; gazlar yo'qotilib, moylanadigan (aviatsiya kimyoviy apparatlarini ham); perron mexanizatsiyasi va maxsus avtotransport uchun.

Aviadvigatellar ishga tushiriladigan maydonchalar HK ning perrondan startga o'tish yo'lida joylashadi; yonilg'ini tejash maqsadida SUQM ning uchiga yaqin joylashtiriladi; bunda to'siqlarga bo'lgan cheklash, radiotexnika vositalarning barqaror ishlashini ta'minlash,

shovqin va radionavigatsiya tizimining o'ta yuqori chastotali nurlanishiga bo'lgan talablar bajarilishi kerak. Bunday maydonchalar perron yaqinida ham joylanishi mumkin.

Aviadvigatellar ishga tushiriladigan maydonchalarda bir vaqtning o'zida turadigan HK lar soni bir soatda uchib ketadigan HK lari soni orqali aniqlanadi.

HK si angaroldi maydonchada, unga kirishdan oldin to'xtaydi. Bu maydonchalar angar darvozasi tarafida bo'ladi, TJ va ishlar nihoyasiga yetkaziladigan maydonchalar bilan rullash yo'llari vositasida tutashadi.

Ishlar nihoyasiga yetkaziladigan maydonchalarda dvigatelning ishi tekshiriladi, HK ga davriy texnik xizmat ko'rsatilishi oldingi dastlabki va keyingi yakuniy ishlar, nazorat tekshiruv ishlari bajariladi. Bu maydonchadagi TJ lar soni angardagi joylar soniga teng bo'ladi; angar yaqiniga (50 m va undan nari) quriladi va angar maydonchasiga tutashadi yoki u bilan RY vositasida tutashadi.

## **6-bob. AEROPORTLARNI REJALASHNING ASOSIY TAMOYILLARI**

---

### **6.1. Aeroport rejasini loyihalash tamoyillari**

Zamonaviy aeroportning binolari, inshootlari, transport yo'llari, muhandislik kommunikatsiyalari va uskunalari, uchirish va qo'ndirish vositalarini joylashtirish uchun katta yer uchastkasi (400–500 hektar va undan ortiq) kerak. Shuning uchun aeroportni rejalahsh, ya'ni hamma elementlar va inshootlar joylashtirilgan bosh rejasini ishlab chiqish o'ta muhim ish hisoblanadi, transport ishining texnologik jarayonlarini samarali bajarsh shunga bog'liq bo'ladi.

Aeroportni rejalahsh HK larining havodagi harakatlari to'g'risida qabul qilingan sxemalar va tashkiliy tadbirlarga asoslanadi, ya'ni aeroportiyani zonalar bo'yicha rejalahsh hisobga olinadi. Masalan, UT lari ni shahar (aholi punkti) yoki baland to'siqlarga nisbatan mo'ljallash va joylashtirish HK larining qabul qilingan qo'nish va chiqish sxemalaridan kelib chiqadi. O'z navbatida, bu sxemalar, shuningdek, UT ning yo'nalishi shamollar rejimidan kelib chiqadi. UT ni murakkab metereologik sharoitlarda esadigan shamolga qarshi (yoki ozgina og'dirib) mo'ljallab qurish uchishlar xavfsizligi va muntazamligini oshiradi, bunda, albatta UT «ostona»lari bo'sh bo'lishi lozim.

Aeroportni rejalahsh uchish ekspluatatsiya ishlari yuksak darajada qulay texnologiyalarga zamонавиy arxitektura-rejaviy yechimlariga mos bo'lishi kerak.

Aeroportlarning bosh rejasini ishlab chiqishda vertikal rejalahshning tejammligiga ham e'tibor qaratish kerak, ya'ni joy relyefini gruntni qirqib yoki to'ldirib tuzatish, UT, RY, TJ va perronlarning nishablarini, binolar va inshootlar quriladigan maydonlarni me'yorga keltirish. Bir vaqtning o'zida suv qochirish, drenaj va suv bosishdan himoyalash masalalari ham hal qilinadi.

Bosh rejani ishlab chiqishda optimal variantga erishish uchun ma'lum tamoyillarga amal qilinadi. Bu tamoyillar umumiy bo'lib, UT ning joylashuvi va aeroportning barcha hududini rejalashga doir asosiy va hal qiluvchi masalalarni qamrab oladi.

## 6.2. Aeroportlarni rejalashning printsipial sxemalari

Aeroport joylashadigan yerdagi muayyan vaziyat bilan tabiiy iqlim sharoitlar amalda bir xil bo'lmaydi. Shu sababdan loyihalashning hamma holatlariga mos keladigan namunaviy bosh reja ishlab chiqish mumkin emas. Lekin turli toifadagi aeroportlar uchun bosh rejaning taxminiy sxemalari bor. Ularni har bir muayyan holat uchun moslashtirib, aeroportning asosiy vazifasini optimal vaziyatda bajarishni ta'minlaydigan xususiy bosh reja tayyorlanadi.

Bosh rejasini ishlab chiqishda ko'pincha bir tasmali aerodrom shakli tanlanadi. U shamollar yuklamasi katta bo'lganda qatnovlar jadalligi yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Jadallik juda yuqori bo'lsa, bir-biriga parallel, yoki shamol kuchi yetarli bo'lmasa, bir-biriga burchak ostida qurilgan ikki tasmali, yoki ko'p tasmali (bir-biriga parallel yoki b.) aerodrom quriladi.

Bosh rejani ishlab chiqishning asosiy tamoyili loyihalanayotgan aeroport hududini bajaradigan vazifalariga ko'ra zonalarga ajratish hisoblanadi. Bunda uchish tasma (UT) lari asosiy element, rejalashning kompozitsion markazi – aerovokzal, passajirlar perroni va vokzaloldi maydon bo'ladi. Demak, aeroportning rejaviy yechimi UT lari va aerovokzalning joylashuvi bilan bog'liq.


Umumiy holda bosh rejada quyidagilar aniq ko'rsatiladi: HK larining uchishi, qo'nishi, rullash, saqlash va ularga xizmat ko'rsatish vazifalarini bajaradigan aerodrom; passajirlar, yuklar va pochtaga xizmat qiladigan HK lariga texnik xizmat qiladigan va yordamchi binolar va inshootlar joylashgan ma'muriy-texnik hudud (MTH); alohida inshootlar o'rnatilgan uchastkalar.

Aeroportning arxitektura rejasi tarkibi UT ning joylashuvi bilan ham, MTHning qurilish tavsiflari bilan ham aniqланади. Keyingisiga quyidagilar kiradi: alohida binolar va inshootlar, maydonlar va transport yo'llarining shakli; shahar tomondan transport vositalarining kelishi; aeroport yonidagi yerlarning tabiiy sharoitlari.

Har bir toifadagi aeroport qabul qilingan texnologiya bo'yicha normal ishlashini bajara olishi uchun binolar va inshootlar ro'yxati o'z xususiyatiga ega bo'ladi: nomenklaturasi, o'lchamlari, blokirovka darajasi va h.k. Bunday ro'yxat aeroportni texnologik loyihalash me'yorlarida beriladi.

Binolar va inshootlar, aerodrom elementlari va alohida inshootlar orasidagi masofalar QMQ talablari va texnologik loyihalash me'yorlar (TLM) asosida qabul qilinadi.

MTH ning UT ga nisbatan joylashuviga qarab, aeroportni asosiy rejalah sxemasi 4 xil bo'lishi mumkin: frontal, orolchaga o'xshash, ichkari joylashgan va urinma tangensial; UT ning soni bo'yicha – bir tasmali va ko'p tasmali bo'ladi. 6.1-rasmda bir va ko'p tasmali aeroportlarda MTHning namunaviy joylashish sxemalari ko'rsatilgan.



**6.1-rasm. MTH va UT ning o'zaro joylashuvi va aloqadorligi:**

1 – GUQT; 2 – SUQT; 3 – rullash yo'llari; 4 – MTH; 5 – transport yo'lli;  
6–7 – ko'tarilish va qo'nish yo'nalishlari; 8 – TJ.

6.1-rasmda MTH frontal joylashgan, bir tasmali aeroport sxemasi ko'rsatilgan. Bu sxemada har yo'nalish bir xil uchish va qo'nish soniga, rullah yo'li uzunligiga ega deb faraz qilinadi.

Uchish va qo'nish jadalligi vizual uchishlarda soatiga 41 HK dan, asboblarga qarab kuzatishda – 37 dan ortiq bo'lsa, bitta tasma yetarli emas. Bunda ikki tasmali aeroport qabul qilindi, MTH ichkariga joylashtiriladi (6.1-*b*, *d* rasmlar) va urinma shaklda bo'ladi (6.1-*e* rasm). 6.1-*b* rasmdagi sxema, shamol rejimi ikkala yo'nalishda bo'lsa ham uchishlar amalga oshirilaveradi deb faraz qiladi. Bunda rullah yo'li 6.1-*a* rasmdagi kabi bo'ladi.

Agar bitta UT faqat qo'nishga, ikkinchisi – faqat ko'tarilishga xizmat qilishi zarur bo'lsa, 6.1-*d*, *e* sxemalari bo'yicha bosh reja tuziladi. Bunday rejalahning, ayniqsa. 6.1-*e* ning asosiy afzalligi shundaki, ko'tarilishda ham, qo'nishda ham rullah yo'li kam bo'ladi. Kamchiligi ham bor: zarurat tug'ilganda ko'tarilish va qo'nishni qarama-qarshi yo'nalishlarda bajarishga to'g'ri keladi. Ya'ni uchish SUQM ning perrondan olisdagi uchidan, qo'nish – eng yaqin uchidan bo'ladi. Bu holatlarda RY sezilarli ortadi.

Aeroportlarda birvarakayiga 4 ta parallel tasmalar qurish zarurati tug'ilib qolishi mumkin. Bunda MTH ichkariga joylashtiriladi. Shunda ikkita tasma uchishga xizmat qilsa, qolgan ikkitasi qo'nishga xizmat qiladi (6.1-*f* rasm). Bu, HK ni rullahsga halaqtarni yo'qotadi. Biroq shuni ham hisobga olish kerakki, MTH ga yaqin uchish tasmasi chetdagiga qaraganda ko'p ishlataladi, chunki shunda rullah yo'li qisqaradi, boshqa tasmani kesib o'tish bo'lmaydi.

Ba'zi aeroportlarda shamolning yo'nalishi barqaror bo'lsa ham, ba'zan o'zgartirib turadi. Shuning uchun yilning hamma davrida uchishlar jadalligini va xavfsizligini ta'minlash maqsadida asosiy tasmalarga perpendikular o'tgan qo'shimcha tasma ham qurish zarur bo'ladi (6.1-*g* rasm). Bunda MTH ichkariga yoki yarimorol shaklida joylashtiriladi.

Turli yo'nalishda joylashgan ikkita UT bo'lishini talab qiladigan shamol rejimida (6.1-*h* rasm) MTH ichkari quriladi. Shunda kuchsiz

shamol bo‘lganda ikkala tasmadan uchish va qo‘nish uchun foydalinish mumkin.

MTH ni orol ko‘rinishida joylaganda, u uchish maydonining o‘rtasida bo‘ladi va rejalashning yadrosi bo‘lib turadi (6.1-i rasm). Uning atrofida UT va RY o‘tadi.

Ko‘p tasmali aeroportlarni urinma shaklda rejalash ancha progressiv. Shamol yo‘li turli yo‘nalishlarda UT lari qurishni taqazo etadi (6.1-j rasm). Bu sxemada HK larning ko‘tarilishi hamma vaqt MTH tomonidan boshlanadi, qo‘nishi – MTH tomonga bajariladi. Shunda HK ni rullashga va magistral RY qurishga zarurat bo‘lmaydi.

## **7-bob. AEROPORT MA'MURIY-TEXNIK HUDDUDINING BOSH REJASI**

---

### **7.1. Aeroportning MTH ni zonalash va bino inshootlarini guruhalash tamoyillari**

MTH ning bosh rejasini loyihalash alohida binolar va inshootlarni, ma'lum belgilariga ko'ra, guruhlarga birlashtirishdan boshlanadi. Keyin yer uchastkasi guruhlar o'rtasida taqsimlanadi, ya'ni zonalashtiriladi.

Zonalash (tirish) – aeroport bosh rejasini tuzishning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, uning quyidagicha turlari mavjud: ishlab chiqarishga munosabati (funksional yoki texnologik), zararlilik (sanitariya) darajasi, yong'in va portlash xavfili, transport vazifalari. Bularning bari tekislik bo'yicha gorizontal zonalashga kira-di. Vertikal zonalash (asosan, qavatlar soni, blokirovka qilish hisobiiga) va hammasidan qurama zonalash ham bo'ladi.

Ishlab chiqarish yoki funksional zonalash binolar va inshootlarni ishlab chiqarish (texnologik) jarayonlarning yagonaligi tamoyili asosida guruhlashtirishni ko'zda tutadi. Bunda sanitariya va yong'inga qarshi talablar ham hisobga olinadi. Qator hollarda, loyihalanadigan obyektlar soni ko'paysa, zonalash ham murakkablashadi. Bunday holda yirik zona ichida qo'shimcha guruhlar ajratiladi.

Zararlilik (sanitariya) darajasi bo'yicha guruhlashda hududdan aeroport atrofidagi aholi punktlariga yetkaziladigan zararlarning soni, sifati va tavsiflari, shuningdek, MTH dagi bir obyektning boshqa obyektga ta'sirlari hisobga olinadi.

Aeroportning atrofga ko'p zararlar yetkazadigan bino va inshootlari turar joylardan, passajirlar binosidan olisroqda, shamol yo'naliishlari, joy relyefi va boshqa omillarni hisobga olgan holda qurilishi kerak. Zarur bo'lganda himoyalovchi sanitariya zonasini quriladi.

Yong'in va portlash xavfi bo'yicha zonalash o'tga chidamsiz materiallar, YMM va zaharli moddalar omborlarini shunday joylash kerakki, shamol ulardan chiqadigan zararli moddalarni passajir binolari va MTH ning ba'zi binolaridan boshqa tomonlarga uchirib ketsin va iloji boricha relfning (YMM ombori) quyi sathidan o'tsin. Shuningdek, bino va inshootlar oralig'idagi masofalar me'yorlariga to'g'ri kelsin.


Transport bo'yicha zonalash xizmat ko'rsatayotgan transportning bir xilligi tamoyili asosida, yuk oborotini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Funksional zonalash MTH ning bosh rejasini oqilona hal qilishda an'anaviy loyihalash usullarini qo'llaganda ham, zamnaviy matematik usullar va kompyuterlarni qo'llaganda ham zarur. Bunaqa zonalash MTH ning o'zi, strukturasi, aloqalari va xususiyatlari haqida yaxlit tasavvur olish imkonini beradi, loyiha yechimlarining tejamkorligini oshirish, tashish texnologiyalarini takomillashtirish imkonini beradi.

MTH ning bino va inshootlarini funksional zonalashda quyi-dagi zonalarni ajratib ko'rsatish mumkin: ma'muriy-jamoa, ishlab chiqarish va yordamchi. Bular 7.1-rasmda bat afsil ko'rsatilgan.

Ma'muriy-jamoa zonaga aeroport boshqaruvin binosi, axborot hisoblash markazi, profilaktoriy, o'quv-texnik blok, tibsanzism, xodimlar oshxonasi, sport inshootlari, aeroport xodimlarining shaxsiy avtomobilлari uchun turish joyi va boshqa obyektlar kiradi. Bu zonaning binolari va inshootlari aeroportga kirib keladigan avtomobil yo'li yaqnida MTH ga kirish joyidan to'planadi; ular aeroportning boshqa obyektlari bilan transport va piyoda orqali yaxshi bog'langan bo'lishi kerak. Sanitariya nuqtai nazaridan va odamlar bilan yuklar oqimi iloji boricha kamroq kesishib o'tishi shartidan kelib chiqib, MTH ga kirish joyi YoMM ombori, yuk omborlari va aviatexnik bromlar omborlariga olib boradigan yo'llar bilan kesishmasligi lozim.

Ishlab chiqarish zonasiga passajirlar, bagaj, yuklar, pochta va HK lari oqimiga xizmat ko'rsatish, aviatsiya yonilg'isini qabul qilish, saqlash va tarqatish bilan bog'liq binolar va inshootlar kiradi. Ularning



**7.1-rasm. Ma'muriy-texnik hududni zonalash:**

1 – ishlab chiqarish zonasasi; 2 – yordamchi zona; 3 – ma'muriy-jamoja zona.

boshqalardan ajralib turadigan xususiyati shuki, aerodrom bilan funksional aloqador. Shuning uchun passajir va yuk komplekslari passajirlar va yuk perronlariga, aviatsiya-texnika bazasining bino va inshootlari – HK larini saqlash TJ lariga yaqin joylashtiriladi.

Aytilgan oqimlarga xizmat ko'rsatish texnologik jarayonlari turlituman bo'lishini hisobga olib, bino va inshootlarni yanada maydarоq guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq.

Ishlab chiqarish zonasining bino va inshootlariga quyidagilar kiradi:

- HHB, radionavigatsiya qo'ndirish obyektlari (DBP) start dispatcherlik va meteokuzatuv punkti (SDP), uzoqdagi va yaqindagi radiomarkerli radiostantsiya (URMR va YRMR), kurs radiomayog'i (KRM), glissada radiomayog'i (GRM), antennalar maydoni, passajirlarga xizmat qiladigan binolar va inshootlar (aerovokzal, mehmonxona, passajirlar va bagaj paviloni, bortda oziqlantirish sexi, vokzaloldi maydon va h.k);

- yuklar va pochta tashishi binolari va inshootlari (ombor, hovli, yuk aerovokzali, radioaktiv va maxsus yuklar, portlovchi moddalar omborlari, maxsus pochta tashuvlari va b.);
- texnik xizmat ko'rsatadigan binolar va inshootlar (angarlar korpusi, bosh mexanik sexining korpusi, issiq va zararli ishlab chiqarish sexi, texnik brigadalar binosi, maxsus avtotransport maydonchasi va b.);
- aviajonilg'i bilan ta'minlovchi obyektlar (YoMM ni sarflash omborlari, markaziy quyish stansiyasi, avtomobilarga yonilg'i quyish stansiyalari).

Bino va inshootlarni bunday guruahlarga ajratish MTH ning bosh rejasini oqilona ishlab chiqarish imkonini beradi, ayni paytda sanitariya, texnologik va yong'inga qarshi talablar hisobga olinadi.

## 8-bob. AEROPORTLARNING ATROF-MUHITINI MUHOFAZA QILISH

---

### **8.1. Atrof-muhitni muhofazalash bo'yicha umumiy talablar**

Atrof-muhitni muhofazalash odamlar va kelajak avlod manfaatlari yo'lida tabiiy muhitni asrashga yo'naltirilgan tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi. Loyihalanayotgan aeroport atrofidagi muhitni asrash mahalliy tabiiy sharoitlarni saqlash yoki nazorat ostida o'zgartirishga qaratilgan qator tadbirlarni bajarishdan iborat. Fuqaro aviatsiyasining faoliyati atmosferani, tuproq va suv havzalarini ifloslantirish bilan atrof-muhitga salbiy ta'sir qiladi. HK larini, yerusti inshootlarini va aeroportning texnik sistemalarini ekspluatatsiya qilganda atrof-muhitga eng ko'p salbiy ta'sir etadigan omillar quyidagilar: aviatsiya shovqini, tovush to'lqinlari (tovushdan tez HK lari uchganda), dvigatellardan chiqadigan zararli moddalar, radiotexnik vositalarning elektrnomagnit nurlanishi, aeroport hududidan chiqadigan ifloslangan oqavalar.

Aeroport qurilishi hamma vaqt atrof-muhitni muvozanatdan chiqaradi. Hududni qurilishga tayyorlash: daraxtlar, butalar kesiladi, botqoq quritiladi, natijada suv o'tkazmaydigan sun'iy qoplamlar yerosti suvlar sathini va yer yuzasidagi suvlarning oqib ketish rejimini buzadi. Shu sabablarga ko'ra, tabiatni asrash tadbirlari shovqinlardan, yuqori chastotali nurlanishlar ta'siridan himoyalashga, atmosfera va atrof yerlar ifloslanishi oldini olishga, tuproq eroziyasiga, ayrim uchastkalarni suv bosishiga yo'l qo'ymaslikka aeroport atrofidagi flora va faunani saqlashga qaratiladi.

Grunt abadiy muzlagan hududlarda joylashadigan aerodromlarni loyihalayotganda termokarst, termoeroziya, ko'pchish, muzdan yori-

lish, muz qoplash va aerodromni qurish va ekspluatatsiya qilish bo'yicha kriogen jarayonlarga yo'l qo'ymaydigan tadbirlar ko'zda tutiladi.

Aeroportlarni loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilishda atrof-muhitni asrash muammolarini hal qilish uchun bir vaqtning o'zida turli omillar ta'sirini hisobga olish, sarflar va yo'qotishlarni, kamchilik va afzalliklarni aniqlash kerak.

## **8.2. Aviatsiya shovqinlari darajasini baholash va me'yorlash**

Havo yo'llarida tashishlar jadalligi HK larining massasi o'sib borayotganligi, reaktiv passajir samolyotlarning dvigateli hosil qiladigan shovqinlarni pasaytirish muammosini yuzaga chiqaradi. Bunday shovqinlar aeroport yaqinidagi aholi va aerodrom xodimlari sog'lig'iga yomon ta'sir qiladi. Shuning uchun aeroportlarni loyihalashda bino va inshootlarning tejamkorligi qanchalik muhim bo'lsa, shovqinni pasaytirish ham shunchalik ahamiyatga ega.

**Shovqin darajasi.** Shovqin kuchi, tovush to'lqinlari I s ichida to'lqin yo'nalishiga perpendikular bo'lgan I sm<sup>2</sup> yuzadan olib o'tadigan quvvat bilan o'chanadi. Shovqin kuchi I tovush to'lqinlari hosil qiladigan atmosfera bosimidan quyidagicha o'zaro bog'langan:

$$I = P_{\text{to}} / \rho a,$$

bu yerda:  $\rho$  – muhit zichligi;  $a$  – shu muhitda tovush tezligi.

Bitta chastota tovushning kuch darajasi –  $L$  detsibel (dB) bilan o'chanadi va quyidagicha ifodalanadi:

$$L = 10 \lg(I/I_0),$$

bu yerda:  $I_0$  – eshitilish chegarasida ( $L=0$  da) tovush kuchi.

Reaktiv dvigatellardan chiqadigan shovqinlar – havoning palapartish tebranishlari bo'lib, turli jadallik va chastota (tezlik) bilan tebranadigan tovushlardan iborat. Odam shovqinni qabul qilishi individual bo'ladi va har doim ham aniq akustik ko'rsatkichlar bilan

tavsiflab bo'lavermaydi. Shuning uchun qabul qilinadigan shovqinni aniq baholash maqsadida *RN* (inglizcha «qabul qilinadigan shovqin») so'zlaridan olingen birligi kiritilgan; dB bilan o'lchanadi.

Turboreaktiv dvigatel shovqinning umumiy darajasini maxsus jadvallar asosida *PN* birligiga o'tkaziladi. Biroq bunda, shovqin bir xil qabul qilinish sharti bo'lganligiga qaramay, shovqinning davomiyligi odamning asabini buzishi hisobga olinmaydi. Bundan tashqari shovqin spektridagi diskret tonlar ham hisobga olinmaydi; ular ham odamning asabini buzadi. Bu omillarni hisobga olish uchun «*EPN*» («samarali *PN*» degani) birligi qabul qilingan.

**Shovqinning ruxsat etilgan me'yorlari.** Odam qulog'i qabul qiladigan shovqinlar diapazoni juda katta:  $L=(0 \div 140)$  *EPN* dB. Bu shovqin jadalligi  $10^{14}$  marta o'zgarishiga to'g'ri keladi. Qabul qiladigan chastotalar  $f=40 \div 11000$  Hz bilan cheklanadi. Hamma shovqin ham odamni charchatavermaydi, 80 *EPN* dB dan yuqori darjasini charchatadi. Ayniqsa, chastotasi  $f=2000 \div 5000$  Hz bo'lgan  $L>110$  *EPN* dB diapazonli shovqinlar odamga qattiq ta'sir qiladi. Zamonaviy reaktiv dvigatellardan chiqadigan shovqinlarning chastota diapazoni  $f=50 \div 10000$  Hz bo'ladi.

Aviatsiya shovqining ruxsat etilgan darajasi QMQ 17228-87da ko'rsatilgan. Shunga o'xshash me'yorlar AQSh, Angliya va qator boshqa mamlakatlarda qabul qilingan. Qabul qilingan me'yorlardagi ruxsat etilgan shovqin darajasi HK sining ko'tarilishi massasi orqali ifodalanadi (chunki passajir samolyotlarning yuk ko'tarishga tayyorligi taxminan bunday):


ko'tarilganda va qo'nishga kirganda:

$$L=6,6 \lg m_0 + 91,6 \text{ EPN дБ}$$

balandlikka erishganda:

$$L=16,6 \lg m_0 + 65,8 \text{ EPN дБ},$$

bu yerda:  $m_0$  – HK ning ko'tarilish massasi, *t*.



**8.1-rasm. Shovqinning ruxsat etilgan darajasi me'yorlanadi va ayrim samolyotlar shovqining amaldagi darajasi:**

I – uchganda va qo'nishga kirganda; II – tepaga ko'tarilayotganda; III – aerodinamik shovqin; a – qanotlar mexanizatsiyasi va shassi chiqarilgan; b – uchayotganda;  
 1 – DC-9-30; 2 – «Boing-707» – 100; 3 – A-300B; 4 – «Boing-707»; 5 – «Konkord»;  
 6 – DC-2-10; 7 – «Boing-747».

HK ning ko'tarilish massasi ham bo'lsa, shovqin bo'yicha talablar qat'iylashadi. Bu kichik samolyotlar tez-tez uchishi bilan izohlanadi. Ko'tarilish massasi 37,5 t, shuningdek 350 t dan ortiq bo'lganda shovqinning ruxsat etilgan darajasi doimiy qabul qilinadi (8.1-rasm).

Shuni ta'kidlash lozimki, osmondag'i reaktiv samolyotning shovqini 10 EPN dB ga pasaysa, yerdagi kuzatuvchiga 50% kamaygandek tus oladi. Amaldagi me'yorlarga muvofiq Rossiya va IKAO a'zolari bo'lgan mamlakatlarda HK ni sertifikatlash uchun shovqinni EPN dB bilan o'lchash shart. PN dB dan EPN dB ga o'tkazish maxsus hisoblar bilan bajariladi.

### **8.3. Aeroport atrofidagi aviatsiya shovqinini baholash usullari**

Aeroport yaqinidagi vaziyatni baholashda bir nechta usuldan foydalaniladi; ular bir-biridan dastlabki ma'lumotlari va ularni umumlashtirish darajasi bilan farq qiladi. Usullarni quyidagi 4 guruhga ajratish mumkin:

1) ma'lum traektoriyalardan va har bir traektoriyasi ustidagi har bir rusum HK dan (bu HK lari ko'rileyotgan aeroportda ekspluatatsiya qilinayotganda) chiqadigan shovqin darajasiga qarab;

2) shovqinlar bo'yicha guruhiqa qarab umumlashtirilgan namunaviy traektoriyalar va baholanishlarga qarab;

3) turli guruh HK lari uchun shovqinning namunaviy umumlashtirilgan konturlariga qarab; bunda traektoriyalar bo'yicha ma'lumot talab etilmaydi, bir guruh HK dan boshqasiga o'tishda shovqin konturining raqami o'zgaradi;

4) yuzalarga qarab; berilgan HK ning shovqin konturi yuzasi bo'yicha qurilishlarni cheklash zonasining chiziqli o'lchamlarini aniqlash mumkin (umumlashmalar shunga imkon beradi).

Aeroport atrofidagi akustik vaziyatni baholash uchun quyidagilar zarur:

- joyning berilgan nuqtasida shovqinning ekvivalent va eng katta darajasini aniqlab, tanlangan uchastkaning qurilish uchun yaroqliligini bilish, shovqinning zararli ta'sirini pasaytirish darajasini belgilash;
- yangi aeroportni, uning atrofida turar joy binolarini joylashtirish masalasini hal qilishda, shuningdek aviatsiya ta'sirini aniqlashda, aeroport atrofidagi chegaralar zonasini aniqlash.

Bu masalalarni hal qilishda quyidagi dastlabki ma'lumotlardan foydalaniladi:

- aeroport bosh rejasini va atrofining sxemasi, unda HK sining ko'tarilish va qo'nishga kirish trassalari ko'rsatilgan bo'lishi lozim;
- sutkalik qatnov jadalligi eng ko'p bo'lganda har bir tur HK si bo'yicha ko'tarilishlar va qo'nishlar soni;
- bu ma'lumot har qaysi trassa bo'yicha, kunduzgi va tungi uchishlarga oid bo'lishi va aeroportning kelajakda rivojlanishini ham hisobga olgan bo'lishi kerak.

#### **8.4. Shovqindan himoya qilish bo'yicha muhandislik-qurilish va ekspluatatsiya tadbirlari**

Shovqindan himoya qilish bo'yicha maxsus tadbirlar va obodonlashtirishlar qilinmasa, ma'muriy-texnik binolarning katta qismi me'yordan ortiq aviatsiya shovqiniga duchor bo'ladi. Masalan, HK sutka ichida 175 marta ko'tarilganda, dvigatellarni ishlatib ko'rishda chiqqan tovushlarning ekvivalent darajasi HK si SUQT dan ko'tarilganda 93 dBA va 102 dBA ga yetadi. TJ an'anaviy joylashgan bo'lsa, dvigatelni ishga tushirganda MTH 85 dBA shovqinli zona ichida qoladi.

Aviatsiya shovqinlari bilan kurash usullarini 3 guruhga ajratish mumkin:

1) tashkiliy-texnik tadbirlar; bunga HK larini shatakka olish, dvigatelni ishga tushirib tekshiradigan maydonchalarini aeroportning MTH dan, aholi punktidan iloji boricha uzoqroqda tanlash, tabiiy to'siqlardan (joy relyefi, o'simliklar va b.) foydalanishlar kiradi;

2) muhandislik-texnik tadbirlar: bunga HK dvigateliga shovqinni so'ndiradigan soplo kiygazish, maxsus ko'chma yoki statsionar shovqin so'ndirgichlardan foydalanish, to'suvchi inshootlar va shovqin so'ndiradigan angarlar qurish kabilalar kiradi;

3) uchish va qo'nishdagagi shovqinlarni pasaytirishning ekspluatatsion yo'llari, bunga uchishning maxsus usullari, shovqin jihatdan beozorroq UQT ni tanlash, uchish yo'nalishini tanlash kabilalar kiradi.

Muhandislik texnik tadbirlar tovushni to'sish va so'ndirish samarasidan foydalanishga qaratiladi. Tovushni to'sish, asosan, yopiq maydonlar (angar)da va ochiq maydonlarda qo'llaniladi (qaytaruvchi va yutuvchi to'siqlar qo'yiladi). Tovushni so'ndiruvchi sistemalar dvigatelning gaz-havo oqimlariga ta'sir qiladi (oqimni bo'lib yuborish, tezligini kamaytirish) yoki tovush quvvatini turli qoplamlalar yordamida yutadi. Bular asosan bino ichida qo'llaniladi.

**Aeroport atrofida shovqin tufayli qurilishlarni cheklash.**  $L_{A_{EKV}}$  va  $L_A$  ko'rsatkichlarining qiymatlariga qarab aeroport atrofidagi

hududlarning shovqin tufayli qurilishga yaroqliligini ko'rsatadigan 4 ta zona belgilangan (8.1-jadval).

8.1-jadval

Sutka vaqtлari	Zonalardagi shovqinning ruxsat etilgan darajalari, dBA,			
	A	Б	В	Г
Kun	$L_{AEKV} \leq 60$ , uchishlarda $L_{AEKV} \leq 55$ dvigatelni tekshirganda $L_A \leq 80$	$61 \leq L_{AEKV} \leq 65$ $81 \leq L_A \leq 85$	$61 \leq L_{AEKV} \leq 65$ $81 \leq L_A \leq 85$	$L_{AEKV} > 65$ $L_A > 85$
Tun	$L_{AEKV} \leq 50$ , uchishlarda $L_{AEKV} \leq 45$ dvigatelni tekshirganda $L_A \leq 70$	$51 \leq L_{AEKV} \leq 55$ $71 \leq L_A \leq 75$	$51 \leq L_{AEKV} \leq 55$ $76 \leq L_A \leq 80$	$L_{AEKV} > 60$ $L_A > 80$

A zonasida aviatsiya shovqini sanitariya me'yorlariga va turar joylar quriladigan hududlar uchun QMQ II – 12.77 ning talablariga mos keladi. Bu zonada shovqin sharoitlari bo'yicha har qanday turar joy va jamoa binolari qurilishi mumkin (kasalxona va poliklinikadan tashqari).

Б zonasida aviatsiya shovqinlari darajasi QMQ 22283-88 ning talablariga mos keladi. Bunda binolarning tashqi to'siqlarini kuchaytirilgan holda to'sib qurish ruxsat etiladi.

В zonasida aviatsiya shovqinlari kunduz kuni QMQ 22283-88 talablariga mos, tunda – shu QMQda belgilanganidan 5 dBA ortiq bo'lishi mumkin. Imorat ichini tovushdan to'sish talablari saqlanib qoladi.

Г zonada shovqin tufayli turar joy va jamoa binolarini qurish ta'qiqlanadi.

Tovushni so'ndiradigan va undan himoya qiladigan to'siqlar. Bunday uskunalar murakkab va qimmatbaho qurilish va texnik konstruksiyalardan iborat. Ularga shovqin to'suvchi tizimlar (shovqin so'ndiradigan angar-boks, ko'chma va statsionar to'siqlar) yoki tovushni yutadigan gaz oqimlari (ko'chma va statsionar so'ndirgichlar) kira-di. Angar va statsionar yoki ko'chma so'ndirgichdan iborat kompleks 40–45 dBA tovushni so'ndiradi.

Ko‘chma so‘ndirgich va ekrandan iborat kompleks kichkina, qulay, dvigatel soplosiga nisbatan oson o‘rnatish mumkin, shovqinni 20 dBA gacha pasaytiradi. Reaktiv dvigatellarning shovqinni so‘ndirish va pasaytirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi: gaz-havo oqimi tezligini kamaytirish; dvigateldan chiqayotgan gaz-havo oqimini bir nechta bo‘laklarga ajratib tashlash; reaktiv oqimga dvigatel soplosi yaqinidan turib yonlamasiga oqim yuborish (bosqlang‘ich uchastkani qisqartiradi, akustik quvvatni qirqadi); oqimning aralashish zonasini tovush yutadigan ekran bilan to‘sish; aralashish zonasiga tezlatkichlar: to‘r, ilma-teshik silindr, konuslar, labirint konstruksiyalar o‘rnatish.

### **8.5. Elektromagnit nurlanish bilan kurashish**

Aerodrom hududiga radiolokatsiya stantsiyasi va boshqa radiotexnik vositalar o‘rnatganda xodimlar, passajirlar, mahalliy aholini o‘ta yuqori chastotali elektromagnit nurlanishdan himoyalashni ko‘zda tutish kerak. Bunday maqsadda radiotexnik vositalar bilan hudud chegarasida sanitariya himoya zonasi hosil qilinadi. Bu zonaning o‘lchamlarini radiotexnika obyektining vazifasi, ishchi chastotasi, peredatchiklar soni va quvvati, antennalar turi va yerdan balandligi, joy relyesiga qarab hisoblab topiladi.

Hududdan oqilona foydalanish va unda turli obyektlarni joylash-tirish uchun sanitariya himoya zonasi ikkita «kichik zona» ga ajratiladi: «kuchaytirilgan rejimli» va «cheklovchi».

Birinchisiga radioobyektning texnik hududi kiradi. Agar bu «kichik zona» texnik hududdan katta bo‘lsa, uning tarkibiga qo‘srimcha tarzda yon-atrof hududlar ham kiradi va uning chegaralari hisoblab topiladi. Bu kichik zonaning tashqi chegarasida elektromagnit energiya darajasi ishlab chiqarish uchun ruxsat etilgan chegaraviy darajadan oshmasligi kerak. «Cheklovchi» kichik zona «kuchaytirilgan rejimli» kichik zonaga tutashgan hududdan iborat. Uning ichki chegarasidagi elektromagnit energiya darajasi ishlab chiqarish uchun ruxsat etilgan chegaraviy darajadan, tashqi chegarasidagi esa – aholi punktlari uchun ruxsat etilgan chegaradan oshmasligi kerak.

Ayrim hollarda chegaraviy kichik zona ichida ilgaridan mavjud turar joy binolarini qoldirish mumkin, lekin bunda imorat ichida nurlanish darajasini ruxsat etilganidan kam kamaytiradigan choralar ni ko'rish kerak.

## **8.6. Atrof yerlarni yer yuzida oqadigan suvlar bilan ifloslanishdan saqlash**

Aeroport hududi yuzalaridagi oqavalarni chiqarish shartlari va tozalash darajasi suvdan foydalanish va uni muhofazalash organlari tomonidan aniqlanadi. Bunda quyidagi mahalliy omillar e'tiborga olinadi: suv havzalarining joylashuvi va tavsifi: aerodrom yaqinida ifloslantiradigan boshqa ishlab chiqarishlar va manbalarning mavjudligi. Har bir muayyan sharoitda yerusti oqavalarni tozalash usuli va darajasi tegishli qoida asosida belgilanadi (yerusti suvlarni oqava suvlardan muhofaza qilish qoidalari).

Yerusti oqavalarning asosiy manbayi HK ga texnik xizmat ko'rsatish uchastkasi, aerodrom texnikasi va transport vositalari serqatnov uchastkalar hisoblanadi. Serqatnov uchastkalarga aviatsiya texnika bazasi (ATB), angaroldi va ishni nihoyasiga yetkazish maydonchalari, HK ni yuvish va muzlashga qarshi ishlov beradigan maydonchalar, maxsus avtobaza, YMM omborlari, perron, vokzaloldi maydon kiradi.

Aerodromning oqava suv drenaj tizimida bir nechta «tashlama» bo'ladi. Qaysi «tashlama»da oqava suvlari manbayi ko'p bo'lsa, ana shularni birinchi navbatda tozalash va zararsizlantirish inshootlari bilan jihozlash kerak. A, B va B toifa aerodromlarda mahalliy sharoitga qarab oqava suv – drenaj tarmog'i quriladi; yerusti oqavalari suv havzalariga tushishidan oldin zararsizlantirilishi kerak.

Aerodrom xududidan chiqadigan ifloslantiruvchilar asosan yomg'ir suvi bilan chiqadi. Yomg'ir oqavalari davriy bo'lgani, ularning tozalash inshootlаридаги miqdori va tarkibi keskin o'zgarib turishi sababli ularни yig'адиган katta hajm (idish yoki hovuz) o'rnatish kerak. Shunda ulardagi neft mahsulotlari aralashmasini ajratib olish mumkin.

## **9-bob. AERODROMLARNI VERTIKAL REJALASHGA QO'YILADIGAN TALABALAR**

---

### **9.1. Vertikal rejalashni loyihalash haqida umumiyl tushunchalar**

Yer yuzasida cho'qqilar (tizmalar-suvbo'lgichlar), tepaliklar, jarliklar (taloveglar), o'rkachlar, chuqurliklar bo'lsa, HK lari uchishi va qo'nishiga yaramaydi, shuning uchun relyefni tuzatish talab etiladi. HK lari uchun qulay va xavfsiz uchish-qo'nish imkonini beradigan gorizontal yuza hosil qilish uchun juda ko'p yer qazish ishlarini bajarish kerak, bu esa ko'p kuch va mablag' talab qiladi. Bunday tekis yuza suv qochirish ishlariga noqulay. Shuning uchun uchish maydoni qandaydir darajada nishablik ham bo'lishi lozim, shunda HK lari xavfsiz uchadi, qo'nadi, rullanadi, oqava suvlar ham yaxshi chiqib ketadi. Bunday loyihalash uchun vertikal rejalash masalalarini suv qochirish tizimi bilan birga hal qilish kerak.


Aerodrom relyefining asosiy tavsiflari quyidagilar: yuzaning o'rtacha nishabligi  $i_{\text{o'r}}$ ; yuzaning xususiy nishabligi  $i$ ; yuzaning siniqligi  $\Delta i$ ; loyihalash qadami  $a$ ; yuzaning egrilik radiusi  $R$ ; ko'rinish masafoasi  $l_{\text{ko}}$ .

Uchastkaning profil bo'ylab o'rtacha nishabligi deb uchastkaning boshi va oxirining raqam belgilari farqi  $\Delta H$  ni uning uzunligiga nisbatiga aytildi.

Masalan,  $F$  nuqtaning sathi  $H_F$ ,  $A$  nuqtaniki  $H_A$  bo'lsa (9.1-rasm), birinchisining ikkinchisidan balandligi  $\Delta H = H_F - H_A$  bo'ladi. Ikkinsining oraliq masofasi  $L$  bo'lsa, uchastkaning o'rtacha nishabligi:

$$i_{\text{o'r}} = \frac{H_F - H_A}{L} = \frac{\Delta H}{L}.$$

O'rtacha nishablik SUQM ga nisbatan topiladi va tasmaning ikkala uchini tutashtiruvchi shartli chizig'ning qiyaligini ko'rsatadi.



9.1-rasm. Aerodrom yuzasi uchastkasining profili.

Xususiy nishablik deb profilning ikki yonma-yon siniqlari orasidagi qiyalikka aytildi, u ham yuqoridagi tartibda aniqlanadi;


UT ning o'qi yo'nalishidagi xususiy nishablik bo'ylama nishablik, o'qqa perpendikular yo'nalishdagisi ko'ndalang nishablik deyiladi. UT ning ikki uchida esa ko'tariluvchi va pasayuvchi bo'ylama nishabliklar bor.

Pasayuvchi nishablik uchish tasmasining uchidagi qirrasi (ko'ndalang yuzasi) ga tomon yo'naladi, unga teskari yo'nalgani esa – ko'tariluvchi nishablik deyiladi.


Yuzaning sinig'i qo'shni uchastkalarning siniqlari  $i_1$ ,  $i_2$  ning yig'indisi yoki ayirmasi bilan o'lchanadi; agar  $i_1$  va  $i_2$  lar bir-biriga teskari yo'nalgani bo'lsa – yig'indi bilan, bir yo'nalishda bo'lsa, ayirmasi bilan aniqlanadi (9.2-a, b rasmlar).

Profilning qabariq uchastkalaridagi siniq tramplin, botiq uchastkalaridagi – ro'parama-ro'para nishablik deyiladi.

Loyihalash qadami profilning yonma-yon ikki sinig'i orasidagi eng qisqa masofani bildiradi (9.3-rasm). Loyihalashning eng kichik qadami me'yorlashtirilgan bo'lib, nivelirlaydigan to'rning kvadrati tomoniga teng va 40 m deb qabul qilingan.



9.2-rasm. Uchish tasmasi yuzasidagi siniqlarning turlari.



9.3-rasm. Bo‘ylama profil yuzasidagi siniq sxemasi.

Yuzaning egrilik radiusi uchish maydoni elementlari yuzasining egriligini ko‘rsatadi. Uchish tasmasi, odatda, egri chiziqli yuzaga ega bo‘ladi; nishablarining kata-kichikligi va yo‘nalishi turlichaydi. Nishablik yo‘nalishining o‘zgarishi HK ning uchish va qo‘nishini murakkablashtiradi. Masalan, HK bo‘ylamasiga qabariq profilli tasmadan ko‘tarilayotganda, kerakli tezlikka erishmayoq, profil singan joyda

o‘z-o‘zidan ko‘tarilib ketishi mumkin; keyin g‘ildiraklari bilan pastlab ketgan yuzaga zarb bilan uriladi. HK bo‘ylamasiga botiq profilli UT da harakatlanayotganda, nishablikning yo‘nalishi o‘zgargan joyda qattiq qarshilikka uchraydi, shassiga tushayotgan yuklama ham ortib ketadi. Demak, UT dagi nishabliklar bir-biri bilan keskin tushmagan bo‘lishi kerak. Qo‘sni nishabliklarning ravon tutashganligi yuzaning vertikal tekislikdagi ruxsat etilgan egriligi chegaralarida ta’milnadi.

Yuzaning egriligini yon radiusi bilan tavsiflash qabul qilingan; bu yoy profilning siniq nuqtalaridan o‘tgan bo‘ladi (9.3-rasm). Egrilik radiusi  $R$ , loyihalash qadami « $a$ » va yuza sinig‘i  $I$  ko‘rsatkichlari orasidagi boshlanishni topamiz. Buning uchun aerodrom uchastkasining bo‘ylama profilini ko‘rib chiqamiz (9.3-rasm). Undagi  $A$ ,  $B$  va  $C$  nuqtalar nivelerlovchi to‘r kvadratlarining cho‘qqilarini bildiradi. Bu nuqtalardan  $R$  radius bilan aylana chizig‘ini o‘tkazamiz, uning markazi  $O$  nuqtada. Loyihalash qadami o‘zgarmas bo‘lganda:  $a=AB=BC$ ,  $AOB$  va  $BOC$  uchburchaklari teng yonli va bir-biriga teng.  $O$  nuqtadan  $OD$  va  $OE$  perpendikularlar tushirib,  $B-\Delta i$  nuqtadagi siniqni ifodalab topamiz:

$$\angle DOE = \Delta i \text{ va } \angle DOB = \angle BOE = \frac{\Delta i}{2}.$$

$BOE$  uchburchakdan quyidagini aniqlash mumkin:

$$\sin \frac{\Delta i}{2} \approx \operatorname{tg} \frac{\Delta i}{2} = a/(2R).$$

Aerodromlarga ajratiladigan uchastkalar profilining sinig‘i katta bo‘lmaydi, shuning uchunsin  $\Delta i/2 \approx \Delta i/2$ .

Bundan  $\Delta i/2=a/(2R)$  va egrilik radiusi

$$R=a/\Delta i.$$

Bu ifoda botiq yuzaga ham taaluqli. Unga egrilikning eng kichik vertikal radiusi ifodasini qo‘yib, profilning loyihalashning berilgan qadamiga to‘g‘ri keladigan, yo‘l qo‘yilgan eng katta qiymatini hosil qilamiz:

$$\Delta i_{\max} = a/R_{\min}.$$

Ko‘tarilish-qo‘nish amallarining bajarilish xavfsizligi UQT dagi ko‘rinish orqali aniqlanadi.

Ko‘rish masofasi HK ni uchirish va qo‘ndirishda va UT da qo‘qqisdan to‘siq paydo bo‘lganda uchuvchi tomonidan xavfsizlik chegarasini ko‘rish imkonini beradi. Amaliyotdan ma’lumki, UQT ning bo‘ylama profili quyidagi o‘zaro ko‘rinuvchanliklarni ta‘minlashi lozim: А, Б, В, Г, Д тоifa aerodromlarda SUQT yuzasidan 3 m tepadagi va oralaridagi masofa SUQT uzunligining yarmidan kam bo‘limgan ikki nuqtani E тоifa aerodromda SUQT yuzasidan 2 m tepadagi va oralaridagi masofa yarmidan kam bo‘limgan ikki nuqtasini.

SUQT ning bo‘ylama profili, shuningdek, KRM antennasi radiomayoq sistemasi (RMS) ning tayanch nuqtasidan ko‘rinib turish tababini qondirishi lozim; bunda loyiha muvofiq RMS ning toifasi ham e’tiborga olinadi.

RY ning bo‘ylama profili uning yuzasini 3 m tepadagi va 300 m masofadagi istalgan nuqtadan bemalol ko‘rish imkonini berishi kerak (А, Б, В, Г, Д тоifa aerodromlar uchun). E тоifa aerodromlarda – 2 m tepadagi va 250 m masofadagi istalgan nuqtadan.

## **9.2. Aerodrom yuzasi relyefiga talablar**

Relyefning asosiy tavsiflari shunday tanlanadiki, HK lari yugurish, o‘tish, rullash amallarini xavfsiz bajarsin va suv turib qolmasligi uchun kerakli nishablik bo‘lsin. Aerodrom relyefiga ma’lum talablar qo‘yiladi. Ularga ko‘ra aerodrom yuzasiga eng ko‘p va eng kam nishablik belgilanadi.

Atmosfera yog‘inlari sekin oqib ketsa, grunt ortiqcha namlanib qoladi, natijada HK g‘ildiraklariga yetarlicha qarshilik qilolmaydi. Shuning uchun Sobiq Ittifoqning Yevropa qismidagi shimoliy va markaziy mintaqalarning o‘rtacha gruntli sharoitlarida aerodrom gruntli elementlarining nishabligi 0,005 dan kam bo‘lmasligi lozim. Og‘ir qum tuproqli va tuproqli gruntlarda nishablikni 0,007 ga ko‘tarish mumkin. Yengil suvni yaxshi o‘tkazadigan qumoq, qumli va mayda toshli gruntlarda nishablikni 0,002–0,003 gacha kamaytirish mumkin.

Yog'ingarchilik asosan qishda bo'ladigan va ko'p namlanmaydigan cho'lli va yarimcho'l hududlarda aerodrom nishabliklarini kichkina tanlash mumkin.

Aerodromda eng katta nishablikni me'yorlash asosida (9.1-jadval) HK larini xavfsiz uchirish, qo'ndirish, rullah va grunt yuzasi yuvilib ketmaslik sharti yotadi.

Aerodrom gruntli yuzalarining ruxsat etilgan eng kichik egrilik radiusi  $R_{\min}$  9.2-jadvalda berilgan.

UQT, RY, TJ va perronlari sun'iy qoplamlari bo'ladigan yuzalar relyefiga talablar chim qoplamlari UT ning relyefiga qaraganda ancha yuqori. Chunki ularda og'ir va ko'tarilish-qo'nishda tezligi katta HK lari harakat qiladi.

Qoplamlarning chetlariga ochiq tarnovlar yotqizilsa, suv yaxshi oqib ketishi uchun bo'ylama nishablik kamida 0,0025–0,0030 bo'lishi kerak. Ochiq tarnovlar bo'lmasa, qoplama chetini bo'ylama nishablik qilmasdan loyihalash mumkin. Bunda qoplama yuzasidagi suv gruntga yoki grunt ariqchalarga bemalol oqib tushishi kerak (ko'ndalang nishablik hisobiga). Grunt ariqchaning tubi kamida 0,005 nishablikka ega bo'lishi kerak.

Aerodromning turli elementlarida sun'iy qoplamlar yuzasining eng katta nishabligi 9.3-jadvalda ko'rsatilganidan katta bo'lmasisligi, bo'ylama yo'nalishdagi egrilik radiusi esa 9.4-jadvalda berilganidan kam bo'lmasisligi kerak.

#### 9.1-jadval

Nishablik	Aerodrom toifalari bo'yicha gruntli elementlar nishabligining ruxsat etilgan eng katta qiymati		
	A, Б, В	Г, Д	Е
Bo'ylama – GUQM uchastkasida:			
o'rtacha	0,020	0,025	0,030
uchidagi pasayadigan	0,020	0,025	0,025
uchidagi ko'tariladigan	0,008	0,015	0,015
Ko'ndalang – GUQM (ko'ndalang profili bir va ikki nishabli)	0,020	0,025	0,025

Bo'ylama – XChP uchastkalarida: pasayadigan ko'tariladigan	0,020 0,008	0,025 0,015	0,030 0,020
Ko'ndalang – XUP, profili: bir nishabli ikki nishabli	0,020 0,030	0,025 0,030	0,025 0,030
Bo'ylama – XYP: o'rtada pasayadigan uchida ko'tariladigan uchida	0,020 0,020 0,008	0,025 0,025 0,015	0,030 0,030 0,015
Ko'ndalang – XYP Bo'ylama va ko'ndalang – RY	0,025 0,020	0,030 0,025	0,030 0,030
Bo'ylama – TJ guruhi Ko'ndalang – TJ guruhi	0,020 0,015	0,020 0,015	0,025 0,025
Ko'ndalang – gruntli chekkalar: SUQM, perronlar va TJ guruhi RY va maxsus maydonchalar	0,025 0,030	0,025 0,030	0,025 0,030

**Izohlar:** 1. Bo'ylama nishabliklarni belgilayotganda GUQT va XYP uchlaridagi uchastkalar uzunligini GUQT ning 1/6 hissasiga teng olinadi.

2. UT si chegaralarida joylashgan RY ning yuzasi.

UT ning yuzasi bilan ravon tutashib ketishi va bo'ylama ham ko'ndalang nishablikka ega bo'lishi kerak; shuningdek, UT ning tegishli gruntli elementiga ruxsat etilganidan ko'p bo'limgan vertikal egrilik radiusga ega bo'lishi kerak.

3. GUQT ning uchlaridagi uchastkalar bo'ylama nishablikka ega bo'lishi kerak (ko'tariluvchi yoki pasayuvchi)

#### 9.2-jadval

Aerodrom elementi	Aerodrom toifalari bo'yicha elementlarning bo'ylama yo'nalishida vertikal egrilikning eng kichik radiusi (m):			
	A	Б, В	Г, Д	Е
GUQT	10 000	10000	6000	6000
XYP va XChP	6000	6000	4000	4000
RY:				
Magistral	6000	6000	4000	3000
va tutashtiruvchi yordamchi	3000	3000	3000	2500

Loyihalash qadami 40 m bo'lganda qo'shni nishabliklarning ruxsat etiladigan farqi quyidagicha:

$R_{\min}$ , m	10 000	8000	6000	4000	3000
$\Delta i$	0,004	0,005	0,006	0,010	0,013

9.3-jadval

Nishablik	Aerodrom toifalari bo'yicha sun'iy qoplamali elementlar nishabligining ruxsat etilagan eng katta qiymati			
	A, Б, В	Г	Д	Е
Bo'ylama – SUQM uchastkalarida				
o'rtacha	0,0125	0,015	0,015	0,020
uchlarida	0,008	0,015	0,015	0,015
Ko'ndalang – SUQT	0,015	0,015	0,020	0,020
Bo'ylama – RY:				
Magistral va tutashtiruvchi	0,015	0,025	0,025	0,020
Yordamchi	0,020	0,030	0,030	0,030
Ko'ndalang – RY	0,015	0,020	0,020	0,020
Bo'ylama va ko'ndalang – perronlar, TJ va maxsus maydonchalar	0,010	0,010	0,010	0,020
Bo'ylama – SUQT uchiga tutashuvchi boshqariladigan uchastkalar	0,008	0,015	0,015	–
Ko'ndalang – o'shalar	0,015	0,015	0,020	–
Ko'ndalang – SUQT ning mustahkamlanadigan perron, TJ va maxsus maydonchalar chetlari, RY chetlari (UT dan chetdag'i)	0,025	0,030	0,030	0,030
SUQT ning o'rtacha bo'ylama nishabligi	0,010	0,010	0,010	0,017

**Izohlar:** 1. Bo'ylama nishabliklarni belgilayotganda SUQT ning uchidagi uchastkalar uzunligini SUQT ning 1/6 hissasiga teng olinadi.

2. SUQT ning uchidagi uchastkalarning nishabligi bir yo'nalishda bo'lishi kerak (ko'tariladigan yo pasayadigan)

3. RY va uning chetlari nishabligi (UT chegarasidagi qismi) UT dagiga mos bo'lishi kerak.

4. SUQM ning o'rtacha bo'ylama nishabligi, uning ikki uchi sathlari ayirmasini uzunligiga nisbati bilan hisoblanadi.

5. Mavjud aerodromlarni qayta qurishda jadvalda keltirilgan raqamlarni ko'pi bilan 20% orttirish mumkin.

Qo'shni nishabliklarning bo'ylama yo'nalishdagi farqi (40 metrlik qadamda) quyidagicha:

$R_{min}$ , m	30000	20000	10000	6000	3000
$\Delta i$	0,0013	0,0020	0,0040	0,0060	0,0130

9.4-jadval

Aerodrom toifasi	SUQM bo'ylama yo'nalishidagi egrilik radiusi, m	Aerodrom toifasi	SUQT bo'ylama yo'nalishdagi egrilik, radiusi, m
A	30,000	B	20,000
Б	20,000	Г, Д	10,000
Aerodrom toifai	Radius krivix poverxnosti IVPP, m	E	6,000

Suv tez oqib ketishi uchun qoplamaning eng kichik ko'ndalang nishabligi eng kam bo'ylama nishablikdan ancha katta, ya'ni 0,008 dan 0,015 gacha olinadi. Biroq gruntli UT yoki xavfsizlik tasmasini qoplama bilan kesib o'tiladigan uchastkalarda eng kichik ko'ndalang nishabliklarni kichikroq olish kerak. Bu o'sha uchastkalardagi uchish ishlarini qiyinlashtirmaslik uchun kerak.

### 9.3. Relyefni tasvirlash va aerodromning vertikal rejasini loyihalash usullari

Vertikal rejalash lozim bo'lgan yer uchastkasi relyefini tasvirlash uchun gorizontallar va raqamli belgilar (sathlar) usullari qo'llanadi. Gorizontallar usulida tabiiy yuza, uning rejasiga chizilgan ko'plab horizontal kesimlarning chiziqlari bilan tasvirlanadi. Gorizontallar ingichka va ravon egri chiziqlardan iborat. Sonli belgilar usulida yuza belgilar tizimi bilan tasvirlanadi. Buning uchun aerodrom hududi

o'lchamlari  $40 \times 40$  metr bo'lgan kvadratlar (to'rlar) ga ajratiladi. Ular UT ning o'qiga parallel bo'lishi kerak.

Relyefni tasvirlash usullari va tarkibi aeroportni loyihalash bosqichlariga bog'liq. Quyidagi bosqichlar qabul qilingan:

– loyihani texnik-iqtisodiy dalillash (TID), loyiha ishchi hujjatlar TID bosqichida vertikal rejalarini loyihalashda gorizontallar usuli, ishchi loyiha va ishchi hujjatlarni tayyorlashda gorizontallar va raqamli belgilar usullaridan foydalaniladi.


Yer yuzasini tasvirlashning asosiy usullari va loyihalash bosqichlariga muvofiq holda aerodromlarni vertikal rejalahshning gorizontallar va raqamli belgilar asosida loyihalash usullari ishlab chiqilgan.

Gorizontallar usulida rejaga, texnik talablarga javob beradigan yuzalar loyiha gorizontallari ko'rinishida chiziladi. Bu usulning afzalligi shundaki, aerodrom hududining relyefi haqida to'liq tasavvur hosil qiladi. Lekin loyihaning raqam belgilarini ko'rsata olmaydi, shuning uchun faqat TID bosqichida qo'llaniladi.

Raqamli belgilar loyihani amalga joriy qilish uchun kerak. Bu usulning g'oyasi shuki, talab etiladigan yuzaga mos loyiha belgilarini analitik yo'l bilan nivelirlovchi to'r kvadratlarining uchida aniqlanadi, keyin ular bo'lish ishlarida naturaga chiqariladi. Usulning asosiy kamchiligi relyef tasvirida ko'rinchmasligi va qiyinligi. Shuning uchun aerodromlarni vertikal rejalahshda faqat raqamli belgilar bilan tasvirlash kam qo'llaniladi. Odatda, aerodrom yuzasi ham gorizontallar, ham belgilar bilan tasvirlanadi.

Quyida bir necha ta'rif keltiramiz:


Mavjud (tabiiy yuza). U naturadagi gorizontallar va loyiha raqam belgilarini bilan tafsiflanadi. Loyihaviy gorizontallar ravon qalin chiziqlar bilan ko'rsatiladi, belgilar esa yer belgisi ustidagi kvadratlarning uchiga yoziladi. Berilgan nuqtadagi yuzaning loyiha belgisidan naturadagi belgining ayirmasi ishchi belgi deyiladi; u ayrim nuqtalarda qazish chuqurligini yoki to'kish balandligini bildiradi. Birinchisi «minus», ikkinchisi – «plus» ishorasi bilan ifodalanadi. Ishchi belgilar rejada kvadratlarning uchlariga nisbatan syomkani nivelerlash yo'li bilan aniqlanadi, mavjud va loyiha yuzalarining belgilarini yozib qo'yiladi (9.4-rasm).



**9.4-rasm. Yuzani kvadrat uchlarida belgilash namunasi.**

Aerodrom yuzasining bir xil yer belgilari va loyiha belgilari bo'lgan nuqtalari «nol ishlari» nuqtasi deyiladi. Vertikal rejalahshda bu ishlar shtrix punktir chiziqlar bilan ko'rsatiladi. Ularning izochiziqlari qaziladigan va tuproq to'kiladigan uchastkalar bilan cheklanadi.

Bir xil belgilarga ega bo'lgan naturadagi gorizontallar va loyiha, gorizontalli, «birismli» deb ataladi. Loyiha yuzasidan, vertikal bo'yicha bir xil masofalarda turadigan nuqtalarning geometrik o'rirlari «izoyuzalar» deb ataladi. Mavjud yuzaning izoyuzalar bilan kesishgan chiziqlari «izochiziqlar» deyiladi. Naturadagi gorizontallarning gorizontallar kesimiga qoldiqsiz bo'linadigan belgilar qo'yilgan chiziqlar bilan kesishgan nuqtalarni tutashtiruvchi izochiziqlar tegishli chuqurliklarning izochiziqlari deyiladi (9.6-rasm). Yuzalari aerodromlar yuzasi relyefi talablariga javob bermaydigan uchastkalar «nuqsonli joylar» deyiladi. Balandligi va uzunligi katta bo'lмаган ayrim notekisliklar «mikroreleyef» lar deyiladi. Bunday notekisliklarning balandligi hamma vaqt gorizontallar kesimining balandligidan kichik bo'ladi.



9.5-rasm. «Nul ishlar» chizig'i va bir xil chuqurliklar izochiziqlari:

1 – yer gorizontallari; 2 – loyiha gorizontallari; 3 – ishchi chuqurliklarning izochiziqlari ( $h_1=0,25\text{ m}$ ;  $h_2=0,5\text{ m}$ ;  $h_3=0,75\text{ m}$ ;  $h_4=1\text{ m}$ ).

Aerodromning vertikal rejalahsh loyihasi ko'plab dastlabki ma'lumotlar asosida olib boriladi:

- 1) aerodromning loyihaviy yuzasiga me'yoriy talablar (nishabliklarga, SUQT, GUQT, RY, TJ va b.)
- 2) aerodromning 1:5000 va 1:2000 miqyoslarda chizilgan bosh rejasining sxemasi; unda aerodrom hududining tashqi chiziqlari, uchish maydoni, xavfsizlik tasmalari, SUQT, RY, TJ, perronlarning joylashuvi ko'rsatiladi;
- 3) uchastkaning 1:5000 miqyosidagi tipografik syomkasi; relyefi har 0,5 metrdagi gorizontal kesim tasvirlangan bo'lishi kerak (TPD)

uchun); uchastkaning 1:2000 miqyosdagi topografik syomkasi, relyefi nivellirlash to‘ri kvadratlarining uchida belgi bilan va har 0,25 m dagi gorizontal kesimi bilan (ishchi loyiha uchun) tasvirlangan bo‘lishi kerak. Aerodrom yuzasining yon-atrof joylar bilan tutashuvi, suvlarni chiqarib yuborish kabi masalalarni hal qilish uchun topografik syomka rejasiga o‘scha yon-atrof joylar ham kiritilishi kerak. Buning uchun 1:25000–1:100000 miqyosdagi topografik kartalardan foydalanish mumkin.

- 4) topografik syomki rejasiga aerodrom konturlari tushiriladi;
- 5) muhandis-geologik va gidrogeologik qidiruvlar ma’lumoti, gruntlar tavsifi, o’simliklar zichligi;
- 6) yerosti suvlari yaqin uchastkalar bo‘yicha bat afsil ma’lumot berilishi kerak;
- 7) iqlimga oid ma’lumotlar;
- 8) bunda atmosfera yog‘inlari miqdori, ularning yil bo‘yi taqsimlanishi, grunt muzlaydigan chuqurlik ko‘rsatiladi;
- 9) karyerlar va kovalerlarni joylashtirish mumkin bo‘lgan joylar haqida ma’lumot;
- 10) aerodrom qoplamlarining qalinligi va konstruktsiyasi.

## 10-bob. AERODROMLARNING GRUNT YUZALARINI VERTIKAL REJALASHNI LOYIHALASH

---

### 10.1. Aerodromlar gruntli yuzalarining gorizontallar bilan tasvirlangan rejalashda nuqsonli uchastkalarni aniqlash


Relyefni gorizontallar tushirilgan rejada tasvirlash ishida aerodrom yuzasining asosiy tavsiflari sifatida nishabliklar va egriliklar birinchi o'ringa chiqadi. 10.1-rasmida uchish maydonidagi qiyalikning  $I-I$  yo'naliш bo'yicha profili keltirilgan. Kesuvchi gorizontal tekisliklar orasidagi  $h_{\text{gor}}$  masofa «gorizontallar kesimi» deyiladi; u har bir topografik reja uchun o'zgarmas kattalik. Rejadagi qo'shni gorizontallarning oraliq masofalari –  $d_1, d_2, d_3, d_4$  «joylashmalar» deyiladi.

Gorizontallar orasidagi yuzaning nishabligi gorizontal kesimining joylashmaga nisbati bilan hisoblanadi.

$$i_1 = h_{\text{gor}}/d_1, i_2 = h_{\text{gor}}/d_2, i_3 = h_{\text{gor}}/d_3, i_4 = h_{\text{gor}}/d_4. \quad (10.1)$$

Gorizontallar kesimi o'zgarmas bo'lganda qo'shni ikki gorizontal orasidagi joylashmaga ular orasidagi ma'lum bir nishablik to'g'ri keladi. Formuladan ko'rindaniki, nishablik qancha katta bo'lsa, gorizontallar orasidagi joylashma shuncha kichik bo'ladi va aksincha: nishablik kichik bo'lsa, joylashma katta bo'ladi. Ruxsat etilgan eng kichik joylashma ruxsat etilgan eng katta nishablik –  $i_{\max}$  ga to'g'ri keladi.

Mavjud yuzalar, odatda, egri chiziqli bo'ladi. Masalani soddalash-tirish uchun uni ikkita qo'shni gorizontallar bilan cheklangan va ular orqali aniqlanadigan yassi elementlardan tashkil topgan deb qaraladi. Shundan kelib chiqib, gorizontallar joylashgan joylarda siniqlar hosil bo'ladi, deb faraz qilinadi. Yuzaning egriligi bo'ylama profilning siniqligi darajasi bilan tavsiflanadi. Rasmdagi  $I-I$  yo'naliши bo'ylab siniqlik quyidagi ifodadan aniqlanishi mumkin (10.2-rasm).



10. I-rasm. Uchish maydonidagi qiyalik profili.

$$\Delta i_B = i_2 - i_1 = h_{\text{gor}}/d_2 - h_{\text{gor}}/d_1; \\ \Delta i_C = i_3 - i_2 = h_{\text{gor}}/d_3 - h_{\text{gor}}/d_2. \quad (10.2)$$

Bu formuladan ko‘rinadiki, qo‘shni joylashmalar orasidagi farq qancha katta bo‘lsa, yuzanining siniqligi ham katta bo‘ladi.

Yuzanining egriligi haqida nafaqat turli gorizontallarning qo‘shni joylashmalarining birlashmalariga qarab, balki rejadagi gorizontallarning o‘zidagi egriliklariga qarab ham fikr yuritish mumkin. Gorizontal qancha egri bo‘lsa, bo‘ylama profil ham shunaqa bo‘ladi.

Aerodromning gruntli yuzasi relyefiga qo‘yiladigan talablarni qondirmaydigan uchastkalar «nuqsonli» deb yuritiladi, ularni qidirib topish esa «saralash» deyiladi.

Gruntli UT ning relyefiga bo‘ladigan hamma talablar, bir tomonidan, ruxsat etilganidan ortiq nishablikka yo‘l qo‘ymaslikdan iborat bo‘lsa, ikkinchidan, loyiha yuzanining egriligin cheklashga qaratilgan. Shuning uchun topografik rejadan nuqsonli uchastkalar topiladi. Ular quyidagilar bilan tavsiflanadi: nishabliklari ruxsat etilmaydigan darajada, ya’ni ( $i_{\text{yer}} > i_{\text{max}}$  yoki  $i_{\text{yer}} < i_{\text{max}}$ ) yuzanining egriligi me’yordan tashqarida (qiyaliklarda, SUV bo‘lgichlarda, vodiylarda, cho’qqilar oraliq’ida,  $R < R_{\min}$ ).


Topografik rejada mavjud yuzaning gorizontallari joylashuviga qarab, nuqsonli uchastkalar aniqlanadi. Yuzanining nishablari va egriligini eng kerakli yo'naliishlarda: asosiy ko'tarilishlar va qo'nishlar chizig'i va yonbag'ir chiziqlar bo'ylab aniqlanadi. Ruxsat etilmaydigan qiyalikka ega nuqsonli joylarni aniqlash uchun eng katta va eng kichik nishablikka to'g'ri keladigan va topografik reja miqyosida bo'lgan joylashmalar aniqlanadi:

$$\left. \begin{aligned} d_{\max} &= \frac{h_{\text{gor}} 1000}{i_{\max} m}; \\ d_{\min} &= \frac{h_{\text{gor}} 1000}{i_{\min} m}, \end{aligned} \right\} \quad (10.3)$$

bu yerda:  $d_{\max}$  va  $d_{\min}$  – gorizontallarning joylashmalari,  $10^{-3}$  m;  $h_{\text{gor}}$  – gorizontallar kesimining balandligi, m;  $m$  – miqyos maxraji;  $i_{\max}$  va  $i_{\min}$  – talablarga mos keladigan eng katta va eng kichik nishabliklar.

Nishabliklarni tekshirish va nuqsonli joylarni aniqlash uchun doira shakldagi shaffof andozalardan foydalanish tavsiya etiladi. Doiranining diametri (10.3) formuladan topiladi. Nuqsonli joylarning chegaralarini aniqlash uchun andozani qo'shni gorizontallar orasida surib harakatga keltiriladi. Doiralar va gorizontallar kesishgan nuqtalar nuqsonli joylarning chegarasi bo'ladi (10.2-rasm).

Egriligi ruxsat etilmaydigan darajada bo'lgan nuqsonli joylarni topib, tuzatish uchun K.K. Skidanenko taklif etgan paletkadan foydalilanildi. U relyefni loyihalash masalalarini grafik yo'l bilan hal qilish imkonini beradi. Paletka yordamida relyefni saralash va yuzani loyihalash tamoyili quyidagicha. Mavjud yuza gorizontallari joylashmalarining ixtiyoriy to'plami ruxsat etilgan darajadami yoki yo'qmi ekanini bilish uchun rejadagi joylashmalarning egrilik radiusi ruxsat etilgan darajada bo'lgan va oldindan qurilgan joylashmalar to'plami bilan taqqoslab chiqish kerak. Shunda egriligi ruxsat etilgan darajada bo'limgan uchastkalar ko'zga tashlanib qoladi va ularni tuzatish mumkin, yoki mumkin emasligini ham hal qilish mumkin. Mavjud relyefning joylanmalar o'rniga paletkadagi joylanmalar qabul qilinadi.




10.2-rasm. Nuqsonli uchastkalar:

1 – ruxsat etilmaydigan eng katta nishabliklar; 2 – ruxsat etilmaydigan eng kichik nishabliklar; 3 – uchastkalar chegarasi.

Shunday qilib, ruxsat etilmaydigan egrilikni tuzatish shundan iboratki, rejadagi gorizontallar suriladi, natijada yangi joylanmalar egrilik radiusi  $R_{min}$  ruxsat etilgan darajadagi loyihaviy yuzaga mos keladi.

Egriligi haddan ziyod bo'lgan uchastkalarni paletka yordamida saralash va tuzatish usuli sodda, hammasabop, shuning uchun aerodromlarning vertikal rejasini loyihalashda keng qo'llanadi. Bu usul joylashmalarning tanlangan xududdagi shartli sinish nuqtasidan boshlab, ruxsat etilgan eng katta nishablikkacha (ma'lum egrilik radiusi va gorizontallar kesmalarining o'lchamlarida) o'zgarishlari qonuniyatini tahlil qilishga asoslanadi. Joylashmalar paletkasini tuzish uchun suvbo'lgichdan birinchi, ikkinchi va keyingi gorizontallargacha masofani aniqlaydigan analitik ifodadan foydalaniladi. Paletkani tuzish uchun yuzaning ruxsat etilgan eng kam egrilik radiusi  $R_{min}$ , gorizontallar kesimi  $h_{gor}$ , joy rejasি miqyosi  $l:m$  dan foydalanib  $x_0, x_1, x_2, \dots, x_n$  sonlar qatori hisoblab topiladi. Bu sonlar loyiha profilning vertikal o'qidan tegishli gorizontalning nuqtasigacha bo'lgan masofalarni bildiradi.




10.3-rasm. Joylashmalarining egrilik radiusi va gorizontallar kesimiga qarab o'zgarishi.

$$\begin{aligned}
 x_0 &= \frac{10^3}{m} \sqrt{OB^2 - OA_1^2} = \frac{10^3}{m} \sqrt{R_{\min}^2 - (R_{\min} - \Delta)^2} = \frac{10^3}{m} \sqrt{2R_{\min}\Delta - \Delta^2}; \\
 x_1 &= \frac{10^3}{m} \sqrt{OC^2 - OA_2^2} = \frac{10^3}{m} \sqrt{R_{\min}^2 - [R_{\min} - (\Delta + h_{\text{gor}})]^2} = \\
 &= \frac{10^3}{m} \sqrt{2R_{\min}(h_{\text{gor}} + \Delta) - (h_{\text{gor}} + \Delta)^2}; \quad (10.4) \\
 x_2 &= \frac{10^3}{m} \sqrt{OD^2 - OA_3^2} = \frac{10^3}{m} \sqrt{R_{\min}^2 - [R_{\min} - (\Delta + h_{\text{gor}})]^2} = \\
 &= \frac{10^3}{m} \sqrt{2R_{\min}(h_{\text{gor}} + \Delta) - (h_{\text{gor}} + \Delta)^2}.
 \end{aligned}$$

Umumiy holda  $n$ -tartibli gorizontalgacha bo'lgan masofa quyidagi formuladan topiladi:

$$x_n = \frac{10^3}{m} \sqrt{R_{\min}^2 - [R_{\min} - (nh_{\text{gor}} + \Delta)]^2} = \frac{10^3}{m} \sqrt{2R_{\min}(nh_{\text{gor}} + \Delta) - (nh_{\text{gor}} + \Delta)^2}. \quad (10.5)$$

Ildiz ostidagi ifodaning ikkinchi hadi birinchisiga nisbatan juda kichikligi uchun tashlab yuborib, quyidagini hosil qilamiz:



10.4-rasm. Urinma va doira chiziqning ruxsat etilgan eng katta nishabligiga to'g'ri keladigan nuqtani aniqlash sxemasi.

$$x_n = \frac{10^3}{m} \sqrt{2R_{\min}(nh_{\text{gor}} + \Delta)}, \quad (10.6)$$

bu yerda:  $R_{\min}$  – ruxsat etilgan eng kichik egrilik radiusi,  $m$  – suvbo'l-gich sinish nuqtasining birinchi gorizontaldan balandligi,  $m$ ;  $h_{\text{gor}}$  – gorizontallar kesimining balandligi,  $m$ ;  $n$  – suvbo'l-gichdan eng chekkadagi gorizontalgacha gorizontallar soni.

10.4-rasmdan ko'rindiki, « $x$ » oshgani sari yonbag'irning qiyaligi kattalashadi. Biroq  $x$ , har qancha katta bo'lishi mumkin emas. Ni-shablik eng katta qiymati  $i_{\max}$  ga yetgan joy  $M$  nuqta bilan belgilangan. Bu nuqtaning ortida gorizontallar orasidagi joylashmalar uchish may-donidagi eng kichik miqdordan kichik bo'lmaydi:

$$d_{\min} = \frac{10^3 h_{\text{gor}}}{i_{\max} m}. \quad (10.7)$$

Paletka abssissa o'qini chekllovchi « $x$ » ning chegaraviy qiymati  $OAM$  uchburchakdan aniqlanishi mumkin (10.4-rasm):

$$\frac{AM}{OM} = \frac{x_{\max}}{R_{\min}} = \sin \alpha \approx \operatorname{tg} \alpha \approx i_{\max}; \quad (10.8)$$

$$x_{\max} = \frac{10^3}{m} R_{\min} i_{\max}.$$

Shunday qilib,  $x_n$  larni, ular qiymati  $x_{\max}$  ga teng yoki undan ortiq bo'lmaguncha hisoblab borilaveradi. Keyingi nuqtalarning paletkadagi holati  $d_{\min}$  ni qo'yib topiladi.

Joylashmalar paletkasini tuzishni quyidagi misolda ko'rib chiqamiz: reja miqyosi 1:2000, gorizontallar kesimi  $h_{\text{gor}} = 25$  m, egrilikning eng kichik radiusi  $R_{\min} = 6000$  m, ruxsat etilgan eng katta nishablik  $i_{\max} = 0,02$ ;  $x_{\max}$  ni topamiz:

$$x_{\max} = \frac{10^3}{m} R_{\min} i_{\max} = \frac{6000 \cdot 0,02 \cdot 1000}{2000} = 60 \text{ mm.}$$

$d_{\min}$  ni topamiz:

$$d_{\min} = \frac{10^3 h_{\text{gor}}}{m i_{\max}} = \frac{0,25 \cdot 1000}{2000 \cdot 0,02} = 6,2 \text{ mm.}$$

$\Delta$  ning turli qiymatlari uchun  $x$  ning qiymatlarini quyidagi formuladan topib, jadval tuzamiz (10.1-jadval):


$$x = \frac{10^3}{m} \sqrt{2R_{\min}(nh_{\text{gor}} + \Delta)} = \frac{10^3}{2000} \sqrt{2 \cdot 6000(0,25n + \Delta)}. \quad (10.9)$$

Paletkani tuzish uchun ordinata o'qi bo'ylab  $\Delta$  ning qiymatlarini qo'yib, gorizontal chiziqlar tortiladi. Bu chiziqlarga  $x_i$  ning jadvaldag'i qiymatlari ikki tomonlama qo'yib chiqiladi. Bir nomli  $n$  kesimlarning xosil bo'lgan nuqtalari  $h_{\text{gor}}$  bir-biri bilan egri chiziqlar vositasida tutashtiriladi. Paletkani mumga tush bilan chiziladi (10.5-rasm).

10.1-jadval

$\Delta, \text{m}$	$x_0$	$x_1$	$x_2$	$x_3$	$x_4$	$x_5$	$x_6$
0,00	0,00	27,4	38,7	47,4	54,8	61,3	67,5
0,05	12,2	30,0	40,6	49,0	56,2	62,5	68,7
0,10	17,3	32,4	42,4	51,0	57,5	63,7	69,9
0,15	21,2	34,6	44,1	52,0	58,7	64,9	71,1
0,20	24,5	36,7	45,8	53,4	60,0	66,2	72,4
0,25	27,4	38,7	47,4	54,8	61,3	67,5	73,7

Izoh:  $x_0, x_1$  – o'lchamlari millimetrdra.




10.5-rasm. Joylashmalar paletkasining umumiy ko‘rinishi.

Paletkani tuzishda ba’zan ordinata o‘qi bo‘ylab qo‘yiladi. Paletkaning birinchi shoxlari abssissalari quyidagi formuladan topiladi:

$$x_0 = \frac{10^3}{m} \sqrt{2R\Delta} = \frac{10^3}{m} \sqrt{\Delta} \sqrt{2R}. \quad (10.10)$$

Bunday tuzishda paletkaning birinchi shoxlari to‘g‘ri chiziqlarga aylanadi, boshqa shoxlari – boshqacha ko‘rinish kasb etadi (10.6-rasm).




10.6-rasm. Joylashmalar paletkas (oraliqlar  $\sqrt{\Delta}$  masofada).

Paletkalardan ko'rindik, ikki qo'shni gorizontallar orasidagi joylashmaga ruxsat etilgan eng kichik va eng katta joylashma to'g'ri kelari ekan; ular birgalikda yuzaning ruxsat etilgan egriligini ta'minlaydi. Masalan,  $CD$  joylashmaga ruxsat etilgan eng kichik ( $DE$ ) va eng katta ( $BC$ ) joylashmalar to'g'ri keladi (10.5-rasm).

Nishabliklari eng kichik va joylashmalari bu paletkaga tushmagan relyefda bu grafik usulidan foydalanish uchun paletkaga ikkita qo'shimcha egri chiziq tushiriladi; ular yordamida qo'shni gorizontallar orasidagi joylashma, paletkadagi joylashmalarning eng kat-tasidan ham yuqori bo'lganda, yuza egriligini loyihalash mumkin. Qo'shimcha egri chiziqlar paletkaning gorizontal chiziqlarida qo'shni gorizontallarga mos keladigan maqbul joylashmalarni ko'rsatadi (qo'shni joylashmalarga bog'liq holda).

Paletka qo'shimcha egri chiziqlar tushirish uchun  $KK_2B$  va  $AA_2B$  uchburchklarning o'xshashligidan kelib chiqadigan formuladan foyda-laniladi (10.7-rasm):

$$KK_2 \neq AA_2 = K_2 B / A_2 B \quad \text{yoki} \quad h_{gor} / \Delta = K_1 B_1 / x_0. \quad (10.11)$$



10.7-rasm. Joylashmalar paletkasining qo'shimcha shoxlari abssissasini aniqlash sxemasi.

Bu yerdan quyidagini topamiz:

$$K_1 B_1 = \frac{h_{\text{gor}}}{\Delta} x_0. \quad (10.12)$$

10.3-rasmga muvofiq yozamiz:

$$x_0 = \frac{10^3}{m} \sqrt{2R_{\min} \Delta}. \quad (10.13)$$


(10.13) ni (10.11) ga qo'yib, joylashmani topamiz:

$$K_1 B_1 = \frac{10^3 h_{\text{gor}}}{m} \sqrt{\frac{2R_{\min}}{\Delta}}. \quad (10.14)$$





Bu formula yordamida  $\Delta$  ning tegishli qiymatlari uchun mos keladigan eng katta joylashmalarni hisoblab topish mumkin. Shuni hisobga olish kerakki, chapdagi qo'shimcha egri chiziq o'ng paletkaga, o'ngdagisi – chap paletkaga tegishli (10.8-rasm.)

Paletkadan har qanday relyefni tuzatish uchun foydalanish mumkin: yonbag'irlar, suv bo'lgichlar, talveqlar, past-balandliklar, egarsimon joylar.

Paletka yordamida egriligi nomaqbul nuqsonli uchastkalarni, rejadagi gorizontallarning joylashuvini paletka bilan taqqoslab aniqlanadi. Saralash uchun paletkani tekshirilayotgan uchastkaga qo'yib, ikkita qo'shni joylashma taqqoslanadi. Rejadagi nuqsonli uchastkalarni topish namunasi 10.9-rasmida ko'rsatilgan.



10.8-rasm. Qo'shimcha egri chiziqlar kiritilgan joylashmalar paletkasi.



**10.9-rasm. Joylashmalar paletkasi yordamida egriligi nomaqbul nuqsonli uchastkalarni aniqlash sxemasi:**

- a) gorizontallarning joylashmalari keskin o'zgaradigan yonbag'ir; b) past-balandlik yoki yopiq pasayish; d) suv bo'lгichli yoki talvegli uchastka; e) egarsimon uchastka (paletka punktir chiziqlar bilan ko'rsatilgan).

Gorizontallarning joylashmalari keskin o'zgaradigan nuqsonli uchastkalarni aniqlash uchun paletkadan qanday bir just joylashma topish kerakki, ularning yig'indisi ( $AB$ ) rejadagi tekshirilayotgan ikki joylashmaning yig'indisiga teng bo'lsin (10.9-a rasm). Shunda, agar rejadagi joylashmalar ( $AE$  va  $BC$  masofalar) dan keskinroq o'zgarsa, tekshirilayotgan joylashmalar nuqsonli bo'ladi.


## **10.2. Aerodromlarning grunt yuzalarini gorizontallar usuli bilan vertikal rejalashni loyihalash**

Gorizontallarni loyihalash usuli gorizontallarni shunday siljish va tuzatishga asoslanganki, hosil bo‘ladigan yuza relyefi 9.2-§ da bayon etilgan talablarga javob bersin. Tuzatishda shunga erishish kerakki, loyiha gorizontallarining joylashmalari ilgari, nishabliklarni saralashda hisoblab topilgan  $d_{\max}$  va  $d_{\min}$  qiymatlar chegarasidan chiqmasin va paletka shkalasidagiga qaraganda keskin o‘zgarmas. Gorizontallarni o‘z joyidan bir yoki ikki tomonga surish mumkin. Bir tomonga surganda relyefni ko‘tarma yoki qazish bilan tuzatish kerak; ikki tomonga surganda – bir tarafda ko‘tarma qilish, ikkinchi tarafda – qazish lozim. Relyefni tuzatishda shunisi ma’qul, chunki ishlar hajmi ancha kamayadi. Ishni shunday gorizontaldan boshlash kerakki, uni surganda qazish va ko‘tarma qilish ishlarining hajmlari taxminan teng bo‘lsin. Bunday gorizontalni uchastkadagi eng xarakterli kesimning vertikal profilini aniqlayotganda topiladi.

Nuqsonli uchastkalarning egriligini tuzatishda paletkadan foydalaniladi, lekin vertikal va loyihaviy yuza tuzilmaydi.

*Yonbag‘irlardagi relyeflarni tuzatish* alohida yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Misol tariqasida 10.10-rasmda uchish tasmasi yonbag‘rining bir qismi berilgan; undagi gorizontallar kesimi har 0,25 metrda. I—I yordamchi chiziqqa qarab, 8,25; 8,00 va 7,75 gorizontallar bir-biriga yaqinligini ko‘rish mumkin. Ular orasidagi joylashmalar ruxsat etilgandan kam deb faraz qilaylik. 8,25–8,00 va 8,00–7,75 gorizontallari orasidagi joylashmalarning farqi ko‘rinib turibdi. Shuningdek, nishabliklarning algebraik ayirmasi ruxsat etilganidan ko‘p bo‘lgani uchun saralash paytida, yuza ruxsat etilgandan ortiq egri ekanligi aniqlandi deb faraz qilamiz. Shunday qilib, yonbag‘ir nomaqbul nishablik va egrilik bilan tavsiflanadi.

Relyef yuzasini tuzatish uchun quyidagi dastlabki ma’lumotlar qabul qilinadi:  $i_{\max} = 0,020$ ;  $i_{\min} = 0,005$ ;  $R_{\min} = 6000$  m va kalka qog‘ozga paletka chiqiladi. Paletkani nuqsonli uchastkaga qo‘yib, dastlabki juft gorizontallarni (8,75 va 8,50) tanlaymiz; shunday tan-




**10.10-rasm. UT yuzasidagi nuqsonli uchastka rejasi va profili  
(ko'tarma qilib tuzatiladi):**

$P_y$  – yer yuzasi;  $P_i$  – loyihaviy yuza; I–I va II–II – yordamchi chiziqlar.  
Rejada loyiha gorizontallar punktir chiziqlar bilan yer yuzasi gorizontallari –  
sidiрг'a chiziqlar bilan ko'rsatilgan.

lash kerakki, ular orasidagi masofa paletkadagi joylashmalar bilan mos kelsin. Keyin paletkadan maqbul joylashmalarni topografik rejaga ko'chiramiz. Ko'rindiki, yuzaning egriligini tuzatish uchun bu gorizontallarni raqam belgisi kichik gorizontallar tomonga surish kerak, natijada ko'tarma qilish zarurati kelib chiqadi. Xuddi shu tarzda II–II yordamchi chiziq bo'ylab maqbul joylashmalarni ko'rsatadigan nuqtalardan loyiha gorizontallar o'tkazamiz. Ular bilan tavsiiflanadigan loyiha yuza ruxsat etilgan nishablik va egrilikka ega bo'ladi.

*To'lqinsimon gorizontalli uchastkada relyefni tuzatish* (tolvegli va suvbo'lgichli uchastkalar)da gorizontallarning to'lqinlanishi shu darajagacha kamaytiriladiki, rejadagi birismli gorizontallarning shoxlari orasidagi masofa paletkadagi DF vatarga aniq mos kelsin (10.6-rasm), yonbag'ir relyefini tasvirlovchi qo'shni gorizontallarning joylashmalari paletkadagiga qaraganda keskin o'zgarmasin ( $\Delta h = h_1$  bo'lgan holatda).



10.11-rasm. To'lqinsimon gorizontalli uchastkada relyefni to'g'rilash.


Gorizontallarning to'lqinlanishini pasaytirish quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

- 1) gorizontallarning tarmoqlari orasini ochish;
- 2) gorizontalarning siniq nuqtalarini surish;
- 3) tarmoqlar orasini ochishni siniq nuqtalarni surish bilan birlashtirish.

Uchinchi usul afzalroq, chunki bunda yer qazish ishlari turli ishoralarga ega bo'ladi. To'lqinlanishlarni tuzatish shunday bajarilishi kerakki, tuproq qazish va ko'tarma qilish hajmlari bir xil bo'lsin.

Gorizontal profil deganda mavjud va loyihaviy gorizontallar orasidagi yuza tushiriladi (10.11-rasm).

*Egarsimon uchastkada relyefni to'g'rilashdan oldin yerning tabiiy yuzasi ko'ndalang kesimini qurib, unga loyiha yuzaning chiziqlarini tushirish maqsadga muvofiq (10.12-rasm).*




10.12-rasm. Egarsimon uchastkada relyefni to'g'rilash.


Bunda qaziladigan profil yuzasi ko'tarma profil yuzasiga teng kelish sharti bajarilishi lozim. Loyiha yuzanining  $I/R_{\min}$  egrilikdagi egri chiziqli qismini masshtabli egri chiziq lekalosi yordamida ko'ndalang kesimga tushiriladi. Bu –  $R_{\min}$  radiusli egri chiziqning grafik tasviri bo'lib, ko'ndalang kesim qurilayotganda gorizontal va vertikal masshtablar hisobga olinadi. Masshtabli egri chiziq joylashimalar paletkasi yordamida quriladi (10.13-rasm).

Rasmdagi  $h_B$  tabiiy yuzasining vertikal profilini tuzishda qabul qilingan vertikal masshtabdagi gorizontallar kesimi. Lekaloni masshtabli egri chiziq shakli bo'yicha shaffof materialdan (organik shisha) qirqib olinadi. Tuzilgan ko'ndalang kesim va undagi loyiha yuzanining chiziqlari yordamida quyidagilar aniqlanadi: Qirgilgan gorizontallar soni va ularning raqamli belgilari; loyiha

relyefning suvbo'lgichi chiziqlarini surilishi  $\Delta_B$ ; loyiha profilidagi sinish nuqtasining qo'shni gorizontaldagi balandligi  $\Delta h$ . Rejaning ko'rileyotgan kesimida loyiha gorizontallarning holati paletka yordamida aniqlanadi. Bunda reja ustiga qo'yilgan paletkaning ordinating o'qi qiymatiga suriladi. Loyerha gorizontallarning raqam belgilari ko'ndalang kesim orqali aniqlanadi. Qo'shni kesimlardagi loyiha gorizontallarning holati shunday yo'l bilan aniqlanadi.



10.13-rasm. Masshtabli egri chiziq qurish.



10.14-rasm. Tepalikni joylashma paletkasi yordamida to'g'rilash.

### 10.3. Aerodromlarning grunt yuzalari vertikal rejasini raqamli belgilar usuli bilan loyihalash

Raqamli belgilar usuli bilan vertikal rejalarini loyihalash kvadratlardan to'ri uchlaridagi belgilarni shunday tuzatishdan iboratki, xususiy nishabliklar, ularning qo'shni kvadratlarning tomonlari yoki diagonallari bo'yicha o'lchangan algebraik farqlari (yuza egriligining tavsifi) ruxsat etilgan me'yordan chiqib ketmasin. Yer yuzasi nishabligini belgilar usuli bilan loyihalanganda kvadratlarning qo'shni uchlaridagi belgilar farqi topiladi, eng katta va eng kichik nishablikka tegishli ruxsat etilgan farq bilan taqqoslanadi va agar yerning raqamli belgilari nishabliklar bo'yicha me'yorlarni qoniqtirmasa to'g'rilanadi. Uchlaridagi nivelirlovchi setka uzellarining raqamli belgilar  $H_1$  va  $H_2$  ma'lum bo'lganda yuzanining nishabligi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$i = \Delta H/a, \quad (10.15)$$

bu yerda:  $H = H_2 - H_1$  – yer belgilarining kvadrat diagonalini yoki tomoni bo'yicha farqi, ya'ni kvadrat uchidagi nuqtaning qo'shnisidan balandligi;  $a$  – nivelirlovchi to'r kvadratining tomoni uzunligi.


Formuladan ko'rindiki,  $\Delta H = a$ . Bundan kelib chiqadiki, « $a$ » ning qiymati doimiy bo'lsa,  $H$  nishablikka to'g'ri proporsional tarzda o'zgaradi. Belgilar farqi to'rdagi qo'shni uchlar orasidagi nishablikni ham ko'rsatadi. Ruxsat etilgan nishabliklar  $i_{\min}$  bilan  $i_{\max}$  oralig'ida bo'ladi. Yuza nishabligini raqamli belgilar usuli bilan to'g'rilashda avval nivelirlovchi to'r rejasida kvadratlardan tomonidagi qo'shni nuqtalar belgilarining farqi  $\Delta H_i$  topiladi. Eng kam va eng ko'p nishabliklarga mos ruxsat etilgan farqlar aniqlanadi:

kvadrat tomonlari uchun

$$\Delta H_{\min(\max)} = i_{\min(\max)} a; \quad (10.16)$$

diagonallar uchun

$$\Delta H_{\min(\max)} = i_{\min(\max)} a\sqrt{2}. \quad (10.17)$$



10.15-rasm. Yuzaning raqam belgilari farqini aniqlash uchun reja va profil.

Keyin kvadratning har bir tomonidagi qo'shni nuqtalarning belgilaring farqlari  $\Delta H_{\min}$  va  $\Delta H_{\max}$  bilan taqqoslanadi. Agar

$$\Delta H_i < \Delta H_{\max} \text{ va } \Delta H_i > \Delta H_{\min} \quad (10.18)$$

bo'lsa, kvadratning tekshirilayotgan tomoniga mos yuzaning nishabligini o'zgartirmasdan, shunday qoldirish mumkin. Kvadratning tomonlari bo'yicha mavjud nishablikni quyidagi formuladan topish mumkin:

$$i = \Delta H / a. \quad (10.19)$$

Agar yuqoridagi shartlar bajarilmasa, kvadrat uchlarining belgilarini tegishli miqdorga o'zgartirish lozim. Bu ishni uch usulda bajarish mumkin.

$\Delta H > H_{\max}$  holatni ko'rib chiqamiz.


*1-usul. Uyma qilish.* O'zgartirish taqqoslanayotgan ikki belgidan  $H_2$  kattasini  $h_2 = \Delta y$  miqdoricha kamaytirishdan iborat. Shunda B uchdagi loyihaviy belgi quyidagicha bo'ladi:

$$H_{lo} = H_2 - \Delta y. \quad (10.20)$$

«A» uchning belgisi o'zgarishsiz qoldiriladi. Relyef tuzatilgandan keyin A va B uchlar belgilaring farqi  $H_{\max}$  ga, loyiha yuzaning nishabligi  $i_{\max}$  ga teng bo'ladi.

10.16-a rasmdagi sxemaga rioya qilib,  $\Delta y$  ni topamiz:

$$(H_2 - \Delta y) - H_i = \Delta H_{\max}, \quad (10.21)$$



**10.16-rasm. Nishabligi  $i > i_{\max}$  bo‘lgan uchastkani belgilari usuli bilan tuzatish:**  
 1 – mavjud yuza; 2 – loyihaviy yuza.

$$\Delta y = (H_2 - H_1) - \Delta H_{\max} = \Delta H - \Delta H_{\max}. \quad (10.22)$$

$\Delta H$  ning qiymati nivelerlovchi syomkadan olinadi va quyidagi hisob bajariladi:

$$\Delta H_{\max} = i_{\max} a. \quad (10.23)$$

**2-usul. Ko’tarma qilish.** O’zgartirish taqqoslanayotgan ikki belgidan biri  $H_1$  ni  $h_1 = y$  qiymatga ko‘paytirishdan iborat. Bu holda  $B$  uchning belgisi o‘zgarmaydi,  $A$  niki  $y$  ga ortadi. Tuzatish kiritilgandan keyin  $A$  va  $B$  uchlarning belgilari, 1-usuldagagi singari,  $H_{\max}$  va loyihaviy yuzanining nishabligi  $i_{\max}$  bo‘ladi.

Quyidagi formuladan  $y$  ni topamiz (12.16-b rasm):

$$H_2 - (H_1 + \Delta y) = \Delta H_{\max}. \quad (10.24)$$

Bundan

$$\Delta y = (H_2 - H_1) - \Delta H_{\max} = \Delta H - \Delta H_{\max}. \quad (10.25)$$

*3-usul. Uyma va ko'tarma qilish.* O'zgartirish taqqoslanayotgan ikki belgidan kichigi  $H_1$  ni  $h_1$  ga ko'paytirish va kattasi  $H_2$  ni  $h_2$  ga kamaytirishdan iborat. Sxemaga (10.16-d rasm) rioya qilib yozamiz:

$$(H_2 - h_2) - (H_1 + h_1) = \Delta H_{\max}, \quad (10.26)$$

bu yerda:  $h$  – kiritilayotgan kuzatishlar yig'indisi  $\Delta h = h_1 + h_2$ . Tuzatishlar yig'indisi quyidagicha:

$$h_1 + h_2 = \Delta H - \Delta H_{\max}. \quad (10.27)$$

$h_1 = h_2$  deya qabul qilib, qazish va to'kish ishlari teng bo'lishiga ega bo'lamiz.  $h_1$ ning turli qiymatlariga turli hajmdagi qazish ishlari to'g'ri keladi.

Nishabлari ruxsat etilgan eng kam me'yordan kichik uchastkalarni loyihalash  $\Delta H < \Delta H_{\min}$  holatdagiga o'xshash. Agar  $\Delta H > \Delta H_{\min}$  bo'lsa, qo'shni uchlardagi natura belgilar shunday tuzatilishi kerakki, ularning ayirmasi  $\Delta y$  ga o'zgarib,  $\Delta H_{\min}$  ga teng bo'lsin, ya'ni

$$\Delta H_{lo} = \Delta H + \Delta y = \Delta H_{\min}. \quad (10.28)$$

Tuzatish quyidagi ifodadan topiladi:

$$\Delta y = \Delta H_{\min} - \Delta H. \quad (10.29)$$


Yer yuzasi belgilariga kerakli tuzatish –  $\Delta y$  ni kiritish yuqoridagi kabi 3 usul: qazish, ko'tarish va qazish-ko'tarish bilan amalga oshiriladi (10.17-a rasm).

Uyma qilinsa (10.17-a rasm),

$$\Delta H_{\min} = H_2 - (H_1 - \Delta y) = \Delta H + \Delta y. \quad (10.30)$$

Ko'tarma qilinsa (10.17-b rasm):

$$(H_2 + \Delta y) - H_1 = \Delta H_{\min} = \Delta H + \Delta y. \quad (10.31)$$



10.17-rasm. Nishablari  $i < i_{\min}$  bo'lgan uchastkalarni tuzatish:  
1 – mavjud yuza; 2 – loyihaviy yuza.


Qisman uyma, qisman ko'tarma tuzatilganda:

$$h_1 + h_2 = \Delta H_{\min} - (H_2 - H_1) = \Delta H_{\min} - \Delta H. \quad (10.32)$$

Relyefni nivelerlovchi to'r chiziqlari bo'yicha tekshirishdan tashqari, diagonal yo'naliishda ham tushiriladi. Bu holda (10.18) formuladan foydalанилди.

Yer yuzasi egriligini raqamli belgilar usuli bilan loyihalaganda qo'shni kvadratlarning tomonlari bo'yicha ortiqlikning algebraik farqi aniqlanadi va u egrilikning eng kichik radiusiga tegishli ruxsat etilgan farq bilan taqqsolanadi. Agar ular me'yorga to'g'ri kelmasa, raqamli belgilar tuzatiladi. Ortiqlikning ruxsat etilgan algebraik farqi quyidagi ifodalar yordamida aniqlanadi: 10.18-rasmagi sxema uchun

$$\Delta_i = i_1 - i_2 = \frac{\Delta H_1}{a} - \frac{\Delta H_2}{a} = \frac{\Delta H_1 - \Delta H_2}{a}. \quad (10.33)$$



10.18-rasm. Turli nishablikdagи tutash uchastkalarning profili va rejasi.

Demak, umumiy holda

$$\Delta H_n - \Delta H_{n+1} = a(i_n - i_{n+1}). \quad (10.34)$$

Ma'lumki, qo'shni uchastkalardagi nishablikning algebraik farqi (qarama-qarshi nishabliklar yig'indisi va bir tomon nishabliklar ayirmasi) egrilik radiusi va qo'shni uchastka uzunligi bilan bog'liq:

$$i_n - i_{n+1} = a/R_{\min}. \quad (10.35)$$

Bu formulani oldingisiga qo'yib topamiz:

$$\Delta H_n - \Delta H_{n+1} = a \frac{a}{R_{\min}} = \frac{a^2}{R_{\min}}. \quad (10.36)$$

Shunday qilib, kvadratlarning tomoni bo'yicha ortiqlikning ruxsat etilgan farqi quyidagi formuladan aniqlandi:

$$\Delta^2 H_n = \Delta H_n - \Delta H_{n+1} \leq \frac{a^2}{R_{\min}} \quad (10.37)$$

yoki

$$\Delta^2 H_n = \Delta H_n - \Delta H_{n+1} \leq a(i_n - i_{n+1}), \quad (10.38)$$

bu yerda  $a$  – nivelirlovchi to‘r kvadrati tomonining o‘lchami;  $R_{\min}$  – yuza egriligining ruxsat etilgan eng kichik radiusi;  $i_n - i_{n+1}$  – kvadratlarning ikki qo‘shti tomonlari nishabligining ruxsat etilgan algebraik farqi;  $\Delta H_n$  – kvadrat uchlaridagi belgilar farqi (ortiqligi);  $\Delta^2 H_n = H_n - H_{n+1}$  – ikki qo‘shti kvadratning tomonlari bo‘yicha ortiqlikning algebraik farqi (bu yerda va keyin ham  $\Delta$  ga tegishli «2» raqami kvadratga ko‘tarishni emas, belgilarning «ikkinchisi farqi» ni yoki «ortiqlikning farqi» ni anglatadi):

$$(\Delta H_1 = H_1 - H_0; \Delta H_2 = H_2 - H_1; \Delta H_3 = H_3 - H_2).$$

Ortiqliklarning ruxsat etilgan eng katta algebraik farqi egrilikning eng kichik radiusiga bog‘liq holda (rejaning nivelir to‘ri kvadratinining tomoni  $a=40$  m bo‘lganda), quyidagi qiymatlarga ega:

$R_{\min}, \text{m}$	10000	8000	6000	4000	3000	2000
$\Delta^2 H_n, \text{m}$	0,16	0,20	0,27	0,40	0,53	0,80

#### 10.4. Aerodromlarning grunt yuzalari vertikal rejasini raqamli belgilar bilan loyihalash ketma-ketligi

Relyefni rejada raqamli belgilar bilan loyihalash quyidagi tartibda bajarilishi maqsadga muvofiq (10.19-rasm):


1. Ruxsat etilgan eng kichik va eng katta nishabliklarning  $i_{\min}$ ,  $i_{\max}$  berilgan me’yoriy qiymatlari, egrilikning ruxsat etilgan radiusi bo‘yicha quyidagilar aniqlanadi:

kvadratning qo‘shti uchlarining ruxsat etilgan eng kichik ortiqligi:

$$\Delta H_{\min} = ai_{\min}; \quad (10.39)$$

kvadratning qo‘shti uchlarining ruxsat etilgan eng katta ortiqligi

$$\Delta H_{\max} = ai_{\max};$$



**10.19-rasm. Relyefni belgilar usuli bilan loyihalash sxemasi  
(strelkalar bilan nishablik yo‘nalishi ko‘rsatilgan).**

kvadratning ikkita qo‘shni tomoni bo‘yicha ortiqlikning ruxsat etilgan eng katta farqi

$$\Delta^2 H_{r.e} = a^2 / R_{\min}.$$

2. Raqamli belgilar qo‘yilgan rejada mavjud relyefni tuzatish yo‘nalishlari (10.19-rasmida  $I-I$  yo‘nalishi) aniqlanadi va shu yo‘nalishlar bo‘yicha nivelirlash to‘ri kvadratlarining uchlari uchun yer belgilarining qo‘shni nuqtalar orasidagi ortiqligi hisoblab topiladi ( $\Delta H_{\text{mav}}$ ). Hosil bo‘lgan  $\Delta H_{\text{mav}}$  qiymatlar kvadrat tomoni o‘rtasiga yozib qo‘yiladi.

3. Ko‘rilayotgan yo‘nalishlar bo‘yicha har qaysi ikki qo‘shni kesma uchun ortiqliklarning absalut farqi  $\Delta^2 H_{\text{mav}}$  topiladi. Bu qiymatlar  $\Delta^2 H_{\text{mav}}$  tegishli nuqtalar tepasiga yozib qo‘yiladi.

4. Nuqtalar orasidagi ortiqliklar –  $\Delta H_n$  ruxsat etilgan  $\Delta H_{\min}$  va  $\Delta H_{\max}$  qiymatlar bilan taqqoslanib, relyefning nishabliklar bo‘yicha nuqsonlari topiladi.

5. Ortiqliklarning aniqlangan farqlari qiymatlari –  $\Delta^2 H_{\text{mav}}$  ni ruxsat etilan farqlar –  $\Delta^2 H_{r.e}$  bilan taqqoslab, relyefning egrilik bo‘yicha nuqsonli uchastkalari aniqlanadi.

6. Yuqorida aytilgan usullar bilan nomaqbul nishablik va egilikka ega bo'lgan uchastkalarning nuqsonlari tuzatiladi. Tuzatish ikkala nuqsonlar bo'yicha bir vaqtida bajariladi. Tegishli nuqtalar uchun hisoblab topilgan loyihaviy belgilar natura belgilari ostiga yozib qo'yiladi.

7. Relyefni  $I-I$ ,  $III-III$ ,  $V-V$  yo'nalishda tuzatgandan so'ng ularga perpendikular  $II-II$ ,  $IV-IV$ ,  $VI-VI$  yo'nalishlarda relyefning nishabligi va egriligi tuzatiladi. Shuni nazarda tutish kerakki,  $i_{\max}$  va  $R_{\min}$  larning me'yoriy qiymatlari turli yo'nalishlarda turlicha bo'lishi mumkin, shuning uchun loyihalash jarayonida tekshirishni va ilgari ko'rilib o'nalishdagi belgilar tuzatilganini bot-bot takrorlab turish kerak; bir-biriga perpendikular yo'nalishdagi belgilar o'zaro mos tushmaguncha davom etaveradi.

8. Relyefni loyihalashning so'nggi bosqichida ishchi hujjatlar tuzilib, nivelerlovchi to'rning kvadratlari uchida ishchi belgilar, loyiha gorizontallar ko'rsatiladi.

## **11-bob. AERODROMLARNING SUN'iy QOPLAMALARINI VERTIKAL REJALASHNI LOYIHALASH**

---

### **11.1. Sun'iy qoplamlarni vertikal rejalashni loyihalash xususiyatlari**

Sun'iy qoplama – aeroportning asosiy inshootlaridan biri, aeroportning ekspluatatsiya va texnik imkoniyatlari ko‘p jihatdan unga bog‘liq.

SUQT ning yuzasiga bo‘ladigan talablar GUQT yuzasiga qo‘yiladiganlarga qaraganda ancha qat’iy. Masalan, HK ning ko‘tarilish va qo‘nish sharoitlarini yaxshilash va qoplama maydonini qisqartirish uchun SUQT da ruxsat etilgan eng katta bo‘ylama nishablikni GUQT ga qaraganda ancha kam olinadi. SUQT yuzasi egriligining eng kichik radiusi esa GUQT dagiga qaraganda ancha katta bo‘lishi mumkin.

Qoplamalarning ishlash sharoitini yaxshilash va yuzaning kerakli darajadagi tekisligini ta’minlash uchun qoplamlarni yomg‘ir va erigan suvlardan himoyalash chegaralarini qurish zarur. Sun'iy qoplamalarning vertikal rejasini loyihalash vazifasi relyef loyihasini ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, bu relyef HK ning xavfsiz ko‘tarilishi va qo‘nishini, qoplamalarning turg‘unligi va uzoq xizmat muddatini va yechimlarning tejamkorligini ta’minalashi lozim. Bularning bariga nishabliklar, egriliklar va UT da ko‘rinuvchanlikka bo‘lgan talablarga rioya qilish bilan erishiladi (10.2-§).

Sun'iy qoplamlar konstruktsiyasining barqarorligi va uzoq xizmat qilishi uchun ularning chetlari yon-atrofdagi yer yuzalaridan balandroq qilib ishlanadi, shunda suv bosishdan himoyalanadi, ho‘l bo‘lib qolsa, tez quriydi. Sun'iy qoplamlardan atmosfera


yog‘inlari tez tushib ketishi uchun relyefga bo‘ylama va ko‘ndalang yo‘nalishlarda ma’lum shakl beriladi.

Sun’iy qoplamlarni vertikal rejalashning tejamkorligi yer qazish ishlari hisobiga bo‘ladi; bunda loyihaviy yuzani mavjud yuzaga iloji boricha yaqinlashtirishga harakat qilinadi.

Qoplamalarning hisobiy mustahkamligini ta’minlash va qimmatbaho qurilish materiallaridan foydalanish qoplama konstruksiyalari qalinligiga aniq rioya qilishni taqazo etadi. Bunga raqamli belgilarni naturaga chiqarish bo‘yicha taqsimlash ishlarini aniq bajarish bilan erishish mumkin. Bu talabni to‘liq qondirish sharti shuki, qoplama yuzasi tekislik bo‘lishi kerak. Biroq, zamonaviy aerodromlarda UT ning uzunligi 2500–3000 m va undan ortiq bo‘ladi, sun’iy qoplama yuzasini yaxlit bir tekislik qilib bajarib bo‘lmaydi, unda to‘lqinlanish albatta bo‘ladi. Bunday sharoitda sun’iy qoplamaning yuzasini alohida-alohida tekislikka shunday taqsimlash kerakki, har biridagi bo‘ylama va ko‘ndalang nishabliklar o‘zgarmas bo‘lsin, shunda sun’iy qoplama yuzasi mavjud yuzaga eng ko‘p yaqinlashgan bo‘ladi.

Shunday qilib, aerodrom qoplamlari yuzasini loyihalaganda, uchish maydonining egri chiziqlardan iborat gruntli uchastkalari relyefini loyihalashdan farqli ravishda fazoda turlicha qiyaliklar bilan joylashgan alohida-alohida tekisliklarning birikishidan iborat deb qabul qilinadi. Qoplamalarni qurish ishlarini normallashtirish shartlaridan kelib chiqib alohida tekisliklar uzunligini iloji boricha katta, enini esa beton yotqizuvchi agregat eniga karrali olish kerak. HK larini ekspluatatsiya qilish va birinchi navbatda, SUQT yuzasi juda tekis bo‘lishi shartlaridan kelib chiqib, siniq chiziqlar, ya’ni alohida tekisliklar kesishgan chiziqlar orasini iloji boricha kattaroq olish kerak.

Sun’iy qoplamlar yuzasini loyihalashda uchraydigan har qanday holatni alohida tekisliklar tizimining birikmasi deb tasavvur qilish mumkin. Bu tekisliklar sun’iy qoplamaning hamma yuzasi bo‘yicha siniq, lekin uzlucksiz yuzalar birikmasini hosil qiladi. Qoplama yuzasini hosil qilishda tekisliklarni joylash usullarini ko‘rib chiqamiz.




*11.1-rasm. Ikki nishabli ko'ndalang profil yuzasi uchastkalarining tutashivi:*

*a) o'zgarmas bo'ylama va ko'ndalang nishabliklar bilan; b) o'zgarmas ko'ndalang nishablik va turli bo'ylama nishabliklar bilan; 1 – qirra; 2 – «ko'ndalang».*


Eng oddiy holat – bo'ylama va ko'ndalang nishabliklari doimiy ikki tekislikning tutashivi. Bu tekisliklar qoplama o'qi bilan ustmaust tushadigan chiziq bo'yicha tutashib, ikki nishabli simmetrik qoplama hosil qiladi (11.1-a rasm). Shunday qilib qoplama yuzasi ikkita tekislik bilan hosil bo'ladi. Qoplamaning bo'ylama nishabligini o'zgartirish uchun uning o'qiga perpendikular bo'lgan to'g'ri chiziq atrofida aylantirish kerak. Bu chiziqning qoplama tekisligi ichidagi qismi «ko'ndalang» deb ataladi. Bunday holda ikki nishabli ko'ndalang profilli qoplamaning uchastkasi to'rtta tekislikning tutashuvidan hosil bo'ladi (11.1-b rasm).

Ko'ndalang nishabliklari har xil bo'lgan ikki nishabli ko'ndalang profillarning yuzalari uchastkalari bir-biri bilan tutashganda, asosiy tekisliklar orasidagi yuzalar sidirg'a bo'lib ketishi uchun kamida yana bitta tekislik – to'ldiruvchi tekislik hosil qilish kerak. Bunda «ko'ndalang»lardan tashqari *AB* va *BC* to'g'ri chiziqlar paydo bo'ladi, ular «diagonal» lar deb ataladi. Ular rejada qoplama o'qiga birmuncha burchak bilan joylashadi.



*11.2-rasm. Ko'ndalang nishabliklari har xil bo'lgan ikki nishabli ko'ndalang profil yuzasini hosil qiluvchi tekisliklarning joylashushi:*

*1 – ko'ndalang; 2 – diagonal.*



*11.3-rasm. Sun'iy qoplama yuzasi tekisliklarining tutashuvi  
(to'ldiruvchi tekislik ikkita).*

11.3-rasmda tasvirlangan uchastka o'zaro tutashgan bir qancha tekisliklardan iborat. Qoplama yuzasi sidirg'a bo'lislini ta'minlash maqsadida ikkita asosiy tekislik – *I* va *II* orasida ikkita to'ldiruvchi tekislik *III* va *IV* ni hosil qilish kerak.

Keltirilgan misollardan ko'rindiki, sun'iy qoplamlarning loyihaviy yuzasini tuzishning hamma yo'llari, bir-biri bilan birikib siniq chiziq va uzlusiz yuza hosil qiladigan tekisliklar tizimi sifatida taqdim qilinishi mumkin. Sun'iy qoplamlarning loyihaviy yuzasini aerodrom uchastkasining mavjud yuzasi xarakteriga qarab loyihalash kerak. Bunda butun uchish maydoni relyefi hisobga olinadi va SUQM ning shunday loyiha profili bilan balandlik holati tanlanadiki, ular sun'iy qoplamadan ham, uchish maydonidan ham suvlarni uzoqlashtirishni ta'minlasin.

Relyef aslida tekis bo'lsa, loyihalashni sun'iy qoplamadan boshlash kerak, chunki uchish maydonini vertikal rejalah asosan shunga bog'liq. Mavjud relyef murakkab va past-baland bo'lsa, avval nishabliklar va egriliklarning me'yorlariga binoan relyefni tuzatish (yuqorida keltirilgan usullar bilan) kerak, shundan keyingina sun'iy qoplamlar loyihalanadi.

Sun'iy qoplamlarni vertikal rejalahda ikkita masala hal qilinadi: loyiha yuzaning balandlik holati belgilanadi va loyiha yuzaning rejasi tuziladi.

## 11.2 Qoplama yuzasining balandlik holati va ko'ndalang profili

Qoplamlar yuzasidan suvni qochirish uchun ko'ndalang profilga ahamiyat beriladi. Bu – bir tomonga yoki ikki tomonga nishab qilish demakdir, ya'nii ko'ndalang profil bir nishabli yoki ikki nishabli qilib quriladi. Ko'ndalang nishablik sun'iy qoplama konstruktsiyasi va profilning turiga qarab tanlanadi. Yuzada notekisliklar qancha ko'p bo'lsa, suvning oqib ketishi shunchalik yomonlashadi. Shuning uchun g'adir-budir yuzalarda (masalan, chaqiq tishli, grunt va chaqiq toshli, grunt va mayda toshli) ko'ndalang nishablik katta olinadi. Ko'ndalang nishablik, shuningdek, qoplama yuzasidan suvni qochirish usuliga ham bog'liq. Bir nishabli qoplamada qiyalik ancha uzun bo'ladi (qoplama qirrasidan ariqqacha), shuning uchun ko'ndalang nishablik katta bo'lishi kerak. Ikki nishabli qoplama da, qiyalik kaltaroq, suv o'tadigan masofa kichik, tez oqib ketadi, demak, ko'ndalang nishablik ham kamroq bo'lsa kifoya qiladi.

Ko'ndalang nishablikni tanlayotganda HK ko'tarilishi va qo'nishi uchun qulaylikni ham unutmaslik kerak.

SUQT da ko'ndalang nishablik RY, TJ va perronlardagiga qaragada kichikroq bo'ladi.

Ko'ndalang profil turini tanlayotganda quyidagi qoidalarga amal qilish zarur. SUQT ning ko'ndalang profili ikki nishabli va qirrasi simmetrik joylashgan bo'lgani ma'qul (11.4-a rasm).

Agar mavjud yuza nishabligi 0,01 dan ortiq bo'lsa, bir nishabli SUQT qurish ruxsat etiladi.

Nishabligi katta qiyalik yerda ikki nishabli qoplama qurilsa, pastki chetini ancha ko'tarish lozim. Tepa tomonida esa gruntli tarnov quriladi, shunda qoplama yuzasini suv bosmaydi. UT chegaralarida gruntli tarnov qilish uchun uni texnik-iqtisodiy dalil-




11.4-rasm. Sun'iy qoplamlar ko'ndalang profilining turlari:  
a, b – ikki nishabli; c, d – bir nishabli.

lash va gidrogeologik, hidrologik va muhandis-geologik sharoitlar hisobga olinishi kerak (11.4-*b* rasm). Joyning ko'ndalang nishabligi katta bo'lsa, bir nishabli profil tanlash maqsadga muvofiq (11.4-*d* rasm). Ko'ndalang nishablik kattalashsa, ko'tarma qilish ishi ko'payadi. Bu ishni yengillatish uchun qoplamaning yuqori tomonida grunt tarnov qaziladi (11.4-*e* rasm).

Demak, ko'ndalang profilining turi loyihalanayotgan aeroport toifasiga va joyning muayyan sharoitlariga bog'liq.


SUQT da asosan ikki nishabli simmetrik profil tanlanadi (11.5-*a* rasm). Bitta SUQT da bir va ikki nishabli ko'ndalang profil bo'lishi ham ruxsat etiladi.

Ikki nishablikdan bir nishablikka, yoki aksincha, bir nishablikdan ikki nishablikka o'tish zaruriyati texnik-iqtisodiy hisoblar bilan dalillangan bo'lishi kerak. Ikkitadan bittaga o'tishda qoplama qirrasi



11.5-rasm. SUQT va RY ning ko'ndalang profili:

- a), b) ikki va bir nishabli; d) RY ning bir nishabli profili; 1 – grunt tarnov o'sqi;
- 2 – otmostka; 3 – qoplama; 4 – asos; 5 – tabiiy asos; 6 – qirra cheti drenasi;
- 7 – qoplama cheti.



**11.6-rasm.** SUQM ning ikki nishabli profilidan bir nishabli profilga o'tishda qirraning rejada surilishi.


o'rtadan chetga suriladi (11.6-rasm). Bu holda simmetrik bo'lмаган икки нишабли ко'ндаланг профил ко'рилган. Ба'зан quyи тоифали aerodrom qurishda yoki beton yotqizuvchi mashinalarning qamrovi plitalarni ко'ндаланг yotqizish uchun yetarli bo'lmasa, shunday profil turini butun SUQT uchun tanlanishi mumkin. Joyning ко'ндаланг nishabligi qancha katta bo'lsa, qirra shuncha ko'п suriladi.

Biroq, shuni ham hisobga olish kerakki, nosimmetrik икки nishabli ко'ндаланг профил qurilish texnologiyasini, HK lari ko'tarilishi va qo'nishi sharoitlarini murakkablashtiradi, shu sababdan uni alohida vaziyatlarda, tegishli texnik-iqtisodiy hisoblar bilan qurish kerak.

Rullash yo'llari (RY) ning eni SUQT ga qaraganda kichik bo'ladi, yerusti suvlarining undan oqib ketishi oson. HK lari RY da kichik tezlikda yuradi. Shu sabablarga ko'ra RY va TJ ning yuzasi shakliga bo'ladigan talablar SUQT ga qaraganda qattiq emas. Ularni икки va bir nishabli qilib qurish mumkin (11.5-rasm).

### 11.3. Qoplamlarning bo'ylama profilini loyihalash

Sun'iy qoplamlar relyefini loyihalashda eng muhim element bo'ylama profil hisoblanadi. Uni loyihalashda loyiha yuzanining tanlangan balandligiga qarab, nishablik va egrilik radiuslari me'yorlaridan kelib chiqiladi. Yaxshi ko'rinish turishi uchun bo'ylama profilni masshtab qoidalaridan chiqib aks ettiriladi: TID bosqichida 1:5000 gorizontal masshtab, 1:100 vertikal masshtab, ishchi loyihada 1:12000 gorizontal masshtab, 1:50 vertikal masshtab.



*11.7-rasm. Bo‘ylama profilini o‘rab oluvchi chiziq bo‘yicha loyihalash sxemasi.  
1 – mavjud yuza profili; 2 – loyiha yuza profili.*

Qoplamaning bo‘ylama profilini SUQT o‘qiga nisbatan loyihalaganda quyidagi qoidalardan kelib chiqiladi:

1. SUQT ning bo‘ylama profilini ko‘rinishi mavjud yuzaning relyefiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Bo‘ylama profilni loyihalashda mavjud tabiiy yuzaga yaqinlashish tamoyilini qo‘llaganda va o‘rab oluvchi siniq chiziqlar bilan tasvirlanadi (11.7-rasm).

2. Loyihaviy profildagi siniqlarni mavjud yuzadagi siniqlar va piket nuqtalar bilan ustma-ust tushirish kerak. Shundan ishlar oson ko‘chadi. Siniqlar soni kam bo‘lishi kerak. Ayniqsa, loyiha profilning nishablikni teskariga o‘zgartiradigan siniqlari maqsadga muvofiq emas (bunday hol suv ayirg‘ichlarda, talveglarda, SUQT trassasi bilan kesishganda uchraydi).

Bo‘ylama profil to‘lqinsimon bo‘lganda (talveglar va suv ayirg‘ichlardan o‘tish joyida) SUQT bo‘ylama qo‘shti siniqlarining orasidagi masofa  $L$  – quyidagi shartga javob berishi kerak:

$$L \geq R_{\min} (\Delta I_1 + \Delta I_2),$$

bu yerda  $R_{\min}$  – vertikal egrilikning eng kichik radiusi;  $I_1$ ;  $I_2$  – SUQT elementlarining qo‘shti siniqlaridagi bo‘ylama nishabliklarning algebraik ayirmasi.

3. Bo‘ylama profilning hamma uchastkalarida SUQT dan va kurs radiomayog‘i oldidan ko‘rinish talablari qondirilishi lozim.

4. HK lari ko‘tarilishi va qo‘nishi uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida bo‘ylama profil to‘lqinsimon bo‘lishiga yo‘l qo‘ymalik kerak. Buning uchun yuzadagi bir nechta botiq va qabariq siniqlarni birlashtirib, yiriklash kerak; bunda loyiha profilida arrasimon shaklga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Agar mavjud yuzadagi ayrim uchastkalarning


nishabligi bir-biridan ko'p farq qilmasa, ularni umumlashtirib, o'rtacha qiymatini chiqargan maqsadga muvofiq. Shunda loyiha profilni unga moslash oson kechadi va siniqlar soni kamayadi.

5. Mavjud yuzaning nishabliklari va egriligiga nomaqbul bo'lgan va yaxshi ko'rinishni ta'minlamaydigan uchastkalari ruxsat etilgan me'yorlar asosida to'g'rilanishi kerak. Loyiha yuzaning turli variantlarini tanlab loyihalashda butun SUQT bo'yicha nuqsonli uchastkalar bo'yicha eng oqilona yechimlar tanlanadi.

6. Nishabligi bo'yicha nuqsonli uchastkalarni tuzatish yo'llari:  
 $a)$  ko'tarma sxemasi bo'yicha;  $b)$  o'yma sxemasi bo'yicha;  $d)$  ko'tarma qilish va o'yma sxemasi bo'yicha.

Nishabligi kamaytirilishi lozim bo'lgan uchastkani ko'ramiz, ya'ni  $i_{mav} > i_{max}$ . Nuqsonni bartaraf etish uchun qo'shni uchastkalarning relyefini ham hisobga olish lozim.

**Ko'tarma qilish** (11.8- $\alpha$  rasm). Bu holda loyihalanuvchi yuza uning past tarafidagi qo'shni uchastka hisobiga to'ldiriladi.



11.8-rasm. Qiya uchastkalarni to'g'rilash:

$a)$  ko'tarmada;  $b)$  o'ymada;  $d)$  ko'tarma-o'ymada;  $I$  – uchatskaning aralash yuqori qismi;  $II$  – nuqsonli uchastka;  $III$  – uchastkaning aralash quy'i qismi. Shtrixli chiziq – tabiiy yuza, uzluksiz chiziq – loyihamiy yuza.

**O'yma** (11.8-*b* rasm). Bu holda nishablikni kamaytirish tepe tomondagi qo'shni uchastka hisobiga bo'ladi. Bu usul, agar tepadagi uchastkaning nishabi loyihalanayotgandagidan kamroq bo'lsa qo'llanadi. Aks holda ko'tarma usulidan foydalanish kerak. Loyihaviy bo'ylama profilni qurish bo'yicha ko'rilgan shartlarni hisobga olganda yer qazish ishlari kamayadi.

**Ko'tarma qilish – o'yma** (11.8-*d* rasm). Bu holda loyihaviy bo'ylama profil chizig'i balandlik bo'yicha oraliq holatda bo'ladi. Agar pastdagi qo'shni uchastkaning nishabligi yuqoridagi qo'shni uchastka nishabligidan katta bo'lsa, profildagi dastlabki («nolevoy») nuqtani nuqsonli joyning yuqori chegarasiga yaqinroqdan olish kerak. Aks holda, pastki chegaraga yaqin olinadi. Bu qoidalardan foydalanish muvozanatlash hisobiga yer qazish ishlarini kamaytiradi.


Sun'iy qoplamlarning eng kichik bo'ylama nishabligini kamida 0,0025 olish kerak; shunda qoplam yuzasidagi suvlarni tarnovlarga oqib tushishi qulay bo'ladi. Nishablik kamroq bo'lsa, arrasimon profillik ochiq tarnovlar qurish kerak. Shuning uchun mavjud yuzada  $i_{\text{mav}} < i_{\text{max}}$  bo'lsa, yuzani tuzatish kerak. Nishabligini kattalashtirish talab etiladigan uchastkalarning bo'ylama profilini loyihalash usullari,  $i_{\text{mav}} > i_{\text{max}}$  bo'lgan uchastkalar uchun yuqorida ko'rilgan uchta usulga o'xshash.

7. Bo'ylama profildagi loyiha chiziqlarning siniqlari me'yoriy qiymatlardan oshmasligi kerak. Ularni bir-biri bilan taqqoslab ( $\Delta i$  va  $\Delta i_{\text{max}}$ ), qaysi birini tuzatish kerakligi aniqlanadi.

Siniqliknin me'yoriy qiymatgacha keltirish uchun ikki qo'shni loyiha chiziqlari orasidagi burchak ko'pburchakli chiziq bilan to'ldiriladi (11.9-rasm); bunda ko'pburchakning tomonlari loyihalashning eng kichik qadami bilan chegaralanadi. Masalan, agar tuzatilishi lozim bo'lgan siniqlik  $\Delta i_{\text{nuq}}$  bo'lsa,  $\Delta i_{\text{r.e.}} \leq \Delta i_{\text{nuq}}$  munosabatiga muvofiq kichik qiymatli  $n$  ta siniqlar bilan almashtirilishi mumkin.

Agar  $\Delta i_{\text{r.e.}} < \Delta i_{\text{max}}$  deb qabul qilsak, nuqsonli siniqni tuzatish uchun kiritiladigan ko'pburchak tomonlari soni quyidagicha aniqlanadi:

$$n = \Delta i_{\text{nuq}} / \Delta i_{\text{max}},$$



**11.9-rasm. Yuzadagi ruxsat etilmagan siniq chiziq qiymatlarini to‘g‘rilash mumkin bo‘lgan holatlari:**

a) o‘yiq siniq chiziqda; b) botiq siniq chiziqda.

bu masalani yechishda ko‘pburchak tomonlarining soni  $m$  va siniqlar soni  $n$  butun sonlar bo‘lishi kerak.  $m$  ning soni  $n$  lardan bittaga kam ekanligini sxemadan ko‘rish mumkin:

$$m = n - 1.$$

8. Loyihalanuvchi yuzaning balandlik holatiga qo‘yiladigan talabni bajarish tavsiya etiladi; bunda aerodrom qoplamasini yuzasining yerosti suvlarini sathidan balandligi joyning grunt va gidrogeologik sharoitlari hisobga olinishi kerak.

Yuqoridagi mulohazalardan bo‘ylama profilning loyiha o‘q chiziq‘ining holati aniqlanadi: bundan SUQT o‘qi bo‘ylab loyiha belgilari kelib chiqadi. Loyiha belgilari rejada ko‘rsatiladi.

#### 11.4. Sun’iy qoplamlar yuzasini loyihalash

Sun’iy qoplamlar relyefini va gruntli uchish tasmalarini loyihalash usullari bir xil. TID bosqichida sun’iy qoplamlar yuzasini vertikal rejalash, bo‘ylama profil usuli va gorizontal bo‘yicha loyihalash usuli bilan bajariladi. Ishchi chizmalar tayyorlash bosqichida raqamli belgililar va vertikal profillash usullaridan foydalanib, sun’iy qoplama yuzasini loyihalash maqsadga muvofiq emas.

**Bo‘ylama profillar loyihalash usulini gorizontal bo‘yicha loyihalash usuli bilan qo‘shib bajarish.** Qoplamlarning vertikal

rejasini loyihalash jarayonini 3 bosqichga ajratish mumkin. Birinchisida, sun'iy qoplama relyefiga qo'yiladigan talablar aniqlanadi; bunda aerodrom va uning inshootlari – SUQM, RY, TJ, perronlarning toifasi hisobga olinadi. Relyefi tuzatilishi lozim bo'lgan uchastkalar aniqlanadi, uchish maydoni tuproq – grunt sifati, yerosti suvlar sathi bo'yicha saralanadi. Ikkinchi bosqich – sun'iy qoplamanı vertikal rejlash bo'yicha prinsipial yechimga kelish. Bunda quyidagi masalalar hal qilinadi: suv qochirish cexmasi, balandlik holati, bo'ylama profil xarakteri, ko'ndalang profil turi. Bular 11.2-§ va 11.3-§ da keltirilgan usullar bilan bajariladi.

SUQT, RY, TJ trassalari bo'yicha joy relyefi o'zgarishi mumkin. Natijada qoplamaning qiymatini hisoblab topish kerak; bu balandlik mavjud yuzaning tegishli uchastkalaridagi ko'ndalang nishabliklarning o'rtacha qiymatlariga mos qoplamatdir.

Qoplamlarning aniqlangan balandligi va ko'ndalang profiliga loyiha chiziqli loyihalashda aniqlik kiritiladi.

SUQM ning bo'ylama profilini loyihalab bo'lgandan keyin qoplama o'qi bo'yicha loyiha belgilar (profildan olingan) gorizontallar bilan ifodalangan rejaga ko'chiriladi. Bu belgilar sun'iy qoplamlarning rejasida loyiha gorizontallarini qurish uchun zarur bo'ladi. Sun'iy qoplamlar RY, TJ va perronlarning relyefi, odatda, bo'ylama profilni tuzmasdan loyihalanadi. Bunda loyiha gorizontallar bevosita rejaning o'qiga tushiriladi. RY o'qi bo'ylab bo'ylama profil faqat murakkab o'nqir-cho'nqirli uchastkalar uchun tuziladi.

Uchinchi bosqichda SUQT yuzasining loyihaviy gorizontallari va uning yon-veridagi grunt yuza bilan tutashuvi tuziladi. Qoplama yuzasining relyefi loyihaviy gorizontallar bilan tasvirlanadi, ular parallel to'g'ri chiziqlar bo'lib, bir tekislik chegaralarida bir-biridan teng masofalardan o'tadi. Gorizontallar orasidagi eng qisqa masofa, SUQT (RY, TJ, perron) o'qi yo'nalishida yoki unga perpendikular yo'nalishda, joylashma deb ataladi. U nishabliklar, gorizontallar kesimi va reja miqyosiga bog'liq.

## **11.5. Sun'iy qoplamlar qismlari yuzasi relyefini tuzish**

Sun'iy qoplamlarning RY ning burilish va kesishgan va bir elementdan boshqasiga o'tish joylaridagi uchastkalari «qismlar» deb yuritiladi. RY va SUQT perronlar, turish joylari, RY ning burilishlari va RY lar kesishgan joylarga tutash bo'lganda qismlar loyihalanadi. Qismlarni loyihalashga nisbatan murakkab yuzalar hosil qilish kerak bo'ladi. Bu yuzalar bir-biri bilan tutashgan, bo'ylama va ko'ndalang nishablari har xil bo'lgan tekisliklardan tashkil topadi. Qismlarni loyihalashning asosiy vazifasi – HK lari xarakatiga qulaylik yaratish va suvni ishonchli qochirish. Bundan tashqari joy relyefi, qoplama yuzasining balandlik holati, qulay ish sharoitlari hisobga olinadi. Qismlar yuzasini qurishda maxsus loyihalash usullari qo'llaniladi. Shularga rioya qila turib, qismlar yuzasini qurishning umumiy qoidalarini ko'rib chiqamiz.

1. Qoplama qismlari yuzasida siniqlarni qoplama kam zo'riqish bilan ishlaydigan va HK lari kam tezlik bilan harakat qiladigan joylarga tushirish kerak. Masalan, RY va SUQT tutashgan uchastkada siniqni RY ustiga, magistral RY yordamchi RY bilan tutashganda yordamchi RY ustiga tushirish kerak. Qism yuzasidagi siniqlarni bir xil taqsimlash faqat bir xil ahamiyatli elementlar kesishganda bo'ladi.

2. HK ning qism bo'ylab harakat sharoitini yaxshilash uchun bo'ylama profilni ravon qurish kerak, ya'ni tekisliklarning o'tish joylari kam bo'lsin.

3. Magistral RY va SUQT tutashgan yerlarda, magistral RY ning burilishlarida virajlar qurish kerak, ya'ni burilish markaziga yo'nalgan ko'ndalang nishabligi kattalashtirilgan bir nishabli profil yaratish kerak.

4. Qismlarda qoplama chetlari grunt yuzadan teparoq chiqib turishiga qat'iy rioya qilish zarur, yana suv qochirish ishonchli bo'lishi kerak. Bu shuning uchun kerakki, HK lari qism atrofida harakat qilganda gorizontal tormozlash kuchlari va siniq ustidan yurib o'tganda katta dinamik yuklamalar yuzaga kelishi mumkin, ya'ni sun'iy qoplama qismli joyda boshqa uchastkalarga qaraganda ancha og'ir ishlaydi.


5. Turli shakldagi va holatdagи bir nechta yuzadan qism yuzasini tuzish har bir vaziyat uchun alohida bajariladi. Loyihalashda tekisliklarning tutashuviga xos usullardan foydalilaniladi. Tutashuvning hamma holatlarini uch xilga ajratish mumkin.

**1-holat.** *I* va *III* tekisliklarning umumiy chizig'i bo'lsa, bir-biri bilan tutasha oladi (11.10-*a* rasm). *II* tekislikning fazodagi holatini o'zgartirish uchun uni umumiy chiziq atrofida aylantirish kerak.

**2-holat.** Tekisliklar bitta umumiy nuqtaga ega (11.10-*b* rasm). *II* tekislikning holatini o'zgartirish uchun umumiy nuqtadan o'tuvchi va bir-biri bilan kesishuvchi ikki chiziq atrofida aylantirish kerak. Bu holda qoplama sidirg'a bo'lishi uchun uchinchi tekislik – to'ldiruvchi tekislikni yaratish kerak.

**3-holat.** *I* va *II* tekisliklarning fazoda joylashuvi hech nima bilan cheklanmagan, ya'ni ular o'rtaida umumiy nuqta yo'q. Qoplama sidirg'a bo'lishi uchun qator qo'shimcha tekisliklar kiritish kerak; ko'rileyotgan holda esa *I'* va *II'* to'ldiruvchi tekisliklar kiritiladi (11.10-*d* rasm).

6. Aerodromning qism hosil qiladigan elementlarini loyihalash ketma-ketligini ikki holat bilan tasavvur qilish mumkin.




11.10-rasm. Qism yuzasidagi tekisliklarning mumkin bo'lgan tutashuvlari:

- a)* umumiy chiziq bo'ylab;
- b)* umumiy nuqta bo'lganda;
- c)* to'ldiruvchi tekisliklar yordamida.

Birinchi holatda aerodromning ikki elementidan birini, qismni vertikal rejabal bo'lgandan keyin loyihalanadi, ya'ni quyidagi sxema «birinchi element – qism – ikkinchi element». Masalan, SUQT qism RY; magistral RY qism yordamchi RY; RY qism TJ va sh.k. Bunday ketma-ketlikda tutashuvchi tekisliklarning umumiyligini chizig'i yoki umumiyligini nuqtasi (11.11-a rasm) mavjud bo'lgandagi usullardan foydalilaniladi.

Ikkinchi holatda aerodromning tutashuvchi ikki elementini vertikal rejalash bir-biriga bog'liq bo'lmasagan holda bajariladi va shundan keyin, oxirgi navbatda qism loyihalanadi. Ya'ni bu sxema: birinchi element – ikkinchi element – qism. Masalan: SUQT – RY – qism magistral RY – yordamchi RY – qism va sh.k. Bunday ketma-ketlikda tutashuvchi tekisliklarning umumiyligini nuqtasi bo'lmasagan holatdagi usullardan foydalilaniladi (11.11-b rasm).



*11.11-rasm. SUQT va RY ning tutash qismlarini loyihalash sxemasi:*

- a)* suv qochirish (yerusti suvlarning oqishi strelka bo'yicha); *b)* uzelni to'ldiruvchi tekisliklarga ajratish.

## 12-bob. TUPROQ ISHLARI HAJMINI ANIQLASH. AERODROMNI VERTIKAL REJALASH LOYIHASINI RASMIYLASHTIRISH

---

### 12.1. Tuproq ishlari hajmini aniqlash usullari

Relyefni loyihalashda tuproq ishlari hajmini aniqlash uchun 3 usul qo'llanadi: gorizontal profillar, izochiziqlar va kvadratlar usullari. TID bosqichida birinchi ikkitasi, ishchi chizmalar bosqichida – uchinchisi ishlataladi.


Gorizontal profillar usulidan tuproq ishlaringning kichik ishchi belgilarida (0,75 m gacha) foydalaniladi. Gorizontal profillar deganda yuzaning mavjud gorizontallari bilan bir ismli loyihaviy gorizontallari orasidagi maydon tushiriladi; bu gorizontallar nol ish chizig'i bo'ylab, bir-biri bilan tutashadi. Har bir gorizontal profil relyefni gorizontallar usuli bilan tuzatgandan keyin hosil qilinadi. Bunda hech qanaqa qo'shimcha tuzilma talab etilmaydi, chunki relyefni loyihalashda yer ishlaringning yopiq konturi hosil bo'ladi; yer ishlari esa yuqorida aytilgan ikkita gorizontal orasidagi yuza bilan aniqlanadi (12.1-rasm).

Yopiq konturlar yuzasi yer uchastkasi kesimlarining yuzasidan iborat, ya'ni balandlik bo'yicha bir-biridan  $h_{gor}$  – gorizontallar kesimiga masofada turadigan gorizontal profillar bilan aniqlanadi. Tuproq ishlaringning umumiy hajmini qo'shni gorizontal profillar orasidagi hajmlarni qo'shib topiladi. O'yma yoki ko'tarma qilish konturi ichidagi tuproq ishlari hajmini hisoblash uchun planimetrik yordamida birismli mavjud va loyihaviy gorizontallar orasidagi yuza aniqlanib, gorizontallar kesimining balandligiga ko'paytiriladi.

O'ymaning umumiy hajmi:

$$V_{o\cdot(t)} = h_{gor} \sum_{i=1}^{i=n} S_i,$$

bu yerda:  $h_{gor}$  – gorizontallar kesimining balandligi;



**12.1-rasm. Gorizontal profillar usuli bilan tuproq ishlari hajmini aniqlash sxemasi:**


1 – loyihaviiy gorizontal; 2 – yer yuzasi gorizontali; 3 – nolli chiziq; 4 – gorizontal profillar;  $S_i$ ,  $S_0$  – gorizontal profillar yuzalari.

$$\sum_{i=1}^{i=n} S_i - \text{gorizontal profillar yuzalarining yig'indisi.}$$

Gorizontal profillar usuli, agar yer ishlari konturida 3 va undan ortiq profil bo'lsa, aniq natija beradi.

*Izochiziqlar usulidan* ishchi belgilar 0,75 m dan ortiq bo'lganda tuproq ishlari hajmini aniqlashda foydalilanadi. Hajmni hisoblashdan oldin izochiziqlar quriladi. Birinchi yoki «nolli» izochiziq «nol ishlar» chizig'iga to'g'ri keladi. Bu chiziq tuproq ishlari bajariladigan zonani qo'shni uchastkalardan ajratib turadi. Keyingi har bir izochiziqni yer yuzasi gorizontallari bilan loyihaviy gorizontallar kesishgan nuqtalarni tutashtirib topiladi; bu gorizontallarda ishchi belgilar gorizontallar kesimiga qoldiqsiz bo'linadi (12.2-rasm).

Hamma izochiziqlar o'tkazilgach, tuproq massivi bir nechta qatlamlarga bo'linadi: ularning qalinligi gorizontallar kesimining balandligiga teng. Har bir qatlamning hajmi izochiziqlar orasidagi yuzalar yig'indisining yarmisini gorizontallar kesimining balandligiga ko'paytmasi bilan o'lchanadi. Tuproq ishlari hajmini aniqlash uchun, avval, planimetrik bilan izochizichlar orasidagi yuzalar hisoblanadi.



*12.2-rasm. Tuproq ishlari hajmini aniqlash uchun izochiziqlar:*

*1 – yer yuzasining gorizontali; 2 – loyihaviy gorizontal; 3 – nol ishlar izochizig'i;*  
*4 – ishchi chuqurlik izochizig'i.*

Keyin quyidagi formula orqali qazish (to'kish) hajmi topiladi:

$$V_{\sigma(t)} = h_{\text{gor}} \left( \frac{S_0}{2} + \sum_{i=1}^{i=n-1} S_i + \frac{S_n}{2} \right) + h_n \frac{S_u}{2},$$

bu yerda:  $h_{\text{gor}}$  – gorizontallar kesimining balandligi;  $h_n$  – eng yuqoridagi (pastdag'i) izochiziq kesib o'tadigan qatlama balandligi;  $S_0$  – nol ishlar chizig'i bilan cheklangan yuza;  $S_i$  – eng yuqoridagi (pastdag'i) izochiziq bilan cheklangan yuza.

Izochiziqlar usuli sodda, ko'rinishli va aniq bo'lgani sababli uchish maydoni grunt qismining relyefini loyihalashda keng qo'llanadi.

*Kvadratlar usuli* nivelirlash turi kvadratlaridan foydalanishga asoslanadi va tuproq ishlari hajmini aniqlash uchun qo'llanadi. Shuning uchun undan, uchish maydoni elementlarining vertikal rejasi raqamli


belgilar usuli bilan loyihalanganda foydalanish maqsadga muvofiq. Hajmlarni aniqlash uchun nivelirlash syomkasi, kvadratlar to'ri va ularning uchlaridagi hisoblangan ishchi belgilar bilan birga kerak. Rejada nol ishlar chizig'i tushirilgan bo'lishi kerak, u o'yma va ko'tarma joylarning chegarasini bildirib turadi.

Har bir kvadrat chegarasida grunt hajmi tepadan va pastdan loyihaviy va mavjud yuzalar bilan, yon tomondan – vertikal tekisliklar bilan cheklanadi.

Kvadratlar rejasidagi nol ishlar chiziqlarining holatiga qarab, hamma kvadratlar (12.3-rasm) to'liq, chala va o'tuvchi kvadratlarga ajratiladi.


To'liq kvadratlarda hamma ishchi belgilar bitta ishoraga ega (yoki qazish, yoki to'kish), chalalarda – bittasi yoki bir nechta nolga teng. O'tuvchi to'liq kvadratlarda ham musbat, ham manfiy ishchi belgilar bor (yuzaning bir qismi qazilsa, boshqa qismi ko'tariladi); chala to'liq kvadratlarda – musbat, manfiy va nol belgilar bo'ladi. Kvadratning turi hajmlarni hisoblash xususiyatiga ta'sir qiladi.

To'liq kvadratda o'yma (ko'tarma) hajmi –  $V_{o'(t)}$  quyidagicha hisoblanadi:



**12.3-rasm.** Tuproq ishlari xajmini aniqlash sxemasi (**B** – o'yma chegarasi; **H** – ko'tarma chegarasi):

1, 2, 4, 5, 6, 10, 11, 12, 14, 15 – chala kvadratlar; 7, 9 – to'liq kvadratlar;  
8 – o'tuvchi to'liq kvadrat; 3, 13 – o'tuvchi chala kvadratlar.



12.4-rasm. Chala kvadratlarning turlari.

$$V_{o'(t)} = a^2 \Sigma h / 4,$$

bu yerda:  $a$  – kvadratning tomoni;  $\Sigma h$  –bitta kvadratning ishchi belgilari yig‘indisi.

Qolgan hamma turdagи kvadratlar (chala, o‘tuvchi, chala o‘tuvchi) uchun o‘yma (ko‘tarma) hajmi:

$$V_{o'(t)} = F_{o'(t)} h_{o'n}$$

bu yerda:  $F_{o'(t)}$  – kvadrat chegaralarida o‘yma yoki ko‘tarma yuzasi;  $h_{o'n}$  – o‘yma (ko‘tarma) ning o‘rtacha ishchi belgisi; ishchi belgilari –  $h_2$ , ...,  $h_s$  ning yig‘indisini ular soniga nisbati bilan o‘lchanadi. Chala kvadratlarda (12.4-rasm) I tur uchun belgilari soni – 5, II tur uchun – 4, III tur uchun – 3 ta.

## 12.2. Gumus qatlamni yuzaga chim qoplash muhitи sifatida saqlash

Uchish maydoni yuzasini chim bostirish – gruntning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish, uchish maydonining ekspluatatsiya muddatini ko‘paytirish uchun qilinadi. Bundan tashqari, chim qoplama chang – to‘zlonni kamaytiradi, demak, aerodromdagi sharoitni yaxshilaydi.

Aerodromning vertikal rejası loyihasini tayyorlashdagi asosiy masalalardan biri – chim qoplama hosil bo‘lishi uchun sharoit yaratishdir. Buning uchun gumusli yuqori qatlam kerak. Gumusli qatlam – tuproq yuzasidagi, oziqa moddalarga boy qatlam. Tuproq ishlari oldidan gumusli qatlamni qirqib, bir joyga to‘plab qo‘yiladi, keyin yana joyiga yoyib tashlanadi. Gruntdagи gumusli qatlamni qirqib, tiklash bo‘yicha ishlar

hajmi va xarakteri massiv maydoni, o'simlik qatlaming mavjud ( $h_m$ ) va zaruriy ( $h_z$ ) qatlamlari nisbati bilan aniqlanadi.

Tabiiy o'simlik qatlami qalinligi –  $h_m$  – aerodromni qidirish ishlari jarayonida aniqlanadi. Zaruriy qatlam  $h_z$  esa aerodrom joylashgan mintaqaning iqlimi, tuproq yuzasi tavsifiga bog'liq bo'lib, QMQ 17.5.3.06-85 bo'yicha agrotexnik tadbirlar loyihasida belgilanadi. Gumus qatlamning eng kichik qalinligini 0,1 m deb olish mumkin. Aerodromning vertikal rejasini loyihalashda  $h_m$  va  $h_z$  qalinliklarning 4 xil nisbati uchraydi.

**1-holat.** Mavjud qatlam qalinligi zaruriy qalinlikdan ancha kam ( $h_m - h_z$ ) yoki umuman yo'q ( $h_m = 0$ ). Qumli gruntlarda shunday bo'ladi. Kerakli qalinlikda o'simlik qatlamini hosil qilish ikki yo'l bilan kechadi. Birinchisi – qumli grunt yuzasiga organik moddalar sochish (ko'l balchig'i, chirigan torf, nest zavodlari chiqindilari). Ikkinchisi – aerodromning boshqa uchastkalaridan o'simlikli qatlamni qirqib keltirish. O'simlikli grunt hajmi:

$$V_m = F_m(h_z - h_m),$$


bu yerda:  $F_m$  – gruntli uchish maydonining bir qismi yuzasi (chim bostirilishi kerak bo'lgan qism).

$h_m = 0$  yoki  $h_m < h_z$  bo'lganda o'simlilik gruntning talab etiladigan hajmi:

$$V_m = F_m h_z.$$

**2-holat.**  $h_m = h_z$ . Bu holda zaruriy o'simlik qatlami uchish maydonidagi zaxira hisobiga ta'minlanadi. O'yma va ko'tarma uchastkalarida o'simlik qatlami hosil qilish sxemasi 12.5-rasmda keltirilgan. O'yimali uchastkalarda birinchi qilinadigan ish – mavjud o'simlik qatlamini qirqib, o'rab qo'yishdan iborat.

Ikkinci ish o'y마다 mineral gruntni chuqurdan tashqariga olish. Uchinchi amal (ish)da ilgari qirqib, o'rab qo'yilgan o'simlik qatlami maxsus tayyorlangan chuqurga keltirilib, yuzasi tekislanadi. Bularning bari to'kish (ko'tarma qilish)ga ham tegishli. Farqi shundaki, ikkinchi amalda o'yimali joydan olingan mineral grunt ko'tarmaga tashlanadi. O'simlikli grunt tekislangan, yuza belgisi loyiha darajasiga yetadi. O'simlikli grunt bilan ishslash hajmi:



12.5-rasm. O'simlik qatlamini qirqish va tiklash amallarining (ish) ketma-ketligi ( $h_m = h_z$  bo'lganda):

- a) o'yimali uchastkalarda; b) to'kiladigan (ko'tarma) uchastkalarda; 1 – yerning mavjud sathi (yuzasi); 2 – yerning loyihibavi yuzasi.


$$V_m = F_m h_z,$$

bu yerda:  $F_m$  – o'simlikli grunt ishlari maydoni; nol izochiziq bilan cheklangan yuzaga teng deb qabul qilinadi.

O'simlikli gruntni saqlash bo'yicha qo'shimcha ishlarni birmuncha qisqartirish mumkin, chunki ishchi belgilar  $h=10\div12$  sm bo'lganda rejalash ishlari bajariladi. O'simlikli grunt ishlarining yuzasini  $\pm 10$  sm izochiziqlar bilan cheklangan yuzaga teng olish mumkin. Bu o'simlikli grunt bilan ishslash hajmini quyidagi formuladan aniqlash imkonini beradi:

$$V = F \pm h_z.$$

**3-holat.**  $h_m > h_z$ . Bu holda o'yma joylaridan qirqib olinadigan o'simlikli gruntning ortiqchasi yaqin joylardagi ko'tarmalarda ishlatiladi. O'yimali uchastkalardagi o'simlikli gruntning zaruriy hajmiga qarab aniqlanadi va  $h_m - h_z$  ishchi belgilarning izochiziqlar bilan cheklangan maydonda amalga oshiriladigan (12.6-rasm)  $h_m > h_z$  da o'simlik qatlamini qirqish va tiklash amallari (I-V) ketma-ketligi qo'shimcha ishlar hajmi:



12.6-rasm. O'simlik qatlamlarini qirqish va tiklash amallarining (ish) ketma-ketligi ( $h_m > h_z$  bo'lganda).

$$V_m = F_{h_m - h_z} h_z,$$

bu yerda:  $h_m - h_z$  – ishchi belgilar  $h_m - h_z$  ning izochiziqlari bilan cheklangan yuza.

Ko'tarmalar massivida o'simlikni grunt bo'ladigan qo'shimcha ishlar tegishlicha qisqaradi va ularning hajmi quyidagicha aniqlanadi:

$$V_m = F + 10 h_z,$$

**4-holat.**  $h_m \geq h_z$ . Agar o'simlikli qatlam juda qalin bo'lsa, ko'p chuqur qazilmaganda ham bunday bo'lishi mumkin:

$$h_{\max ch} \leq h_m - h_z$$

bu yerda:  $h_{\max ch}$  – qaziladigan eng katta chuqurlik.

Natijada chuqurlardan olingan o'simlikli gruntu saqlashga ehtiyoj qolmaydi. Bu xususiyatlar ko'tarmaga ham tegishli.

Sun'iy qoplama yuzasidagi o'simlikli gruntu hammasi (qatlamning bir qalinligi) yoki qisman olinadi. Qisman deganda yuqoridagi 15–20 sm li, gumusga va ildiz qoldiqlariga boy qatlam olinadi. Qoplama uchun yo'qotiladigan o'simlikli grunt hajmi:

$$V_o = F h_p,$$

bu yerda:  $F$  – sun'iy qoplamar yuzasi;  $h_p$  – yo'qotilayotgan o'simlikli gruntu o'rtacha qalinligi.

### 12.3. Tuproq surish loyihasi. Vertikal rejalahash loyihasini rasmiylashtirish

Aerodrom relyefini naturada loyihalash, gruntu qazish va loyihalangan o'yimali joylaridan ko'tarma joylariga surish,

shuningdek, tekislash, zichlash, gumus qatlamni saqlash va boshqa turli ishlarni o'zida aks ettiradi. Tuproqni surish – aerodrom qurilishidagi eng qiyin ishlardan biri, uning hajmi yuz minglab kub metrga yetishi mumkin. Shuning uchun tuproqni tashish ishlarini yaxshi tashkil etish maqsadida, eng qisqa masofaga tashish loyihasi ishlab chiqiladi. Transport vositalarining yo'nalishini tanlaganda tashish yo'nalishlari bir-biri bilan kesishmasligiga, qarama-qarshi yo'nalishda tashishlarga yo'l qo'ymaslikka, loyihalanayotgan sun'iy qoplamadan yurmaslikka harakat qilinadi. Tashish yo'nalishlari shunday tanlanishi kerakki, yuk ortilgan transport vositasi faqat qiyalik bo'ylab pastga yursin.

Tuproq surish loyihasi tuproq ishlari rejasidagi asosida ishlab chiqiladi. Bu rejada qaziladigan va ko'tarma qilinadigan joylar ko'rsatilgan bo'ladi. Tuproq surishni to'g'ri tashkil qilish uchun ko'tarma (o'yma) konturlarini alohida uchastkalarga bo'lib tashlash mumkin. Bu uchastkalar tuproq hajmi  $T$  masalasida qo'shni ko'tarma (o'yma) uchastkalar bilan shunday moslashgan bo'lishi kerakki. Tashish masofasi ortiqcha bo'lmasin. Alohida uchastkalar yuzasi tuproq surish rejasida shtrix chiziqlar bilan ko'rsatiladi. Tuproq surishning eng tejamli variantini tanlashda mezon sifatida umumiy hajm olinadi:


$$T = \sum V_i l_i,$$

bu yerda:  $V_i$  – tuproqning  $i$  massivi hajmi;  $l_i$  – shu massivni surish (tashish) masofasi.

O'yma va ko'tarma bo'yicha alohida konturlar ichidagi tuproq ishlarining hajmini kvadratlar usuli bilan hisoblash mumkin; izochiziqlar usulini ham qo'llash mumkin.

Bir-biriga moslashtirilgan o'yma va ko'tarma joylari orasidagi masofalar, shu joylarning og'irlik markazidan o'chanadi. Qaziladigan (to'kiladigan) tuproq hajmlari og'irlik markazining rejadagi o'rnini aniqlashda analitik uchul qo'llanadi. Buning uchun koordinata o'qlarini nivelirlash to'ri bilan ustma-ust tushiriladi (12.7-rasm). Keyin  $Ox$  va  $Oy$  o'qlariga nisbatan o'yma (ko'tarma) hajmlarining stativ momentlari  $M_x, M_y$  aniqlanadi:

$$M_x = V_{um} y_{o.m}; \quad M_y = V_{um} x_{o.m},$$



12.7-rasm. Tuproq hajmlari og'irlik markazi koordinatalarini aniqlash sxemasi.

bu yerda:  $V_{um}$  – o'yma (to'kish) massivi hajmi;  $y_{o.m.}$ ,  $x_{o.m.}$  – tanlangan koordinata o'qlariga nisbatan, tuproq hajmi og'irlik markazining koordinatalari.

Bu statik momentlarni nivelirlovchi chiziqlar orasidagi hajmlarning statik momentlari yig'indisi orqali ham aniqlash mumkin:

$$M_x = \sum_{i=1}^m V_{xi} y_i; \quad M = \sum_{i=1}^m V_{yi} y_i,$$

bu yerda:  $V_{xi}$ ,  $V_{yi}$  – kvadratlarning  $i$  – vertikal va  $i$  – gorizontal tas-malaridagi tuproq ishlari hajmi;  $x_i$ ,  $y_i$  – o'qlardan kvadratlarning  $i$  – vertikal va  $i$  – gorizontal tasmasigacha bo'lgan masofa.


$M_x$  va  $M_y$  ning ifodalarini bir-biriga tenglashtirib topamiz:

$$x_{o.m.} = \frac{\sum V_{yi} x_i}{V_{um}} \quad y_{o.m.} = \frac{\sum V_{xi} y_i}{V_{um}}$$

Quyidagi formaladan o'rtacha tashish masofasi aniqlanadi:

$$L = \left[ (x_{o.m.(k)} - x_{o.m.(q)})^2 + (y_{o.m.(k)} - y_{o.m.(q)})^2 \right]^{1/2},$$


bu yerda:  $x_{o.m.(k)}$ ,  $x_{o.m.(q)}$ ,  $y_{o.m.(k)}$ ,  $y_{o.m.(q)}$  – ko'tarma va qazilmaning og'irlik markazlari koordinatalari.



**12.8-rasm. Tuproqni surish sxemasi.**

Tuproq massalarini surish loyihasi reja ko'rinishda rasmiylashtirilib, unda ko'tarma va o'yma konturlari, ularni uchastkalarga bo'linish chiziqlari ko'rsatiladi. Tashish (surish) yo'nalishi strelkalar bilan ko'rsatiladi, strelka bo'ylab masofa (maxrajda) va tuproq hajmi (sur'atda) yozib qo'yiladi (12.8-rasm).

Aerodrom relyefini loyihalaganda sun'iy qoplamlar va gruntli UT ning vertikal rejasi kompleks bajariladi va umumiy chizmada ko'rsatiladi. Bu reja TID bosqichida quyidagi chizmalarni ichiga oladi: vertikal reja (miqyosi 1:5000, gorizontallar kesimi 0,50 m); SUQM o'qi bo'ylab bo'ylama profil (gorizontal miqyos 1:5000, vertikal miqyos 1:100 yoki 1:200); tuproq surish sxemasi (miqyos 1:5000).




**12.9-rasm. TID bosqichida vertikal rejalash:**

1 – mavjud gorizontal; 2 – loyihamiy gorizontal; 3 – nol chiziq; 4 – qoplama konturi.


Ishchi chizmalar bosqichida loyiha quyidagilardan iborat bo'ladi: vertikal reja (M:gorizontal – 12000); belgilarda qoplama yotqizish (M 1:1000, 1:2000).

Aerodrom relyefi loyihasining asosiy hujjati – vertikal reja bo'lib, u uchastkani muhandis – topografik syomkani va loyihalash natijalari asosida tuziladi. Rejada quyidagilar ko'rsatiladi: sun'iy qoplamlar konturi, mavjud yuzaning gorizontallari va loyiha gorizontallar, nol ishlar chiziqlari (12.9-rasm)

Vertikal rejalahning ishchi chizmalarida nivelirlash to'ri; aerodromning gruntli qismidagi kvadratlarning har bir uchida yerning natura belgisi, loyihaviy va ishchi belgilar; sun'iy qoplamlarda SUQM o'qi bo'yicha natura va loyiha belgilar, qoplama chetida natura, loyiha va ishchi belgilar, SUQM o'qi bo'yicha niketaj (12.10-rasm).



12.10-rasm. Ishchi chizmalar bosqichida vertikal rejalahsh.




12.11-rasm. Bo'ylama profil.


Bo'ylama profilda SUQT o'qi bo'ylab quyidagilar ko'rsatiladi: yerning natura belgilari, sun'iy qoplamlar sirti va chuqurlik tubi, chuqurlik tubi bo'yicha ishchi belgilari, loyihaviy nishabliklar va masofalar, piketaj hidrogeologik qirqim (12.11-rasm).

Yer ishlari kartogrammasi vertikal rejalash asosida tuziladi. Unda quyidagilar ko'rsatiladi: sun'iy qoplamlar konturi va piketaj; qoplama chetlaridagi, o'q bo'ylab va yon atrofdagi gruntli uchastkalar bilan tutashgan chuqurliklar tubining ishchi belgilari; tuproq ishlari hajmi (loyiha va ishchi belgilari bilan); nol ishlar chiziqlari; har bir kvadratdagi ishlar hajmi (12.12-rasm).

Qoplama yotqizish rejalaridagi belgilarda quyidagilar ko'rsatiladi: qoplamlar konturi va piketaj, qoplama yuzasining loyihaviy belgilari, chuqurlik asosi va tubi, loyihaviy nishabliklar va masofalar (12.13-rasm). Ko'p qatlamlı qoplama qurilsa, har bir qatlama uchun loyiha belgilari ko'rsatiladi.



### **12.12-rasm. Yer ishlari kartogrammasi.**



*12.13-rasm. Qoplamlarni yotqizish rejası, belgilar bilan (qoplama yuzasi, asosi va tarnov tubi).*

## **13-bob. UCHISH MAYDONI GRUNTINING SUV REJIMI, SUV QOCHIRISH VA DRENAJ TADBIRLARI**

---

### **13.1 Gruntlarning suv rejimi haqida asosiy ma'lumotlar**

Aerodrom loyihasini ishlab chiqishda yomg'ir, qor, yerosti suvlarning ko'tarilishi, yaqin suv havzalarida suv sathining ko'tarilishi va suv oqishining boshqa manbalari yoki uchish maydonining o'ta namiqishi sababli HK larini ekspluatatsiya qilish sharoitlari yomonlashuvini ko'zda tutadigan tadbirlar ko'rlishi kerak. Bunday hodisalarga yetarli e'tibor bermaslik HK uchish va qo'nish xavfsizligini oshiradi, aerodrom qurish va ekspluatatsiya qilishni qimmatlashtiradi, uchish maydonining xizmat muddatini qimmatlashtiradi, uchish maydonining xizmat muddatini pasaytiradi. SUQT da HK si yugurganida qoplama yuzasida – 3 mm dan ortiq suv qatlami bo'lmasligi kerak. Bu HK sining g'ildiragi suv qoplangan yuzada tebranganda bo'ladigan hodisalardan kelib chiqqan, chunonchi: shinaning ho'l yuza bilan ilashuvi quruq yuza bilan ilashgandagiga qaraganda doim kam; g'ildiraklar katta tezlik bilan suv qatlamida yurganda ro'paradan dinamik kuchlar qarshilik qiladi va g'ildiraklar tebranish o'rniga sirpanadi, natijada ilashish deyarli yo'qolib, HK turg'unligini yo'qtadi, uni boshqarib bo'lmaydi.

Bulardan tashqari, suv qatlami uzra yurganda g'ildirak atrofida suv va chang aralashmasining tomchilar tumani hosil bo'ladi. Bu g'uborlar HK dvigatelining havo so'rg'ichiga, uchuvchilar kabinasi fonariga, shassi yig'ishtirib qo'yiladigan joylarga o'tirib qolishi xavfli. Shuning uchun SUQM laridan atmosfera suvlari tez oqib va uchish maydoni chegaralaridan chiqib ketishini ta'minlash zarur.

Bundan tashqari sun'iy qoplama zamini ortiqcha namlanib ketishi HK sidan tushayotgan yuklamaga javob reaktsiyasini pasaytiradi, natijada uchish, qo'nish qiyinlashadi.

Tabiiy sharoitlarda grunt tarkibida birmuncha suv turli: suyuq, qattiq (muz) yoki bug' holatida bo'ladi. Ularning xususiyatiga qarab, 3 xil suv bo'ladi:


- 1) komyoviy birikkan;
- 2) jismongan birikkan;
- 3) erkin.

Komyoviy birikkan suv, bu grunt moddasiga – gidratlar va kristallarga kirgan suv. O'simliklar bunday suvdan icholmaydilar, uni faqat isitib ajratib olish mumkin. Bu suv gruntning namligini bildirmaydi, shuning suv qochirish bo'yicha muhandislik tadbirlariga ta'sir etmaydi. Jismongan birikkan suv (gigroskopik), bu grunt zarralari havodan shimib olgan suv. Gigroskopik suv qo'zg'almas, o'simliklar undan icholmaydi, gruntning qattiq va qattiq-plastik holatini ko'rsatadi.

Erkin suv parda ko'rinishda, kapillar va gravitatsion bo'ladi. Suv bug'lari gruntlarning barcha bo'sh kavaklarida bor, o'simliklar uni tomchiga aylangandagina o'zlashtiradi. Bu suv gruntlardagi suv zaxirasini to'ldiradi va chim o'tlarga singadi, gruntning yuqori qismlarida muz kristallari hosil qiladi, muz, linza hosil qiladi; linza gruntning ko'pchishiga sabab bo'ladi.

Parda ko'rinishli suv grunt bilan molekulalar darajasida bog'lanadi va ko'p namlangan gruntdan kamroq namlangan joyga ko'chib o'tadi, gruntning yuqori qatlamida ko'p nam to'planishiga olib keladi; muzlab qolsa, grunt ko'chib chiqishiga sabab bo'ladi.

Kapillar suv bu grunta kapillar kuchlar bilan tutib turiladi; grunta ko'tarilish balandligi kapillar diametriga teskari proporsional; suvning kapillar harakat tezligi kapillyar diametriga to'g'ri porportsional. Suvning kapillar bo'yicha ko'tarilish balandligi taxminan quyidagicha: og'ir qumloq tuproqda 3–4 m, yengil qumloq tuproqda – 1,5–2,0 m; qumli tuproqda – 0,5–1,0 m. Kapillar suvlari qoplamlar asosidagi gruntlarning va yerosti suvlari yaqin bo'lgan uchastkalarning suv rejimlarini o'rganish uchun juda ahamiyatli.



*13.1-rasm. Grunt yuk ko'tarish qobiliyatining namlikka bog'liqligi:*

*1 – tuproqli chim; 2 – qumli chim.*

Gravitatsiyali suv, bu grunt ichida o'z og'irligi tufayli harakat qiladigan suv. U grunta darzlar va bo'shlialarni to'ldiradi. Bu suvlar bilan to'la namlangan gruntlarning yuk ko'tarish qobiliyati juda kam. Ular aerodromda drenaj va suv qochirish tadbirlarida hisobga olinadi.

Suvning grunta namoyon bo'lish holatlaridan yana biri qattiq fazasi – muz hisoblanadi.

Grunt namligining yil bo'yи o'zgarib turishi uning suv rejimini tavsiflaydi. Suv rejimi esa gruntaqning yuk ko'tarish va deformatsiyalanish xususiyatlarini belgilaydi. Gruntaqning namligi gruntli uchish maydonida g'ildiraklar izi chuqurligini, demak, HK ning yurish sifatini belgilaydi. Shuningdek, qoplamaning grunt asosining deformatsiyalashini, aerodrom sun'iy qoplamasining mustahkamligini belgilaydi.

*13.1-rasmدا grunt yuzalari yuk ko'tarish qobiliyatining namlikka bog'liq holda o'zgarish xarakteri ko'rsatilgan.*

Bu xususiyat turli gruntlarda turli. Tuproq gruntlarda kolloid qobiqlar qum va chang zarralari o'rtasida yaxshi ilashish hosil qiladi, shu sababdan bunday gruntaqning namligi kam bo'lsa ham mustahkamligi yuqori bo'ladi. Tuproqli grunt suvgaga to'yinganda namlikning ko'p qismi so'rilib kuchlari ta'sirida mayda zarralar yuzasida ushlanib turadi, natijada gruntaqning hajmi ortadi; parda

qalinligi ortgan sari yirik zarralar bir-biriga ko'proq ilashadi. Qo'shimcha namlanganda tuproqli gruntlar oquvchi holatga keladi va yuk ko'taruvchanligi juda pasayadi.

Qumli gruntda yirik tetraedr shaklli o'tkir qirrali zarralar ko'p, kolloid zarralar esa yo'q. Shuning uchun namlik kam bo'lganda qum va changsimon zarralar orasida ilashish bo'lmaydi, grunt sochiluvchan holatda bo'ladi. Yuklamaga qarshilik faqat zarralar orasidagi ishqalanish hisobiga bo'ladi. Namlik ortganda suv pardasi va kapillar suvlar hisobiga qum zarralari o'rtasida ilashish kuchli bo'ladi va yuklamaga qarshiligi ortadi. Yanada namlanganda qum zarralari orasidagi bo'shilq suvga to'ladi, kapillar namlikning birlashtiruvchi kuchi to'xtaydi, ichki ishqalanish kamayadi va qumning mustahkamligi yana pasayadi. Biroq hamma ichki bo'shilqlar suv bilan to'lganda ham qum ichida saqlanib qolgan ishqalanish tufayli uning yuk ko'tarish qobiliyati saqlanib qoladi.

Uchish maydoni gruntli elementlarining ruxsat etilgan namligini gruntning yuk ko'tarish qibiliyati va ruxsat etilgan deformatsiyasiga, chim o'tlar normal o'sishini ta'minlashiga qarab belgilanadi. Shu shartlar bilan eng yuqori ruxsat etilgan namlik to'liq namlikning 60–80% ini tashkil etadi. Chim o'tlar normal o'sishi nuqtai nazaridan eng ko'p namlik 60–80%, eng kami – 15–30% ruxsat etiladi. Grunt namligi ortiqcha bo'lsa ham, juda kam bo'lsa ham o'simliklar uchun yomon.

Gruntli UQT va qoplama asosida suv rejimi o'zgarib turadi, uni quyidagi suv balansi orqali ifodalash mumkin

$$W = \underbrace{(A + B + E)}_{\text{suvlarning kelib tushishi}} \quad \underbrace{(C + D + E)}_{\text{suv sarfi}}$$

bu yerda:  $W$  – gruntdagи suv miqdori;

$A$  – yog'inlardan tushgan suv miqdori;

$B$  – atrof yerdardan oqib kelgan suv;

$C$  – yerosti suvlarning sathiga qarab kapillarlar orqali, parda va bug' holatda ko'chib yuradigan suv miqdori;

*Г* – suvlarning oqib ketishi;

*Д* – gruntning chuqr qatlamlariga shimaladigan suv;

*Е* – grunt yuzasidan suvning bug‘lanib chiqishi.

Suv balansidagi elementlar orasidagi nisbatlarga aerodrom quriladigan hududning tabiiy sharoitlari, muhandislik tadbirlari ta’sir etadi.

### 13.2. Iqlimi rayonlashtirish

Aerodromning butun hududini yagona qoidalar bilan loyihalashning iloji yo‘q. Aerodromlarni geofizik zonalar bo‘yicha loyihalashni bir xillashtirish maqsadida hududni iqlimi rayonlashtirish taklif etilgan. Buning asosida joyning suv-issiqlik rejimi yotadi.

Suv rejimi haqidagi umumiy tasavvur «suv balansi koeffitsiyenti» (akad. A. N. Kostyakov taklifi)dan olinadi

$$\eta = H/\lambda E,$$

bu yerda:  $H$  – yillik yog‘inlar miqdori;  $\lambda$  – gruntga shimaladigan yog‘inlar koeffitsiyenti;  $E$  – suvning yil bo‘yi bug‘lanishi.

Suv balansi koeffitsiyenti birga teng, undan kichkina, yo katta bo‘lishi mumkin. Birdan katta bo‘lganda grunt ortiqcha namlanib ketadi. Birga teng yoki undan kichik bo‘lsa, demak, gruntning namlanishi yetarli emas va beqaror.

MDH mamlakatlarining hududini shartli ravishda 5 ta yo‘l-iqlim zonalariga ajratish mumkin:

*I zona* – grunti abadiy muzlagan hududlar. Bu zonada gruntning yuqori qatlami o‘ta nam. Chunki, pastki qatlam muzlagani sababli, suv shimalmaydi. Qisqa muddat issiq ob-havo bo‘lganda grunt yuzasidagi namlik to‘la bug‘lanib ulgurmaydi. Bu zonada suv balansi koeffitsiyenti 1,5 dan ko‘p. Zona quyidagi punktlarni birlashtiruvchi chiziqdan shimal tarafda joylashgan. Monchegorsk – Ne – Usinsk – Ivdel – Iqrim – Podkamennaya – Gungusning quyilish joyi – Kansk – Turan – Gorno-Altaysk – davlat chegarasi – Blagoveshenck – Birobidjan – Nikolayevsk na Amure, tundra, o‘rmon tundrasi, o‘rmon

zonasining shimoliy-sharq qismini o‘z ichiga olib, mangu muzlagan gruntlarga tarqaladi.

*II zona* – ko‘p yog‘ingarchilik bo‘ladigan, yer yuzasidan suv kam bug‘lanadigan, yerosti suvlari yaqin, ya’ni ortiqcha namlanadigan hududlar. Gruntga tushadigan suv miqdori bug‘lanadiganiga qaraganda 1,5–2,0 hissa ko‘p. Zona tayga va aralash o‘rmonlardan, kulrang tuproqdan iborat. Suv balansi koeffitsiyenti 1,5–2,0.

Zona I zonaning chegaralaridan boshlab, quyidagi punktlarni tutashtiruvchi chiziqqacha boradi: Lvov – Jitomir – Tula – Nijniy Novgorod – Ijevsk – Tomsk – Kansk, Uzoq Sharqda I zona chegarasidan Rossiya davlat chegarasigacha.

*III zona* – namlanishi o‘zgarib turadigan hududlar; bahor va kuzda ortiqcha namlanadi; gruntga tushadigan suvning yillik o‘rtacha miqdori bug‘lanadigan miqdorga deyarli teng. Suv balansi koeffitsiyenti 1,5 dan kichik. Zona II zona chegaralarida quyidagi punktlarni birlashtiruvchi chiziqqacha yoyilgan: Kishinyov – Kirovograd – Belgorod – Samara – Magnitogorsk – Omsk – Biysk – Turon; o‘rmon cho‘l geografik zonani o‘z ichiga oladi, ayrim yillarda grunt o‘ta namlanib ketadi.

*IV zona* – kam namlanadigan hududlar. Shimoliy qismi o‘rmon-cho‘l zonasiga, janubiy qismi cho‘llarga tutashadi. Gruntning yuqori qatlamlari kam namlangan; yuzalardan bug‘lanadigan suv miqdori atmosfera yog‘inlaridan 2 marta ko‘p. Yerosti suvlari chuqur. Suv balansi koeffitsiyenti 0,5–0,6. III zona chegaralaridan boshlanib quyidagi punktlarni birlashtiruvchi chiziqqacha yoyilgan: Julfa – Stepanakert – Buynaksk – Kizlyar – Volgograd; keyin 200 km janubga tushib, Uralsk – Aktyubinsk – Karagandani tutashtiradu, Balxash ko‘lining shimoliy qirg‘og‘iga tutashadi. Grunti yetarli namlanmaydigan cho‘l geografik zonani o‘z ichiga oladi.

*V zona* – gruntu juda oz namlanadigan, yuzasidan suv jadal bug‘lanib ketadigan qurg‘oq hududlar; yarim cho‘l va cho‘l zonasi; tuproqi qo‘ng‘ir va kashtan va sho‘rxok; suv balansi koeffitsiyenti

0,5–0,6 dan kam cho'l va cho'l-dasht goegrafik zonalarni qamrab oladi.

Aerodrom qoplamlarining joylashishiga oid mahalliy gidrogeologik sharoitlar tasniflangan (13.1-jadval) va unga asosan, har bir yo'l-iqlim zonasida tabiiy gruntning ehtimoliy ishlatalishi hisoblab chiqilgan.

Ba'zi hududlarda aerodromlarning tabiiy grunti o'ziga xos sharoitda bo'ladi.

Mamlakat xududini yo'l-iqlim zonalariga ajratish u yoki bu geografik hududning umumlashgan tavsifini beradi, xolos. Bir zona ichidagi maxalliy sharoitlar ham bir-biridan keskin farq qilishi mumkin va bu aerodromni ekspluatatsiya qilishda ahamiyatli bo'ladi. Mahalliy sharoitlarga abadiy muzliklar, ko'pchiydigan, cho'kadigan va sho'rxok gruntlar kiradi. Bunday joylarda aerodrom loyihalashda qo'shimcha tadbirlar ko'rish lozim.

13.1-jadval

Gidrogeologik sharoitlar turi	Joy tasnifi	Muzlash boshlangan vaqtida yerosti suvlarining chuqurligi	Grunt 0,2–0,5 chuqurlikkacha muzlay boshlaganda undagi namlik toifasi
I	Quruq joylar, namligi ortiqcha emas, yuzadan suv oqib ketishi yaxshi, yerosti suvlar chuqur; suv kapillarlar bo'ylab gruntning faol zonasiga chiqmaydi	Muzlash chuqurligi va kapillar ko'tarilish balandligi katta	Namgarchilik sig'imigroskopik molekulalar darajasigacha
II	Grunt suvni yomon shimishi va yuzadagi suvni qochirishi yaxshi emasligi (yerost suvlari pastda) tufayli yuzadagi suvlardan o'ta namlanishi (vaqtincha)	Muzlash chuqurligi katta	Eng katta molekulardan eng katta kapillar nam sig'imigacha

III	<p>Doimiy ortiqcha namlanish. Sabablari: yerosti suvlari yaqin, yillik yog‘inlar ko‘p, grunt suvni yomon shimadi, yuzadagi suvlarni qochirish yomon, suv kapillarlar bo‘ylab gruntning yuza zonasiga ko‘tariladi</p>	<p>Muzlash chuqurligi kichik</p>	<p>Eng katta molekular nam sig‘imidan gravitatsion namlik bilan to‘yinguncha</p>
-----	--	----------------------------------	--

### **13.3. Aerodrom gruntlarining turli darajada o‘ta namlanishi va suvni qochirish bo‘yicha muhandislik choralar**

Aerodrom hududidagi gruntlarni quritish bo‘yicha zaruriy muhandislik tadbirlarini bir tizimga keltirish uchun grunt ortiqcha namlanishi sabablarini va suv manbalarini hisobga olish kerak.

Gruntni o‘ta namlangan sharoitlardan kelib chiqib uchish maydonining o‘ta namlangan yuzalarini 4 asosiy turga ajratiladi:

1) oqib kelgan suvlar bilan namlangan; uchish maydoni tash-qarisidan oqib kelgan suv bilan yoki toshgan suv bilan o‘ta namlanish;

2) atmosfera suvlari bilan namlangan; atmosfera yog‘inlari va erishdan hosil bo‘lagan suv ta’sirida botqoqlanadi. Bunday o‘ta namlanish nishabligi kam, murakkab mikrorelyefli, qoplovchi jinslar (tuproq, oqir va o‘rtacha qumoq tuproq, og‘ir va o‘rta changsimon qumloq tuproq) suvni yaxshi o‘tkazmaydigan yerkarta xos;

3) grundan namlangan; gruntaq namlikning kapillarlar bo‘ylab ko‘tarilishi, atmosfera yog‘inlaridan hosil bo‘lgan yuzadagi suvlar ta’sirida o‘ta namlanish. Bunday o‘ta namlanish suv o‘tkazuvchan qatlamlili (qum, tuproq yoki og‘ir qumoq) tashlangan uchastkalarga xos;

4) grunt ostidan bosim bilan chiqqan suvdan namlangan; grunt osti suvlari bosim bilan bir joydan yoki kapillarlar bo‘ylab uchish maydoni yuziga chiqib qolishi mumkin. Bunday o‘ta namlanish daryo vodiysining terrasa oldi qismlarida yoki ustiga tuproq, qumoq tuproq tashlangan g‘ovak jinslarda uchraydi.

Yuqorida ko'rilgan o'ta namlanish turlari alohida-alohida yoki bir nechta birvarakayiga bo'lishi mumkin. Namlanish turiga muvofiq holda aerodrom uchun suv qochirishning tegishli chegaralari ishlab chiqiladi. Yer yuzasidagi suvlarni qochirishga qaratilgan muhandislik choralar -«suv qochirish» deyilsa, gruntafigi va asosning g'ovak qismlaridan suv qochirishni - drenaj deyiladi.

Suv qochirish va drenaj aerodrom hududini SUQT, RY, TJ larning sun'iy qoplamlarini har tomondan oqib kelishi mumkin bo'lgan suvlardan himoya qiladi; uchish maydonining yopiq pastlik joylaridagi yerusti suvlari, qoplamlar va gruntli hovuzlar suvini yig'adi; yig'ilgan suvlarni aerodrom tashqarisiga chiqarib tashlaydi: yerusti suvlari sathini pasaytiradi; sun'iy qoplamalarning drenajli asoslaridan ortiqcha suvni ketkazadi.

Aerodromning suv qochirish va drenaj loyihasi quyidagi dastlabki ma'lumotlar asosida ishlab chiqiladi: aerodrom haqida umumiylar, qidirish ma'lumotlari, aerodrom uchastkasi va yon-atrof hududlarni o'rganish ma'lumotlari.

Aerodrom haqidagi umumiylar ma'lumotlarga quyidagilar kiradi: aerodrom egallaydigan uchastka haqida ma'lumot; 1:2000 miqyosda aerodrom rejasи, unda uchish maydoni holati, loyihalanadigan qoplamlar va inshootlarning joylashuvi, shurflar, burg'ulash quduqlari joylari, yuzaning 0,25 m li gorizontal kesimlari, 0,5 m li gorizontal kesimlari; yon-atrofda suv yig'iladigan joylarni ko'rsatadigan kartografik material, miqyosi 1:5000, relyef kesimi kamida har 1 m da; uzoq muddat yog'ingarchiliklari haqida ma'lumot, yog'lnarning jadalligi va davomiyligini ko'rsatgan holda; havo haroratining o'zgarishlari va gruntafigi muzlash chuqurliklari haqida ma'lumot.

Qidirish ma'lumotlarida tuproq grunt va yerosti suvlaring kimyoviy tahlili, uchish maydonining hamma uchastkasi bo'ylab gidrogeologik qidiruv natijalari keltiriladi.


Uchastkani o'rganish ma'lumotlarida tuproq qoplamasini, o'simliklari, suv qabul qilgichlarning bo'ylama profili (suv quyilish joyidan 100 m tepani va pastni qamrab olishi kerak; miqyoslari: gorizontaldan

1:2000, vertikalda 1:50, suv qabul qilgichning ko'ndalang profili, suv sathining o'zgarishlari, ya'ni bahorgi toshqinda eng baland, yozgi toshqinda, eng baland daraja. Gidrometrik postlarning ma'lumotlari yoki aholidan surishtirish asosida suv qabul qilgichda suv darajasi belgilanadi. Quritish sistemalarini loyihalash bo'yicha bayonnomha, qidiruvning tashkil etilishi va suv oqish tarmog'ini loyihalashga oid aniqlashtiruvchi ma'lumotlar ilova ilinadi.

## 14-bob. AERODROMLARDA SUV QOCHIRISH VA DRENAJ TIZIMLARI

### 14.1. Yerusti va yerosti suvlari jilovlash bo'yicha muhandislik tadbirlari

Ba'zan uchish maydoniga yerusti va yerosti suvlari yopirilib kelishi mumkin. Yerusti suvlari kelsa qam, yerosti suvlari chiqsa ham joyni suv bosadi. Aerodromga yaqin suv havzalarida suv sathi ko'tarilsa va agar uchish maydoni sathi pastroq bo'lsa, qorlar eriganda, kuchli yomg'ir yoqqanda suv bosishi mumkin. Uchish maydoniga suvi oqib keladigan yuzalar suv yig'uvchi maydonlar deyiladi. Ulardan himoyalanish uchun baland zovurlar quriladi. Zovurlar chetdan oqib keladigan suvlarni o'ziga olib, aerodromdan boshqa yoqqa oqizib yuboradi. Bunday zovurlar relyefning uchish maydoniga nisbatan yuqori tomoniga, xavfsizlikning chekka va yon tasmalaridan sun'iy qoplamlalar chetidan, kamida 30 m naridan o'tkaziladi (14.1-a rasm).



14.1-rasm. Yerusti va yerosti suvlarni tutib oluvchi inshootlar sxemasi:

- a) baland zovur; b) to'g'on; d) tutib oluvchi zovur yoki drenaj;  
1 – to'g'on; 2 – daryo.

Zovur tubi shunday nishab qilinadiki, suv kerakli tezlik bilan oqib ketsin va tagida loy qolmasin. Nishablik 0,002 ga teng olinadi, gohida eng kam qiymat – 0,0005–0,0010 olinadi. Eng katta nishablik grunt turi va zovurning tubi va yonbag'irlarining mustahkamligiga qarab tanlanadi. Zovur tubi suv olgich joylarda toshqin suv sathidan 0,3–0,5 m baland bo'lishi kerak (toshqin 5 yilda 1 marta bo'lsa).

Aerodromga yaqin suv manbayida suv sathi ko'tarilganda ham uchish maydonini suv bosishi mumkin. Bunday holda to'g'on quriladi. Uni uchish maydonidan tashqariga, suv bosmaydigan tomonga quriladi. (14.1-*b* rasm).


Yaqin atrofdagi suv havzalarining sathi ko'tarilganda yerosti suvlar sathi ham ko'tarilib, uchish maydonini suv bosishi mumkin. Yeqosti suvlari uchish maydoniga tepalikdan kelishi mumkin. Suv qatlamlar bo'ylab oqib kelib, uchish maydoniga yetganda yer ustiga chiqib qoladi. Shunday qilib, grunt o'ta namlanishiga sabab bo'ladi. Bunday suvlarni tutib oladigan ochiq zovurlar va yopiq suv qochirish tarmog'i – tutib oluvchi drenajlar quriladi (14.1-*d* rasm).

Agar aeroport yaqin-atrofdagi suv havzalarining qirg'oqlari suvni yaxshi shimisa, suv sathi ko'tarilganda havza atrofida yerosti suvlari oqimi hosil bo'lishi va u uchish maydoni tomonga yo'l olishi mumkin. Bu suvlarni tutib olish uchun suv havzasini atrofida qirg'oq drenalari quriladi.

Uchish maydonini bosadigan suvlarni tutib olish uchun avtomobil va temiryo'l ko'tarmalaridan, yo'l cheti inshootlari – baland zovurlar, tutib oluvchi zovurlar, drenalar, qirg'oq drenalari hisoblanadi.


Baland zovurlarning kesim yuzasi trapetsiya shaklda bo'ladi (14.2-rasm); o'lchamlari eng ko'p yomg'ir suvi va erishdan hosil bo'lgan suv hajmi asosida gidravlik hisoblar bilan topiladi. Zovur tibining eni  $b=0,4-1,5$  m bo'ladi. Zovurdan qazib olingan tuproq aerodrom tomonga tashlanadi. Zovur chuqurligi –  $H$  suvning hisobiy chuqurligi –  $h$  dan kelib chiqadi: unga 0,25 m zaxira qo'shiladi. Chuqurlik bir necha metrga yetishi mumkin.

Zovurdagi suvning tezligi devorlarni yuvib ketadigan darajada katta ham, tagida cho'kindi hosil bo'ladi darajada kichik ham bo'imasligi kerak.



**14.2-rasm. Baland zovurning ko'ndalang kesimi:**  
1 – kavaler; 2 – berma; 3 – zovur cheti; SHS – suvning hisobiy sati.

$a/H$  nisbat yonbag'irlarning joylashish ko'effitsiyenti ( $m$ ) deb ataladi (14.2-rasm). Agar suv tezligi mahalliy gruntga ruxsat etilganidan katta bo'lsa, zovur tubi va yonbag'irlarini chim, o'tlar bilan qoplash, tosh yoki beton plitalar bilan mustahkamlash kerak. Mustahkamlash variantlari 14.3-rasmida berilgan.




**14.3-rasm. Zovur va to'g'on yonbag'irlarini mustahkamlash:**  
a) yonbag'irda o't o'chirish, pog'onama-pog'ona va gumus qatlam bilan;  
b), d) chim bosish (yonbag'ir  $m=1,5$ ); e), f) chim bosish (yonbag'ir  $m>1,5$ ); g), h) bir qator tosh terish; i) ikki qator tosh terish; 1 – gumus qatlam; 2 – yog'och; 3 – mox;  
4 – chaqiq tosh.

Zovur yonbag'irlarining joylashish koefitsiyenti grunt turiga qarab qabul qilinadi (14.1-jadval).

14.1-jadval


Grunt turi	Zovur yonbag'irlarining joylashish koefitsiyenti	Yuvib ketmaydigan tezlik, m/s
Qum balchiqli suvgaga to'yingan	2,5–3,0	0,4
Mayda qum, o'rta va yirik g'ovak	2,0–2,5	0,5–0,8
O'sha, zich	1,5–2,0	0,8
Qumloq tuproq, engil qumoq tuproq	1,5	0,5
O'rtacha og'ir qumoq tuproq, sog' tuproq, o'rtacha zichlikdagi tuproq	1,25–1,50	0,6–1,0
Juda zich tuproq	0,75–1,00	1,2
Mayda tosh va mayda toshli grunt	1,25–1,50	1,4

*Izoh:* Berilgan tezliklar 0,4–1,0 m chuqurlikka ega bo'lган suv oqimiga tegishli. Chuqurlik 0,4 m dan kam bo'lsa, keltirilgan raqamlar 0,85 koefitsiyent bilan, 1,0 m dan ortiq bo'lsa, 1,25 koefitsiyent bilan tuzatiladi.



14.4-rasm. Kirish og'zining konstruktsiyasi:

1 – grunt; 2 – mox ustiga ikki qator tosh terish; 3 – zovurga bir qator tosh terish.



*14.5-rasm. To‘g‘onning ko‘ndalang kesimi:  
1 – grunt; 2 – tosh yotqizib yonbag‘irni mustahkamlash.*


Aerodrom yaqinidagi suv havzasida suv sathi ko‘tarilib ketadigan bo‘lsa, uchish maydonini himoya qilish uchun to‘g‘on quriladi (14.5-rasm). Suv 10–15 yilda 1 marta toshadi deb qabul qilinadi. To‘g‘onning balandligi hisobiy suv sathidan 0,5 m ortiq. To‘g‘on mahalliy gruntdan ko‘tariladi. To‘g‘on yonbag‘irlarining joylashish koeffitsiyenti quyidagicha olinadi: quruq yonbag‘ir uchun 1,0–2,0; suv xavzasi tomondagi yonbag‘ir uchun 2,0–3,0.

To‘g‘on sifatida avtomobil yo‘llaridagi ko‘tarmalardan foydalanish mumkin. To‘g‘onning yonbag‘irlari yuvilib ketadigan bo‘lsa, ularni baland zovur yonbag‘iridagidek mustahkamlash mumkin. Havzadagi suv to‘g‘on gruntiga shimib o‘tib ketmasligi uchun, o‘sha tomondan tuproqli to‘siq qo‘yiladi.

*Tutib oluvchi zovurlar* ham baland zovurlar kabi quriladi. Tutib oluvchi zovurning chuqurligi va ko‘ndalang kesim o‘lchamлari grunt turi, suvli qatlamlarning quvvati, yerosti suvlari sathini pasaytirish darajasiga qarab hisoblab topiladi. Zarurat bo‘lsa, yonbag‘irlari mustahkamlanadi.

*Tutib oluvchi drenalar* shunday zovurlarga o‘xshaydi; farqi shuki drenalar yopiq bo‘ladi. Ularning ishlash sxemasi 14.6-a rasmida berilgan.

Drenalar uchish maydonidan tashqariga, yerosti suvlari oqimining yo‘nalishini va ularni tutib olib, sathini pasaytirish zaruratini hisobga olib yotqiziladi. Chuqurligi joy sharoitidan, gruntning geologik tuzilishiidan aniqlanadi. Drenaga beton, asbotsement va plastmassa quvurlar,



*14.6-rasm. Tutuvchilar va qirg'oq drenalar sxemasi:*

a) tutuvchi drenaning ishlash sxemasi; b) drena konstruktsiyasi; d) qirg'oq drenasining ishlash sxemasi; 1 – grunt; 2 – chim qoplama; 3 – mox qatlami; mineral paxta; 4 – shimagidan qatlam; 5 – quvur; 6 – qirqimlar; 7 – yerosti suvlari oqimi.

(tubida teshiklari bilan) ishlataladi. (14.6-b rasm). Quvur diametri hisoblab topiladi, nishabligi kamida 0,005. Asbotsement quvurlardagi teshiklar (qirqimlar) har 0, 30,5 m oraliqda ochiladi. Quvurlar uchma-uch tutashgan joylari berkitib tashlanmaydi. Bunday joylar va teshiklarga mineral paxta, mox qatlami qo'yiladi, natijada balchiq bosmaydi. Quvurdagi teshiklar va qirqimlar orqali uning ichiga yerosti suvlari kiradi. Quvur atrofiga suv shimagidan material tashlanadi u balchiqdan asraydi. Bunday material sifatida mayda tosh, qum va

mayda tosh aralashmasi yoki mineral paxta ishlatiladi. Shimadigan qatlam ustidan chim yotqizib, transheya ilgari qazilgan tuproq bilan berkitiladi.

*Qirg'og' drenalar* ham tutib oluvchi drenalarga o'xshash. Ularning ishlash sxemasi 14.6-d rasmda berilgan. Chuqurligi toshqin paytida havzadagi suv sathi, gidrogeologik sharoitlar va yerosti suv sathini pasaytirish darajasini hisobga olib hisoblab topiladi.

#### **14.2. Sun'iy qoplamlarning suv qochirish va drenaj tizimlari**

SUQT, RY, TJ va perron qoplamlarining mustahkamligi ularning tagidagi gruntning yuk ko'tarish qobiliyatiga bog'liq, chunki u o'ta namlanib qolsa, bu qobiliyatini yo'qtadi. Gruntning o'ta namlanishi ikki yo'l bilan bo'ladi: qoplama ustidagi suvlar tushganidan yoki yerosti suvlar kapillarlar bo'y lab ko'tarilganidan. Bundan tashqari yuzadagi suvlarni yo'qotish inshootlari bo'lmasa, qoplama tutashgan UT ning grunt elementlari uchastkalari va chetlari uvib ketib, keyin yuvilib ketishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish uchun SUQT, RY, TJ, perronlarni loyihalashda quyidagi tadbirlar ko'rildi: bunday inshootlar uchun suvlarni qochirish sharoiti yaxshi bo'lgan joy tanlash; qoplamlar va gruntli chekkalarga zaruriy ko'ndalang va bo'y lama nishabliklar berish; qoplamlar chetini atrof joydan baland qilish; qoplamlardan suv o'tmasligini ta'minlash; suv qochirish va drenaj tizimini qurish.

SUQT, RY, TJ va perronlar uchun suv tabiiy tarzda oqib keta-digan joy tanlangani ma'qul; suv ayirg'ichlarda normal gruntli va gidrogeologik sharoitlarda suv yaxshi oqib ketishi uchun bu inshootlarda kerakli nishabliklar qilinadi. Sun'iy qoplamlarning yon atrofdagi suv yig'iladigan joylarning suvidan himoya qilish uchun, qoplamlarning chetlari atrofdagi uchish maydonining grunt yuzalaridan 0,3–0,5 m baland quriladi, qoplama bo'y lab esa tuproq yuum qilib, uning nishabi qoplamadan tashqariga yo'naltiriladi. Zarur


holatlarda yuqorida oqib kelishi mumkin bo'lgan yuza suvlarni tutib olish uchun gruntli tarrowlar qaziladi.

Qoplamlar pastga suv o'tkazib yubormasligi uchun, bikr qoplamlarda plitalar orasidagi choq berkitib tashlanadi, nobikr qoplamlarda – qoplamaning yuqori qatlami suv o'tkazmaydigan materialdan tayyorlanadi.

SUQT, RY, TJ, perronlar va boshqa maydonchalarining suv qochirish va drenaj tizimini qurish suv qochirish bo'yicha tadbirlar majmuasi ichida asosiy hisoblanadi. Suv qochirish va drenaj tizimining vazifalari quyidagilar: SUQT, RY, TJ, perronlarga atrofdan oqib keladigan qoplamlarning o'zidan va grunt chekkalardan oqib tushadigan suvlarni yig'ish va uzoqlashtirish; yerosti suvlarini drenajlanuvchi asoslardan yig'ish va uzoqashtirish; qoplamlar yaqinidagi pastlik joylarda yig'iladigan suvlarni uzoqlashtirish.

Sun'iy qoplamlarning suv qochirish va drenaj tizimini uchta sxema bo'yicha tashkil qilish mumkin.

I sxemani II va III iqlimi zonadagi aerodromlarda, shuningdek, agar abadiy muzliklar bo'lmasa, I zonada ham qo'llash mumkin: bunda tabiiy asosda tuproqsimon yoki changsimon gruntlar bo'lsa (bular ko'pchishga moyil); SUQT yoki maydonchalar qoplamasining eni 40 m dan ortiq bo'lsa, qoplamlardan oqib tushadigan suv qoplama chetiga qurilgan ochiq yoki yopiq tarrowlariga tushadi. Agar sun'iy qoplamlar ko'ndalang ikki nishabli qilinsa, tarrow ikkala tomonda kerak; bir nishabli qilinsa, ochiq tarrow qoplamaning quyi tomoniga quriladi. Ochiq tarrow bo'ylab ma'lum oraliqlarda yomg'ir suvi tushadigan hududlar qurilib, ustiga panjara qo'yiladi. Suv ochiq tarrowlardan oqib, hududlarga tushadi, keyin quvurlar orqali qoplama chetidan 10–15 m narida o'tkazilgan kollektorlarga yo'naladi. Kollektor bo'ylab, ma'lum masofalarda kuzatish hududlari quriladi. Ular quvurlarni ko'zdan kechirish va ta'mirlash uchun kerak. Kollektorlar suvni aerodrom tashqarisiga chiqarib tashlaydi.



**14.7-rasm. Aerodrom qoplamlarining suv qochirish va drenaj tizimi sxemasi:**  
**1 – talvejli (kamar) quduq; 2 – grunt tarnov; 3 – obmotka; 4 – qoplama; 5 – qoplama chetidagi tarnov; 6 – kuzatish hududi; 7 – drenaj qatlamlili asos; 8 – yomg'ir suvini qabul qiluvchi quduq; 9 – o'tkazib yuborgich (quvur); 10 – kollektor; 11 – qoplama chetidagi drenaj; 12 – drenajlovchi qatlami yo'q asos.**

Qoplamlardan yuqori tomonlarning yuza suvlarini qoplamaga tushmasligi uchun u tomonda gruntli tarnovlar ochiladi. Uchish tasmasi chegaralarida bunday tarnovlarni qurish ayrim hollardagina, texnik-iqtisodiy dalillardan keyingina loyihaga kiritiladi. Bunday tarnov bo'ylab, ma'lum masofalarda talvegli quduqlar qurilib, ustiga panjara tashlanadi. Grunt tarnovdagi suv shu quduqqa tushadi, keyin kuzatish qudug'iidan o'tib, kollektorga tushadi.



Sun'iy qoplamaning drenajlanuvchi asosidan suvni qochirish uchun qoplamaning pastki cheti bo'ylab drenajlar o'tkaziladi. Asosdagi yerosti suvi shu drenaga tushib, kuzatish qudug'iga va keyin, kollektorga tushadi. Bu drenalarning kollektorga tutashuv joyiga quduq quriladi. Yerosti suvlari yaqin bo'lsa, qo'shimcha chuqur drena yotqiziladi. Bu holda undan drenajlanuvchi asosdan suvni qochirish uchun ham foydalanish mumkin.

II sxema (14.7-rasm) ortiqcha va o'zgaruvchan namlanadigan zonalardagi aerodromlarda qo'llanadi; tuproqli va qumoq tuproqli grunt bo'lsa, yetarli namlanmaydigan zonalarda ham qo'llanadi; Qoplamalar yig'ma bo'lsa, har qanday zonada ham ishlatilaveradi. Qoplamadan oqib tushadigan suv grunt yoqalardan o'tib, gruntli tarnovga tushadi. Tuproqli va qumoq tuproqli gruntlarda drenajlanuvchi asos va chet drenalar qurish mumkin. Gruntning o'zi yaxshi drenajlansa, bunaqa asosni maxsus qurmasa ham bo'ladi. Grunt tarnovlar va drenalardagi suv kollektorlarga tashlanadi.

III sxema qurg'oqchilik zonada, kam namlanadigan zonada, grunt oz chuqurlikkacha muzlaydigan zonada, shuningdek, agar qumli grunt va uni yuvib ketmaydigan sharoit bo'lsa, boshqa zonalarda qo'llash mumkin. Bu sxemaga binoan qoplama yuzasidagi suvlar uning chetidagi grunt yoqaga va undan atrof hududga tushiriladi. Suv qochirish tizimlar qurilmaydi. Ba'zi hollarda qoplamalar kamar (talveg)larni va relyefning berk pastliklarini kesib o'tsa, o'sha joyda gruntli tarnovlar va qisqa kollektorlar quriladi.

Sun'iy qoplalmalarning suv qochirish va drenaj tizimini loyihalaganda, odatda, elementlarning namunaviy konstruktsiyalari ishlatiladi. Har bir muayyan sharoit uchun o'zining konstruktsiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqroq. Suv qochirish va drenaj tizimi elementlarining asosiy konstruktsiyalarini ko'rib chiqamiz.

*Ochiq va yopiq tarnovlar* (14.8-rasm) qoplalmalarning chetiga, sun'iy qoplamaning pastki chetiga quriladi.



#### 14.8-rasm. SUQT dagi tarnovlar konstruktsiyasi:

a) ochiq tarnov; b) yopiq tarnov; 1 – qoplama; 2 – asos; 3 – otmostka; 4 – qirracheti drenasi; 5 – shakldor toshlar; 6 – monolit to'shak (suvto'sgich).

Ochiq tarnovlarning ko'ndalang kesimi – uchburchak shaklda. O'lchamlari: SUQT va TJ dagi eni 4–5 m, RY dagi eni – 2,5–3,0 m; SUQT va RY dagi chuqurligi 0,08 m, TJ da esa 0,08–0,10 m (suvi-yig'ib olinadigan yuza eniga qarab). Yopiq tarnovlar asos suv shimi-maydigan bo'lsagina tavsiya etiladi.

Tarnovning enini aniqlashda sement-beton qoplamlarning plitaridagi tarnov enini hisobga olish kerak. Tarnovning eng kichik bo‘ylama nishabligi 0,003. Nishablik 0,0035 dan kam bo‘lgan uchastkalarda tarnovning bo‘ylama profiliga arrasimon shakl beriladi, nishabligi ruxsat etilgan eng kichik darajada bo‘ladi.


*Ochiq gruntli tarnovlar* suv qochirish va drenajning II namunaviy sxemasida, qoplamlar chetida tarnov bo‘limganda quriladi (14.7-rasm). Qoplama yuzasi va uning yoqasidagi suv SUQT bo‘ylab, unga yaqin joylashgan gruntli tarnovga tushadi. Gruntli tarnov yuzalari juda g‘adir-budir bo‘lganidan tubining nishabligini kamida 0,005 olinadi. Gruntli tarnovning ham ko‘ndalang kesimi uchburchak, eni 5–10 m, yon tomonlari nishabligi 0,015–0,050. Qoplamlarning hamma yuzalari yoqalarida (SUQTdan tashqari) tarnov yon tomonlarining nishabligini 0,10 gacha olish mumkin. Agar tarnovdagi suv tezligi ruxsat etilgan chegaradan ortiq bo‘lsa, tarnov yuzasidagi gruntni mustahkamlash kerak. Tarnov ichiga qo‘sishimcha tarnov o‘rnatish tavsiya etilmaydi, chunki HK lari undan yurib o‘tganda shassiga ortiqcha kuch ta’sir qiladi.

*Yomg‘ir suvi uchun quduqlar* (14.9-rasm) zavodlarda tayyorlangan temir-beton elementlardan quriladi. Quduq qopqog‘i  $0,96 \times 0,47$  m o‘lchamli panjara seksiyalardan iborat. Qopqoq o‘rnida bittadan uchtagacha seksiya ishlatish mumkin. Quduqning uzun tomoni tarnov o‘qiga perpendikular qilib qo‘yiladi.

Quduqdagi suv o‘tkazuvchi quvur orqali kollektorga tushadi. O‘tkazuvchi quvur quduqni kollektorining kuzatuv qudug‘i bilan tutashtiradi. Qoplama bilan yomg‘ir suvi tushadigan quduq tutashgan joyga suv o‘tkazmaydigan yoqa qilinadi.


Tarnovning bo‘ylama nishabligiga qarab yomg‘ir suvini oladigan quduqda bir nechta panjara bo‘lishi mumkin:

0,005 gacha	bir seksiya panjara (normal ko‘rinish)
0,006–0,007	ikki seksiya panjara (kuchaytirilgan)
0,008 va undan ko‘p	uch seksiya panjara (kuchaytirilgan).



**14.9-rasm. Yomg'ir suvlarini qabul qilish quduqlarini konstruksiyalash:**  
 1 – smola bilan moylagan; 2 – suv o'tkazgich; 3 – bitum mastikasi; 4 va 8 – qum-bitum qatlamlari, 2 sm; 5 – hidrofobli grunt (tuproq); 6 – sement qorishma (1,6–1,8);  
 7 – shlakli qatlamlari; 9 – ushlab turuvchi konstruksiya.

Qish qattiq keladigan hududlardagi ko'pchiyidigan gruntlarda yomg'ir suvi tushadigan va kamar (talveg) quduqlar ko'pchib chiqishi mumkin, ya'ni panjaraning yuqori belgisi asta ko'tarilishi mumkin. Grunt muzlab, quduq devorlariga yopishib qoladi va kengayish jarayonida quduqni yaxlitligigacha tepaga ko'taraveradi. Bunday hodisaga yo'l qo'ymaslik uchun quduqni joyiga o'rnatgandan keyin quduq atrofi bilan kotlovan orasiga, o'zining tuprog'iga suv shimmaydigan materiallar aralashtirib qo'yish kerak. Shunda quduq atrofi ko'p suv shimmaydi, yaxlamaydi, demak, ko'tarilib ketmaydi. Bundan tashqari bunday sharoitlar uchun quduq va qop-




14.10-rasm. Yomg'ir voronkasi konstruktsiyasi:

- a) tasmaga ko'ndalang qirqim; b) tasma bo'ylab qirqim; 1 – qoplama; 2 – tarnovli temir-beton plita; 3 – tirkishlarni sement aralashma bilan to'ldirish (1:3); 4 – panjara; 5 – chetlarga yotqizilgan chaqiqtosh; 6–8 sm chugurlikkacha bitum qo'yilgan; 6 – qum asos; 7 – diametri 50–75 mm bo'lgan sopol quvurlardan qurilgan chekka drena; 8 – o'tkazuvchi asbotsement quvur; 9 – tutash joy muftasi; 10 – po'lat quvurdan yasalgan, korroziyaga qarshi surkama berilgan payvandlangan tirsak; 11 – qatron shimdirligani kanopdan qistirma; 12 – bitum qatlami; 14 – o'sha, yomg'ir voronka bilan birga.

lama ko'pchiganda bir tekis ko'tarilishni ta'minlaydigan yomg'ir voronkalar tavsiya etiladi (14.10-rasm).

Yomg'ir qabul qiluvchi sun'iy qoplama bilan tutashgan tarnovli plita va suv qochiruvchi qurilmalar – metal panjaralar va tubdag'i vertikal kalta quvurlardan iborat. Kalta quvur elastik tutashuv (qatron shimdirligani kanop) yordamida payvandlangan tirsak bilan ulanadi, tirsakka o'tkazuvchi asbotsement quvur keltirib tutashtiriladi. Tirsak quvur bilan mufta yordamida ulanadi. Tarnovli temir-beton plita uchish maydoni yuzasi bilan tutashadigan joy yoqasida eni kamida 2 m bo'lgan, suv o'tkazmaydigan otmostka quriladi.



*14.11-rasm. Talveqli quduq:*

1 – panjara; 2 – chaqiq toshli otmostka, 6–8 sm chuqurlikkacha bitum qo'yilgan; 3 – quduq devori; 4 – o'tkazuvchi quvur; 5 – shlak yostiq; 6 – 1:6 nisbatda qorilgan sement qatlam; 7 – suvgaga chidamli grunt; 8 – qatron shimdirlilgan kanopdan yasalgan qistirma, qalinligi 1–1,5 sm.

*Talveqli quduqlar* (14.11-rasm) ga ikki yo'ch sekxiyali panjara qo'yiladi. Panjaralar atrofdagi grunt yuzasidan 0,08–0,10 m past qilib joylashtiriladi va panjaralar bilan chaqiq toshdan qilingan eni 1,0–1,5 m voronkasimon otmostkaning yuzasini tutashtiradi; o'sha otmostka 0,06–0,008 m chuqurlikkacha bitum bilan ishlov berilgan bo'ladi. Grunt bahorda cho'kib ketmasligi uchun talveg

quduq qalinligi 0,15 m bo‘lgan chaqiq tosh, mayda tosh yoki shlak yostiq ustiga qo‘yiladi.

Tajribaga ko‘ra talveg quduq bilan yomg‘ir suvi tushadigan quduqlar o‘rtasida 100–200 m masofa bo‘ladi (QMQ 2.05.08-85).


Talveg quduqni uchish maydonining gruntli qismiga, relyefning hamma yopiq pastliklariga, tarnovlar oxiriga o‘rnataladi.

*O‘tkazuvchi quvurlar* yomg‘ir suvi tushadigan quduqlar bilan talveg quduqlarni kollektorga tutashtiradi; u asbotsement quvur bo‘lib, ichki diametri 0,141–0,322 m (yomg‘ir suvi tushadigan quduqqa tushadigan suv hajmiga bog‘liq; SUQM chetidagi quduqlar uchun 0,2 m). Bu quvurlarning nishabligi yomg‘ir quduqlardan chiqqanda 0,02–0,03; talveg quduqdan chiqqanda 0,005–0,030.

*Chuqur drenaj drenasi diametri* 0,100–0,150 m bo‘lgan keramik yoki asbotsement quvurdan yasaladi; quvur transheya tubiga yotqizilib ustiga, quvur tepasidan boshlab 0,25–0,30 m qalinlikda va eni taxminan 0,4 m qilib, suv shimadigan material tashlanadi. Uning ustiga, transheya enini qoplab oladigan darajada chim yotqiziladi; chimning ildizini osmonga qilib tashlanadi, shunda suv shimadigan materialga tuproq aralashmaydi.

Suvni qabul qilishi uchun keramik quvurlar tutashgan joy berkitilmaydi; quvur asbotsement bo‘lsa, unda tagidan va yonidan, har 0,3–0,35 m oralatib qirqim qilinadi; qirqim eni 2–3 m, diametrning 2/3 qismigacha chuqurlikkacha boradi (14.6-rasm). Drena uzunligi 50–125 m, quvur nishabligi kamida 0,005. Bu quvurlarni yotqizish chuqurligi yerosti suvlarining sathini qancha pasaytirish zarurligidan kelib chiqib hisoblanadi.


*Qirra cheti drenalar* sun’iy qoplamlarning drenajli qatlamiidan ortiqcha suvni yig‘ib, uzoqlashtirish uchun mo‘ljallangan; suv shimadigan materiallar to‘ldirilgan transheya ko‘rinishida bajariladi (14.12-rasm).



14.12-rasm. Qirra cheti drenalar konstruktsiyalari:

- 1 – beton qoplama; 2 – qum asos; 3 – mox qatlami; 2–3 sm; mineral paxta;
- 4 – yirik qum; 5 – o‘rtacha donali qum; 6 – quvur (D-75–100 mm); 7 – qum;
- 8 – mayda tosh.

Transheya tubiga diametri 0,1 m bo‘lgan keramik yoki asbotsement quvur yotqiziladi, nishabligi kamida 0,005. Bu quvur kollektorning kuzatish qudug‘igacha olib boriladi (14.13-rasm). Bunda quvur yo‘nalishini o‘zgartirish uchun shakldor tishlardan foydalaniлади. Quvurlar tutashgan joylar berkitilmaydi; asbotsement quvurlar ishlatalisa, bundan tashqari, quvur tagida diametrning 2/3 qismigacha, har 0,3 m oralatib qirqimlar qilinadi. Balchiq o‘tirib qolmasligi uchun quvurlar tutashgan joyga va qirqimlar ustiga 0,02 m qalinlikda mox tashlanadi. Qirra cheti drenaning suv shimadigan materiali qoplama asosidagi g‘ovak materiallar bilan birlashib ketadi. Suv shimadigan material sifatida yirik qum, qum va mayda tosh aralashmasi, mayda tosh ishlataladi.




14.13-rasm. Tarnovlar, yomg'ir va talveg quduqlar, o'tkazish quvurlari, qirracheti drenlar va kollektorlar sxemasi:

1 – yomg'ir suvi uchun quduq; 2 – qirracheti drena; 3 – o'tkazish quvuri; 4 – kollektor; 5 – talvegli quduq; 6 – kuzatish qudug'i; 7 – qoplama; 8 – drenajlanuvchi asos; 9 – chaqiq toshli o'tish tasmasi,  $h=20$  sm.

Chuqur drenalar bir vaqtning o'zida yerosti suvlarini va qoplama tagidagi drenajlanuvchi g'ovak asosdan suv oladi, qirracheti drenalarga o'xhash quriladi, lekin chuqurligi va suv shimanligan materialining balandligi ancha katta bo'ladi. Ko'mmasi asos materiali bilan qo'shilib ketadi.

Kollektor, bu yerosti quvur bo'lib, quduqlardagi suvni uchish maydonidan tashqariga chiqarib tashlaydi. Unga ishlatalidigan quvurlar: ichki diametri 0,235 m va undan ortiq bo'lgan asbotsement, diametri 0,3–0,5 m beton, diametri 0,5 m va undan ortiq bo'lgan temir-beton quvurlar. Quvurlar bir-biri bilan tutashgan joylar tol, ruberoid tasmalar yoki sement qorishmasi bilan berkitib tashlanadi. Tasmalar eni 0,15–0,20 m bo'lib, erigan qatronli bo'ladi. Sement qorishmasi 1:3 nisbatda tayyorlanadi (14.14-rasm)



14.14-rasm. Quvurlar tutash joyni qurish variantlari:

- a) borulin kamar (bitum massa ustidan ikki qatlam borulin); b) gidroizolli kamar (bitum massa ustidan ikki qatlam borulin); c) sement kamar; d) rubberoid kamar (bitum massa ustidan uch qatlam rubberoid); e) armobitum kamar (uch qator suvoosti sim to'ri va borulin qatlami); f) asbotsement quvurlar tutashuvi; 1 – bitum, 3 – rezina halqalar; 4 – sement qorishma.

Kollektor qoplama chetidan 10–15 m narida yer ostidan o'tkaziladi. Bunda iloji boricha qoplamani kesib o'tmaslik kerak. Iloji bo'limasa, eng qisqa yo'nalish bo'yicha o'tkaziladi, ya'ni qoplamalarning bo'ylama o'qiga (yoki egri chiziqli RY ning konturiga) perpendikular bo'ladi.

Kollektor trassasini o'tkir burchak bilan burishga ruxsat berilmaydi, chuqurligi quyidagi 3 shartdan kelib chiqadi:

- 1) samolyotdan tushadigan normal yuklama ta'sirida mustahkamligini ta'minlash (hisobiy samolyot g'ildiraklari orqali); 2)


gruntning mavsumiy muzlashi (quvurlar muzlash chuqurligidan yuzada bo'lmagan ma'qul); 3) kollektorga kelib tutashadigan quvurlar (o'tkazuvchi, yig'uvchi yoki yolg'iz dren) belgilari va suv ortga uring ketishi ehtimoli uchun bu quvurlarning zaxirasi.

Quvurlarning mustahkamligi g'ildirakdan tushadigan hisobiy yuklama asosida tekshiriladi (birinchi navbatda yuzaroqdagi kichik diametrli quvurlarda). Quvur tepasining eng kam chuqurlik mustahkamlik sharti bo'yicha 0,75 m qabul qilingan (hatto hisoblash bundan kam ko'rsatganda ham).

Yuklama ositudagi quvur devorlaridagi kuchlanishni pasaytirish uchun quyidagicha yotqizish tavsiya etiladi (14.15-rasm).

Asbotsement quvurlar-transheyaning shibbalangan grunt asosiga, tagini 90 dan kam bo'lman darajada qamrab olib yoki yig'ma temir-beton elementlar ustiga; beton va temir-beton quvurlar, diametri 0,3–0,6 m – transheylarga yig'ma temir-beton elementlar ustiga; temir-beton quvurlar, diametri 0,6 m dan ortiq monolit beton yoki temir-beton asoslar ustiga (quvurning tashqi diametrining taxminan 1/4 qismini qamrab oladigan taglik ustiga).

Kollektordagi suv muzlab qolishini oldini olish uchun quvurning tepasi gruntning muzlash chuqurligidan 0,2 m pastda bo'lishi kerak.




*14.15-rasm. Quvurni transheyaga yotqizish variantlar:*

- a) tekislab shibbalangan gruntga; b) yig'ma temir-beton bloklarga; d) mayda yoki chaqiq toshli asosga; e) monolit beton yoki temir-beton asosga; 1 – zinch quruq grunt; 2 – sement qorishma (1:3; 1:4); 3 – temir-beton blok; 4 – sement qorishma (1:6; 1:8); 5 – mayda yoki chaqiq toshli asos; 6 – beton yoki temir-beton asos; 7 – sement qorishma.

Gruntning muzlash chuqurligi 1,5 m dan oshadigan hududlarda kollektor quvurlarini shu gruntga yotqizish mumkin, faqt bunda quvurlar mustahkamligi ta'minlangan bo'lishi lozim. Bunday holda kollektoring nishabligi kritik qiymat 0,06–0,08 dan kam bo'lmasligi va suv chiqarib tashlash joyi ko'p bo'lishi; ba'zi hollarda kollektor quvurlarini muzlashdan himoya choralari ham ko'rildi (shlak g'ilof, issiq saqlovchi qatlamlar va h.k.).

Kollektorga oqib keladigan suvlar hisobiy miqdorda bo'lganda oqim tezligining ruxsat etilgan oraliqlari quvur ko'ndalang kesimini va nishabligini tanlash orqali ta'minlanadi. Eng kichik nishablik 0,003. O'tkazish quvurlarini kollektorga to'g'ri ulash va ish hajmini kamaytirish uchun kollektor quvurlarining to'g'ri joylarida nishablikni uchish maydoni nishabligiga yaqin belgilanadi.

Kuzatish quduqlari o'tkazish quvurlarini ulash uchun kollektor trassasi bo'ylab, trassa buriladigan, nishablik o'zgaradigan, kollektor boshlanadigan, trassaning to'g'ri chiziqli joylarida quriladi va quvurlarni tozalash uchun mo'ljallanadi (14.16-rasm).



**14.16-rasm. Kuzatish qudug'i, doira shaklda  
(temir-beton elementlardan yig'ilgan):**

1 – yumshoq tuproq qatlami, 10 sm; 2 – o'tkazish quvuri; 3 – bitum; 4 – qatron shimdirligan kanop; 5 – beton tarnov; 6 – temir-beton tub; 7 – chaqiq tosh asos; 8 – sement qorishma; 9 – pastki bo'g'in devori.

Tozalash quyidagicha óraliqlarda bajariladi (kami bilan metrlarda): diametri 0,25 m gacha bo'lsa, har 50 m da; 0,25–0,40 m bo'lsa, har 75 m; 0,40–0,60 m bo'lsa, har 100 m da; 0,60 m dan katta bo'lsa, har 125 m da.

Kuzatish quduqlari, odatda, yig'ma temir-beton elementlardan quriladi (qopqoq, bo'g'iz, o'rta qism, tub). O'tkazish quvuri va kollektor quvuri uchun teshiklarni joyiga qarab, urib ochiladi. Bundan tashqari, quduq tubiga, quvur diametrining 0,6 hissa balandligida beton tarnov qo'yiladi.

Quduqning ko'ndalang kesimi, agar diametri 0,60 m va undan kichik bo'lsa, doira shaklda, 060 m dan katta bo'lsa, to'rtburchak shaklda bo'ladi. Quduqning ichki gabariti (diametri, to'rtburchak tomoni) 07 m dan kam qilinmaydi. Tubini mayda yoki chaqilgan tosh qalinligi 0,15–0,20 m bo'lgan yostiq ustiga qo'yiladi; cho'kishning oldini olish uchun shunday qilinadi; ko'pchib chiqish ehtimoliga qarshi tubiga shaklak yostiq qilinadi.

HK lari yurish ehtimoli bo'lgan joylarda kuzatish qudug'inинг qopqog'ini grunt yuzasidan 0,40–0,50 m pastda qilinadi (xavfsizlikning chekka tasmasi, gruntli UP ning ishchi yuzasi). Qolgan hamma holatlarda quduq qopqog'i uchish maydoni yuzasi bilan bir sathda bo'ladi. Qopqoq atrofida chaqiq toshli otmostka qilinadi, eni 0,8–1,2 m, qalinligi 0,20 m; chaqiq toshga 0,06–0,08 m chuqurlik-kacha bitum quyiladi. Bunday quduqni qopqog'i va ustidagi panjrasini botiq qilmasdan talvegli quduqqa o'xshatib ham qurish mumkin. Bunday holda kuzatish qudug'i tindirgichda bo'ladi. Tindirgich chuqurligi (quvur tarnovidan past) 0,3–0,5 m.

#### **14.3. Uchish maydonining grunt qismida suv qochirish va drenaj tizimlari**

Aerodromning uchish maydonida gruntga suv tushiradigan manbalar bir nechta. Eng ko'p hollarda atmosferadan tushadi. Yomg'ir suvlari yoki qor, erishidan hosil bo'lgan suv gruntning yuza qatlamini ivitadi. Yerosti suvlari yaqin bo'lsa, kapillarlar orqali ko'tarilib gruntning yuza qatlamlarini suvg'a to'yintiradi. Grunt ni ho'llaydigan va ivitadigan bu ikki manbaga qarshi qaratilgan, quritish bo'yicha muhandislik

tadbirlarining majmuasi suv qochirish va drenaj tizimi deyiladi. Suv qochirish tizimining vazifasi ko‘lmak bo‘ladigan joylarga suv yig‘ish va undan uzoqlashtirish bo‘lsa, drenaj tizimining vasifasi yerosti suvlarni pasaytirish va uzoqlashtirishdan iborat.

Uchish maydoni relyefiga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri yomg‘ir suvlari turib qolmasdan tez oqib ketadigan darajada nishablik qilishdir. Vertikal planlash loyihasida atmosfera yog‘inlari oqib ketadigan taraflar ko‘rsatilishidan tashqari, suv yig‘iladigan joylarni ham aniqlash kerak. U joylarga suv qochirish elementlari quriladi.

Suv qochirish va drenaj tizimi qurilmalarining loyihasi mahalliy iqlimiyl, tropik va grunt sharoitlaridan kelib chiqadi. Odatda, bunday tizim uchish maydonining ayrim qismlaridagina quriladi. Maydonning hamma yuzasi uchun shunday tizim zarur bo‘lsa, u maydonga aerodrom qurilmaydi. Doimiy ishlaydigan suv qochirish va drenaj tizimi ayrim hollarda, zaruriy texnik iqtisodiy dalillardan so‘ng quriladi. Aerodromni qayta qurganda, SUQT ni uzaytirganda shunday tizimga zarurat tug‘ilishi mumkin.

Uchish maydoni gruntli qismining suv qochirish va drenaj tizimini 4 xil sxema bo‘yicha qurish mumkin:


I sxema – suv qochirish tizimi; quritgichlar, yig‘uvchilar, talvegli quduqlar va kollektorlardan iborat.

II sxema – gruntli tasma ikki nishabli shaklda quriladi.

III sxema – suvni quduqlarga yo‘naltirish.

IV sxema – chuqur drenaj vositasida yerosti suvlarni pasaytirish va uzoqlashtirish.

Birinchi sxema namgarchilik o‘zgarib turadigan va ko‘payib ketadigan zonalarda qo‘llaniladi. Relyef aerodrom uchun noqulay bo‘lsa og‘ir, gruntlari bo‘lsa, va kunduzlari yerosti suvlari ko‘tarilsa, bu sxemadan yetarli namlanmaydigan va quruq zonalarda ham foydalanish mumkin. Yer yuzi suvlarni gruntli uchish tasmlaridan qochirish uchun quyidagi tizimlar kerak: a) qurituvchilar, yig‘uvchilar, kollektorlar; b) talvegli quduqlar va kollektorlar. Bular dan birinchisi ko‘lmak suv yig‘iladigan katta yuzalarda, ikkinchisi kichik yuzalarda qo‘llaniladi (14.17-rasm).



**14.17-rasm. Suv qochirish tizimlari sxemasi:**

1 – talvegli quduqlar; 2 – kollektor; 3 – yig‘uvchi; 4 – kuzatish qudug‘i; 5 – qurituvchi; 6 – qurituvchi va yig‘uvchilarning shakldor toshlar yordamida quduqsiz tutashuvi.

Quritgichlar yer yuzasi suvlarini qabul qilib, yig‘uvchiga uzatadi va ko‘lmak bo‘ladigan joylarga quriladi. Quritish liniyalari gorizontallarga taxminan parallel qilib yotqiziladi, shunda yer yuzi suvlarini yaxshi tutib oladi, umumiy uzunligi 125 m dan oshirilmaydi. Quritgichlar orasidagi masofa, uchish maydonining nishabligi va grunti turiga qarab qancha bo‘lishi 14.2-jadvalda keltirilgan.

**14.2-jadval**


Grunt turi	Quritgichlar orasidagi masofalar (m), yuza nishabligiga qarab					
	0,001	0,002	0,003	0,004	0,005	0,006–0,01
Tuproq (gil)	20	30	40	45	50	55–75
Og‘ir qumoq	25	35	45	50	55	60–80
O‘rtacha qumoq	30	40	50	55	60	65–85
Og‘ir, changsimon qumloq	40	50	60	65	70	75–90

Quritish quvurlarining ko‘milish chuqurligi boshlanish joyida 0,6–0,8 m bo‘ladi. Quritgichlar yig‘uvchilar bilan kuzatish qudug‘i va

shakldor tosh vositasida  $90^\circ$  yoki shunga yaqin burchak ostida tutashtiriladi. Yig'uvchilar suvni quritgichlardan olib, kollektorga yo'naltiradi. Ular gorizontallarga perpendikular yoki shunga yaqin o'rnatiladi va uzunligi 150–300 m bo'lishi mumkin.

Kollektorlarning vazifasi – suvni aerodrom hududlaridan chetga, suv qochirish kanallari va suv havzalariga tashlashdan iborat. Buning uchun SUQT, RY, TJ va perronlarning kollektorlaridan foydalilanildi. Talvegli quduqlar va kollektorlardan iborat I sxemaga mos tizim bo'yicha suv qochirish keng tarqalgan (14.17-rasm). Bunday holarda yer yuzi suvlari GUQT ning grunt qismidagi pastliklarda SUQT, RY va TJ lar oraliqlarida to'planishi mumkin. U yerlardagi suv talveg quduqqqa, undan kollektorga tushadi.

II sxema bo'yicha suv qochirishda GUQT ni SUQT kabi profillab suv qochirish tashkil qilinadi. Bunday gruntli UT ning ko'ndalang nishabini 0,015 dan kam qabul qilinmaydi. UT ning yon chegaralariga tushiriladigan suvlar gruntli tarnovga tushib, keyin talvegli quduqqqa, undan kollektorga o'tadi. Talvegli quduqlar kuzatish quduqlari bilan birlashtiriladi (14.18-rasm). Bu sxemadan nishabligi kam, suvni oz o'tkazadigan gruntli UQT da foydalanish ma'qul.



**14.18-rasm. Gruntli tasmaga ikki nishabli profil berib suv qochirish:**

**I, 2 – 1 va 2 – kollektorlar; 3 – talvegli quduq; 4 – kuzatish quduq'i;**  
**5 – GUQT ishchi qismining chegarasi.**


GUQT ning yuzasida suvni oʻz oʼtkazadigan, sal chuqurroq joylarida esa yaxshi oʼtkazadigan gruntlar boʼlgan hollarda III sxema qoʼllanadi va suvni shimuvcchi quduqlarga qochiriladi. Bunday quduqlar GUQT ning eng pastki joylariga quriladi.

IV sxema boʼyicha suv qochirish tizimlari gruntli va gruntdan kapillar boʼylab suv koʼtariladigan aerodromlarda quriladi. Yerosti suvlarning sathini pasaytirish va qochirish uchun ayrim uchastkalarda drenaj tizimi quriladi; uning yordamida qurish meʼyori belgilanganicha yerosti suvlari sathi pasaytirib turiladi. Uchastkalarning qurish meʼyori, yaʼni yer yuzidan yerosti suvlari sathigacha boʼlgan masofa  $H$  (14.19-rasm) qumli va qumloq gruntlarda kamida 0,8 m, tuproq va qumoq gruntlarda – kamida 1 m qabul qilinadi.

Yerosti suvlaringin pasaygan yuzasi depressiya chizigʼi bilan tavsiflanadi.

Ikki xil drenaj boʼladi: mukammal va nomukammal. Birinchisida drenalar bevosita suvtoʼsigʼga, ikkinchisida uning ustiga yotqiziladi.

Yerosti suvlari oqimini tutib olish uchun yolgʼiz drenalar quriladi; yerosti suvlaringin sathini pasaytirish uchun esa ivib ketadigan maydonda drenalar guruhi quriladi. Chuqr drenaj qiyin va qimmat boʼlgani sababli maydonining nisbatan kichik yuzalariga quriladi. Yolqiz drenalar koʼp qoʼllanadi. Drenajlar guruhidagi suv yigʼuvchi qu-



14.19-rasm. Yerosti suvlari sathining drenaj tarmogʼi taʼsirida pasayishi:


1 – suvning haqiqiy sathi; 2 – depressiya chizigʼi; 3 – drena.

vurlar orqali umumiy kollektorga yo'naltiriladi yoki uchish maydoni dan tashqaridagi zovurga tashlanadi.

Qoida bo'yicha, drenalar gidroizogipslarga parallel, yer osti suvlar yo'nalishiga esa perpendikular joylashtiriladi (14.20-rasm). Drenalar orasidagi masofa (m) esa grunt turiga qarab belgilanadi:

Bo'sh tuproq	8–10
Og'ir qumoq	10–12
O'rtacha qumoq	12–14
Yengil qumoq	14–16
Changsimon qumloq	16–18
O'rtacha donador qum	17–20

Odatda, uchish maydonidagi tarmog'i 1,0–1,5 m chuqurlikda yotqiziladi; bunda dren me'yordagidan ko'ra chuqurroqdan o'tkaziladi. Dren uzunligi 60–100 m, tubining nishabligi kamida 0,03 bo'ladi. Yig'gich va kollektorlar uzunligi va nishabligi ham yer yuzasi suvlari qochirish tizimini loyihalashdagi kabi tanlanadi. Turli yig'gichga tegishli drenalarning uch yuzalari orasidagi masofani drenalar orasidagi masofaning yarmiga teng qabul qilinadi.




14.20-rasm. Uchish maydonida tanlab drenaj o'tkazish sxemasi:

1—1-kollektor 2—2-kollektor; 3 — drena; 4 — yig'gich; 5—3-kollektor;  
6 — asosiy kollektor.

Ba'zan, GUQT ning ayrim uchastkalarida yerusti va yerosti suvlarini ochirishning quritgich-drenalar yordamida qurama usuli qo'llanadi. Gruntli uchish maydonidagi suv ochirish va drenaj tizimining tuzilishi aerodromning boshqa elementlaridagi kabi yig'ish qulayligi va sanoatlashganligi talablariga javob berishi kerak. Ular quyidagicha tuzilishga ega bo'ladi: quvur quritgichlar, quvur drenalar, yig'ichlar va kollektorlar, kuzatish va talvegli quduqlar.

Diametri 0,1 m bo'lgan keramik yoki asbotsement quvurlardan yasaladigan quritgich bo'sh tuproqlarda eni 0,2–0,3 m to'g'ri burchakli transheyalarga yotqiziladi.

Quvurlarni yotqizishdan oldin shibbalangan chaqiq tosh yoki mayda toshdan asos yasaladi. Asbotsement quvurlarning butun uzunligi bo'yicha har 0,3–0,5 m oraliqda eni 1,0–1,5 mm qirqim qilinadi; uning chuqurligi quvur diametrining 2/3 qismicha bo'ladi. Keramik quvurlar




*14.21-rasm. Quritgichlarning tuzilishi:*

- a) qabul qiladigan qismi, mayda tishli; b) o'sha, tor tirkishli, qum va mayda tosh qorishmasi bilan to'ldirilgan; c) o'sha, sindirilgan tosh bilan to'ldirilgan; d) o'sha, mayda tosh to'ldirgichining eni cheklangan; e) o'sha, mayda toshli to'ldirgich (yuqori qatlam 5–6 sm, quyi qatlam 2–3 sm); 2 – qum va mayda tosh qorishmasi; 3 – keramik va asbotsement quvurlar; 4 – qalinligi 5–10 sm li dren; 5 – 1–3 sm kattalikdagи chaqiq tosh (mayda tosh) qatlami, bitumga qorilgan; 6 – yirik donali qum; 7 – 5–10 sm qalinlikdagи dren; 8 – 5–6 sm kattalikdagи mayda tosh yoki chaqiq tosh; 9 – 5–7 sm kattalikdagи, shibbalangan chaqiq tosh qatlami; 10 – 2 sm kattalikdagи mayda tosh yoki chaqiq tosh; 11 – grunt.

bir-biri bilan tutashgan joylar berkitilmaydi. Transheyani ko'mishda avval yirik fraktsiyalar tashlanib, keyin maydar oqlari tashlanadi. Filtrlovchi material sifatida qum va mayda tosh, yirik chaqiq tosh yoki  $0,03\text{--}0,05$  m kattalikdagi mayda tosh ishlatalidi. Biroq bunda eng ustidan  $0,05$  m qalinlikda mayda tosh qatlami yotqiziladi.

Transheyaning yuqori qismida suv qabul qiladigan tirqish qoldiriladi, quritgich yuzasining qolgan qismining har  $1\text{ m}^2$  yuzasiga  $6\text{--}7$  kg erigan bitum qo'yiladi va uchi bostiriladi.

Diametri  $0,10\text{--}0,15$  m asbotsement va keramik quvurlardan yasalgan drenalar trapetsiyasimon transheyalarga yotqiziladi, uning chuqurligi  $1,0\text{--}1,5$  m, tubidagi eni  $0,3\text{--}0,4$  m; transheyaaga mayda tosh



14.22-rasm. Drenajning tuzilishi:

a) yerosti suvlarini qabul qilish uchun; b), d) yerosti va yeryusti suvlarini qabul qiladigan quritgich drenalar; 1 – grunt; 2 – chim; 3–100 m diametrli quvurlar (atrofiga turli kattalikdagi mayda tosh tashlangan); 4 – qalinligi 2 sm bo'lgan mox yoki mineral paxta; 5 – shibalangan tuproq.

yoki chaqiq tosh tashlanadi (14.22-rasm), yoki shisha paxta yotqizib, eng tepasiga ilgari kavlab chiqarilgan tuproq tashlab, transheya ko‘miladi. Eng tepasiga 0,10–0,15 sm chim qoplanadi.

Agar drena ham yerosti, ham yerusti suvlariga mo‘ljallangan bo‘lsa, filtrlovchi material ustun shaklida yer yuzasigacha to‘ldirib chiqiladi. Bunday drenaj quritgich drenaj deb ataladi. Quvurlarning uzunligi bo‘ylab diametrining 2/3 hissasi qadar chuqurlikkacha har 0,25–0,30 m oraliqda qirqim qilinadi. Keramik quvurlar tutashgan joy berkitilmaydi. Tutash joylar, qirqimlar ustiga tolali material, mox, mineral paxta yopiladi. Chuqur drenaj uchun suv o‘tkazadigan, g‘ovak materialdan yasalgan quvurlar ishlatish mumkin (beton, keramzit beton, keramzit shisha). Ularning bo‘g‘inlari bir-biri bilan elastik element yordamida ulanadi. Yig‘gich va kollektorlar SUQT, RY, TJ va perronnardagi kabi asbotsement, mustahkamligi yuqori beton va temir-beton quvurlardan ishlanadi.

Gruntli uchish maydonlariga quriladigan kuzatish va talveg quduqlarning tuzilishi SUQT, RY va TJ lardagiga o‘xshash. Quritgichlar va drenalar yig‘gichga kuzatish quduqlari va betondan qilingan shakldor toshlar vositasida tutashtiriladi.

Yutish (shimadigan) quduqlari doira yoki to‘rburchak shakldagi, qopqoqli temir-beton elementdan quriladi. Quduq atrofida voronkasimon, eni 1 m bo‘lgan, chaqiq toshli otmostka qilinadi va bitum bilan ishlov beriladi.

**Yer yuzasininy suvlar bilan ifloslanishidan saqlanish.** A, B toifadagi aerodromlarning loyihasida hududdan ifloslangan oqava suvlarni qochirish ko‘zda tutilishi kerak. Oqava suvlarni tozalash va suv havzalarning talablariga mos bo‘lishi kerak va suv havzalarining joylashuvi ularning tavsifi, mahalliy sharoitlar va ifoslantiruvchi manbalarga bog‘liq holda hisoblanadi.

Aerodromning suv oqish va drenaj tizimidagi tozalash inshootlarini loyihalashda yer yuzasi suvlarini tozalab, zararsizlantirish uchun kollektorlardan suv chiqarish qurilmalari ko‘zda tutiladi.

Tozalash inshootlari orasida yer yuzasi oqava suvlarini yig‘adigan katta hajmlar quriladi va bu suvlar neft mahsulotlaridan tozalanadi; shuningdek, biologik hovuzlar ham quriladi.

Havo quruq paytida drenaj suvlarining qattiq yomg‘ir yoqqanda yomg‘ir suvlarining, bahorda yomg‘ir, qor erishidan hosil bo‘lgan suvlarning tozalash inshootlariga kirmay to‘g‘ri suv havzasiga tashlanishi ruxsat etiladi.

Tozalash inshootlarining elementlarini loyihalash QMQ 2.04.0385 ning talablari asosida bajariladi.

## **15-bob. SUN'iy QOPLAMALAR Ning TURLARI**

---

### **15.1. Sun'iy qoplama larga asosiy talablar**

Gruntli uchish-qo'nish tasmalari (GUQT) suv toshqini va qattiq yomg'ir paytlarida, grunti o'ta namlanib ketishi tufayli HK larining yil bo'yи uzuksiz ishlashini ta'minlay olmaydi. GUQT sochiluvchan, changsimon gruntda qurilgan bo'lsa, havo issiq kunlarida changish kuchli bo'lgani sababli ham HK larining xavfsiz harakatini ta'minlay olmaydi.

Yuqorida aytilgan kamchiliklarni bartaraf qilish uchun sun'iy uchish-qo'nish tasmalari quriladi (SUQT). Bunday qoplamalar ancha ko'p yuklamaga chidaydi va ob-havo noqulayliklari va buzg'unchi kuchlardan qat'iy nazar ishlayveradi.

Sun'iy qoplamalar magistral tutashtiruvchi va rullash yo'llarida, HK ning turish joylarida, perronlarda quriladi. Zamonaviy sun'iy qoplamalar katta yuk ko'tarishidan tashqari, HK ning xavfsiz ishlashini ta'minlashi kerak. Buning uchun qoplama yuzasiga me'yoriy nishablik beriladi, yuzasi esa uzoq vaqt tekis va ravon bo'lishiga harakat qilinadi.

Tuproq-grunt, gidrogeologik va iqlimiylar sharoitlar qulay bo'-lib, uchish tasmasi, sun'iy qoplama o'ta namlanmasa va chan-gimasa, quyi toifa aerodromlarda sun'iy qoplama qurmasa ham bo'ladi.

Aeroportning sun'iy qoplamasini murakkab va qimmatbaho inshoot hisoblanadi. Shuning uchun loyihalash jarayonida uni arzonlashtirish, sifati va xizmat muddatini oshirish ishlariga jiddiy e'tibor qaratiladi; oqilona konstruktsiyalar tanlanadi. Sifatli materiallar ishlataladi, grunt asosi turg'un holatga keltiriladi. Sun'iy qoplama larga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi: mustahkamlik, ishonchlilik, uzoq muddat

xizmat qilish, yuzasi changimaslik; HK sining g'ildiraklari qoplama bilan yaxshi ilashishini ta'minlaydigan darajada ravonlik va yetarli darajada g'adir-budirlilik; iqlimiylar va gidrologik omillarga qarshilik; yer yuzasi suvlarining grunt asosiga o'tishiga yo'l qo'ymaydigan suv o'tkazmaslik xususiyati; reaktiv dvigatellarning chiqindi gazlari oqimiga chidamlilik; yonilg'i va moylash materiallarining zararli ta'siriga bardoshlilik; qurilishining soddaligi, mexanizatsiya qo'llanishi va tejamliligi; ta'mirlash va ekspluatatsiyada qoplamaga qarab turish ishlarining oddiyligi; mahalliy qurilish materiallarini ishlatish imkoniyati; katta tezlikli va og'ir HK paydo bo'lganda qayta qurish imkoniyatlari.

## **15.2. Sun'iy qoplamalarning konstruktiv qatlamlari**

Sun'iy qoplamalarning konstruktsiyasi HK larining hisobiy yuklamasi, tayanchlari sxemasi, aerodromni ekspluatatsiya qilish jadalligi, tabiiy grunt sifati kabi omillarga bog'liq. Sun'iy qoplamar bir nechta qatlamdan iborat bo'ladi (15.1-rasm); qoplamaning o'zi – 1; tabiiy asos – 2; tabiiy gruntli asos – 3. Birinchi ikkitasi ham, o'z navbatida, bir nechta qatlam bo'lishi mumkin. Sun'iy va tabiiy asosning ikkalasi birgalikda qoplama asosini tashkil etadi.


Qoplamaning o'zi – yuqori qatlam bo'lib, HK lari g'ildiraklaridan yuklama oladi va tabiiy omillar ta'siriga bevosita uchraydi. Bu qatlam mustahkam bo'lishi, yer yuzasi suvlarini asosga o'tkazmasligi, muzlashga chidamli bo'lishi, yeyilishga qarshilik qilishi, HK lari shinalarini sirpantirmasligi va ko'p yedirmasligi, porshenli dvigatellarning havo oqimlari, reaktiv dvigatellarning gaz oqimlari ta'siriga chidamli bo'lishi kerak. Bu qatlam qalinligi hisoblab topiladi.

Sun'iy asos gruntlarning yuk ko'tarish qobiliyatini ayniqsa, ular o'ta namlanib qolganda oshiradi, to'shamalarning namlik rejimini rostlaydi, pastdag'i ivib ketgan gruntning HK og'irligi ta'sirida

tashqariga sitilib chiqishiga yo'l qo'ymaydi, qoplama ko'pchib buzilishining oldini oladi. Sun'iy qoplamaaga ishlataladigan materiallar mustahkamligi qoplamaning o'ziga ishlataladiganga qaraganda yaxshiroq bo'lishi mumkin.

Tabiiy grunt asos, ya'ni gruntning yuqori qatlami qoplamadan tushayotgan bosimni o'ziga oladi va bunda xavfli deformatsiyalarga uchramasligi kerak. Tabiiy grunt asosning mexanik xususiyatlari tabiiy omillarning yillar davomidagi ta'siri ostida ancha o'zgaradi: namlanadi, quriydi, muzlaydi, eriydi. Namligi oshsa, yuk ko'tarish qobiliyati pasayadi, ayniqsa, uning tarkibida changsimon va tuproq zarralari ko'p bo'lsa.

Grunt muzlasa, uning g'ovaklarida muz paydo bo'ladi, hajmi ortadi, eriganda yana zichligi kamayadi. Qishda grunt yuzasi ko'pchib qoladi. Bahorda grunt ichidagi muz eriydi, g'ovaklar suv bilan to'ladi, asos ko'p siqilishi tufayli ko'tarish qobiliyati keskin kamayadi. Qoplamaning turg'unligi ko'p jihatdan tabiiy grunt asosni tayyorlashga bog'liq. Shuning uchun qoplama qurishdan oldin uni tekislab, shibalash lozim.



*15. I-rasm. Qoplamaning konstruktiv qatlamlari:  
1 – qoplamaning o'zi, 2 – tabiiy asos; 3 – tabiiy gruntli asos.*

### 15.3. Qoplamlalar tasnifi va ularni konstruktsiyalash bo'yicha umumiy qoidalar


Aerodrom qoplamlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- HK lari g'ildiraklaridan yuk tushganda qoplamaning ishlash xarakteri bo'yicha;
- xizmat muddati va mukammallik darajasi bo'yicha.

Birinchisini yana ikki guruhg'a ajratish mumkin: bikir, nobikir. Bikir qoplama HK lari og'irligi va tabiiy omillar ta'sirida cho'ziltiruvchi kuchlanishlarni qabul qila oladi. Ustiga yuk tushgan qoplama elastik asosga ega bo'lgan plita kabi ishlaydi; qoplamaning deformatsiyasi, odatda, elastik, plitaning gruntga bosimi kam. Qoplama o'ziga tushgan yukni katta joyga tarqatadi, ya'ni ezilib botadigan joy diametri katta, ezilish balandligi juda kichikina bo'ladi (15.2-a rasm). Bikir qoplamlarga quyidagilar kiradi: oldindan kuchlantirilgan monolit beton va temir-beton, oldindan kuchlantirilgan temir-beton plitalar yig'masi, monolit temir-beton, beton va armobeton qoplamlar.

Nobikir qoplamlar cho'zuvchi kuchlarni yaxshi qabul qilmaydi. Yuklarga qarshilik qilishi tagidagi gruntning siqilishi va yon tomondan sitilib chiqish darajalariga bog'liq. Yuk ostida ezilish balandligi katta, botadigan joy diametri kichikroq bo'ladi (15.2-b rasm).

Bahorg'i va kuzgi toshqinlar davrida gruntga tushadigan bosim ko'payadi, qoplamaning deformatsiyasi elastik-plastik xarakterga ega



15.2-rasm. Qoplamlarning yuk ostida ishlash sxemasi:  
a) bikir; b) nobikir.

bo'ladi. Nobikir qoplamlarga quyidagilar kiradi: asfalt-beton, chaqiq toshli va yopishqoq modda bilan ishlov berilgan boshqa mustahkam material; yopishqoq modda aralashtirilgan grunt va chaqiq toshli, grunt va mayda toshli.

Sun'iy qoplamlar o'zining xizmat muddati va mukammallik darajasiga qarab kapital va yengillashtirilgan turlarga bo'linadi. Kapital qoplamlar uzoqqa uchadigan HK lari uchun mo'ljallanadi. Ularda ko'tarilish-qo'nish amallari ko'p bo'ladi va uzoq muddat xizmat qiladi. Hamma bikir va asfalt-beton qoplamlar kapital turga kiradi. O'rtacha HK lari ekspluatatsiya qilinadigan aerodromlarda yengillashtirilgan qoplama quriladi. Bunga saralangan va organik bog'lovchi materiallar qo'shilgan mustahkam chaqiq toshlardan qurilgan qoplamlar, xuddi shunday ishlov berilgan chaqiq tosh va mayda toshli qoplamlar, organik va noorganik materiallar qo'shilgan, gruntli va mahalliy mineral materiallardan qurilgan qoplamlar kiradi.

Kapital qoplamlar hamma yo'l-iqlim zonalarda, gidrogeologik sharoitlari I va II tur bo'lgan uchastkalarda quriladi; III tur sharoitda qurilmaydi; zarurat tug'ilib qolsa, II turga yaqinlashtirish uchun qator ishlar qilinadi: quritish, yerosti suvlari sathini pasaytirish, ko'tarmalar qilish kabi.

Qoplama yuzasini yerosti suvlari sathidan ko'tarish kami bilan 15.1-jadvalda ko'rsatilgandek bo'lishi kerak. Shunda yerosti suvlari kapillarlardan chiqib, qoplama asosini namlashi ancha kamayadi.

*15.1-jadval*

Grunt asosi (ko'tarmasi)	Aerodrom qoplamasini yuzasining yerosti suvlaridan balandligi, m (kami bilan), yo'l-iqlim zonalari bo'yicha			
	I	II	III	IV
O'rtacha zarrali qum	1,1	0,9	0,8	0,7
Mayda qum, qumloq	1,6	1,2	1,1	1,0
Tuproq, qumoq, qum va changsimon qumloq	2,3	1,8	1,5	1,3

Sun'iy qoplamlar qoidaga muvofiq, organik yoki noorganik bog'lovchilarga qorilgan materiallardan to'shalgan sun'iy asos ustiga quriladi. II tur gidrogeologik sharoitlarda gruntli asos tuproq, qumoq, changsimon va og'ir qumoq yoki changsimon qumloqdan iborat bo'lsa, asos konstruktsiyasida yaxshi filtrlovchi materiallardan drenajlovchi qatlam qilinadi. Uning qalinligi, agar o'rta va yirik zarrali qum ishlatisa, 15.2-jadvalgidek bo'ladi.

*15.2-jadval*

Tabiiy asos grunti	Aerodrom qoplamasini yuzasining yerosti suvlaridan balandligi, m (kami bilan), yo'l-iqlim zonalari bo'yicha			
	I	II	III	IV
Tuproq, qumoq qumoq va changsimon qumloq	35 50	30/35 40/50	20/25 30/35	15 15/20

*Izoh:* Kasr suratidagi raqam yo'l-iqlim zonasining janubidagi hududlarda, maxrajidagi raqam – shimoliy qismida olinadi.

Keyingi yillarda yo'l va aerodrom qurilishida rulonli materiallardan sintetik qatlamlar qilib qoplama qilish odat tusiga kirdi. Sintetik tekstil qatlamlar kiritish asosning mexanik mustahkamligini oshiradi (suv-issiqlik rejimi yaxshilanishi hisobiga); qatlam cho'zuvchi va suruvchi kuchlarga yaxshi qarshilik qiladi. Sintetik materiallar ishlatilishi tabiiy materiallarni kam talab qiladi, tejamli, texnologiyabop, shu sababli ularni, noqulay iqlim sharoitlarida qo'llagan ma'qul.

Asos yirik zarrali materiallardan bo'lib, bevosita tuproq, qumoq yoki changsimon grunt ustiga yotqizilsa, o'rtada balchiq o'tkazmaydigan qatlam ham bo'lishi kerak, aks holda grunt ivib ketganda, loyi (balchig'i) asos ichiga kirib, yirik zarrali materiallar bilan aralashib ketadi. O'rtadagi qatlam bog'lovchi yoki boshqa material bilan qorilgan qum, shlak, tabiiy tuproqdan bo'lishi

mumkin; u namlanganda plastik qolatga o'tmaydi; qalinligi yirik zarrali material ichidagi eng katta zarrachalik, lekin 5 sm dan kam bo'lmasligi kerak.

Grunti ko'pchiydigan uchastkalarda sun'iy asoslar qurishning o'ziga xos jihatlari bor.

II va III yo'l-iqlim zonalarida aerodrom qoplamarini konstruktsiyalashda muzlab ko'pchishga qarshi quyidagi tadbirlar ko'rildi: qoplama chuqurligi tubining yerosti suvlaridan keraklicha balandligini ta'minlash (15.1-jadval); qishda ko'pchimaydigan, bahorda yuklarga qarshiligi kamaymaydigan gruntulardan foydalanish (qum, mayda tosh, shlak, chaqiq tosh); muzlash chuqurligini kamaytiradigan issiqlik saqlovchi qatlamlar yotqizish.

Uchastka grunti ko'pchiydigan xususiyatga ega bo'lsa, sun'iy asos qilinadi. Ko'pchimaydigan gruntu qatlama to'shalgan sun'iy asos va qoplamaning, ikkalasi ko'pchimaydigan (turg'un) qatlama hosil qiladi. Muzlash chuqurligi 1 m gacha bo'lsa, turg'un qatlama qalinligini ham shuncha qilinadi. Muzlash chuqurligi katta bo'lsa, ko'pchiydigan grunt qazib olinib, o'rniga ko'pchimaydigan grunt tashlanadi. Uning qalinligi shunday bo'lishi kerakki, sun'iy asos va qoplama qurilib bo'lgandan keyin gruntu ruxsat etilgandan ortiq ko'pchib ketmasin.

Termoizolatsiya qatlama uchun turli materiallar ishlataladi. Eng yaxshisi penoplast, u issiqlikni kam o'tkazadi; suv o'tkazmaydi, chirimaydi. U bo'lmasa, keramzit-beton, shlakobeton va boshqa qovak materiallar ishlatalish mumkin, faqat, sharti — sovuqqa chidamli bo'lishi va issiqlik o'tkazish koeffitsiyenti gruntnikiga qaraganda 1,5–2 marta kam bo'lishi kerak. Qovak va suv o'tkazmaydigan materiallar nam bo'lmasligi lozim. Shuning uchun bu kabi termoizolatsiya qatlami rulon gidroizolatsiya materialari yoki qum-bitum aralashmali qatlamlar, yoki qumli asfalt orasiga yotqiziladi.

Termoizolatsiya qatlami muzlash chiqurligini shunchalik kamaytirishi kerakki, qoplamaning ko'pchishi ruxsat etilganidan ortib ketmasin.

Sun'iy qoplamlarning turi va konstruktsiyasi hisobiy yuklama toifasiga, iqlimiylar, hidrologik omillarnga qarab tanlanadi va zaruriy texnik-iqtisodiy dalillar va mahalliy materiallardan foydalanish imkoniyatlari ko'rsatiladi (15.3-jadval).

SUQT, RY, TJ va perronlarning qoplamlariga tutash va dvigatellardan chiqadigan issiq havo va gaz oqimlariga duchor bo'ladigan, aerodromdagи boshqa transport va mexanizatsiya vositalari ta'sirida bo'ladigan uchastkalar mustahkamlanadi. Bu haqidagi tavsiyalar 15.4-jadvalda keltirilgan.

15.3- jadval

Qoplama konstruktsiyasi	QMQ bo'yicha B/K	Yuklamalar toifasi bo'yicha qo'llanilishi					
		I	II	III	IV	V	VI
I	2	3	4	5	6	7	8
Oldindagi kuchlantirilgan monolit temir-beton	+	+	+	-	-	-	-
Temir-beton	+	+	+	-	-	-	-
Armobeton	+	+	+	+	+	-	-
Zavodda tayyorlab, oldindan kuchlantirilgan temir-beton plitalardan yig'ilgan	-	-	+	+	+	-	-
Beton	+	+	+	+	+	+	-
Asfalt-beton	-	+	+	+	+	-	-
Yopishqoq bitum yoki qatronga qorilgan, saralangan mustahkam chaqiq toshli materiallar	-	-	-	+	+	+	+
Organik va noorganik bog'lovchilarga qorilgan, grunt va chaqiq toshli yoki grunt va tuproqli materiallar	-	-	-	-	+	+	+

*Izohlar:* 1. Me'yoriy yuklama toifasi HK ning asosiy tayanchiga tushadigan me'yoriy yuklama orqali aniqlanadi.

2. «+» ishorasi shu konstruksiyani qo'llash maqsadga muvofiqligini, «-» ishorasi – muvofiq emasligini bildiradi.

15.4-jadval

Mustahkamlanadigan grunt asos konstruktsiyasi	B/K	UQT uchlariga tutash uchastka chetlari					RY, TJ va perronlar chetining mustahkamlanadigan uchastkalari				
		Me'yoriy yuklama toifasi									
		I	II	III	IV	V	I	II	III	IV	V
Monolit beton va temir-beton plitalardan yig'ma	+	+	+	-	-	-	-	-	-	-	-
O'rtalik zarrali aralashmalardan tayyorlangan asfalt-beton	-	-	-	+	+	+	+	+	+	-	-
Organik bog'lovchilarga qorilgan toshlar va gruntlar	-	-	-	-	+	+	-	-	+	+	+

### 16.1. Bikir qoplamlarni konstruktsiyalash tamoyillari

Bikir qoplamlar dunyo aerodromlarida ko‘p qo’llaniladi. Ularning afzalliklari: yil davriga va uchish maydoni grunti holatiga bog‘liq bo‘lmagan holda katta yuk ko‘tarish qobiliyati; g‘ildiraklar tebranishiga qarshiligi kam ( $0,012-0,015$ ), quruq va ho‘l yuzalarda sirpanib ishqalanish katta (o‘rtacha  $0,71$ ); HK g‘ildiraklari ta’sirida yuzasi kam yeyiladi, reaktiv dvigatellarning gaz oqimi yonilg‘imoylash materiallari ta’siriga bardoshli; qurilishida mexanizatsiya vositalarini, oqimli usullarni qo’llash imkonи bor; ekspluatatsiya xarajatlari nisbatan kam. Biroq, asosiy material – beton cho‘zuvchi kuchlarga yetarlicha qarshilik qilolmaydi, shu sababli bikir beton qoplamlar harakat va cho‘kish omillariga ojizroq; bu omillar qoplama ichida zo‘riqishlar hosil qiladi, ayniqsa, qotish davrida. Bikir qoplamlarning bu xususiyatlari ishonchli konstruktsiya yaratishni va salbiy oqibatlarni bartaraf etadigan tadbirlar ko‘rishni taqozo etadi.

Haroratlar ta’sirida qoplama o‘lchamlari o‘zgaradi. Bunday o‘zgarishlarga qoplama va asos orasidagi ishqalanish to‘sinqinlik qiladi, natijada shunga yarasha kuchlanish hosil bo‘ladi. Bu ishqalanishni kamaytirish uchun bitum shimidirilgan qoqoz, pergament, plastmassa plyonka yoki qum-bitum aralashmasidan oraliq qatlam yotqiziladi.

Harorat va namlik o‘zgarganda bikir monolit qoplamlarda cho‘zuvchi, siquvchi va buklovchi kuchlar hosil bo‘ladi, natijada plitada darzlar paydo bo‘ladi. Bu kuchlarni kamaytirish va darzlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun beton, armobeton va temir-

beton qoplamlarni alohida-alohida plitalarga ajratib, bo'ylama va ko'ndalang chekli qilib tutashtiriladi. Shunday qilinmasa, qoplamaning o'zi mayda plitalarga ajralib ketadi, darzlarga yog'in-sochin tushib, tabiiy asosni o'ta namlaydi va yuk ko'tarish qobiliyatini pasaytiradi. Darz ketishi extimoli bor joylarda bo'ylama va ko'ndalang choklar ochib, suv o'tkazmaydigan material to'ldiriladi. Bu choklar, odatda, to'g'ri burchak ostida kesishib o'tishi kerak. Choklarni duch kelgan joydan ochilsa yoki rejada surilsa, burchaklar sinib, tutashgan ko'ndalang chokning davomida darz hosil bo'ladi. Bunday yemirilish harorat ta'siridagi deformatsiyalar va choklardagi katta ishqalanish kuchlari ta'sirida ro'y beradi.

Qoplama choklari siqilishga yoki kengayishga ishlaydigan qilinadi. Siqilish choklari plitalarga o'z o'lchamini qisqartirish, ya'ni beton quotayotganda yoki harorat pasayganda siqilish imkonini beradi. Kengayish choklari tutash plitalar orasidagi tirqish bo'lib, uning kengligi harorat yoki namlik oshganda plitaning kengayishiga imkon beradi.

Siqilish choklari bo'ylama va ko'ndalang choklardan iborat. Kengayish choklari aerodrom elementlari orasida qo'yiladi (RY ning RY ga, RY ning SUQT yoki TJ ga va tutash joylariga), shuningdek, juda murakkab iqlimiylar va gidrogeologik sharoitlarda qo'llanadi. Ilgari kengayish choklari har 40–90 metrda qo'yildi. Biroq keyingi yillarda qator mamlakatlarda chokdan voz kechildi, chunki ular qoplamani kuchsizlantiradi. qoplama yoki tushganda bir-biri bilan ulanmagan plitalarning chekkalari va burchak qismlari markaziy qismlariga qaraganda ancha bo'sh bo'ladi. Plitalardan plitalarga kuch o'tishi uchun ular bir-biriga biriktiriladi. Biriktirishga quyidagi talablar qo'yiladi: harorat ostida deformatsiyalarda plitalar gorizontal siljishiga yo'l qo'yishi kerak (qishda siqiladi, yozda kengayadi); g'ildiraklar ta'sirida yonma-yon plitalar vertikal ko'ndalang surilmasligi

kerak. Hamma choklarda, qoidaga binoan, shtirli va shpuntli birikmalar qilinadi.

Qoplamlar qalinligi hisoblab topiladi. Bikir qoplamlar qurishda ishlatalidigan materiallar qator talablarga javob berishi kerak (16.1, 16.2-jadval).

Ikki qavatli qoplamlarning quyisiga, termoizolatsiya qatlamlariga qumli beton, keramzit-beton, domna pechlardan chiqqan shlak asosidagi shlak-beton ishlataladi. Ularning markasi va hisobiy tavsiflari 16.3-jadvalda berilgan. Betonning sovuqqa chidamliligi 16.4-jadvalda ko'rsatilganidan past bo'lmasligi kerak. Aerodromning armaturalangan bikir qoplamasiga sterjen yoki sim armatura ishlataladi.

#### *16.1-jadval*

<b>Aerodrom qoplamasি</b>	<b>Betonning mustahkamlik bo'yicha eng kichik loyihaviy toifai</b>	
	<b>Bukilishda cho'zilish, B</b>	<b>Siqilish, B</b>
Bir qatlamlı, oldindan kuchlantirilgan temir-beton plitalardan yig'ilgan, armaturali: sim yoki po'lat arqonli armaturalar sterjenli armatura	4,0 3,6	3,0 25
Bir qatlamlı, monolit beton, armobeton va temir-beton, kuchlantirilmagan armaturali	4,0	30
Ikki qatlamlı monolit beton, armobeton yoki temir-beton qoplamaning yuqori qatlami, kuchlantirilmagan armaturali	4,0	30
Ikki qatlamlı qoplamaning quyi qatlami va chokosti plitalar	2,8	20

Beton toifasi, bukishdagi cho'zilishga mustahkamlik bo'yicha, B	Bukishdagi cho'zilishga hisobiy qarshilik, MPa, hisob turiga qarab		Betonning dastlabki elastiklik moduli, MPa	
	mustahkamlik bo'yicha	darz ketish bo'yicha	og'ir	mayda zarrali (qumli)
2,8/35	2,26	–	$2,60 \cdot 10^4$	$2,16 \cdot 10^4$
3,2/40	2,75	–	$2,84 \cdot 10^4$	$2,31 \cdot 10^4$
3,6/45	3,04	3,60	$3,04 \cdot 10^4$	$2,45 \cdot 10^4$
4,0/50	3,43	4,00	$3,24 \cdot 10^4$	$2,60 \cdot 10^4$
4,4/55	3,73	4,40	$3,53 \cdot 10^4$	–
4,8/60	4,10	4,80	$3,53 \cdot 10^4$	–
5,2/65	4,40	5,20	$3,73 \cdot 10^4$	–
5,6/70	4,80	5,60	$3,73 \cdot 10^4$	–
6,0/75	5,10	6,00	$3,82 \cdot 10^4$	–
6,4/80	5,50	6,40	$3,82 \cdot 10^4$	–

*Izohlar:* 1. Kasr sifatida bukishdagi cho'zilishga mustahkamlik bo'yicha beton toifasi, maxrajida – shunga mos, bukishdagi cho'zilishga mustahkamlik bo'yicha beton markasi (mustahkamlikning o'zgarish koefitsiyenti 0,135 bo'lganda).

2. Beton toifalari bukishdagi cho'zilishga kafolatlangan mustahkamligiga 0,95 darajada javob beradi.

3. Mayda zarrali betonning dastlabki elastiklik moduli: yirikligi 2,0 dan yuqori bo'lgan qumdan tayyorlangan tabiiy quriydigan beton uchun; o'sha 2,0 dan kam; jadval raqamlarini 0,9 ga ko'paytirish kerak.

16.3-jadval

Bikir qoplamlarning sun'iy asoslari uchun beton	Bukishda cho'zilishga mustahkamlik bo'yicha beton toifasi, $B$	Cho'zilishga hisobiy qarshilik R, MPa	Elastiklik moduli $E_B \cdot 103$ MPa
Keramzit-beton	1,6/20	1,2	12
	2,0/25	1,5	13
Mayda zarrali (qumli)	2,4/35	1,8	14
	2,8/35	2,1	15
Shlak-beton	1,6/20	1,2	14
	2,0/25	1,5	17
	2,4/30	1,8	20
	1,6/20	1,2	0,5

16.4-jadval

Iqlimi sharoitlar	Betonning sovuqbardoshligi, eng kamida	
	bir qatlamlari va ikki qatlamlari qoplamaning yuqori qatlami uchun	ikki qatlamlari qoplamaning quyisi qatlami uchun
Yumshoq	100	50
O'rtacha	150	75
Keskin	200	100

To'ldiruvchi material sifatida polimer zichlagichlar, elastik qistirmalar, rezina-bitumli (RBB)lar, izol, M-I mastiklari q'llanadi: (16.5-jadval).

RBB quyuq massa bo'lib, eski rezina ushoqlari, bitum, kumaron qatron va qo'shimchalar – poliizobutilen va AK-15 neft moyidan tayyorlanadi. Tarkibi quyidagicha: rezina ushoq – 20, БНК-4 bitum – 63, kumaron qatron – 5, poliizobutilen П-200-5, ДК-15 moyi – 7.


Mastika markasi	Mastika tarkibidagi materiallar, massadan %						
	Rezina ushoq	Bitum	qiyn eriydigan qotishma	Kumaron qatron	Kanifol	1-nav asbest	Mayda qum
Изол-1	19,0	60,0	—	4,0	2,0	15,0	—
Изол-2	20,0	75,0	—	5,0	—	—	—
M-I	—	24,0	56	—	—	6,0	14

## 16.2. Beton qoplamlalar

Beton qoplamlalar bir va ikki qatlamlili bo'ladi. Bir qatlamlili qoplamlarning eng katta qalinligi beton yotqizish mashinalarining texnik imkoniyati va qabul qilingan qurilish texnologiyasidan kelib chiqadi. Shundan ham qalin qoplama yotqizish zarur bo'lsa, ikki qatlamlili qilinadi (16.1-rasm).

Ikki qatlamlili qoplamaning tagidagisiga oriq beton, qum-beton, shlak-beton yoki keramzit-beton ishlataladi. Shlak-beton va keramzit-betonning termoizolatsiya xususiyati yaxshi, shuning uchun ular grunti ko'pchiydigani joylarda, yerning muzlash chiqurligini kamaytirish uchun qo'llanadi. Ikki qatlamlili qoplamaning yuqorisini bir qatlamlili qoplamadagi singari qilinadi. Pastki va yuqqori qatlam plitalari orasiga polimer yoki rulon materialdan ajratib turuvchi qatlam yotqiziladi, u ham ikki qatlam bo'ladi yoki buning o'rniiga 0,5–1,0 sm qalinlikda qum bitum qatlam yotqiziladi. Pastki qatlam ostida sun'iy asos barpo qilinadi. Ikki qatlamlili beton qoplama qurish qamroq mustahkamlikka ega bo'lgan mahalliy materiallari (oriq beton, qum, sement va b.) bor hududlarda samarali.

Beton qoplama ichki zo'riqishlar tufayli yorilib ketmasligi uchun bir qatlamlili bo'lganda yoki ikki qatlamning yuqorisini tomonlari 1:1 dan 1:1,5 gacha nisbatli to'g'ri to'rtburchak shaklida loyihalanadi. Plitaning tomoni ko'pi bilan 5 m (qalinligi 0,3 m gacha bo'lsa) dan ortmasligi kerak; qalinligi 0,3 m dan ortiq bo'lsa – 7–7,5 m pastki qatlam plitasining tomoni 10 m gacha bo'lishi mumkin.



**16.1-rasm. Beton qoplamlarning namunaviy kesimi:**


a) bir qatlamlı; b) ikki qatlamlı; 1 – sement-beton; 2 – ajratuvchi qatlam; 3 – orig beton (gruntosement); 4 – sun’iy asos; 5 – tabiiy asos.

Beton qoplamlar SUQT, RY, TJ, perron va boshqa uchastkalar bilan tutashgan joylarda nostonart plitalar qilinadi. Ularning eng kichik tomoni 2,5–3,0 m bo‘lishi kerak, aks holda plitaga tez-tez yutushganda turg‘unligi yo‘qoladi.

To‘qli burchakli standart plitalar beton qoplamani ko‘ndalang va bo‘ylama choklar (siqilish choki)ga ajratib hosil qilinadi (16.1-rasm). Amalda ko‘p choc hosil bo‘ladi, bu – uning kamchiligi, chunki choklar yemirilish boshlanadigan joy bo‘ladi.

Beton qoplamlardagi siqilish choklari tirkishsiz qilinadi. Tirkish keyin, plitalar siqilganda hosil bo‘ladi. Siqilish choki perron, rulon materialdan yupqa qistirmali bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha, siqish choki soxta choc ko‘rinishda bo‘ladi, buning uchun plitani tepasidan  $\frac{1}{4}$  qalinlikkacha qirqiladi. Plitada ichki zo‘riqish hosil bo‘lganda shu joyidan darz ketadi va soxta choc rostakam siqilish chociga aylanib qoladi. Choklar orasidagi masofa plita o‘lchamlariga bog‘liq, 5,0–7,5 m dan ortiq bo‘lmaydi.

Kengayish choklari tirkishli qilinadi. Choklar orasidagi masofa qancha katta bo‘lsa, choc ham shuncha keng bo‘ladi. Kengayish choki siqilish choki vazifasini bajarishi mumkin, lekin aksincha bo‘lmaydi. Ikkala xil choc suv o‘tkazmasligi kerak. Qoplamani ekspluatatsiya qilish jarayonida choklarning eni doim o‘zgarib turadi; uni suv o‘tkazmaydigan material bilan yopib turiladi. Bunday material sifatida polimer zichlagich, elastik qistirma, izol mastikasi va rezinobitumli bog‘lovchi material ishlatiladi.



**16.2-rasm. SUQT beton qoplamasida plitalarning joylashish sxemasi:**  
1 – bo'ylama choklar; 2 – tarnov o'qi; 3 – ko'ndalang soxta choklar; 4 – bo'ylama soxta choklar; 5 – tarnov bo'yи plitalar; 6 – otmostka (jiyak).

Beton qoplamlarda plitalarning tutash joylari shtir yoki shpunkt ko'rinishida qilinadi.


Shtirli birikmada bir plitadagi kuch boshqa plitaga metall shtir orqali o'tadi. Bunday birikma ko'ndalang va bo'ylama choklarda ishlataladi. Shtirlar A.1 toifa dumaloq, silliq po'latdan ishlataladi, diametri 20–40 mm, uzunligi 40–50 sm bo'ladi (16.6-jadval). Shtirlar qoplamaning yuzasiga, unga parallel va chokka perpendikular qilib, har 30–50 sm masofaga qo'yiladi. Kengayish choklaridagi shtirning bir uchi plitaga mahkam birlashtirib yuboriladi, ikkinchi uchi, qo'shni plitada erkin turadi, ya'ni beton bilan yaxlit qotib ketmaydi. Buning uchun o'sha uchiga karton, tol yoki tunukadan qalpoqcha kiygiziladi, plitaning o'lchami kengaysa yo toraysa, shtir qo'zqalmay turaveradi (16.3-a rasm). Qalpoqcha ichidagi bo'sh joyga yog'och yoki namat tiqin qo'yiladi, plita kengayganda u siqiladi. Plitalar orasiga yumshoq yog'ochdan tayyorlab, chirimaydigan ishlov berilgan taxta qo'yiladi, qalinligi plita qalinligidan 4 sm kichik bo'lishi kerak. Chokning yuqori qismiga bitum qo'yiladi. Soxta chok shaklidagi ko'ndalang, siqilish chokida shtirning bor bo'yи bitum bilan qoplanadi va betonga muftasiz va taxtasiz qo'yib yuboriladi (16.3-b rasm).

Plitaning yuqori qismidagi ariqchaga plita qalinligining 1/4 qismicha bitum qo'yiladi. Shtirlarning loyiha holatini ta'minlash uchun ularni yagona konstruktsiya sifatida yig'ib, tayyorlab o'rnatish joyiga keltiriladi.

Shpuntli birikmalar ko'pincha bo'ylama choklar uchun ishlataladi.


16.6-jadval

Qoplama qalinligi, sm	Shtir diametri, mm		Shtir uzunligi, mm		Shtirlar orasi, sm			
	to'qri	qayril-gan	to'qri	qayril-gan	to'qri	qayril-gan	to'qri	qayril-gan
			ichki chokda		soxta chokda			
20 va undan kam	20	12	40	40	30	50	40	50
22-30	25	14	50	46	30	50	40	50
32-40	30-40	A 16	60	50	30	50	40	50



16.3-rasm. Shtirli birikma konstruktsiyasi:

- a) kengayish choki; b) siqilish choki; c) shtirlarning rejada joylashuvi; 1 – shtiriga bitum surkash; 2 – yumshoq yog'och yoki namat tiqin; 3 – qalpoqcha; 4 – montaj armaturasi;  $d=6$  mm; 5 – bitum; 6 – taxta; 7 – metall shtir; 8 –  $4 \times 4$  sm kesimli,  $I=20$  sm, oraliq'i 1 m; 10 – mahkamlovchi sim; 11 – payvand; 12 – shpunt.



**16.4-rasm. Shpuntli birikmaning konstruktsiyasi:**

a) siqilish choki; b) kengayish choki; 1 – bitum mastika; 2 – bitum surtiladigan joylar;  $b = 1\text{--}1.5 \text{ mm}$ ; 3 – taxta qistirma ( $b = 15 \text{ mm}$ ).


Qoplamlarini kichik mexanizatsiya vositalari bilan qurganda yoki plita ustidan beton yotqizilganda ko‘ndalang choklarda shpuntli birikmalar qo‘llaniladi. Ular rels formaga mahkamlanadigan opalubka yordamida siqilish va kengayish choki ko‘rinishida quriladi (16.4-rasm). Shpuntli birikmalar o‘lchamlari 16.7-jadvalda keltirilgan.

**16.7-jadval**

Plitalar qalinligi, sm	Shpuntli birikma elementining o‘lchami, sm		
	<i>a</i>	<i>b</i>	<i>c</i>
18	6,0	6,0	6,0
20	7,0	6,0	7,0
22	7,5	7,0	7,5
24	8,0	8,0	8,0
26	9,0	9,0	9,0
28	9,5	9,5	9,5
30	10,0	10,0	10,0

Qalinligi 0,24 m dan kam plitalarda shpuntli chok qilish tavsiya etilmaydi, chunki shpunkt cheti sinib ketishi mumkin, uning o‘rniga perron chok qo‘yiladi. Plita chetlarini kuchaytirish uchun gir atrofi payvandlangan

metall sinch bilan armaturalanadi. Sinch 3–5 sterjenden iborat; sterjen diametri 12–14 mm, A-11 toifa po'latdan. Har bir sinch yuqori va pastki armaturadan iborat, bir-biri bilan diametri 6 mm li armatura bilan boqlangan. Plitalarni betonlashdan oldin armatura karkas qalinligi 2–3 sm beton taglik ustiga qo'yiladi. Plitaning chekkalarini armaturalash kengayish, siqilish va soxta choklar bo'yicha bo'ladi (16.5-rasm, 16.8-jadval). Ikki qatlamlili qoplamlarda qatlamlarning choklari bir-biri ustiga tushadiyam, tushmaydiyam (bir-biriga nisbatan  $2h_0 - h_b$  yuqori qatlam qalinligi miqdorda siljigan bo'lsa, ustma-ust tushmagan deyiladi). Ustma-ust tushgan turida, o'zaro siljish 1,5–2  $h_b$  miqdorda bo'ladi.



**16.5-rasm. Ichki choklarda plitalarning chetlarini armaturalash sxemasi:**

- a) taxta qistirmalni kengayish choki; b) siqilish choki; c) soxta chok; 1 – diametri 12–14 mm ishchi armatura; 2–6 mm montaj armatura; 3 – mixlar 26 mm; 4 – taxta bruslar 4×4 sm,  $I=4$  sm har 100 sm oraliqda; 5 – taxta qistirma, qalinligi 1,5 sm; 6–7 mm montaj armatura; 7 – beton qistirma 10×10×3 sm; 8 – bitum surkov, qalinligi 1–1,5 mm; 9 – bitum mastika.

16.8-jadval

Plitalar qalinligi, sm	A-II toifa armatura sterjenlari soni			
	Ichki chokda		Soxta chokda	
	yuqori zona	pastki zona	yuqori zona	pastki zona
16–22	4ø12	4ø12	3ø12	3ø12
24–26	5ø12	5ø12	4ø12	4ø12
38–30	5ø14	5ø14	4ø14	4ø14
32–40	5ø16	5ø16	4ø16	4ø16

Ikki qatlamlili qoplamaning choklari ustma-ust tushiriladi, bo'ylama va ko'ndalang choklar bo'yicha uchma-uch biriktiriladi.

Choklari mos kelmagan ikki qatlamlili qoplamatarda uchma-uch biriktirish faqat ko'ndalang texnologik choklar bo'yicha qilinadi. Yuqori qatlamlar plitalarining pastki qismida chetlar armaturalanadi.

Beton qoplamatarning sun'iy asoslariga turli qumlar ishlataliladi (16.9-jadval), qalinligi kamida 15 sm qilinadi.

16.9-jadval

Qum turi	Elakda tutilib qoladigan zarralar soni (teshiklar o'lchami quyidagicha, mm, %)					Chang-tuproq zarralari (0,05 mm dan mayda), % massadan; zinalarda	
	2	1	0,5	0,25	0,15	o'rtacha namlik	ortiqcha namlik
Yirik	35 gacha	50	—	90	—	7	5
O'rta	20 gacha	—	50	75	90	5	4
Mayda	10 gacha	—	—	50	90	4	3
Juda mayda	—	—	—	60	90	4	3

Aerodrom quriladigan joylarda asos grunti tuproq qumoq tuproq, changsimon va og'ir qumoq tuproq yoki changsimon qumloq bo'lsa (bular suvni yaxshi shimmasa), yer yuzi suvlari yaxshi qochirilmasa va yerosti suvlari uzoq bo'lsa, beton qoplamatlar organik yoki noorganik bog'lovchilarga qorilgan materiallardan quriladi va asos konstruktsiyasida drenajlovchi qatlamlar qilinadi. Gidrogeologik sharoitlar va tabiiy qumli gruntlar mavjud bo'lsa, drenajlovchi qatlamlar qilmasa ham bo'ladi.

Chaqiq tosh va mayda toshli aralashmalar, toshchalar gruntning tag qatlami bilan aralashib ketmasagina, ishatiladi. Bunday hollarda asoslarning tag qatlami 10–15 sm chuqurlikkacha mustahkamlanadi. Aralashmaning tarkibi tabiiy grunt asosga moslab tanlangan bo'lsa, mustahkamlamasa ham bo'ladi. Mustahkamlash, odatda, III–IV yo'l-iqlim zonasida qilinadi. II zonada engil qumoq tuproqli, qumloq va boshqa yirik zarrali gruntlarda mustahkamlash mumkin. Buning uchun organik va noorganik bog'lovchilar: suyuq bitum, toshko'mirli yoki torfli qatron, yuqori smolali neft, portlandsement, so'ndirilgan va so'ndirilmagan oqak ishlatiladi. Ohakni IV–V yo'l-iqlim sharoitlarida ishlatish cheklangan, chunki u sovuqqa yaxshi chidamaydi.


Chaqiq tosh, mayda tosh, shlak materiallardan qilingan sun'iy asos ustiga beton qoplama qurishda, asos yuzasiga 3–5 sm qum yoyib tekislanadi. Hozirgi vaqtida asos uchun organik bog'lovchilarga qorilgan materiallar ishlatiladi.

Turli sun'iy asoslar ustiga beton qoplamalar qurish variantlari 16.6-rasmida berilgan.

Suriluvchi qolipli DC-100 mashinasini bilan sement-beton (jumladan, armobeton) qoplamalar qurishning qator afzalliliklari bor. Bo'ylama va ko'ndalang choklar qotgan beton yuzasida qirqib ochiladi; eni 0,6–0,8 sm, chuqurligi plita qalinligining  $\frac{1}{4}$  qismicha, keyin bu chokka mastika yoki zichlama to'ldiriladi. Ikki qatlamlili qoplamatagi ko'ndalang choklar qatlamlar bo'yicha ustma-ust tushmaydi. Bunda yuqori qatlama shtirli biriktiruvchi qo'yilmaydi, chunki bu holda pastki qatlama chok osti plita vazifasini o'taydi.

Bir qatlamlili qoplamlarda shtirli birikmalar qilish ruxsat etiladi. qoplama yuzasiga yaxshi pardoz berilgani uchun qatlamlar orasiga ajratuvchi qatlama qilmasa ham bo'ladi. Ishqalanishni kamaytirish maqsadida bitum quyiladi; u beton yuzasini himoya ham qiladi.

Beton qorishma havoni o'zida yaxshi ushlab turishi va betonning yotqizish mashinasini o'tganda plita qirralari buzilmasligi kerak. Yangi yotqizilgan betonning chetlari eng kam darajada deformatsiyalanishi uchun beton qorishmani shunday loyihalash kerakki, konus cho'kishi o'rtacha 2 sm dan oshmasin. Bunda beton yotqizish mashinasining tezligi 2 m/min dan ortiq bo'lmasligi kerak.



**16.6-rasm. Turli asoslar ustiga qurilgan beton qoplamlarning konstruktsiyalari:**

a) qumda; b) qum va turg'un qilingan gruntda; d), e) qum va mayda tosh aralashmasida; 2 – mayda va chaqiq tosh, qumda; f) ikki qatlamlı asos (pastki qatlam gruntosementda, asosi qum); 1 – beton; 2 – ajratuvchi qatlam; 3 – qum; 4 – tag grunt; 5 – turg'un qilingan grunt; 6 – qum va mayda tosh aralashmasi; 8 – mayda tosh; 9 – chaqiq tosh; 10 – shlak; 11 – ajratuvchi qatlam (qum-bitum to'shama); 12 – gruntosement; 13 – oriq beton.

### 16.3. Temir-beton va armobeton qoplamlar

Bikir qoplamlarning ishi asosan bukilishga xizmat qiladi, ya'ni cho'zuvchi kuchlarga qarshilik qilish xususiyatiga ega. Betonning cho'zilishiga qarshi mustahkamlik chegarasi siqishdagiga qaraganda ancha kam, shuning uchun qoplamaning beton plitalari ancha qalin va rejada kichik o'lchamli bo'ladi. Bu kamchilikni tuzatish uchun beton ichiga po'lat armaturalar qo'yildiki, ular cho'zuvchi kuchlanishni qabul qiladi. U beton qoplamaning cho'zilgan zonasiga qo'yildi.

Temir-beton qoplamaga HK dan yuk tushganda va tabiiy omillar ta'sir etganda, cho'zilgan zonasida darzlar paydo bo'ladi. U yerda cho'zuvchi kuchlarni armatura, siquvchi kuchlarni beton qabul qiladi. Darzdan ko'ndalang o'tgan armatura, u kengayib va chuqurlashib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Beton qoplamaning cho'zuvchi kuchlar eng katta bo'lgan joylariga armatura qo'yildi. Betonning armatura bilan to'lish darajasi foiz bilan o'chanadi;  $\mu = F_a/F_n \cdot 100$ . Bu yerda  $F_a$  – armaturaning ko'ndalang kesimi yuzasi;  $q_n$  – plita ko'ndalang kesimi yuzasi; foydali kesim balandligi  $h_o$ , eni –  $b$ ,  $\mu$  ning optimal qiymati 0,25–0,40%. Shunda plitaning siqiladigan joylari ham, cho'ziladigan joylari ham eng samarali ishlaydi.

Temir-beton qoplamlarda ham beton qoplama singari rejada bo'ylama va ko'ndalang choklar qilib, to'rtburchak plitalar hosil qilinadi. Plitalar uzunligi, ya'ni ko'ndalang choklar orasi 20 m olinadi. Siqilishga ishlaydigan bo'ylama choklar texnologik choklar


bilan ustma-ust tushadi; bu choklar orasidagi masofa beton qazish mashinasining eni 7–7,5 m ga teng bo‘ladi. Bir xil yuklamalar uchun temir-beton plitaning qaliligi beton plitanikiga qaraganda 15–25% kam, lekin po‘lat sarfi 12–22 kg/m<sup>2</sup> gacha yetadi.

Temir-beton qoplamlarga diametri 12–18 mm, A-II toifa profilli armaturadan nuqtali payvandlash usuli bilan yasalgan to‘r yoki sing ishlataladi.

Armatura, plitaga tushadigan bukuvchi momentlarga muvofiq holda, plita kesimining yuqorisi va pastki qismlariga, ko‘ndalang va bo‘ylama qilib joylashtiriladi.


Armaturalar plitalarning cheti bo‘ylab yuqorida va pastki qismida va plita markaziy qismining pastki zonasida eng ko‘p joylashtiriladi. Plita markaziy qismining markazi va chetlarining ko‘ndalangida armaturalar kam quyiladi (16.7-rasm).

Armaturaning zaruriy yuzasi va sterjenlar diametriga qarab, sterjenlar orasidagi masofa 10–30 sm olinadi, bu beton yotqizishda qulaylik yaratadi. Konstruksiyani ishlab chiqishda turli diametrligi sterjenlardan eng kam miqdorda ishlatish kerak. Po‘latni koppoziyadan



*16.7-rasm. Temir-beton plita konstruktsiyasi:*

- a)* pastki va yuqorigi armatura rejasi; *b)* montaj armaturasи; *c)* beton taglik;
- e)* sinchlarni joylash sxemasi; 1 – yuqori to‘r 1-Y (bir plitaga ikkita); 2 – yuqori to‘r 2-Y (bir plitaga uchta); 3 – pastki to‘r 2-P (bir plitaga uchta); 4 – pastki to‘r 1-P (bir plitaga ikkita); 5 va 6 – montaj armatura; 7 – beton qistirma; 8 – sinch; 9 – sinch 2.



16.8-rasm. Temir-beton qoplama choklarining tuzilishi:

a) kengayish choki; b) siqilish choki; I – parron chok; II – shpunktli chok;  
III – soxta chok.

saqlash maqsadida himoyalovchi beton qatlam quriladi, qalinligi yuqori armatura uchun 4 sm dan, pastki uchun – 3 sm dan kam bo‘lmasligi kerak. Shunda armatura korroziyadan yaxshi saqlanadi.

Plitalar uchun bir nechta alohida sinchlardan tuzilgan armatura ishlanadi. Sinch o‘lchamlari  $7 \times 7$  m yoki  $7,45 \times 7,45$  m (beton yotqizish mashinasining eni). Har bir sinch payvandlangan ikkita (pastki va yuqorigi) to‘r va montaj armaturasidan iborat; montaj armatura to‘rlarni loyiha holatida ushlab turadi. Sinch beton taglik ustiga qo‘yiladi; taglik himoya qatlam hosil qiladi (tagliklar montaj armaturasi joyiga qo‘yiladi).


Sinchning armatura to‘ri kontakli elektr payvand usuli bilan tayyorlanadi; to‘rnинг chekkadagi ikkita qatorida har bir tugun payvand qilinadi; qolgan tugunlar tugun oralab, shaxmat taxtasi tartibida payvandlanadi. Armatura butun plita bo‘yicha ishonchli ishlashi uchun alohida-alohida sinchlari bir-biriga bog‘lanadi. Sinchlarning uchi ustma-ust qo‘yib biriktiriladi. Ustma-ust joy uzunligi armatura diametridan 30 hissa ko‘p qilinadi. Sinchlari yotqizilgach, tutash joylardan sim bilan o‘raladi. Ustma-ust

tutashtirishdan tashqari bo'yamasiga sterjen qo'yib payvandlansa ham bo'ladi, bunda ustma-ust tushgan joy uzunligi armatura diametridan 10 hissa ko'p. Bo'ylama sterjenni payvandlayotganda ustiga va ostiga plastina qo'yib payvandlanadi. Uning qalinligi 4 mm dan kam bo'lmasligi, umumiy holda sterjen diametrining 0,2 qismi barobarida bo'lishi kerak. Bo'ylama siqilish choklar shpuntli yoki parron qilinadi, ko'ndalangi esa shtirli, parrak va soxta qilinadi (16.8-rasm). Parron va soxta choklarning chetlari armatura sterjenlarini yaqin joylab kuchaytiriladi.

Armobeton qoplamlalar ham temir-betonning o'zi, lekin bunda armaturalash foizi kamroq. Bunday kesimlarda cho'zuvchi kuchlanishni ham armatura, ham betonning o'zi qabul qiladi. Armobeton qoplamaning yuqorigi yuzasi po'lat armatura bilan mustaqamlanishi va choklar kam bo'lishi hisobiga uzoq muddat va turg'un ishlaydi. Armatura borligi sababli qo'zqaluvchi yuklamalar va harorat o'zgarishlari darz paydo qilmaydi, yaxshi ekspluatatsiya xususiyatlarini ta'minlaydi. Bunday qoplamlarda armatura sifatida diametri 10–18 mm AII toifa sterjenlardan ishlangan to'rlar ishlatiladi. Ular qoplama kesimining yuqori qismida, sirtidan plita qalinligining 1/3–1/2 qismicha past joylashtiriladi (16.9-rasm).

Plitalarni bo'ylama armaturalash foizi 0,10–0,15, sterjenlar oralig'i 15–40 sm, po'lat sarfi 6–8 kg/m<sup>2</sup>. Payvandlangan to'rlar yordamida armaturalanadi. To'r maxsus sinchga o'rnatib payvandlanadi (bir plitaga 14 ta to'r). Aloqida-alohida to'rlar uchi bir-biriga ustma-ust qo'yib, qisman payvandlanadi va bir-biriga bog'lanadi. Sterjenli to'r plitaning enidan sterjen diametrining 15 hissasi barovarida, bo'yidan – 30 hissa barovarida chiqib turadigan qilib yotqiziladi. Plitaning uzunligi bo'yicha to'rlarni joylashda 1 m oraliq qoldiriladi.

Armobeton qoplamlalar bo'ylama va ko'ndalang choklar (siqilish choki) yordamida to'g'ri to'rtburchak plitalarga ajratiladi. Ko'ndalang choklar orasidagi masofa quyidagicha (ko'pi bilan): sutkalik o'rtacha haroratning yillik amplitudasi 45°C va undan ortiq bo'lsa – 10 m; 45°C




16.9-rasm. Armobeton plitani armaturalash:

a) to‘r rejasi; b) plita rejasi va I, II, III to‘rlarni yotqizish ketma-ketligi; d) to‘r konstruktsiyasi; e) o‘rnatish sinchi; 1 – bo‘ylama sterjenlar;  $d = 100$  mm,  $I = 730$  mm; 2 – sinch xomuti,  $d = 10$  mm (har 80 sm oraliqdagi joylashtiriladi); 3 – shpilka  $d = 10$  mm,  $I = 40$  sm oraliq bilan o‘rnataladi; 4 – o‘rnatish sinchlari.



va undan kam bo‘lsa – 15 m (sutkalik o‘rtacha haroratning yillik amplitudasini eng issiq oyning eng katta o‘rtacha haroratidan eng sovuq oyning eng kichik o‘rtacha haroratini ayirib topiladi). Muhandislik-geologik sharoitlar murakkab hududlarda armobeton va temir-beton plitalar uzunligi 10 m dan oshirilmaydi. Armobeton qoplamlarning bo‘ylama choki texnologik choki bilan ustma-ust tushiriladi.

Bo‘ylama sifilish choklari, odatda, shpuntli yoki parron qilinadi; ko‘ndalang choklar – shtirli, parron, soxta qilinadi; ko‘ndalang choklar – shtirli, parron soxta qilinadi (16.10-rasm). Armobeton plitalar rejasi 16.11-rasmida berilgan.



16.10-rasm. Armobeton qoplamlar chokining tuzilishi:

a) kengayish choki, bikir asosda shtirli ulanma bilan; b) siqilish choki, soxta, shtirli ulanma bilan; 1 – armobeton; 2 – sun'iy asos yoki mavjud beton qoplama; 3 – o'rnatuvchi sinchning bo'ylama sterjenlari; 4 – o'rnatuvchi sinchning xomutlari; 5 – metall shpilkalar; 6 – metall shtir; 7 – bitum surkov, shtir uzunligining 2/3 qismida; 8 – karton qalpoqcha; 9 – yumshoq yog'och yoki materialdan (namat, qipiqlik) tiqim; 10 – taxta, qalinligi 2 sm; 11 – chokni to'ldiruvchi; 12 – plitaning ishchi armaturasi; 13 – o'rnatish sterjeni; 14 – burchak profil; № 7,5/5, b=5 sm.



**16.11-rasm. Aerodromning armobeton plitasi yoyilma rejasi:**

- a) SUQT ning magistral RY bilan tutash joyi; b) SUQT ning tutashtiruvchi RY bilan birikkan joyi; 1 – shpuntli siqilish choki; 2 – siqilish choki, soxta, shtirli birikma bilan; 3 – parron choc, plita chetlari armaturalangan; 4 – otmostka (jiyak);  
5 – o'tish tasmasi.

#### **16.4. Oldindan kuchlantirilgan monolit temir-beton qoplamlar**

Betonning cho'zilishga mustahkamligi juda kichik, uzunguncha cho'zilish ham ancha kam. Bular betonning jiddiy kamchiliklari. Betonning uzlishdan yemirilish onidagi cho'zilishi taxminan 0,15 mm/m ga teng. Bunday cho'zilishda armaturaning kuchayganligi 30 MPa ga yetadi. Shu sababdan armatura o'z mustahkamligini yo'qotmay turibeq betonning cho'ziladigan zonasida darzlar paydo bo'ladi. Shunday bo'lmasligi, qoplama uzoq vaqt xizmat qilishi uchun oldindan kuchlantiriladi (zo'riqtiriladi).

Oldindan kuchlantirilgan monolit temir-beton qoplamlar cho-zuvchi va bukuvchi kuchlarga yaxshi qarshilik qilishi tufayli darzlar paydo bo'lishiga ham qarshilik qiladi. Bu beton qoplamlalarga qaraganda qalinlikni 1,5–2,0 marta kamaytirish va oddiy temir-beton qoplamlalarga qaraganda metall sarfini 2–3 marta kamaytirish imkonini beradi. Qoplamlarni katta o'lchamli plitalardan qurish

mumkin bo'lgani uchun choklar sonini kamaytirib, ekspluatatsiya xususiyatlarini yaxshilash mumkin.

Avvaldan kuchaytirilgan qoplamlar yuqorida aytilgan afzallikkardan tashqari, qator kamchiliklarga ham ega: texnologik uskunalar va ish jarayoni murakkab, xavfsizlik texnikasi bo'yicha kuchaytirilgan choralar ko'rish lozim. Bunday qoplamani monolit ko'rinishda faqat to'g'ri chiziqli uchastkalarda qurish mumkin. Qoplamalarning egri chiziqli uchastkalari, RY va SUQT yoki TJ larning tutash joylari, tarnov qatorlari beton yoki temir-betondan qilinadi.


Armaturani hamma tomonidan siqish turi, yotqizish usuli va taranglash davriyiligiga qarab, qoplamlar quyidagi turlarga ajratiladi: beton qotgach armaturani taranglab; beton tashlanguncha armaturani taranglab; armatusiz har tomonidan siqish usuli bilan.

Aerodrom qurilishida ikkinchi usul ko'p qo'llaniladi. Bunda armatura ingichkaroq bo'ladi, tor simini eslatadi. Shunday usul bilan qurilgan qoplama «sim-beton» (strunobeton) deyiladi. Uning asosiy elementlari (16.12-rasm): sim-beton plitalari (1), ko'ndalang choklar (2), texnologik uzilish uchastkalari (3), bo'ylama choklar (4), ankerli tiraklar (5), chok osti plitalari (6), sun'iy asos (7).


Ankerli tirkaklar qoplamaga beton tashlashdan oldin kuchaytirilgan bo'ylama armaturalardan kuchni vaqtinchcha qabul qilish uchun quriladi; u har bir «zaxvatka»ning (500–700 m oralab) uchlarida beton anker ko'rinishida bajariladi; beton anker plita va gruntga 1,5–2,5 m chuqur qoqilgan shporlardan iborat. Sim-beton plitalar bir o'q yoki ikki o'q (bo'ylama) bo'yicha har tomonlama siqib, quriladi. Betondagi bo'ylamasiga oldindan berilgan kuchlanish yo'qotishlarni hisobga olganda 2 MPa dan, ko'ndalangisi (ikki o'q bo'ylab siqilganda) – 1 MPa dan kam bo'lmasi kerak. Kuchlantiriladigan bo'ylama armatura sifatida diametri 4–5 mm bo'lgan sim armatura ishlataladi. Simning sirti profillangan bo'lsa, maxsus anker qurilmasi kerak bo'lmaydi, chunki beton qotganda usti g'adir-budir simning o'zi taranglashib

qoladi. Shuning uchun sim-beton qoplamlarda armaturani bo'shatish, uni anker plitalardan ajratish yoki ko'ndalang choklarni qirqish bilan bajariladi.

Kuchlantirilgan armatura plitalarga bir yoki ikki qator, 2–3 sm ini dasta-dasti qilib joylanadi. Dastalar orasi 8 sm dan kam bo'lmaydi, shunda betonni yaxshi zinchash mumkin. Plita ko'ndalangiga kuchlanmagan yoki kuchlantirilgan armatura bilan armaturalanadi. Qo'zqatuvchi kuchlar jadal hosil bo'ladigan uchastkalarga kuchlantirilgan armatura – dastali yoki sterjenli – qotgan betonda taranglab qo'yiladi. Kuchlantirilgan ko'ndalang armatura bir qator joylashtiriladi. Bunda plitaning pastki tekisligidan kanal o'qigacha masofa 8 sm qilinadi, shunda darzlar oldi olinadi. Kuchlantirlmagan armatura plitaga 2 qator: tepa va quyi qismiga o'rnatiladi. Bunday armatura uchun A-II toifa po'latdan, diametri kamida 10 mm bo'lgan davriy profillangan po'lat ishlataladi. Sterjenlar orasi 10–30 sm bo'ladi. Plitaning burchaklari va chetlari, ko'ndalang choc oldida, choc osti beton plita hisobiga ko'paytiriladi (16.12-rasm)



16.12-rasm. Sim-beton qoplama sxemasi.




**16.13-rasm. Ko'ndalang chokning tuzilishi:**

1 – jipslovchi material; 2 – qoplama plitasi; 3 – simlar; 4 – chok osti plitasi;  
5 – yog‘och tiqin; 6 – taxta.

Ko'ndalang choklar ikki xil bo'ladi. Birinchisi (16.13-a rasm) qalinligi 2 sm ikkita taxtadan iborat, orasida 2,5 sm tirqish bor, u jipslovchi material bilan to'ldiriladi. Chokning umumiyligi 6–6,5 sm. Ikkinchisi (16.13-b rasm) 2,5–3,0 sm tirqish va jipslovchi material to'ldirilgan. Bir o'q bo'yicha qisiladigan va qalinligi 24 sm dan ortiq qoplamlarda bo'ylama choklar shpuntli qilinadi; 24 sm gacha bo'lsa, parron qilinadi va plitaning yuqori va pastki qismi kuchlantirilmagan po'lat sterjen bilan qo'shimcha armaturalanadi. Betonga avvaldan hosil qilingan kuchlanishlarni o'tkazish va plita tagligining asosga ishqalanishini kamaytirish uchun beton qotganda har 50–100 m da ko'ndalang choklar qilinadi (16.12-rasm).

Texnologik uzilishlardagi qoplamaning qalinligi va armaturalash darajasi hisoblab topiladi va temir-beton yoki armobeton qilinadi (16.14-rasm). Uzilish joylarining uzunligi armaturani kuchlantirish sxemasi, armaturani taranglovchi uskuna o'lchamlari va anker tirak o'lchamlariga bog'liq.



**16.14-rasm. Texnologik uzilish joyida qoplama ko‘rinishi:**

1 – texnologik uzilishning armobeton plitasi; 2 – taxta tiqin; 3 – sim-beton qoplama plitasi; 4 – grunt sementli sun’iy asos; 5 – chok osti plitasi; 6 – anker tirak.

### **16.5. Avvaldan kuchlantirilgan temir-beton plitalardan yig‘ilgan qoplamlar**

Bunday qoplamlarning qo'llanishi plitalarni zavod sharoitida sanoat yo‘li bilan ishlab chiqarib, qurilish maydonida faqat yig‘ish ishlarini bajarish imkonini yaratadi. Bunda qurilish materiallarini saqlash, betonga qorish va yotqizish joyiga tashish ishlariga zarurat bo‘lmaydi. Shuningdek, ishchi kuchlari bir tekis ishlatiladi, qurilish, ta’mirlash va qayta qurishda mavsumiylik yo‘qoladi.

Yig‘ma qoplamlalar vaqt tiqiz bo‘lganda, ayniqsa maqsadga muvofiq: qishda ko‘tarish qobiliyatini oshirish maqsadida qayta qurishda, mavjud qoplamlarni kengaytirish va uzaytirishda, ta’mirlashda. Yig‘ma qoplama sifatining yuqori bo‘lishi zavod texnologiyasiga bog‘liq.


Yig‘ma qoplamlarga monolit qoplamlarga quyiladigan talablardan tashqari yana bir qator qo’shimcha talablar qo‘yiladi: plitalarni zavod yoki poligon sharoitida tayyorlash texnologiyasining osonligi; plitalarni temiryo‘l va avtotransport bilan tashishning qulayligi; qoplamani yig‘ishda oddiylik, qulaylik va bir xillik; qoplamaning bir tekisligi; plitalarning asosga jips qo‘yilishi; plitalarni bir-biriga biriktirishning ishonchiligi.

Bir va ikki o'q bo'yicha avvaldan kuchlantirilgan plitalar konstruktsiyasi ishlab chiqilgan. Ikki o'q bo'yicha avvaldan kuchlantirilgan plitalar ПАГ-IX armatura po'latiga nisbatan kam bo'ladi, yuzasi kerakli darajada mustahkam va darz ketishga bardoshli bo'ladi (16.15-rasm)

Plita o'lchamlari rejada  $3,2 \times 6,0$  m, ikki o'q bo'yicha kuchlantirilgan, mustahkamligi yuqori, diametri 3 mm po'lat simdan yasalgan ikki qatlamlili armatura joylangan.


Dastlabki kuchlanishning o'rtacha qiymati bo'ylama yo'nalishda 2,8 MPa, ko'ndalangiga – 2,1 MPa.

Bir o'q bo'yicha har tomonlama qisib avvaldan kuchlantirib tayyorlanadigan plitalar (ПАГ-XIV) qo'llaniladi (16.16-rasm). Uning o'lchamlari  $2 \times 6$  m, qalinligi 0,14 m, massasi 4,2 t.



16.15-rasm. ПАГ-IX plitasining konstruktsiyasi:

a) armaturalash rejasi; b), d) – qirqimlari.




16.16-rasm. ПАГ-XIV plitasining konstruktsiyasi:

a) pastki armaturaning joylashish rejasи; b) o'sha, yuqorigi; 1 – davriy profilli (po'lat armatura; 2 – sovuq holda tortilgan po'lat simdan kuchlantirilmagan armatura; 3 – sterjenli armatura; 4, 5 – skobalar; d) sovuq holda tortilgan po'lat simdan spiral.

Plita tayyorlash uchun siqilish bo'yicha 300 markali beton ishlataladi. Plita bo'yamasiga diametri 14 mm, davriy profilli kuchlantirilgan sterjen bilan, ko'ndalangiga – diametri 5 mm, sovuq holda tortilgan, kuchlantirilmagan oddiy sim bilan armaturalangan; chetlari esa diametri 10 mm sterjenlar bilan armaturalangan. Hammasi bo'lib plitaga 127,2 kg, 1 kv m ga 11 kg armatura ishlataladi. Himoya qatlam qalinligi 27 mm. Plitaning burchaklari qo'shimcha burchak shaklli sterjenlar bilan armaturalanadi. Plitada bo'ylama darzlar paydo bo'lmasligi uchun armatura sterjenlarining uchlariga, diametri 3 mm, sovuq holda tortilgan po'lat simdan tayyorlangan, uzunligi 15 sm bo'lgan spirallar qo'yiladi.

Qoplama plitalarining holati barqaror bo'lishi uchun bir-biriga uchma-uch mahkamlanadi; bunda gorizontal skobalar ishlataladi; skobalar plita tayyorlanayotgan paytda ichiga qo'yib yuboriladi, keyin yig'ilgan joyda bir-biriga payvandlanadi. Skobalar diametri 28 mm A-I toifa, silliq po'latdan tayyorlanadi (16.17-rasm). Plitaning bo'ylama qirralaridagi skobalar, uni ko'tarish-tushirishda ilmoqlar uchun ham foydalaniлади.



16.17-rasm. ПАГ-XIV plitasini tutashtirish detallari:

a) tutashtiruvchi skoba (plitaning uchlaridagi qirralari bo'yicha); b) birlashtirilgan (tutashtirish va montaj) skoba (plitaning yon qirralari bo'yicha); 1 – tutashtiruvchi skoba  $\varnothing=20$  mm,  $l=400$  mm; 2 – anker sterjenlar  $\varnothing=10$  mm,  $l=250$  mm; 3 – birlashtirilgan tutashish va montaj skobalari  $\varnothing=20$  mm,  $l=300$  mm.

Plitalarni tayyorlashning texnik shartlariga ko'ra, ular darz, cheti uchgan bo'lmasligi, notejisligi 5 mm dan ortiq bo'lmasligi kerak. Plitani tayyorlashda unga avvaldan kuchlanish berilayotganda (sterjenlarni elektrotermik usul bilan kuchlantirib qirqqanda) betonning siqilish mustahkamligi 2 MPa dan kam bo'lmasligi kerak.

ПАГ-XIV plitalar bir g'ildirakka keltirilgan 120 kN yuklamaga hisoblanadigan qoplomalarga mo'ljallangan. Ayrim hollarda sun'iy asos mustahkam bo'lsa, 170 kN yuklamada ham qo'llash mumkin. Og'irroq yuklamalar uchun ПАГ-XVIII, ПАП-26a plitalari ishlataladi.

ПАГ-XVIII plitaning qalinligi 18 sm rejadagi o'lchamlari  $6 \times 2$  m ПАГ-XIV ga qaraganda kuchli armaturalangan (16.10-jadval) 170–200 kN yuklamaga mo'ljallangan. Temir-beton buyumlar zavodidagi texnologik uskunalarining yuk ko'tarish qobiliyati bulardan ham katta yuklamada ishlay oladigan plitalarni ishlab chiqarishga kamlik qiladi, chunki qalinlik ortadi, armatura ko'payadi. Shuning uchun yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish ichi bo'sh plitalardan foydalanishni taqozo etadi. ПАП-26а (plita aerodromnaya pustotnaya) shunday paydo bo'lgan. Plitaning bo'shliqlari bo'ylama joylashgan, diametri 14 mm, A-IV toifa po'lat sterjenlardan qo'shaloq qilib armaturalangan. Ko'ndalangiga plitaning pasti va chet qismlari armaturalangan (diametri 10 mm, A-II toifa strejenlar); plitaning o'rta qismi va yuqorisi diametri 5 mm, V-I toifa po'lat sim bilan armaturalangan.

Avvaldan kuchaytirilgan temir-beton plitalarining hamma turлari qoplamaga yotqizilayotganda, katta tomoni HK lari harakati yo'naliishiда yotishi kerak. Shunda HK ko'tarilishi va qo'nishi uchun qulay bo'ladi.

16.10-jadval

Plita turi	Rejadagi o'lchamlari, m	Balandligi, sm	Massasi, t	Plitaga beton sarfi, m <sup>3</sup>	1 m <sup>2</sup> plitaga armatura sarfi, kg	
					kuchlanti-rilgan	jami
ПАГ-XVIII	2×6	18	5,4	2,16	7,0	13,7
ПАП-26 а	2×6	27	5,4	2,16	7,0	16,2

Qoplamada deformatsiya (harorat) choklari qilinadi. Ko'ndalang va bo'ylama choklar orasidagi masofalar perronlarda va TJ larda quyidagicha bo'lishi kerak: o'rtacha oylik haroratlarning yillik amplitudasi  $45^{\circ}\text{C}$  dan ortiq bo'lsa – 12 m;  $30\text{--}45^{\circ}\text{C}$  bo'lsa – 18 m;  $30^{\circ}\text{C}$  dan kam bo'lsa – 24 m. SUQT dagi yig'ma qoplamada bo'ylama choklar qilinmaydi. Plitalar choklaridan bir-biriga (harorat chokidan

boshqa) payvandlanadi. Harorat chokida payvand qilinmaydi. Yig'ma qoplama plitalari orasidagi choklar paronzol yoki standart mastika bilan to'ldiriladi. Harorat choklaridan boshqa hamma choklarning pastki qismini qalinlikning 2/3 qismicha qum va sement aralashmasi bilan to'ldirish mumkin; bu paronzol yoki mastikani bir muncha tejaydi.

Yig'ma qoplama, odatda, mustahkam sun'iy asos ustiga quriladi. Bunday asos uchun qum va sement, grunt va sement aralashmalar, chaqiq tosh, shlak, qum va mayda tosh, grunt va chaqiq tosh, grunt va mayda tosh aralashmalari, bog'lovchi materialga qarab yoki qormasdan ishlatiladi; gidrogeologik sharoitlar qulay bo'lsa – sifatli qum ishlatish mumkin. Plitalar sun'iy asos bilan yaxshi jipslashishi uchun qum va qum-mayda tosh aralashmasi ishlatilgan holdan barcha turlarda qalinligi 2–4 sm bo'lgan qum va sement aralashmasidan tekislovchi qatlam yotqiziladi. Bunda 300 markali sement sarfi 1 m<sup>3</sup> qum uchun (namligi optimal bo'lsa) kamida 250 kg bo'lishi kerak. Qum va qum-mayda tosh aralashmali asoslar ustiga qumdan qalinligi 4–6 sm tekislovchi qatlam yotqiziladi.

## **16.6. Aerodromlarni qayta qurishda mavjud bikr qoplamlarni kuchaytirish**

Mavjud qoplamlarni kuchaytirish quyidagi sabablar bilan taqozo etiladi: qoplamlarning yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish zarurati; qoplamada HK larini xavfsiz ishlatish uchun yo'l qo'yib bo'lmaydigan va joriy ta'mir bilan tuzatib bo'lmaydigan nuqsonlar (o'yилар, yuqori qatlamning ko'p yemirilishi) borligi. Qoplamani kuchaytirish usuli me'yoriy yuklarma va mavjud qoplamaning holatiga qarab aniqlanadi. Mavjud qoplamlarning yemirilish toifasi 16.11-jadvalga qarab aniqlanadi.

Qoplamani kuchaytirishdan oldin asosni tuzatib, yemirilgan qoplamani, qum sement aralashmali, mayda zarrali yoki qum-betonli

tekislovchi qatlamni tiklash kerak; bular 2 sm dan ortiq notekisliklarda bajariladi. Agar asos suv oqish va drenaj tizimining qoniqarsiz ishi tufayli yemirilgan bo'lsa, ularni tiklash lozim.

16.11-jadval

Mavjud qoplama plitlarining yemirilish toifasi	Plitalar soni, %			
	uvalanish (chuqurligi 1 sm dan ko'p)	choklar chetining sinishi	ichki choq darzli (bo'ylama yoki ko'ndalang)	burchaklar singan, diagonal parron darzlar (parron bo'ylama va ko'ndalanglari bilan)
I	10 dan kam	—	—	—
II	10–30	30 dan kam	20 dan kam	—
III	30 dan ko'p	30 dan ko'p	20–30	20 dan kam
IV	me'yorga asoslanmagan	me'yorga asoslanmagan	30 dan ko'p	20 dan ko'p

Kuchaytiruvchi qatlam uchun beton, armobeton, temir-beton, oldindan kuchlantirilgan yig'ma plitalar, asfalt-beton ishlataladi. Monolit beton va armobeton qoplamlari xuddi shunday betonlar bilan va temir-beton, oldindan kuchlantirilgan yig'ma temir-beton yoki asfalt-beton bilan kuchaytiriladi.


Monolit temir-beton qoplamlar, odatda, monolit temir-beton yoki asfalt-beton bilan kuchaytiriladi. Avvaldan kuchlantirilgan plitalarini yig'ib qurilgan qoplamlar xuddi shunday plitalar yoki asfalt-beton bilan kuchaytiriladi, monolit beton yoki armobeton qo'llash mumkin emas. Yig'ma qoplamlar yig'ma plitalar bilan kuchaytirilganda yuqoridagi choklar pastdagiga nisbatan suriladi: bo'ylama choklar uchun kamida 0,5 m, ko'ndalang choklar uchun kamida 1 m.

Monolit bikir qoplamlarni monolit beton, armobeton yoki temir-beton bilan kuchaytirganda qatlamlar choklari ikki qatlamlı

qoplamlardagi ajratuvchi qatlamlardagi kabi bir-biriga mos tushiriladi. Kuchaytiruvchi qatlam tuzilishi oddiy beton, armobeton va temir-beton plitalaridagi kabi.

Bikir qatlamlarni oldindan kuchlantrilgan yig'ma temir-beton plitalar bilan kuchaytirganda mavjud qoplama va yig'ma plitalar orasiga qum-beton yoki qum-sement aralashmasidan 3 sm qalinlikda (kamida) tekislovchi qatlam yotqiziladi; bunday holda ajratuvchi qatlam qilinmaydi.

Mavjud qatlamni asfalt-beton bilan kuchaytirganda notekislik 3 sm dan ortiq bo'lsagina tekislovchi qatlam qilinadi. Kuchaytiruvchi asfalt-beton bir yoki ikki qatlamlili qilinadi (16.18-rasm)



*16.18-rasm. Sement-beton qatlamlarni kuchaytirish konstruktsiyasi:*

- a) bir qatlamlili; b) ikki qatlamlili; 1 – bir yoki ikki qatlamlili qoplamaning tepe qatlami; 2 – tekislovchi qatlam; 3 – bitumli yopishtiruvchi parda; 4 – mavjud beton qoplama; 5 – qumli asos; 6 – ikki qatlamlili qoplamaning pastki qatlami; 7 – gruntli tabiiy asos.

Aerodromning bikir qatlamlarini kuchaytirishda asfalt-beton qatlamning eng kam qalinligi 16.12-jadvaldan olinadi. Bikir qoplama-larni kuchaytirishda hamma qatlamlar uchun faqat zinch asfalt-beton aralashmalar ishlataladi.

Kuchaytiruvchi asfalt-beton qatlam polimer yoki stekloplastik to'rlar bilan (maxsus ishlab chiqariladi) armaturalanadi. To'rlar asfalt-betonning yuqori qatlami ostiga qo'yiladi. Bu ish A, B, B toifa aerodromlarda va ko'p miqdorda parron darzlari bor uchastkalarda qilinadi.

### **17.1 Aerodromning bikir bo'lмаган qoplamalarini konstruktsiyalash tamoyillari**

Qoplama aerodromning eng qimmatli qismi. Ko'pgina hududlarda mustahkam tosh materiallar yo'q, ular uzoqlardan keltiriladi. Shuning uchun bikir bo'lмаган qoplamalar qurishda mahalliy toshlardan, mahalliy sanoatning yordamchi mahsulotlaridan foydalanish kerak. Ularni konstruktsiyaga shunday joylashtirish kerakki, mustahkamligi yetarli, mehnat va boshqa resurslar sarfi kam bo'lsin.

Qoplamaning qatlamlarini, HK lari turganda, ko'tarilayotgan va qo'nayotganda asos grunt harorati va namligining o'zgarishlaridan hosil bo'ladigan yo'nalishlarning chuqurlik bo'yicha vertikal va gorizontal yo'nalishlarda so'nishiga qarab joylashtirish kerak. Shuning uchun qoplama materiallarining mustahkamligi va sovuqqa bardoshligi chuqurlikka qarab kamayib borishi mumkin. Chuqurlashgan sari qatlamlarning suv o'tkazish xususiyati ortib borishi kerak; tasodifan o'tib qolgan suv turib qolmasin va yaxlamasin. Zarur bo'lganda qoplama konstruktsiyasiga suvni qochirish uchun qo'shimcha qatlam kiritiladi. Konstruktiv qatlamlar soni qurilish ishlarini qiyinlashtirmaslik uchun juda ko'p bo'lmasligi kerak.

Qoplamaning yuqori qatlami mustahkam materiallardan quriladi; u HK g'ildiraklaridan tushadigan yuklarga, reaktiv dvigatellardan chiqadigan issiq gaz oqimlariga yaxshi qarshilik ko'rsatishi kerak. Qoplamaning konstrukcion qatlami materiali qancha qimman bo'lsa, qatlam qalinligi shuncha yupqa qilinadi, biroq materialdag'i yirik tosh o'lchamidan kamida 1,5 hissa ortiq bo'lishi kerak. Bunday qatlamlar qalinligi zichlangan holda tajribalardan aniqlangan (17.1-jadval).

Qoplamaning zaruriy mustahkamligi asos qatlamlarining tegishli qalinligi hisobiga ta'minlanadi. Ularda mahalliy materiallarni saralab, zarur bo'lsa, yopishtiruvchi materiallardan ozgina qo'shib, shuningdek, mustahkamlangan gruntlar ishlataladi. Shunda grunt asosning tepe qatlami aerodrom qoplamasining muhim elementi hisoblanib, uning mustahkamligi va bir xilligiga yuqori talablar qo'yiladi. Grunt asosning yetarlicha mustahkam bo'lmasligini, qoplamaning boshqa qatlamlarini qalinashtirish bilan qoplab yuborish mumkin emas. Grunt asosning chuqurligi siqiladigan qalinlik chegarasida me'yoriy yuklama va HK ning g'ildiragiga tushadigan hisobiy yuklama toifasiga bog'liq (17.2-jadval).

*17.1-jadval*

Bikir bo'limagan qoplama yoki sun'iy asosning konstruktiv qatlaming materiali	Qatlarning eng kam qalinligi, sm
Asfalt-beton, HK pnevmatik shinalaridagi ichki havo bosimi quyidagicha bo'lganda (MPa):	
0,6 dan kam	5
0,6–0,7	7
0,7–1,0	9
1,0 dan ortiq	12
Chaqiq tosh, mayda tosh, gruntlar (yopishtiruvchi moddalar bilan ishlov berilgan)	8
Yopishtiruvchi moddalar bilan ishlov berilgan chiqiq tosh:	
shimdirish usuli bilan	8
yarim shimdirish usuli bilan	4
Mineral yopishtiruvchi moddalar bilan ishlov berilgan gruntlar va bo'shroq toshlar	15
Chaqiq tosh va mayda tosh, yopishtiruvchi modda bilan ishlov berilmagan, qum asosga yotqizilgan	15
Yopishtiruvchi modda bilan ishlov berilmagan, mustahkam asosga yotqizilgan (tosh, yoki yopishtiruvchi bilan mustahkamlangan grunt) chiqiq tosh	8

Me'yoriy yuklama toifasi	I	II	III	IV	V	VI
Qoplama yuzasidan boshlab siqiladigan qatlam chuqurligi, m	6	5	4,5	4	3	2

17.2-jadval

HK ning asosiy tayanchidagi g'ildiraklar soni	<b>Goplama tepasidan boshlab, asosiy tayanchning bitta g'ildiragiga tushadigan yuklamalarga qarab, kH, grunt asosining siqiladigan qalinligi, chuqurligi</b>				
	250	200	150	100	50
1	5	4,5	4	3	2
2	6	6	5	4,5	4
4 dan ko'p	6	6	6	5	5

Aerodrom qoplamasining asosidagi tabiiy grunt yoki to'kma gruntning zichlanganligi zichlash koefitsiyentlariga javob berishi kerak (17.3-jadval).

17.3-jadval

Grunt	Asos gruntning zichlanish koefitsiyenti		Uchish maydoni yoki xavfsizlik tasmasining grunt qismida	
	aerodrom qoplamasi tagida			
	kapital tur	engil tureng'il		
Qum, qumloq	0,98/0,95	0,95/0,95	0,90	
Qumoq	1,00/0,95	0,98/0,95	0,90	
Tuproq	1,0/0,98	0,98/0,95	0,95	

Agar gruntning tabiiy mustahkamligi jadvaldagidan kam bo'lsa, I–III yo'l-iqlim zonalarda 1,2 m chuqurlikkacha, IV–V zonalarda 0,8 m chuqurlikkacha (grunt asos yuzasidan boshlab) shibbalash kerak.

Qoplamlarni loyihalashda grunt xususiyatlarining turg'unligini ta'minlaydigan va ularga tabiiy va ekspluatatsiya omillari ta'sirini kamaytiradigan quyidagi tadbirlar ko'riliadi: to'shamada maxsus gidroizolatsiyalovchi, kapillarlarni uzib qo'yuvchi yoki issiqlik izo-

latsiyalovchi qatlam qurish; yuzadagi suvlarni qochirish va suv oqish drenaj tarmog'i qurish yo'li bilan grunt asosning barqaror suv rejimini ta'minlash; bo'sh gruntlarni barqaror grunt bilan qisman yoki to'la almashtirish; gruntlarni mustahkamlash. Qoplamlarni loyihalashda bir nechta variantni ishlab chiqib, qurilish va ekspluatatsiya xarajatlarini taqqoslab, eng yaxshisi tanlanadi. Bunda xarajatlarni qoplash muddatiga e'tibor beriladi; mukammalroq qoplama qurishning qimmatlashgan narxi necha yilda qoplanishi orqali baholanadi. Muddati eng kam va me'yordan oshmagan variant eng yaxshisi hisoblanadi.

## 17.2. Asfalt-beton qoplamalar

Asfalt-beton qoplama – bikir bo'lмаган qoplama turlaridan biri. Uning yuzi tekis bo'ladi, turli uchastkalarda turli qalinlikda qurilishi mumkin. Asosan, reaktiv dvigatellarning issiq gaz oqimlari kam tegadigan, yonilg'i va moylash materiallari to'kilmaydigan elementlarda – RY da, SUQM ning o'rta qismlarida qo'llaniladi. Reaktiv dvigatellarning gazlari uzoq vaqt (3–4 minutdan ortiq) ta'sir qiladigan, qoplama harorati 100°C dan oshadigan gaz oqim tezligi 50 km/s va undan oshadigan uchastkalarda qo'llash mumkin emas.

Bunday qoplamlarning asosiy qatlami – asfalt-beton qatlamdir. Uni chaqiq tosh, qum, mineral kukun va bitumdan oqilona aralashtirib, yotqizib, so'ng muayyan darajada zichlab hosil qilinadi. Tarkibidagi chaqiq tosh, katta mustahkamlikka ega bo'lgan, monolitning eng katta hajmini oladigan komponentdir. Chaqiq tosh qattiq toshlardan bitum aralashtirib, vulqonli yoki cho'kma jinslar, domna shlaklardan tayyorlanadi. Jinslarning mustahkamligi, siqilishda  $8-12 \times 10^7 \text{ H/m}^2$ . Chaqiq tosh bir xil bo'lishi, tarkibida qumoq tuproq bo'laklari bo'lmasligi, changsimon va tuproq zarralari 2% dan oshmasligi, sovuqqa chidamli bo'lishi kerak (qattiq va o'rtacha sovuq sharoitlarda  $M_p = 350$ , yumshoq iqlimlarda  $M_p = 325$  markali).

Asfalt-betonlar tarkibidagi qum chaqiq toshlar orasini to'ldiradi, aralashmani yoyiluvchan, yotqizishga qulay qiladi. Tabiiy va maydalangan qumlar ishlatiladi; ular yirik yoki o'rtacha zarrali bo'lishi, changsimon va tuproq zarralari 3% dan oshmasligi kerak.

Mineral kukun aralashmani issiqqa bardoshli, mustahkam va zich qiladi; ohaktoshlar, dolomitlar, metallurgiya shlaklaridan (mustahkamligi kamida 210 MPa) tayyorlanadi; quruq, toza, g'ovakli bo'lishi kerak.

Bitum bog'lovchilik vazifasini bajaradi. To'qri tayyorlangan asfalt-beton plastik bo'ladi, ayni vaqtida, haroratlar keskin tushganda ham, asos cho'kkanda ham darz ketmasdan deformatsiyalanadi. Uni yuqorida aytilgan materiallarni qizigan holda, aralashtirgichda qorib tayyorlanadi.

Yotqizish harorati va aralashma tayyorlanadigan bitum haroratiga qarab, asfalt-beton qorishmalar uch xil bo'ladi: issiq, iliq va sovuq.

Issiq asfalt-beton aralashma БНД 90/130, БНД 60/190 va БНД 40/60 markali yopishqoq bitum bilan tayyorlanadi. Yotqiziladigan aralashma harorati 120–160°C bo'lishi kerak. Iliq asfalt-beton aralashma БНД 200/300, БНД 130/200 markali yopishqoq bitum yoki БГ 70/130, СГ 130/200 markali suyuq aralashma harorati 80–130°C bo'lishi kerak.

Sovuq aralashma СГ 70/130 yoki МГ 70/130 markali suyuq bitum bilan tayyorlanadi, yotqizilayotganda harorati 5–40°C bo'lishi kerak.

Asfalt-beton aralashmalarni, qoidaga ko'ra, issiq paytida yotqiziladi, chunki shunda qoplama eng mustahkam bo'ladi. Sovuq asfalt-beton aralashmalar aerodromlarda ishlatilmaydi, chunki qoplama yuzasidagi mayda toshchalar reaktiv dvigatelning havo so'rqichiga kirib ketishi mumkin. Bu aralashmalardan ta'mir ishlarida foydalanish qulay; ularning tarkibida tosh miqdori ko'p, o'lchamlari ham kattaroq.

Issiq va iliq asfalt-beton aralashmalar tarkibidagi chaqiq tosh va qum miqdoriga qarab uch xil bo'ladi (17.4-jadval); sovuq aralashma turlari 17.5-jadvalda berilgan.

17.4-jadval

Aralashma turi	Asfalt-beton turi	Chaqiq tosh miqdori, %	Qum miqdori (1,25–5,0 mm fraksiya), kamida %
А	Chaqiq toshi ko‘p	50–65	—
Б	Chaqiq toshi o‘rtacha	35–50	—
В	Chaqiq toshi kam	20–35	—
Г	Qumli (maydalangan qum)	—	33
Д	O‘sha (tabiiy qum)	—	14

17.5-jadval

Aralashma turi	Asfalt-beton turi	Chaqiq tosh miqdori, %	Qum miqdori (1,25–5,0 mm fraktsiya), kamida %
Бх	Chaqiq toshi o‘rtacha	35–50	—
Вх	Chaqiq toshi mayda	20–35	33 (maydalangan)
Дх	Qumli	—	15 (tabiiy)

Asfalt-beton qoplama bir-, ikki-, uch qatlamlili bo‘lishi mumkin (17.1-rasm). HK laridan qoplama qatta miqdordagi tormoz kuchlari tushsa, ikki-, uch qatlamlili qurish kerak. Bunday uchastkalarga SUQM ning uch qismlari va RY kiradi. Asoslariga V va VI toifali me’yoriy yuklama tushsa, yuqori qatlami bitum mineral aralashmadan qurilsa, 5–7 sm qalinlikda bir qatlamlili qoplama to’shash mumkin.

Qoplamlarning yuqori qatlamlari zich asfalt-betondan quriladi. Bunda SUQM uchun chiqiq toshi ko‘p yoki o‘rtacha aralashma ishlataladi. Me’yoriy yuklamasi IV–VI toifa uchun maydalangan qumli aralashma ishlatalish mumkin. Qoplamlarning pastki qatlami zich yoki qovak asfalt-betondan quriladi. Yuqori qatlamlar ishlataladigan aralashmalar markasi, turi 17.6-jadvalda keltirilgan.

HK larning dvigateli ishga tushiriladigan joylarda qoplama yuzasida siljishlar muttasil bo'lib, deformatsiyalanish ro'y berishi tufayli o'sha joylarda (chunonchi, RY ning UQT ga tutash joylar) asfalt-beton qoplama ichiga sim to'r qo'yib, armaturalanadi. To'rlar asfalt-beton qoplamaning yuqori qatlami ostiga, uchma-uch (100–200 mm ustma-ust chiqadi) joylanadi.

Magistral RYning dvigatellar dastlab ishga tushiriladigan uchast-kasi butun eniga armaturalanadi; uzunligi 20 m qabul qilinadi. UQT ning uchidagi 150 m uchastka ham bor eniga armaturalanadi.

Guruqli TJ larning butun uzunligi, HK larning asosiy tayanchlari va dvigatellari turadigan qismi bo'ylab, shuningdek, gaz oqimi ta'sir qiladigan joylarni qamrab armaturalanadi.


Asfalt-beton qoplamlalar chaqiq tosh, saralangan mayda tosh, grunt va qum va sement aralashmasidan qurilgan mustahkam asoslar ustiga yotqiziladi. Bunda chaqiq tosh va mayda toshlar bog'lovchilar bilan aralashdirilgan ham, aralashdirilmagan ham bo'lishi mumkin. Asosning quyi qatlamlariga bo'shroq mahalliy materiallar va gruntlarni, bog'lovchiga qorib ishlatish mumkin. Yuqori qatlamiga ishlatiladigan materiallar bog'lovchi bilan aralashdiriladi.

Asfalt-beton qoplamlarning asosiy ijobiy jihatlari: mexanizatsiyadan to'la foydalanish imkoniyati; choklarning yo'qligi (ish tez bitadi); sement-beton qoplamlarga qaraganda plastiklik va tekislik HK shassisiga va g'ildiraklarga dinamik kuchlar kam tushadi); qurilish tugagach tezda ekspluatatsiyaga tushishi: changimaydi; ekspluatatsiya qarovlari va ta'mir ishlarining oddiyligi; suvni kam o'tkazish; bosqichma-bosqich qurish imkoniyati; mavjud qoplamlarni kuchaytirish uchun foydalanish imkoniyati.

Bu qoplamlarning kamchiliklari: haroratbardoshligi kam (havo issiq bo'lganda yoki reaktiv dvigatellarning gaz oqimi tegsa, yumshab, surilib, yuzasi to'lqinsimon bo'lib qoladi; qattiq sovuqda mo'rt bo'lib qoladi); aviatsiya yonilg'isi va moylar tegsa – tez yemiriladi; asosan baquvvat bo'lishi talab etiladi.

17.6-jadval

Me'yoriy yuklama toifasi	Yo'l-iqlim zonasi toifasi	Aralashma turi	Qoplama yuqori qatlami uchun asfalt-beton aralashmaning markasi va turi	
			SUQM, magistral RY	qolgan uchastkalar
I-II	I II-V	issiq iliq issiq	I-A, Б	I-A, Б, Г
III	I II-V	issiq iliq issiq	I-A, Б, Г	I, II-A, Б, В, Г I-A, Б, В, Г I, II-A, Б, В, Г
IV	I II-III IV-V	issiq iliq issiq iliq issiq iliq	I, II-A, Б, В, Г I, II-A, Б, В, Г qo'llanilmaydi I-A, Б, В, Г II-A, Б, Г qo'llanilmaydi II-A, Б, В, Г	II-A, Б, В, Г; III-Б, В II-A, Б, В, Г; III-Б, В II-A, Б, В, Г II-A, Б, В, Г III-Б, В II-A, Б, В, Г
V	I II-III IV-V	issiq iliq issiq iliq sovusq issiq iliq sovusq	III-Б, В II-A, Б, В, Г II-A, Б, В, Г III-Б, В II-A, Б, В, Г qo'llanilmaydi II-A, Б, В, Г III, Б, В II-A, Б, В, Г qo'llanilmaydi	III-Б, В, Д III-Б, В III-Б, В, Д II, Б, В I-Б <sub>x</sub> , В <sub>x</sub> , Д <sub>x</sub> II-, Б, В II-Б, III-Б, В I-Б <sub>x</sub> , В <sub>x</sub> , Д <sub>x</sub>
VI	I II-III IV-V	issiq iliq issiq iliq совуқ issiq iliq sovusq	III, Б, В qo'llanilmaydi III-Б, В II, Б, III-Б, В qo'llanilmaydi	IV-Б, В, Д I, II-Б <sub>x</sub> , В <sub>x</sub> , Д <sub>x</sub> IV-Б, В, Д I, II-Б <sub>x</sub> , В <sub>x</sub> , Д <sub>x</sub>



**17.1-rasm. Asfalt-beton qoplamalar konstruktsiyasi:**

1 – ikki qatlamli asfalt-beton; 2 – chaqiq tosh; 3 – qum; 4 – bir qatlamli asfalt-beton; 5 – sement-beton; 6 – grunt; 7 – qora chaqiq tosh; 8 – grunt va mayda tosh aralashmasi; 9 – qora mayda tosh yoki grunt va mayda tosh aralashmasi (bitumga qorilgan).

### **17.3. Shimdirish usuli bilan quriladigan chaqiq toshli qoplamalar**


Bunday qoplamalarning mustahkamligi, suvgaga chidamliligi yuqori, changimaydi. Chaqiq toshli qoplamalar qatlama-qatlama qilib, toza, quruq va mustahkamligi bir xil, saralangan chaqiq toshlardan quriladi (17.2-rasm). Chaqiq toshning elastiklik moduli 450 MPa gacha bo‘lishi mumkin. Har gal chaqiq tosh yoyilgandan so‘ng ular zichlanib, ustidan bitum quyiladi. Bitum oralarga kirib, turg‘un va uzoq vaqt xizmat qiladigan qatlama hosil qiladi. Qoplamaning vazifasiga qarab, shmdirish chuqur (6,5–8,0 sm) yoki engil (4–6 sm) bo‘lishi mumkin. Birinchisida eng katta o‘lchami 65–70 mm bo‘lgan, 3–4 fraktsiyali chaqiq tosh ishlataladi; ikkinchisida eng katta o‘lchami 30–40 mm bo‘lgan, 2–3 fraktsiyali chaqiq tosh ishlataladi. Shimdirish uchun nefli yopishqoq bitumlar БНД 130/200, БНД 90/130, yopishqoq slanetsli bitumlar БС-1, toshko‘mir qatron Д-6 qo‘llanadi. Fraktsiyalarning tavsiya etilgan o‘lchamlari, tosh materiallar sarfi, bog‘lovchini quyish me’yori 17.7-jadvalda berilgan.

Chaqiq toshli qoplamalar sun’iy asoslar ustiga quriladi; sun’iy asos esa chaqiq tosh, grunt va chaqiq tosh yoki grunt va mayda tosh aralashmasi, barqarorlashtirilgan gruntu dan quriladi. Grunt va chaqiq tosh, grunt va mayda toshli asoslar qora bog‘lovchi

material bilan yotqiziladigan joyida aralashtiriladi. Qora qoplama uchun avval chaqiq tosh sepilib, ustidan engilgina zichlab o'tiladi. Keyin ustidan bitum quyiladi. Unday zichlash uchun vazni 5–6 t li yengil g'altaklar ishlatiladi, ketidan 8–10 t li qaltak yurgiziladi. g'altaklar 1,5–2,5 km/soat tezlikda yurgiziladi. Yengil g'altaklar bir iz bo'ylab 2–5 marta yuradi. Og'ir g'altaklar chaqiq toshlar mustahkam o'rashib olmaguncha yurgizilaveradi, bu ishlar ko'pincha, 4–5 martagacha amalga oshiriladi.

Ish yakunida qoplama yuzasiga bitum yoki qatron quyiladi, tosh ushoqlari sepiladi va bir necha marta qaltak yurgizib zichlanadi.

Natijada 0,5–1,5 sm qalinlikda «gilam» hosil boladi, u qoplama ning suv o'tkazmaslik xususiyatni yaxshilaydi, transport vositalari harakatiga qarshilikni kamaytiradi, qoplamani yeyilishdan saqlaydi. Yuzaga ishlov berishda ishlatiladigan bog'lovchilar markasi 17.8-jadvalda berilgan.



17.2-rasm. Chaqiq toshlarning joylashishi:

*P* – chaqiq toshga tushadigan bosim; *R* – raspor kuchi; *T* – ishqalanish kuchi;  
*1* – maydarroq chaqiq tosh; *2* – yirik chaqiq tosh; *3* – bitum.

Qoplama turı	Chaqiq toshni sepish sonı	Sochish va quyish tartibi				Yuzaga ishlov	Materiallar sarfi
		I	II	III	IV		
<i>Chugur</i> , 6,5–8,0 sm (qoplamlar uchun) Fraksiyalar o'lchami, mm sarfi: chaqiq tosh, m <sup>3</sup> /100 m <sup>2</sup> bog'lovchi, l/m <sup>2</sup>	4	40–70	25–40	15–25	3–15	3–5	—
<i>Chugur</i> , 6,5–8,0 sm Fraksiyalar o'lchami, mm sarfi: chaqiq tosh, m <sup>3</sup> /100 m <sup>2</sup> bog'lovchi, l/m <sup>2</sup>	3	4,5–6,0 3,0–4,0	3,0–4,0 2,5–3,0	1,0–1,1 2,0–2,5	0,9–1,1 1,5–2,0	0,8–1,2 —	10,2–13,4 9,0–11,5
<i>Engil</i> , 4–6 cm Fraksiya o'lchami, mm sarfi: chaqiq tosh, m <sup>3</sup> /100 m <sup>2</sup> bog'lovchi, l/m <sup>2</sup>	2	25–65	15–25	3(5)–15	—	3–5	—
<i>Engil</i> , 4–6 cm Fraksiya o'lchami, mm sarfi: chaqiq tosh, m <sup>3</sup> /100 m <sup>2</sup> bog'lovchi, l/m <sup>2</sup>	—	7,5–10,0 5,0–7,0	1,0–1,1 2,0–2,5	0,9–1,1 1,5–2,0	—	0,8–1,2 —	10,2–13,4 8,5–11,5

*Izoh:* Materiallar sarfi me'yortari: kichig'i 6 va 4 sm ga shimdirish uchun, kattasi – 8 va 6,5 sm uchun.

Tosh, materiallar	Bitum			Tosh-ko'mir bitum
	neftli, qovushqoq	neftli, suyuq	slanesli, suyuq va qovushqoq	
Tosh maydalari (0–5 mm)	–	Ст 40/70, МГ 10/70	С-4, БС-0	Д-4
Tosh maydalari va qirrali toshlar (5–15 va 12–25 mm)	БНД 200/300 БНД 130/200	СГ 70/130 СГ 130/200, МГ 130/200	С-5 С-6	Д-5 Д-6

#### 17.4. Mayda va chaqiq toshlarni aralashtirish usuli bilan qurilgan qoplamlalar

Bunday qoplamlalar suvga bardoshli. Zich, elastik va II–V yo'l-iqlim zonalarida HK lari yil bo'yli ishlashi mumkin. Mineral material sifatida mahalliy konlarning mayda va chaqiq toshlari ishlatiladi. Bo'shroq chaqiq tosh ishlatiladi; mustahkamlari shimdirish usuli bilan quriladigan qoplamlarda ishlatiladi. Mayda va chaqiq toshlar aralashmasini eng ko'p zichlanish tamoyili bilan tanlanadi. Aralashmada maydalangan toshlardan qolgan changsimon va tuproq zarralari ma'lum miqdorda bo'ladi. Mayda va chaqiq tosh aralashmasi mexanik mustahkamlik va suvga bardoshlikni ta'minlaydigan nisbatda tanlanadi.


Qora mayda va chaqiq toshli qoplamlalar bir va ikki qatlamlı bo'ladi (17.3-rasm). Bir qatlamlisi faqat V yo'l-iqlim zonasidagi aerodromda qo'llanadi. Ikki qatlamlining qoplamlarning pastki qatlamiga qora mayda va chaqiq toshli aralashma, bog'lovchiga qormasdan ishlatiladi. Qoplamlar qalinligi HK ning massasiga, tagiga yoyiladigan gruntning mexanik tavsiflariga bog'liq bo'lib, o'rta hisobda 10–40 sm bo'ladi.

Qoplamaning hisobiy qalinligi 15 sm dan ortiq bo'lsa, ikki qatlam qilib quriladi. Bunda yuqori qatlam kamida 5 sm bo'lishi kerak. U suv o'tkazmasligi va turg'un bo'lishi uchun yuzasiga maxsus ishlov beriladi.

Qoplamlar tabiiy grunt asos ustiga quriladi. Asos avval kerakli zichlikkacha shibbalanadi. Zichligi laboratoriyada standart zichlash usuli bilan aniqlangan miqdorning kamida 95% iga teng bo'lishi kerak.

HK laridan jadal yuklamalar tushadigan uchastkalarning mustahkamligi va xizmat muddatini oshirish uchun (start uchastkasi, UQT ga RY lar tutashgan joylar, HK yerdan uziladigan joylar) qoplama shimdirish usuli bilan yoki aralashmaga sement yoki so'ndirilmagan ohak qo'shib quriladi. Sement yoki ohak miqdori mineral qismning 2–3% ni tashkil qiladi.

Qora qoplama qurish uchun mayda va chaqiq tosh optimal aralashmasining taxminiy tarkibi 17.9-jadvalda berilgan.



**17.3-rasm. Mayda va chaqiq toshlardan, aralashtirish usuli bilan qurilgan qoplama tuzilishi:**

1 – yuzaga berilgan ishlov; 2 – bog'lovchi bilan ishlangan qatlam,  
3 – bog'lovchisi yo'q qatlam.

**17.9-jadval**

Aralashma	Elak teshiklari quyidagicha (mm) bo'lganda, elakdan o'tgan zarralar miqdori, massadan %											
	50	40	25	15	5	2	1	0,5	0,25	0,15	0,07	0,005
Yirik zarrali	—	100	85	70	43	28	22	15	10	8	7	7
	—	—	95	85	65	52	43	35	28	25	20	18
O'rtacha zarrali	—	—	100	80	50	33	25	18	13	10	8	8
	—	—	—	95	85	70	55	40	35	28	23	21
Mayda zarrali	—	—	—	100	63	40	30	22	15	12	10	10
	—	—	—	—	90	75	60	45	36	30	25	22
Gruntli	—	—	—	—	—	100	70	48	32	24	16	13
	—	—	—	—	—	—	85	70	60	50	40	36
Yirik zarrali	100	—	75	60	35	25	—	—	10	—	5	4
	100	—	55	30	—	—	—	—	—	—	—	—
	—	100	80	57	30	15	10	5	3	1	—	—
	—	—	85	80	60	50	—	—	30	—	18	17
	—	—	85	70	43	28	22	15	10	8	7	7
	—	—	75	60	35	25	—	—	10	—	5	4
	—	—	100	70	35	18	12	6	4	2	—	—
O'rta zarrali	—	—	—	80	50	33	25	18	13	10	8	8
	—	—	—	100	50	25	15	10	5	2	—	—
Mayda zarrali	—	—	—	100	50	25	15	10	5	2	—	—
	—	—	—	—	63	40	30	22	15	12	10	10

Izoh: Grunt va mayda tosh aralashmalarida 0,005 mm dan mayda zarralar (tuproq) miqdori: yuqori qatlamda ko'pi bilan 3%, pastki qatlamda 5%.

Joyida aralashtirish usuli bilan quriladigan qoplamlalarga suyuq bitum ishlatalishi mumkin (17.10-jadval).

17.10-jadval

Aralashma tayyorlash uculi	Bitumlar			Toshko'mir qatron
	neftli, qovushqoq	neftli, suyuq	slanetsli, suyuq va qovuchqoq	
Joyida aralashtirish	–	СГ 15/25 СГ 25/40 МГ 25/40 СГ 40/70	С-3 С-4 С-5 –	Д-3 Д-4 –
Mineral material-larni qizdirmasdan uskuna ichida aralashtirish	–	СГ 25/45 СГ 40/70 МГ 25/40 СГ 40/70	С-4 С-5 – –	Д-4 Д-5 – –
Mineral materiallarni qizdirib: iliq	БНД 200/300 БНД 130/200 БНД 90/130 БНД 60/90 БНД 40/60 –	СГ 130/200 МГ 130/200 – – – –	С-5 БС-0 БС-I БС-II БС-III БС-III	Д-5 – Д-7 Д-8 – –
sovuq	–	СГ 40/70 СГ 70/130 МГ 40/70 МГ 70/130	С-6 – – –	– Д-5 – –

Bitum markasi aerodrom qurilayotgan hududga qarab tanlanadi. Issiq iqlimda qovushqoqligi yuqori bitumlar, yog'in-sochin ko'p bo'ladigan joylarda – qoplaman ni tez shakllantiradigan va monolit qiladigan suyuq bitumlar, slanetsli bitumlar ishlatiladi. Bitumlar sarfi mineral materiallar massasining 4–7% ni tashkil etadi. Mineral materiallarning namligi optimal bo'lsa, qoplamaning sifati yuqori bo'ladi. Namligi yetarli bo'lmasa, qoplamaning qovushqoqligi past bo'lib, tez yemiriladi; namlik ortiqcha bo'lsa, zichlash jarayonida to'lqinlar va darzlar hosil bo'ladi; mineral materiallarning tavsiya etiladigan namligi 3–5%.

Suyuq bitumga qorilgan mayda va chaqiq tosh aralashmalari mustahkamligi va suvga bardoshligi jiqtidan quyidagi talablarga javob berishi kerak

Siqilganda mustahkamlik chegarasi, MPa, 50°C da, ..... kamida 0,5  
Siqilganda mustahkamlik chegarasi, MPa, 20°C da, ..... kamida 0,5–0,8  
Siqilganda mustahkamlik chegarasi, MPa, 20°C da,  
suvga to'yingan holda, ..... kamida 0,5  
Massa bo'yicha suvga to'yinganlik, %, ..... ko'pi bilan 3  
Hajm bo'yicha ko'pchish %, ..... ko'pi bilan 3

Mayda va chaqiq toshlarni qurilish joyida aralashtirish uchun statsionar va ko'chma uskunalar ishlatiladi. Buning uchun diskli borona, kultivator, avtogreyder va yo'l frezalaridan foydalanish mumkin.

Qora qoplomalarni kun issiq paytlarda qurib, shunday tugatish kerakki, havo harorati +10°C dan kam bo'lmay turib 20–30 sutkada shakllansin va yog'ingarchilikka qolmasin. Shunda bitum bir xil tarqalib, qoplama bir xil va mustahkam bo'ladi.

## 17.5. Oddiy qoplamlalar

Oddiy qoplamlalar – mahalliy gruntni mustahkamlash yo‘li bilan quriladi. Grunt zichlanadi, suvgaga bardoshli bo‘ladi, changimaydi va IV–V yo‘l-iqlim zonalaridagi aerodromlarda HK ni ishlatishga yaroqli holga keladi.

Aerodrom qurilishi amaliyotida mahalliy gruntga begona gruntlar, mayda yoki chaqiq tosh qo‘sib, mahalliy gruntning donadorligini optimal holga keltirib, bitum, qatron, sement, ohak kabi materiallar qo‘sib qoplama tayyorlash tajribasi ham bor. Mahalliy gruntning donadorlik tarkibi yetarli bo‘lmasa yoki qum, chang, tuproq fraktsiyalar ko‘p bo‘lsa, boshqa grunt qo‘sib mustahkamlanadi. Chang va tuproq unsurlar juda kam bo‘lsa, grunt quruq holatida yopishmaydi, juda ko‘p bo‘lsa, sal nam tortsa, plastik deformatsiyalanishi kuchayib ketadi. Ikkala holatda ham grunt tashqi yuklamalarga qarshilik qilolmaydi, uchish maydonidan foydalanish sharoitlari yomonlashadi.

Namlanish sharoitlari o‘zgaruvchan bo‘lsa, donadorligi optimal bo‘lgan gruntli aralashmalar yuklamalarga qarshilik qilish xususiyatini yo‘qotmaydi. Optimal aralashma hosil qilish uchun og‘ir qumoq, changsimon va tuproqli mahalliy gruntga qumli yoki mayda toshli materiallar, changsimon va qumli mahalliy gruntga qumoq materiallar qo‘shiladi. Namgarchiligi ko‘p hududlardagi mahalliy gruntga qum va mayda tosh zarralari aralashtirilib, grunt barqaror qilinadi.

Gruntli aralashmalarning optimal tarkibi 17.11-jadvalda berilgan.

17.11-jadval

Aralash- ma raqami	Elak teshiklari quyidagicha bo‘lganda, mm, elakdan o‘tgan zarralar soni, massadan %						
	40	20	10	5	2,5	0,63	0,05
1	100	60–80	45–65	30–55	15–35	15–35	7–20
2	–	80–95	65–90	50–75	35–65	20–45	8–25
3	–	–	90–100	70–85	25–55	25–55	8–25

Aerodrom qoplamlariga ishlataladigan optimal gruntli aralash-malarga suyuq bitum, qatron va sement bilan ishlov beriladi. Bunday qilinmasa, qoplama yuzasidan o't o'sib ketadi. Bitum va qatron gruntni mustahkam va suvga chidamli qiladi. Qoplama qurishda ikki usul qo'llaniladi: sovuq va issiq. Sovuq usulda faqat bog'lovchilar 80–90°C gacha; issiq usulda 120–150°C gacha isitiladi. Bog'lovchi va grunt asfalt qorishtirgichda aralashtiriladi.

Aerodromlarda bitum yoki qatron bilan mustahkamlangan mahalliy gruntdan oddiy qoplama quriladi (17.12-jadval).

Plastiklik soni 3–17 bo'lgan gruntlar ishlatilishi mumkin; 12 dan yuqori bo'lsa, ko'proq bitum qo'shiladi. Plastikligi 3 dan kam qum va qumloq gruntlardan qoplamaning ostki qatlami uchun foydalanish mumkin. Sho'rxok gruntlar ishlatish tavsya etilmaydi.

Gruntlarni mustahkamlash uchun suyuq bitum me'yorlari 17.13-jadvalda berilgan.

Qoplamaning eng ko'p ishlatiladigan uchastkalarining mustahkamligi va tuproqligini oshirish uchun mineral qism massasining 3–4% miqdorida sement yoki so'ndirilmagan ohak qo'shiladi (plastiklik soni 7–12 bo'lgan qumoq tuproq uchun).

Gruntga sement bilan ishlov berilganda, mustahkam va suvga bardoshli karkas hosil bo'ladi. Bunday ishlov bitumli ishlovga qaraganda ancha mustahkam bo'ladi. Sement gruntning elastiklik moduli 160 MPa gacha yetadi, bitum bilan ishlov berilgan grunt-niki – 80 MPa dan oshmaydi. Sement-gruntli qoplamlarni ob-havo noqulay sharoitlarda qo'llash mumkin. Bu qoplama qora gruntli qoplama qaraganda kam xarajat talab qiladi, faqat yedirilishga qarshiligi sustroq. Shuning uchun yuzasiga maxsus ishlov beriladi yoki organik bog'lovchili materialdan qatlam beriladi. Bu qoplamlardan III–V yo'l-iqlim zonalarida quriladigan aerodromlarda foydalanish ma'qul; asfalt-beton va qora chaqiq toshli qoplamlar asosiga ham ishlatish mumkin.


Sement bilan ishlov berish uchun optimal, tarkibli gruntlar, ularga yaqin engil qumoq va qumloq tuproqlar mos keladi. Tuproqli va qumoq tuproqli gruntlarning maydalanishi va sement bilan aralashishi qiyin, ko‘p sement talab qiladi. Qumli gruntlar sement bilan ishlovdan keyin ham g‘ovak bo‘lib qoladi, mustahkamligi kamayadi.

Grunt ichida chirindilar bo‘lsa, sement bilan mustahkamlash tavsiya etilmaydi, ular qoplamaning mustahkamligi va suvga bardoshliligini ta’minlamaydi. Shuningdek, torfli, botqoqli gruntlar, tarkibida 10% gumus, 4% tuz (suvda eriydigan) va kislotali gruntlar ham sement bilan mustahkamlashga yaramaydi.

Sement gruntli qoplamlalar bir va ikki qatlamlili bo‘ladi (17.4-rasm). Bir qatlamlisi hisoblanadi, uning qalinligi 15 sm dan kam bo‘lmasligi kerak; ikki qatlamlisi 30–35 sm bo‘ladi; markasi 400 dan kam bo‘lmagan portlandsementdan quriladi; asoslar uchun markasini 33 gacha tushirish mumkin; 1 m<sup>3</sup> sement-gruntga sement sarfi taxminan 175–250 kg.

#### *17.12-jadval*

Ishlov berish usuli	Qoplama turi
Zichlangan grunt yuzasiga suyuq bitum yoki qatron qo‘yish	Gruntli, changimaydigan
Gruntli UT da yumshatilgan gruntga suyuq bitum, qatronni freza, grayder va boshqa mashinalar yordamida aralashtirish, yoyish va zichlash	Gruntli, vaqtinchalik joyida ishlov berilgan
Gruntni, qizdirmasdan uskuna ichida suyuq bitum yoki qatron bilan aralashtirish, yoyish, tekislash, zichlash	Uskuna ichida aralashtirilgan vaqtinchalik yoki gruntli kapital qoplama



#### 17.4-rasm. Cement-gruntli qoplamaning tuzilishi:

1 – yuzaga berilgan ishlov; 2 – cement-grunt; 3 – zichlangan grunt;  
4 – ko‘p sementli cement-grunt; 5 – asfalt-beton.

#### 17.13-jadval

Grunt	Namlik, grunt massasidan %	Suyuq bitum sarfi (suvsizlantirilgan)	
		massadan %	zich jismdag aralashma, kg/sm <sup>3</sup>
Plastiklik soni 3–7 bo‘lgan aralashma	4–7	5–8	100–155
Plastiklik soni quyidagicha bo‘lgan kumoq tuproq:			
7–12	6–10	8–1	155–200
12–17	8–10	12–14	200–250

Sement-gruntli qoplamlar mustahkamligi va suvgaga bardoshligi bilan quyidagi talablarga javob berishi kerak:

28 sutkalik suvgaga to‘yingan silindr namuna ( $D=5$  sm,  $H=5,1$  sm) larning siqilishdagi mustahkamlik chegarasi, qoplamlar uchun kamida 3 MPa, asoslar uchun – kamida 2 MPa. Bu namunalar va xuddi shunday, lekin quruq namunalar mustahkamliklariga (siqilishdagi) nisbati 0,4–0,6 dan, birinchisining deformatsiya moduli 15–10 dan kam bo‘imasligi kerak.

Qoplama qurishda sement bilan bir qatorda ohak ham ishlatish mumkin. Bunda gruntning mustahkamligi kamroq bo‘ladi, biroq gruntga qo‘yiladigan talablar o‘sha-o’sha qoladi. Ohak odamning nafas yo’llariga salbiy ta’sir etadi, shuning uchun xavfsizlik texnikasiga rioya qilish lozim.


Aerodromlarning oddiy qoplamlarini yuqori sifat bilan qurish lozim. Shuning uchun grunt, optimal aralashmalar, ularning nisbati, aralashtirish tartibi, namligi doim nazorat qilinishi lozim. Materiallarning sifati laboratoriyada tekshiriladi.

## **17.6. Mustahkamligi kam toshlar va sanoatning yordamchi mahsulotlaridan qoplama qurish**

Mustahkam tosh materiallar zaxirasi yo‘q hududlarda aerodrom qoplamlarini arzon qurish yo‘llaridan biri – mustahkamligi kam bo‘lsa ham mahalliy materiallar va sanoatning ikkilamchi mahsulotlaridan foydalanishdir. Shunda uzoq-uzoqlardan mustahkam materiallar tashib keltirishga zarurat qolmaydi.

Mustahkamligi kam tosh materiallarga quyidagilar kiradi: yumshoq ohaktoshlar va qumtoshlar, g‘isht sinqlari, uvalangan toq jinslari (dresvo, jerstva), chig‘anoqlar va h.k. Bunday materiallarning siqishdagि mustahkamligi 10–15 MPa bo‘ladi; suvga, sovuqqa chidamliligi juda past. Ulardan foydalanishda, asosan, namlanishdan saqlashga e’tibor qaratish kerak. Buning uchun bu materiallarga organik bog‘lovchilar bilan ishlov beriladi, shunda ularning mustahkamligi va yejilishga chidamliligi ham biroz oshadi.

Qoplama qurishda, agar yengil tabiiy grunt bo‘lsa, uning ustiga tosh materiallar yotqiziladi. Agar grunt asos og‘ir gruntlar (qumoq, gil) dan tashkil topgan bo‘lsa, qum va chaqiq toshdan drenajlovchi qatlama quriladi, chunki bunday asos qoplamanadan o‘tgan suvni o‘zida tutib qoladi va yuk ko‘tarish qobiliyati pasayadi. Tosh materiallar qoplasmaga qavat-qavat qo‘yiladi; pastki qatlamlarga bo‘sdroq toshlar, yuqoriga – mustahkamrog‘idan. Tosh materiallarga organik material bilan ishlov beriladi; ular toshning g‘ovaklariga singib, suvga bardoshlilik xususiyatini beradi.



**17.5-rasm. Mustahkamligi kamroq tosh materiallardan qoplamlar:**

1 – himoya qatlami; 2 – mustahkam jinslardan chaqiq tosh; 3 – mustahkamligi kam chaqiq tosh; 4 – «ko‘rpacha» grunt; 4 – qoplama ostidagi grunt; 5 – mustahkamligi kam chaqiq tosh, organik bog‘lovchilar shimdirligani.

Qoplamaning yuzasiga yeyilishga chidamli qatlam yotqiziladi, qalinligi 3–4 sm, materialiga pishiq jinsli toshga grunt aralashtirib, bitum yoki qatrunga qorib ishlatiladi. Bo‘sh toshlardan qurilgan qoplamlalar tuzilishlari 17.5-rasmida berilgan.

Sanoatning yordamchi mahsulotlariga quyidagilar kiradi: metallurgiya va yoqilg‘i shlaklari; toshko‘mir ishlanmalaridan chiqqan tosh jinslari; tog‘-kon sanoatining chiqindilari.

Metallurgiya shlaklari metall eritishda hosil bo‘ladi; eng ko‘p tarqalgani domna pechlardan chiqadigan shlaklar. Ular toshga o‘xshash, goh zich, goh qovak, kattaligi 5–40 mm bo‘ladi; shlak qumi va 5 mm dan kichik kukunlari ham bo‘ladi. Shlak bo‘lagining mustahkamligi 15–60 MPa, g‘ovaklisiniki – 5–15 MPa. Yoqilg‘i shlaklari toshko‘mir, qo‘ng‘ir ko‘mirni qozonxonalarda, parovoz o‘txonalarida yoqishdan hosil bo‘ladi.

Toshko‘mir shaxtalarining kuygan jinslari otvalga chiqarilgan jinslar ichidagi ko‘mir qoldiqlari o‘z-o‘zidan yonishi natijasida hosil bo‘ladi. Aerodrom qoplamlari uchun eng yaxshisi tarkibida tuproqli slanetslar, yaxshi kuygan yirik va o‘rtacha qumtoshlari bor otval hisoblanadi. Ozgina kuygan tuproqli slanetslar nam tegishi bilan ivib qoladi va mustahkamligi yo‘qoladi, aerodrom qoplamasiga yaramaydi.


Qoplama qurishda 60–100 mm o‘lchamli shlak bo‘laklari tabiiy grunt ustiga tashlanadi, ustidan 30–60 mm shlak chaqirlari tashlandi. Shlak chaqirlariga bog‘lovchi material shimdirib ishlatgan ma’qlul. Uzoq muddat ishlashini ta’minlash uchun qoplama yuzasiga maxsus ishlov beriladi yoki asfalt-beton qatlama qilinadi.

Yoqilg‘i shlaklarini 18–25 sm qalinlikda, chaqiq toshli qatlama ostiga yotqiziladi.

Toshko‘mir shaxtalarining yongan jinslari asfalt-beton qoplamlarning tosh qatlamiga, doim namlanib qolmaydigan, quruq joylariga to‘shaladi. Sanoatning yordamchi mahsulotlaridan qurilgan qoplama namunalari 17.6-rasmida berilgan. Keyingi yillarda qoplama qurishda TES larda toshko‘mir va qo‘ng‘ir ko‘mir yoqishdan qolgan kullarni ishlatish odad bo‘ldi. Uning ko‘rinishi to‘q kulrang, o‘zi yumshoq kukun. Bu kullardan, ohak yoki sement bilan birga gruntni mustahkamlashda ham foydalaniлади. Kulning tarkibi va xususiyatlari 17.14-jadvaldagи ma’lumotlarga mos kelishi kerak.

#### 17.14-jadval

Ko‘rsatkichlar	Kul		
	Mustaqil, sekin qotadigan bog‘lovchi	Aralashgan bog‘lovchining faol komponenti	
	bog‘lovchi	cement bilan	ohak bilan
Erkin qalsiy oksid miqdori, %	≥ 8	≥ 4	—
Solishtirma yuza, $\text{sm}^2/\text{g}$	≥ 3000	≥ 3000	≥ 3000
Oltingugurtli va oltingugurt kislotali birikmalar miqdori, %	≤ 6	≤ 3	—
Qizdirganda massa yo‘qolishi, %	≤ 5	≤ 10	≤ 10



**17.6-rasm. Sanoatning yordamchi mahsulotlaridan qoplama qurish:**

1 – yuzaga berilgan ishlov; 2 – shlak chaqiqlar; 30–60 mm; 3 – shlak bo'laklari (100–150 mm); 4 – qoplama ostidagi grunt; 5 – shlak chaqiqlar, 60–100 mm; 6 – asfalt-beton; 7 – shimdirish yo'li bilan ishlangan shlak chaqiqlar.

Kul ishlatib gruntlarni mustahkamlashda aralashma tarkibi mavjud talablarga mos qilib tanlanadi. Kul ohak yoki sementga faol qo'shimcha sifatida ishlatiladi va ulardan qumli, mayda va chaqiq toshli, tuproq (chang) zarralari yo'q aralashmalarni mustahkamlashda foydalaniladi. Optimal tarkibdagisi aralashma laboratoriya sharoitida yaratiladi.

Kul sarfi grunt turiga qarab, grunt massasidan 15–25%, sement sarfi – 4–12% bo'lishi mumkin.

### **17.7. Aerodromlarni qayta qurishda mavjud bikir bo'lmagan qoplamlarini kuchaytirish**

Bikir bo'lmagan qoplamlar bikir yoki bikir bo'lmagan qoplamlar bilan kuchaytiriladi. Bikir bo'lmagan kuchaytiruvchi qatlama sifatida asfalt-beton, chaqiq toshli, grunt va chaqiq toshli, grunt va mayda toshli (qammasi bog'lovchi material bilan ishlangan) qoplamlar qo'llaniladi. Ularni qurishda oddiy qoplamlardagi kabi tartib-tamoyilarga rioya qilinadi. Mavjud qoplama yuzasidagi notekisliklar 2 sm dan ortiq bo'lsa, kuchaytiruvchi materialdan tekislovchi qatlama quriladi. Uning yuzasiga suyuq bitum yoki qatron beriladi ( $0,2\text{--}0,3 \text{ kg/m}^2$ ), natijada mavjud qoplama kuchaytiruvchi qatlama bilan birikib ketadi. Bikir qoplama bilan kuchaytirishda har qanday turdag'i qoplama qilinadi. Bunday kuchaytirish ajratuvchi qatlama bo'ylab bajariladi; zarur bo'lsa (mavjud qatlama yuzasida chuqurchalar, pog'onalar 2 sm dan katta notekisliklar

bo‘lsa) tekislovchi qatlam quriladi. Uni qum-sement (sement bilan ishlov berilgan bikir bo‘lmasan qoplamlarda) yoki qumli asfaltbetondan (bikir bo‘lmasan qoplamlarda) quriladi.

Ajratuvchi qatlam ikki qavat pergaminidan yoki qalinligi 1 sm qum-bitum «gilamcha»dan iborat bo‘ladi. Bunday qatlam yig‘ma qoplamlarni kuchaytirishda qo‘llanmaydi, chunki zavod sharoitida tayyorlangan plitalarning yuzasiga yuqori sifatli ishlov berilgan bo‘ladi.

## **18-bob. GRUNTLI UCHISH TASMALARI**

---

### **18.1. Gruntli uchish tasmalariga talablar**

Gruntli uchish tasmasi aerodromning uchish maydoni uchastkasi bo'lib, HK ning ko'tarilishi va qo'nishi uchun mo'ljallanadi. Bunda UT ning joylashuvi qattiq qoplamasi SUQM ning joyi kabi qat'iy emas va uchish maydoni bo'ylab, aerodromning shakli va o'lchamlariga qarab, shuningdek, deformatsiyalar paydo bo'lishiga qarab surilishi mumkin. UT ni vaqtı-vaqtı bilan boshqa yoqqa surish g'ildirak izlarini yo'qotish va reaktiv dvigatellar ta'sirida kuygan chim qoplamani tiklash uchun ham kerak.

Gruntli UT chim qoplamali bo'lishi kerak. Biroq zich chim qatlami hosil qilish uchun bir necha yil kerak, shu sababdan muvaqqat aerodromlarda yangina qurilgan, yalanqoch grunt yuzadan uchishga to'g'ri keladi.

HK lari muntazam uchib-qo'nib turadigan gruntli UT ga quyidagi talablar qo'yiladi:

- tekis yuza, do'ngalaksiz, chuqurchalar, g'ildirak izlari yo'q bo'lishi;
- g'ildirak izlari tushmasdan, tushsa ham juda oz, ruxsat etiladigan va tezkor ta'mir qilsa bo'ladigan darajada bo'lishini ta'minlaydigan mustahkamlik;
- uchish maydon hududidagi grunting deformatsiyalanishga bir xil qarshilik qilishi (buning uchun grunt og'ir g'altaklar bilan zichlanadi, tekislikda past-baland joylar qoldirilmaydi);
- chang va loysiz bo'lishi (aks holda dvigatelga so'rilib tez yejilishga sabab bo'ladi).

Gruntli tasmalarning foydalanish xususiyatlari havo sharoitlariga qarab, yil davomida o'zgarib turadi. Qurqoqchilik paytida gruntli

UT ancha mustahkam bo'ladi. Qumoq tuproqli grunt yuzasi tekis bo'lganda har qanday HK ni ishlatish mumkin. Chang hosil bo'lishi kuchaysa, foydalanish qiyinlashadi.

Bahor va kuz oylarida uchish maydonining grunti ivib ketib, g'ildiraklarga yetarlicha qarshilik qilolmaydi. HK lari chuqur izlar qoldiradi, bu esa harakatga katta qarshilik ko'rsatadi. Bu davr «yo'lsizlik vaqtি» deyiladi, shassi konstruksiyasi shunga moslangan HK larigina harakatlana oladi.


Rossiyaning o'rta mintaqalarida bahor va kuz davri yo'lsizligi keskin bilinadi, goho yozda qam, yog'ingarchilik bo'lsa, bilinadi. Ukraina Janubi, O'rta Osiyoda qish vaqtida ham kunlar ilib, gruntuning muzlash chuqurligi yuza bo'lgani uchun kuzgi yo'lsizlik bahorgisiga ulanib ketishi mumkin.

UT gruntuning qurishi gruntuning donadorligiga, relyefga, zichligiga ham bog'liq. Nishabligi kattaroq uchastkalarda suv gruntu kam shimaladi. Bundan tashqari, gruntu qancha kuchli shibalangan bo'lsa ham suv kamroq singiydi, kapillarlar orqali pastdan tepaga ko'tarilish ham kuchsiz bo'ladi.

Yumshoq va og'ir g'altaklar bilan zichlanmagan gruntu tez ivib ketadi, unda HK yurolmaydi, yursa ham chuqur iz qoldiradi.

Gruntli aerodromlardan kuzgi va bahorgi yo'lsizlik davrida foydalanish to'xtatilgani ma'qul. Muzlagan gruntu eriy boshlaganidan bahorgi yo'lsizlik boshlanadi, tugashi esa, aerodrom atroflarida bahorgi shudgor ishlari boshlanishiga to'g'ri keladi. Aerodromlarni ekspluatatsiya qilish sharoitlari bahorda kuzdagiga qaraganda ancha yomon. Bahorda gruntu avval boshdanoq suvgaga to'yingan bo'ladi; butun qish mavsumi qor ostida yotadi, bahorda eriydi, suvlari esa kapillarlar bo'ylab tepaga ko'tarilaveradi. Yer yuzasi suvlar gruntuning tubiga o'tib ketishiga muzlagan qatlama xalaqit beradi.

18.1-rasmida Rossiya Evropa qismining markaziy mintaqasidagi bir aerodromda, bir necha yil davomida o'tkazilgan kuzatishlar asosida gruntuning HK g'ildiragi tebranishiga qarshiliklari grafik tarzida keltirilgan.



18.1-rasm. Uchish maydonining bir uchastkasida grunt holati va g'ildirak harakatiga qarshilikning o'zgarishlari (bir necha yil kuzatuv natijalari):


1 – muzlagan holat; 2 – oquvchan; 3 – yumshoq; 4 – qattiqroq.

Gruntli aerodromlarda HK ni ekspluatatsiya qilish sharoitlarini yaxshilash uchun yengil turdag'i qoplamlar qurish yoki chim qatlama hosil qilish kerak.

## 18.2. Uchish maydonining gruntli yuzasida chim qoplama

Chim – yer yuzasida tabiiy tarzda yoki uruqlar sephis natijasida hosil qilingan, past o'sadigan, quyuq o't qoplamasidir; o'tlarning il-dizlari yer yuzasiga yaqin qatlamda zinch to'rlar hosil qilib, gruntga armatura vazifasini bajaradi (18.2-rasm).

Chim uchish maydonining ekspluatatsiya xususiyatlarini yaxshilaydi: changish kamayadi, loy bo'lmaydi, suv yuvib ketmaydi, HK yoki avtomobil yurganda juda chuqr izlar qolmaydi. Chimli uchish maydonlaridan, havo quruq paytlarda, yomg'ir ko'p yog'magandan keyin, mahalliy havo yo'llarida qatnaydigan, maxsus samolyotlar (qishloq xo'jaligi, tez yordam) uchishi mumkin.



**18.2-rasm. Chim qoplama sxemasi:**  
1 – o’tlar; 2 – chim patak; 3 – chim qatlam; 4 – chim asosi.

Chimzor quyidagilardan iborat: maysa (yer yuzidagi o’t), chimpatak (chirmashib ketgan ildizlar, 10 sm qalinlikda), chim qatlam (ildizlarning asosiy qismi), chim asosi (ildizlar siyraklashgan chuqurlik).

Chim bosgan gruntning yuklamalarga qarshiligi gruntning xususiyatlari va ildizlarga bog‘liq. Gruntning qarshiligi donadorlik holatiga, namligiga bog‘liq bo‘lgani uchun chimli yerning qarshiligi ham doim bir xil emas.


Gil tuproqli chimning uzishga qarshiligi namlik ko‘p bo‘lsa, past bo‘ladi. Namlikning ma’lum miqdorigacha shunday bo‘ladi, keyin qarshilik o‘zgarmay qoladi, chunki tuproq loyga aylanib ketgan, uzilishga faqat ildizlar qarshilik qiladi (18.3-rasm). Chim o’sgan grunt qumdan iborat bo‘lsa ham shunday bo‘ladi. Sinov shtampini chimga botirgandagi qarshilik, qumning namligi katta bo‘lsa o‘sadi, chunki qum donalari bir-biriga kapillarlar orqali bog‘langan bo‘ladi. Namlik yana oshirilsa, bu bog‘lanish yo‘qolib, oqish holatiga o’tadi va botirishga qarshilik keskin tushadi.

HK si g‘ildiraklari ta’sirida chim qoplamaning deformatsiyalanishi shinalardagi havo bosimi va ularga tushgan yuk miqdoriga ham bog‘liq. Bosimi qancha katta, shinaning eni kichkina bo‘lsa, chim


yuzasida chuqur izlar hosil bo'ladi, ularni ta'mirlash ham qiyin. Havo bosimi va shinaga tushgan yuk kam bo'lsa, chim qoplama yaxshi saqlanadi. Bosim 0,5–0,7 MPa bo'lsa, chimdag'i izlar chuqurligi 3–5 sm dan oshmaydi. Samolyot vintlaridan hosil bo'ladigan havo oqimi va reaktiv dvigatellarning issiq gaz oqimi grunt zarralarini uchirib yuborishi mumkin, chim esa bundan saqlab qoladi. Biroq, vintlarga, reaktiv dvigatelga eng yaqin joylarda chim ham kuchsizlik qilib qoladi, chunki havo oqimi, harorat chimni ham yo quritib, yo siljitim tashlab, gruntga yetib borishi mumkin.

Chim yuzasidan g'ildirak bir marta o'tib, boshqa g'ildirak bu izdan yurmasa, chimning himoyalash xususiyati uchun eng samarali holat hisoblanadi. Bitta izdan bir necha marta yurilganda, izlar chuqurligi yalanqoch grundagiga qaraganda ancha kichik bo'ladi. O'tishlar ko'p marta takrorlanaversa, izlar xuddi chim yo'q paytidagi kabi tep-tekis bo'lib ketadi.

Yilning qurqokchilik paytida HK chimning maysa qismini yedirib yuboradi. Maysa chim ustidan har kuni tez-tez yurilsa (HKlari), o'shancha o'tishni orada tinch qo'ygan hollarda o'tishdagiga qaraganda tezroq yeyiladi va kamroq tiklanadi. Bunday hodisa, qurg'oqchilik paytida, yomg'irli kunlarga qaraganda, jadalroq bo'ladi.



18.3-rasm. Turli namlikdagi chimning uzilishga qarshiligi:  
1 – gil tuproqli chim; 2 – qum grunt.



**18.4-rasm. G'ildiraklar bir izdan ketma-ket o'tganda izning chuqurlashuvi grafigi (taxminiy):**

1 – chim qoplama bor bo'lganda; 2 – yalang'och gruntu.


Chim qoplamaning sifati tomonlari 20 sm dan bo'lgan kvadrat yuzasidagi maysa tuplari soni bilan tavsiflanadi (18.1-jadval).

#### 18.1-jadval

Chim sifati	Zonada tuplar soni		
	chimli-kulrang va o'rmon-cho'lli	qora tuproqli	quruq cho'l va yarim sahro
A'llo	300 dan ortiq	200 dan ortiq	100 dan ortiq
Yaxshi	200–300	100–200	50–100
Qoniqarli	100–200	50–100	35–50
Qoniqrasiz	100 dan kam	50 dan kam	35 dan kam

Aerodromlarda chim qoplama hosil qilish uchun ildizlari quyuq, pishiq va ko'p yillik, zinch o'sadigan boshqolli va dukkakli o'tlarning urug'i sepiladi. Tup hosil bo'lishiga qarab siyrak tupli va ildizdan ko'payuvchi o'tlar bo'ladi (18.5-rasm).

Siyrak tupli o'tlar (ajriqbosh, betaga, baland raygras va h.k) ning xususiyati shuki, ularda tup hosil bo'ladigan tuguni yer yuzasiga yaxshi



18.5-rasm. Uchish maydoniga sepiladigan o'tlar:

*a) siyarak o'sadigan o't; b) zich o'sadigan o't; c) ildizdan ko'payuvchi o't;*  
*1 – urug'; 2 – dastlabki ildiz; 3 – nish; 4 – ildizlar; 5 – dasta; 6 – tanachalar;*  
*7 – ildizlar tizimi.*

chuqurlikda joylashadi, shuning uchun g'ildiraklardan tushadigan og'irliliklar, reaktiv dvigatelning qisqa muddatli issiq gaz oqimlariga bardoshli. Ildizlari quyuq, patak, poyalari siyarak va tarvaqaylagan bo'ladi.

Zich tupli o'tlar (qizil betaga, dala raygrasi, tinchak) tik yo'nalgan tuplar dastasidan iborat. Tuplar tuguni yer yuzasida joylashib, o'ziga xos do'nggalaklar hosil qiladi. Ularning ildizlari nisbatan sustroq va vertikal joylashadi.

Ildizdan ko'payadigan o'tlar (o'rmalovchi bug'doyiq, yaylov qo'noq o'ti, qiltiqsiz yaltibosh – suvbug'doyiq) ning yer ostida tupi – katta ildizi bor, u avvaliga gorizontal yo'nalishda o'sadi, so'ng tikka o'sib, yer yuzasiga o'sib chiqadi. Shu burilish nuqtasida tuplar tuguni hosil bo'lib, yangi novdalar beradi.

Ko‘p yillik o‘tlar (beda, yo‘ng‘ichqa, shoxdor lyadvenes va h.k) ning o‘qildizlari bo‘lib, tarvaqaylaydi, ildiz bo‘yni yer yuzasi bilan bir sathda.

Uchish maydonlarining chim qoplamasini bir necha xil o‘tlardan hosil qilinadi; o‘tlar shunday tanlanadiki, ildizlar quyuq to‘r hosil qilib, uzoq va barqaror xizmat qilsin, qurg‘oqchilik va sovuq kunlarga bardosh bersin. Urug‘larni sepish me‘yorlari qishloq xo‘jaligida o‘tloq hosil qilish me‘yorlaridan yuqori. Aerodromlar uchun turli o‘tlar urug‘ini aralashdirib sepish taxminiy miqdori (foizlar) 18.2-jadvalda berilgan.

#### 18.2-jadval

O‘tlar turi	Normal va ortiqcha namlanish		Namlanish yetarli emas
	Gil va qumoq tuproqlar	Qumloq tuproq	
Ildizdan ko‘payadiganlar, %	25–35	50–60	20–30
Siyrak va zinch tupli, %	50–65	35–40	55–70
O‘qildizli, %	10–15	5–10	10–15

Turli o‘tlarning mexanik ta’sirlarga chidamliligi va chim qoplam hosil qilish xususiyatlariga qarab, prof. S. P. Smelov ularni quyidagicha tavsiflaydi. Juda chidamli va pishiq chim hosil qiladigan o‘tlar – yaylov qo‘noq o‘ti, oddiy polevisa, chim cho‘rtan, qizil betaga, uzun raygras, oq polevisa, oq beda, bo‘yimadoran hisoblanadi. O‘zi chidamli bo‘lsa qam, sust chim hosil qiladigan o‘tlar – kuzgi kulbaba, momoqaymoq, bargizub, yazvennik va manjetka hisoblanadi. Mexanik ta’sirlarga chidamliligi o‘rtacha bo‘lsa ham chim hosil qilishga yaxshi o‘tlar yaylov ajriqboshi, yaylov tulkiquyruq, qiltiqsiz yaltirbosh, oqso‘xta, yaylov betaga, amerika buydoyiqi. Ta’sirlarga chidamliligi o‘rtacha chim hosil qilishi ham sust o‘tlar – qizil beda, shved bedasi, sepiladigan va sariq yo‘ng‘ichqa. Mexanik ta’sirlarga kam chidasa ham yaxshi

chim hosil qiladiganı – o'rmalovchi hug'doyiq; chimni yaxshi hosil qilolmaydiganları – qumrio't, shovul.

O'tlarning urug'ini tejash maqsadida uchish maydonining HK lari g'ildiragi tegishi ehtimoli kam uchastkalarga me'yordan kamroq urug' sepiladi. Agar uchish tasmasining ishlaydigan asosiy qismidagi me'yorni 1,0 deb qabul qilsak, xavfsizlikning yon tasmalariga urug'lar sarfi 0,35–0,40, chekka tasmalarda – 0,20. Urug' sepishdan oldin tuproqning kimyoviy tarkibi tekshirilib, tegishli mineral o'g'itlar solinadi.

Aerodromni ekspluatatsiya qilish paytidayoq barqaror chim qoplam hosil qilishga kirishiladi. Urug'larni tanlash, aralashtirish, sepish me'yorlari, o'g'it sepish, agrotexnik tadbirlar mahalliy grunt va iqlim sharoitlaridan kelib chiqadi va maxsus agronomik tayyorgarlikni talab qiladi.

## **19-bob. HAVO KEMALARINING AERODROM QOPLAMALARIGA TA'SIRI**

---

### **19.1. Havo kemalari g'ildiraklarining qoplamaga ta'siri**

Zamonaviy HK larida yuqori bosimli pnevmatik shinalar o'rnatiladi. Bu – quyidagi zaruratlardan kelib chiqadi: zamonaviy HKning yupqa qanotida yoki fuzelajiga sig'adigan yupqa g'ildirakli bo'lish; HK ning shig'ov olish oxirida va qo'ngan paytda katta tezlik bilan aylanganda qisqa muddatli katta cho'zuvchi kuchlar ta'sir etishi tufayli mustahkam bo'lish (bunday katta tezliklarda shina ichida bosim past bo'lsa, majburiy tebranishlar kuchli bo'lib, shina qizib ketgan va protekor palaxsa-palaxsa bo'lab ketgan bo'lardi).

HK lariga qo'yilgan bunday talablar SUQT ni loyihalashni murakkablashtiradi, chunki unga katta kuchlar tushirishga to'g'ri keladi. Gruntli uchish maydonlari va dala sharoitlaridagi gruntli aerodromlarga ham ko'p qiyinchiliklar tug'iladi, chunki ularda chuqr izlar qoladi.

HK ning asosiy og'irligi tushadigan asosiy g'ildiraklarda uch xil shina qo'llanadi: yuqori bosimli va yarimballonli arka turidagi, dum tomonidagi g'ildiraklarda – arka turidagi va yarimballonli. Tumshuqdagi g'ildiraklarda asosiy va dum g'ildiraklardan omuxta qilingan shinalar qo'yiladi.

Yarimballonli shinalar qattiq qoplamlari yoki gruntli aerodromlarga biriktirilgan, qo'nish tezligi 160 km/soat gacha bo'lgan HK lariga o'rnatiladi. Uchish-qo'nish tezligi bundan katta HK lari uchun bunday shinalar yaramaydi, chunki uning yonlama turg'unligi, muvozanati yetarli darajada emas, katta tezlikda ko'p ishla olmaydi. Bunday holatlarda arkasimon shinalar qo'llaniladi.

Shinaning qoplama bilan tutashgan yuzasi va unga tushadigan yuk miqdori o'rtasida to'g'ri chiziqli boqlanish mavjud. Shanining ezilishi

unga tushgan yukka to'g'ri proporsional bo'lgani uchun har qanday yuklamada qoplasmaga tushadigan solishtirma bosim bir xil bo'ladi (19.1-rasm). G'ildirakning qoplasmaga o'rtacha bosimi  $q_{o'r}$ , shinaning o'z bikirligi ta'sirida shina ichidagi havo bosimidan bir muncha yuqori. Odatda, quyidagicha qabul qilinadi:


$$q_{o'r} = k_{sh} \rho_0,$$

bu yerda:  $k_m$  – koefitsiyent shinaning konstruktsiyasi va yon devorlarining bikirligi bilan bog'liq koefitsiyent, 1,05–1,10 ga teng olinadi.

Protektor naqshi qoplasmaga tegib turgan joydagi bosim ham, shinadagi havo bosimidan ortiq:

$$q_{o'r,max} = k_{q'o} \rho_0.$$

$k_{q'o}$  koefitsiyent protektor naqshining murakkabligiga qarab 1,5÷1,7 oralig'iga qabul qilinadi. Shinalarning qoplasmaga haqiqiy bosimlari HKlari qo'nayotganda shinaga va qoplasmaga ta'sir etadigan gorizontal kuchlarni topish uchun kerak.



19.1-rasm. Shina ichidagi bosim har xil bo'lгanda, shina ezilishining unga tushgan yuklamaga bog'liqligi.

Shinalar va qoplamlarning yeyilishi, qoplama yuzasida har xil deformatsiyalar hosil bo'lishi shu kuchlarga bog'liq. Qoplama qalinligini hisoblab topishda ham tutash yuzaga tushadigan o'rtacha bosimga asoslaniladi. Shinaning qoplama bilan tutash yuzasi shakl jiqatdan 1,25–2,0 nisbatdagi diametrli ellips bo'lishiga qaramay, qoplama qalinligini hisoblashda  $R$  radiusli doira deb qabul qilinadi:

$$R = \sqrt{\frac{P}{\pi k_{sh} P_0}}.$$

HK si yurganda qoplamaga tushadigan bosim bir xil qolmaydi. Tezlashganda qanotlarda paydo bo'ladigan ko'taruvchi kuchlar g'ildirakka tushadigan yuklamani pasaytiradi. Bevosita uchish oldida bu yuklama nolga yaqinlashib qoladi.

Qoplama notekis bo'lgani sababli (beton qoplamlarda plitalar orasida ochilib qolgan choklar, plitalar bir-biriga nisbatan vertikal siljigani, asfalt-beton qoplamlarda hosil bo'lgan chuqurchalar, to'lqinlar) g'ildiraklardan qoplamaga tushadigan bosimlar statik vaziyatdagidan ancha ortiq bo'ladi

HK sining tezligi oshganda g'ildiraklarning qoplamaga dinamik ta'siri  $k_{din}$  ni ikki sabab bilan izohlash mumkin; g'ildirak notekislikka duch kelganda zarbaning oshishi va g'ildirak tez aylanishi natijasida unda hosil bo'ladigan markazdan qochirma kuchlar uni cho'zishga harakat qilib, natijada qoplamaga ko'p kuch tushadi. Bundan tashqari shina katta tezlik bilan tebranganda, statik holatdagi miqdorcha deformatsiyalanmay, tez o'tib ketadi. Shu bilan bikirligi oshgandek ta'sir qiladi, bosimi ham ortadi. Qoplama qanchalik notekis bo'lsa, dinamik koeffitsiyent shunchalik katta bo'ladi. Yuqoridagilarni hisobga olib, HK lari g'ildiraklarining qoplamaga bosimini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$P_{din} = (P_{stat} - Y_k) k_{din} = P_{stat} \left(1 - \frac{Y_k}{P_{stat}}\right) k_{din} = P_{stat} k_{din} k_{yug},$$

bu yerda:  $P_{stat}$  – g'ildirakning statik bosim kuchi;  $Y_k$  – g'ildirakni yengillatadigan ko'taruvchi kuch;  $k_{yug}$  – ko'tarish kuchi hosil bo'lganidan bosimning kamayishini hisobga oladigan yengillatish koeffitsiyenti;  $k_{din}$  – dinamiklik koeffitsiyenti.


Ko'taruvchi kuch ta'siri, harakat tezliklari va g'ildiraklarning bir izdan o'tish chastotasi o'zgarishlari munosabati bilan HK ning va qoplamaaga ta'sir etuvchi kuchlarning ta'sir etish sharoitlari aerodromning turli uchastkalarida turlicha. Shunga qarab qoplama qalnliklari ham har xil bo'ladi.

HK lari turish joylarida uzoq turib qolishlari mumkin, demak, qoplama o'sha joylarda uzoq vaqt yuklama ostida bo'ladi. Biroq, HK si TJ ga juda kichik tezlik bilan kiradi, dinamik ta'sir deyarli bo'lmaydi. Lekin, dvigatelni ishlatib ko'rish paytida titratma kuchlar HK ning shassisi orqali qoplamaaga tushadi. Yuqori chastotali bu titrashlar qoplama mustahkamligiga zarar yetkaza olmaydi. Faqat, ob-havo noqulay kelgan va aerodrom ishlay boshlagan dastlabki yillarda, yetarli shibbalanmagan qum asos o'ta namiqib qolsagina, titrashlar ta'sirida qoplamaning u yer bu yeri ozgina cho'kib qolishi mumkin.

HK rullash yo'lida (RY) ko'pi bilan 20–30 km/soat tezlik bilan yuradi. Bunday tezlikda qanotlarda ko'taruvchi kuch hosil bo'lmaydi, g'ildirak notekisliklarga urilganda qoplamaaga zarbali kuchlar tushadi. RY ning eni kichkina bo'lgani sababli hamma HK larning g'ildiraklari deyarli bir izdan yuradi, natijada o'sha joylarda qoldiq deformatsiyalar to'planadi. HK ni noaniq rullahda g'ildiraklar RY qoplamasining chetiga chiqib ketishi mumkin. RY qoplamasini hisoblayotganda dinamiklik koeffitsiyentining yuqori qiymatlari qabul qilinadi.

SUQT ning uchlaridagi uchastkalar shamol yo'nalishiga qarab yo start, yo finish uchastkasi vazifasini bajaradi. Start uchastkasidagi qoplamlarning ishlash sharoiti turar joydagi qoplamanikiga o'xshaydi, farqi shuki, ko'tarilishda yuklamalar bir joyga to'planib tushmaydi, HK esa qoplamaning muayyan nuqtasida qisqa muddat bo'ladi.

HK si qo'nayotganda SUQT ning uchidagi uchastka qoplamasini zarbali ta'sirga uchraydi. Agar pilot HK ni yaxshi qo'ndirmassa (masalan, ancha balanddan «parashutlasa»), shassida hosil bo'ladigan yuklama statik qiymatdan ancha ortib ketishi mumkin. 19.2-rasmda HK sini normal va zerbali qo'ndirgan hollarda g'ildiraklardan qoplamaaga tushadigan kuchlarning o'zgarishi ko'rsatilgan.




19.2-rasm. Havo kemasi qo'nganda g'ildirakdan qoplamaga tushadigan yuklama:

a) normal qo'nish; b) zarba bilan qo'nish.

Grafikdan ko'rindik, HK ni normal qo'ndirganda yuklama statik holatdagidan oshmaydi. Qo'pol qo'ndirganda qisqa muddatli zarba statik holatdagi yuklamadan 3 marta ortib ketdi va bu shassi mustahkamlik zaxirasi (3,5–4,5) bilan tenglashib qoldi.

HK si g'ildirak bilan zarba berib, shu zahoti yugurib ketganda tezlik kamayishi bilan ko'tarish kuchi pasaya borib, qoplama bosim ko'payaveradi va statik holatdagiga yetadi. Qoplama notekis bo'lisa, HK si tezlashgandagi kabi, 20–40 km/soat tezliklarda qoplama tushadigan yuklama statik holatdagidan ortiq bo'lishi mumkin. SUQT o'rta qismlarida eng qulay sharoit bo'ladi. HK si bu uchastkani katta tezliklar bilan o'tib, ko'tarish kuchlari hali bilinib turadi. G'ildirakdan yuk tushish davomiyligi hali kam, qoplama va uning ostidagi grunt to'liq deformatsiyalanishga ulgurmaydi. Gruntning qarshiligi statik holatdagiga qaraganda oshgandek tuyuladi. Ayni paytda, HK SUQT ning o'rta qismlarida turishi ham, to'xtab qolishi ham mumkin emas. Bunda rullash zarur bo'lganda bajariladi va RY dagiga qaraganda katta tezlikda amalga oshiriladi. Shu sabablarga ko'ra SUQT ning o'rta qismlari qoplamasini uchlaridagiga qaraganda kamroq yuklama bilan hisoblash mumkin.


Aerodromlardan biridagi UQT qoplamasi plitalarining bo'ylama yo'nalishda shikastlanishlari (19.3-rasm) tasmaning uchlari va o'rtalaridagi ish sharoitlari farqini aniq ko'rsatadi. Shikastlarning asosiy qismi (80%) SUQT ning uch qismlariga to'g'ri keladi.



19.3-rasm. Beton qoplama plitalari shikastlarining UQT bo'ylab taqsimlanishi.

HK qo'nganda va SUQM ning o'rta qismida g'ildiraklar tebranganda shassi elementlarida hosil bo'ladigan kuchlarni qoplama asosi va tagidagi gruntga uzatiladigan kuchlar bilan tenglashtirish kerak emas; qoplama qalinligini keyingi kuchlar asosida hisoblash kerak. G'ildiraklarning bosimi pastdag'i gruntga birmuncha yumshatilgan holda uzatiladi. Ko'p marotaba yuklama berib o'tkazilgan sinovlar ko'rsatishicha, bukilishning to'la miqdori o'nlab minutlardan keyin sodir bo'ladi. Tez aylanayotgan g'ildirak ta'sirida qoplama va grunt sekin deformatsiyalanadi; bu va inersiya kuchlarining qarshiligi tufayli qoplama, yuk uzoq vaqt tushib turgandagiga qaraganda kam bukiladi. Bu grunt asosga kichkina yuk bilan statik ta'sir qilishdek gap. Bularning barchasi sinovlarda tasdiqlangan, ya'ni turli qoplamlarning gruntli asoslaridagi kuchlanishlar (tekis qoplama yuzasida turli tezliklar bilan yurganda) statik yuklamadagiga qaraganda kichik bo'lgan. Qoplama yuzasida notejisliklar mavjud bo'lganda grunt asosdagi dinamik koeffitsiyent 1,0 dan oshadi, lekin amalda g'ildirak urilishining ta'siridan kam bo'lgan.

Aylanayotgan g'ildirak ostidagi qoplamaning deformatsiyalanishini oddiy ko'rinishda quyidagicha tasavvur qilish mumkin. Harakatlanayotgan yuklama ta'sirida qoplama qatlamida bukilish to'lqini hosil bo'ladi; u yuzaning ma'lum qismini qamrab olib, g'ildirak bilan birga suriladi (19.4-rasm).



**19.4-rasm. Aylanayotgan g'ildirak ta'sirida qoplamaning bukilishini aniqlash sxemasi.**

Elastik asos ustidagi plita nazariyasiga asosan, plitaning gruntga bosimi yuk tushgan markazdan «ch» uzoqlikda deyarli nolga teng:

$$r = 4\ell = 4H^3 \sqrt{\frac{E_b}{6E_{gr}}},$$

bu yerda:  $\ell = H^3 \sqrt{\frac{E_b}{6E_{gr}}}$  qoplama bikrligini tavsiflovchi koeffitsiyent;  $H$  – qoplama qalinligi;  $E_{gr}$  – gruntning elaktiklik moduli;  $E_b$  – qoplamaning elastiklik moduli.

Masofa –  $r$  ni bukilish to'lqinining radiusi deb qabil qilish mumkin, demak, deformatsiyaga kirgan libos massasi quyidagicha ifodalanadi:

$$M = \frac{Q}{g} = \frac{\pi r^2 H \gamma}{g} = \frac{16\pi\gamma H^3}{g} \sqrt[3]{\left(\frac{E_b}{6E_{gr}}\right)^2},$$

bu yerda:  $q$  – qoplama zichligi.

Shu munosabat bilan to'shamani haqiqatda deformatsiyalaydigan kuch –  $G_{haq}$  ni quyidagicha yozish mukin:

$$G_{haq} = G_{din} - \frac{Qd^2\delta}{qdt^2},$$

bu yerda:  $Q$  – libosning deformatsiyalanayotgan to'shama og'irligi;  $\delta$  – to'shamaning  $t$  vaqt ichida bukilishi.

To'shama uchastkasiga kuch ta'sir etishi qanchalik qisqa bo'lsa, deformatsiyalanishi ham shuncha kam. To'shama bukilishini ko'plab sinovlardan aniqlanishicha, bukilishning vaqtga bog'liqligini quyidagi empirik ifoda bilan ko'rsatish mumkin:

$$\delta_t = \delta_{0,r} \frac{t}{t+t_0},$$

bu yerda:  $\delta_{0,r}$  – yuklama uzoq ta'sir qilganda ( $t=\infty$ ) cho'kishning chegaraviy qiymati;  $t_0$  – empirik ko'rsatkich, s bilan o'lchanadi;

0,5–3,0 oraliqda qiymatga ega; uning qiymatini muayyan sharoitlar uchun tajriba yo'li bilan aniqlash mumkin.

Agar qoplamani 1,0 ga teng koeffitsiyenti bilan tavsiflasak, bu koeffitsiyentning  $t$  vaqtdagi o'rtacha qiymati:

$$k_j = \frac{G_i(t+t_0)}{\delta_{o,r} t}.$$

Plitaga bosim epyurasi egri chiziqli bo'lishi munosabati bilan, g'ildirak to'shamaning deformatsiyalangan qismi chegarasida tebranganda plita samarali deformatsiyalanishini e'tiborga olib, quyidagicha yozamiz:

$$t = \frac{1,5r}{v}; \quad k_j = \frac{G_i}{\delta_{o,r}} \left( 1 + \frac{t_0 v}{1,5r} \right).$$

Qoplamadan gruntga ma'lum bir nuqtada tushadigan bosim (g'ildirak tebranishi natijasida) Gauss qonuniga yaqin tarzda o'zgaradi. Uni soddallashtirish uchun sinusoida chizig'i bilan almashtirish mumkin; bunda qoplama qatlamiga tushadigan yuklama quyidagi tenglama asosida o'zgaradi:

$$G_t = G_{stat} \sin \frac{\pi v}{2r} t.$$

Bunga binoan  $t=2v/r$  va  $t=0$  bo'lganda  $G_t=0$ ;  $t=v/r$  bo'lganda (g'ildirak ko'rileyotgan nuqtadan o'tishi)  $G_t=G_{stat}$ .

(18.6) tenglamaning yechimini vaqt bo'yicha sinusoida bilan o'zgaradigan yuklama uchun quyidagi ifodalarni yozamiz:

$$\delta_t = \frac{G_{stat} \sin \theta t}{M(\Psi^2 - \theta^2)},$$

$$\Psi = \sqrt{\frac{k_i}{M}} \quad \text{va} \quad \theta = \frac{\pi v}{2r}.$$

Bukilishning eng katta qiymati  $\sin \theta t = 1$  da kuzatiladi. HK ning harakati tezlashgani sayin qanotlarda hosil bo'ladigan ko'taruvchi kuch ta'sirida qoplamaga tushadigan yuklama kamayib boradi.

Oddiy holatda, qanotlardagi ko'taruvchi kuchlarni hisobga olmaga ganda (17.3) tenglamaga  $G_{stat}$ ,  $M$  va  $k_j$  larning qiymatini qo'yib, quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$\delta_{\text{din}} = \frac{\delta_{\text{o'r}} k_{\text{din}}}{1 + \left( \frac{n\omega}{GH} - \frac{0.3\omega^2 r}{E_{\text{gr}}} \right) \sqrt[3]{\frac{6E_{\text{gr}}}{E_{\text{stat}}}}} ,$$

bu yerda:  $k_{\text{din}}$  – dinamik ta'sirlar koefitsiyenti.

Qoplamanini hisoblash uchun aylanayotgan g'ildirak ta'sirining dinamik koefitsiyenti:

$$k_{\text{din}} = \delta_{\text{din}} / \delta_{\text{stat}} .$$

HK ning tezligi kichik bo'lganda qoplamaning inertsiyali qarshiligi deyarli bo'lmasani va dinamiklik koefitsiyentining ta'siri sababli, 30–40 km/soat tezliklarda, tezlanishning boshi va oxirida  $\delta_{\text{din}}$  ning qiymati  $\delta_{\text{stat}}$  dan ortiq bo'lishi mumkin; hisoblashda shundan foydalanish zarur.

Sun'iy qoplamaning qalinligini hisoblayotganda yuklamaning turli uchastkalardagi ta'sirini maxsus koefitsiyent (turli uchastkalar uchun turlicha statik yuklamalar koefitsiyenti) bilan e'tiborga olinadi.

## 19.2. Aerodrom qoplamariga ta'sir etadigan gorizontall kuchlar

Aerodrom qoplamariga ta'sir etadigan gorizontal kuchlar g'ildiraklar notekislikka chiqayotganda, pnevmatik shinalar tormozlanayotgandagi ishqalanishda yoki qo'nish onida g'ildirakni dastlabki aylantirishda hosil bo'ladi. Bu kuchlarni baholash qoplamaning yuqori qatlami suruvchi kuchlarga qanchalik bardosh berish talablarini me'yorlash uchun kerak. G'ildiraklar notekislikka urilganda eng katta ehtimoliy kuch  $F_1 = Pf$ , ishqalanganda  $F_2 = P\varphi$ ; bu yerda  $P$  – g'ildirakning qoplama bosim kuchi;  $f$  – tebranishga qarshilik koefitsiyenti;  $\varphi$  – shinaning qoplama bilan ilashish koefitsiyenti.

Tezlik oshganda tebranishga qarshilik oshadi, chunki dvigatelning quvvati notekislikka urilishiga sarflanadi va ma'lum kritik tezlikdan o'tganda ichki bosimga bog'liq bo'ladi – shinalar tebranib deformatsiyalanishiga sarflanadi.

Pnevmatik shinali g'ildirakning tebranishiga qarshilik koeffitsiyentining tezlikka bog'liqligini taxminan quyidagicha izoqlash mumkin.

G'ildirak notekislik ustiga chiqqanida (19.5-rasm) tezlik pasayadi

$$v_{pa} = v \sin \beta = \frac{va}{R} v \sqrt{\frac{2RH - h^2}{R}}.$$

Zarb bilan urilganda shina va qoplamani deformatsiyalashga sarflanadigan quvvat  $2Rh$  ga nisbatan ancha kichik bo'lgan  $h^2$  ni hisobga olmaganda:

$$\Delta E = v \frac{G_g}{g} \frac{v^2 (2Rh - h^2)}{R} \approx \frac{v^2 G}{g} \frac{v^2}{D_g} h,$$

bu yerda:  $D_g$  – g'ildirak diametri;  $v$  – siqilgan shina qaytarib beradigan quvvatni hisobga oluvchi koeffitsiyent (yuqori bosimli aviatsiya shinalari uchun 0,7–0,9);  $G_g$  – g'ildirak vazni

Agar  $L$  uzunlikdagi yo'lning HK g'ildiraklari uchraydigan notekisliklar «n» ta bo'lsa, tezlikni o'zgartirmasdan tutib turish uchun 1 m yo'lga sarflanadigan qo'shimcha kuch quyidagicha ifodalanadi:

$$F = \frac{2vG_g v^2}{g D_g} \frac{\sum^n h}{L},$$


bu yerda:  $h$  notekisliklar balandligi.

HK og'irligining birligiga tushadigan solishtirma qarshilik:

$$f = \frac{F}{G_g + G_c} = \frac{2v^2 G}{g D_g (G_g + G_c)} \frac{\sum^n h}{L},$$

bu yerda:  $G_c$  – HK vaznining bitta g'ildirakka tushadigan qismi (ko'taruvchi kuchni hisobga olganda).

Notekisliklar yig'indisi  $\sum^n h$  ni profilograf yordamida aniqlash mumkin. Aylanuvchi barabnlarda shinalarning tebranishiga qarshilikni aniqlash sinovlari qarshilik tezlikka proporsional o'sishini ko'rsatdi. Ichki bosim 0,4 MPa bo'lganda tezlik 150 km/soat dan 250 km/soat ga oshganda tebranish uchun kerak bo'ladiga quvvat taxminan 12 marta oshar ekan. Shinadagi bosim ko'paygan sari tezlikning tebranishga qarshilikka ta'siri pasayadi. Yuqori bosimli shinalarga o'tishning bir sababi shunda.



19.5-rasm. Aylanayotgan g'ildirakning qoplama notejisliklariga bosimini aniqlash sxemasi.

Garchi katta tezliklarda tebranishga qarshilik koeffitsiyenti oshsa ham, ko'taruvchi kuch kattalashib, HK ning harakatiga to'sqinlik qiladigan umumiy qarshilik – havo qarshiligi bo'lib qoladi. Shuning uchun HK ning ko'tarilishiga tegishli hisoblarda kichik tezliklarga tegishli  $f$  koeffitsiyentdan kelib chiqiladi:

Tekis sement-beton va asfalt-beton qoplamlari	0,01–0,02
O'sha, bog'lovchi materialga qorilgan mayda yoki chaqiq tosh	0,02–0,03
Beton qoplamlari (plitalari vertikal siljigan, choklari ochilgan, darz ketgan) va chuqurchalari bor asfalt-beton qoplama	0,04–0,05
Zich qumoq tuproqli grunt	0,05–0,15
Yo'lsizlik paytidagi grunt qoplama	0,15–0,30

Gorizontal kuchlar yuzaga kelishida tormozlash kuchlari sabab bo'ladi. Pnevmatik shinaning qoplama bilan ilashuvi murakkab jarayon. Tormozlangan g'ildirakning qoplama bilan tutashgan tekisligida yuzaga keladigan eng katta kuchni ilashish koeffitsiyenti  $\varphi$  – tormoz kuchining g'ildirakdan qoplamaga tushadigan bosim ( $f$  – bunda shinalarning sirpanishi boshlanadi)  $P$  nisbati orqali ifodalash mumkin.

HK larini normal tormozlash shunday bo‘ladiki, g‘ildiraklar qoplamada sirpanmasdan aylansin, ishqalanish esa tormoz barabanlarida bo‘lsin. Buning uchun tormozlovchi moment quyidagicha bo‘lishi kerak:

$$M_t = P_\phi R_g,$$

bu yerda:  $P$  – g‘ildirakning qoplama bosimi;  $\phi$  – ilashish koefitsiyenti;  $R_g$  – g‘ildirakning tebranish radiusi (g‘ildirak radiusining shinaning siqilish miqdori –  $\delta_{sh}$  qadar kamaygani)

Aviatsiya shinasining qoplama bilan eng kuchli ilashuvi, HK yerga qo‘nayotganda katta tezlik bilan sirpanayotganida hosil bo‘ladi, bu g‘ildirak aylanishining chiziqli tezligi HK ning ilgarilanma harakati tezligi bilan tenglashguncha davom etadi.

G‘ildiraklar beton qoplamaga tekkandan boshlab, to‘laqonli aylanib ketgunicha 0,607–0,120 s, grunt qoplamada esa 0,14–0,18 s o‘tadi. Bu vaqtda kechgan eng ko‘p ishqalanish shinalarni qizdirib yuboradi, ular ko‘p yediriladi va qoplamada qora iz qoldiradi.

### 19.3 Qoplamaga havo oqimlari va reaktiv dvigatellar chiqindi gazlarining ta’siri

Aerodrom qoplamalariga og‘irlik kuchidan tashqari vintli HK larning kuchli havo oqimlari va reaktiv dvigatellarning yuqori haroratlari va kuchli chiqindi gazlari ham qattiq ta’sir qiladi. Bu, qoplamalarning pishiqligi va haroratbardoshligiga yuqori talablar qo‘yadi, qoplamaga ishlataladigan materiallarni cheklaydi.

Reaktiv dvigatelli HK lari paydo bo‘lgach, qoplamlarga kuchli havo oqimlari qanday ta’sir qilishini o‘rganish va hisobga olish zarurati tug‘ildi. Aksariyat turboreaktiv dvigatellarda chiqindi gazlar harorati soplidan chiqish joyida, aylanishlar soni eng katta bo‘lganida 600–800°C, tezligi esa 600 m/s bo‘ladi. Bunday gaz oqimi 6–6,5° burchak bilan kengaya borib, 12–5 m kenglikni qamrab oladi va uzoq masofaga yetadi.

Turbovintli dvigatellarda gaz oqimi sustroq chiqadi, lekin bunga vintlar hosil qiladigan kuchli oqim qo‘shiladi. Turbovint dvigatellarning oqimi vint tekisligidan 30–40 m narida o‘zi hosil qilgan havo oqimi bilan aralashib ketadi.


Turboreaktiv dvigateldan katta tezlik bilan chiqayotgan gaz oqimi kengayganida, haroratini birmuncha yo'qotadi, lekin qoplamaga yetib borganida ham 250–300°C, tezligi esa sekundiga o'nlab metr bo'ladi (19.6-rasm).

Gaz oqimining qoplamaga ta'siri quyidagi omillarga bog'liq: reaktiv dvigatel turi va ish rejimi; gaz oqimlarining harorati, tezligi va ta'sir etish davomiyligi; qoplama materialining pishiqligi va haroratbardoshligi; HK ning konstruktsiyasi – dvigatel soplosining qoplamadan balandligi, dvigatel o'qining gorizontalga qiyalik burchagi.

Dvigateldan chiqqan oqim qoplamaga urilgan joy yuzasi ellips shaklida bo'lib, uni «oqimlar maydoni» deyiladi. Bunday maydonlarning o'lchamlari zamonaviy trasnport samolyotlarda qanday bo'lishi 19.1-jadvalda berilgan. Oqimlar maydonidagi gazlar harorati va tezligi bir xil emas, soploidan uzoqlashgan sari pasayadi.

Ekspluatatsiya sharoitlarida gaz oqimining qoplamaga ta'sir etish davomiyligi quyidagicha (min):

Turish joyida nominal rejim bilan sinash	3–5
Perronda turish (kichik aylanishlar)	2–3
Ko'tarilishga ruxsat kutib startda turish (nominal rejim)	1–2,5



19.6-rasm. Reaktiv samolyot dvigateldan chiqayotgan gaz alangasining qoplamaga ta'siri.


Bunday paytlarda dvigatel uzoq vaqt ta'sir etmagani sababli qoplama qizishga ulgurmeydi. Yuqori haroratlar SUQM ning start uchastkasi va TJ larda xavfli, HK si tezlikni oshirayotganda gaz oqimi qoplamaning har bir bo'lagiga shunchalik kam vaqt ta'sir etadiki, qoplama hatto qizishga ulgurmeydi. Shuning uchun reaktiv dvigatelnning qoplamaga ta'siri SUQM ning dastlabki 100–150 m masofasida e'tiborga loyiq deyish mumkin. Bu uchastkalar 200°C haroratga chidamli, 100 m/s tezlik bilan urilayotgan gaz oqimlari ta'siriga barqaror, to'kilishi mumkin bo'lgan yonilg'i va moylash materiallariga bardoshli bo'lishi kerak. Bu talablarga eng ko'p mos keladigani – cement-beton qoplamadir. U qisqa muddatlar (30–45 s) davomida 300–350°C haroratni ko'tara oladi. Bundan ortiq vaqt ta'sir etganda harorat plita qalinligi bo'ylab keskin farq qilgani tufayli haroratdan kengayishlar ham turlicha bo'lib, qoplama yuzasi yemirila boshlaydi.

Asfalt-beton qoplama 100°C harorat va 50 m/s gacha tezlikdagi oqimga 3–4 min davomida chidaydi. Organik bog'lovchilar bilan ishlov berilgan tosh qoplamalar harorat 80°C dan oshganda va havo oqimi tezligi 30–40 m/s bo'lganda juda tez, dvigatel ishga tushishi bilanoq yemiriladi.

#### **19.4. Aerodrom qoplamasining turli uchastkalariga havo kemalari ta'siri xususiyatlarini hisobga olish**

HK lari harakatlanganda qoplamaning turli uchastkalariga tushadigan vertikal yuklamalar turlicha bo'lishi, qoplamani shularga moslab loyihalash g'oyasini ilgari surdi. Sun'iy qoplamaning qalinligi UQT ning eni va bo'yiga, turli joylarda, tezlik olish, yugurish va turish joylarida har xil bo'lishi shundan.

Qoplama mustahkamligini turlicha qilib qurishning o'zi ancha qiyin ish. HK ning harakati odatiy sxemadan chetga chiqib ketsa, masalan, yugurish yo'li qisqa bo'lganda, shamolga qarshi yo'nalishda qo'nishda, ko'tarilish bekor qilinganda, SUQM da rullaganda qoplamaning mustahkamligi talabga javob bermay qolishi mumkin. Mustahkamligi har xil qoplamaning zaxirasi yetarli bo'lmagani sababli og'irroq HK sini qo'ndirish zarurati chiqib qolsa, muammo yuzaga keladi.



19.7-rasm. Aerodromni A, B, B, Г участкalar guruhiga ajratish:




- a) HK ni rullash magistral RY da bajariladi; b) rullash SUQM da bajariladi; A – HK lari muntazam rullanadigan magistral RY, SUQT ning uch qismlari, STsqP enining o'rta qismlari; B – SUQT ning «a» sxema bo'yicha loyihalangan, uch qismlariga tutashgan uchastkasi, «b» sxemasi bilan loyihalangan o'rta qismning chetlari (SUQM enining 1/4 qismicha), tutashtiruvchi RY, TJ, perronlar va boshqa turish maydonchalari; B – SUQT ning «a» sxema bo'yicha loyihalangan o'rta qismi (SUQM enining 1/2 qismicha);  
 Г – SUQT o'rta qismining «a» sxema bo'yicha loyihalangan chetlari  
 (RY ga tutash joylardan tashqari).

Og'ir HK lari SUQT ning o'qiga nisbatan aniq mo'ljal bilan qo'nadi. Bu qo'nish tavsifi (19.8-rasm) ga qaraganda UQT ning bo'ylama yo'nalishida o'zgarmas bo'ladi, ob-havo va sutka vaqtiga bog'liq emas.

Qoplama qalinligi SUQM ning eni bo'ylab har xil bo'lishi qurilish ishlarni ancha tejamli qiladi. Mustahkamligi har xil qoplamanli loyihalashda qoplamaning turli uchastkalari uchun o'ziga mos koeffitsiyentlar tanlanadi.

2.05.08-85 QMQ «Aerodromlar» da  $K_{\text{din}}$  va  $K_{\text{yug}}$  koeffitsiyentlarning turli qiymatlari ko'zda tutilgan. Ular HK ning SUQT ning o'rtalarida va uch qismlarida katta tezlik bilan, boshqa qosmlarda ham o'ziga mos tarzda yurishini hisobga oladi; SUQT qoplamasini, uch qismlaridan tashqari eni bo'yicha turli mustahkamlikka ega; o'rta tasmaning eni SUQT enining 0,5 qismicha, lekin 40 m dan kam bo'lmaydi.

19.7-rasmida aerodrom qoplamarining hisobiy parametrler bo'yicha farqlanadigan uchastkalar guruhlariga ajratish sxemasi berilgan. Ularga tegishli koeffitsiyentlar 19.2-jadvalda berilgan.



19.8-rasm. Og'ir samolyotlarning UQT eni bo'ylab qo'nish joylarining taqsimlanishi:


- a) tasma eniga yuklamalar tushish sxemasi; b) tasma enining turli uchastkalariga qo'nishlar soni; d) tasmasining tavsiya etilgan ko'ndalang profili.

Qoplama uchastkalari guruhi	Guruhdagi uchastkalar	$k_{yug}$	Shina bosimi quyidagicha bo'lganda $k_{din, MP_a}$		
			1 gacha	1-1,5	>1,5
A	Magistral RY; SUQM ning uch qismlari, enining o'rta qismlari (HK muntazam rullanadigan joylar) SUQM ning uch qismlariga yaqin uchastkalari («a» sxema bilan loyihalangan)	1	1,2	1,25	1,3
B	eni bo'ylab o'rta qismning chetlari («b» sxema bilan loyihalangan); yordamchi va tutashtiruvchi RY, TJ, perronlar va boshqa turish joylar	1	1,1	1,15	1,2
B	SUQT ning «a» sxema bilan loyihalangan o'rta qismi	0,85	1,1	1,1	1,1
Г	SUQT o'rta qismining «a» sxema bilan loyihalangan chetlari (RYga tutash joylardan tashaqari)	0,85	1,1	1,1	1,1

Hamma uchastkalar uchun nobikir qoplamlarni va pnevmatik shinalarda havo bosimini hisoblashda bir xil dinamiklik koeffitsiyenti qabul qilinadi va yengillatish koeffitsiyenti kiritiladi.

### 19.5. Aerodromning uchish-qo'nish tasmalari qoplamalariga tushadigan hisobiy yuklamalar

Aviatsiya sanoatining rivojlanishi HK ning uchish massalari ortishiga olib keldi. Zamonaviy HK ning og'irligi uch tayanchli shassi orqali qoplamaga tushadi (ikkita asosiy va bitta yordamchi tumshuq yoki dum tomonda, tayanch). Yordamchi tayanchga 10–15% og'irlik tushadi.



*19.9-rasm. HK ning tayanchlari:*

- a) yolqiz g'ildiraklar; b) bir o'qdagi juft g'ildiraklar; d) ikki juft g'ildiraklar aravachasi.*

G'ildiraklar va shassining joylashish sxemalari 19.9-rasmda berilgan.

Shassi velosipedsimon bo'lganda og'irlik qoplamaga ikkita asosiy tayanch orqali tushadi. Orqa tayanchga 55–85% yuk tushadi. Yuk uzatilish turiga qarab shassining asosiy g'ildiraklari bittadan, ikkitadan va to'rttadan bo'lishi mumkin. To'rt g'ildirakli tayanchda yonma-yon g'ildiraklar orasi 70 sm, bir qatordagi g'ildiraklar orasi 130 sm bo'ladi. «Shartli tayanch» deganda bitta tayanchdagi g'ildiraklar soni tushuniladi. G'ildiraklarning tayanchda joylashuviga qarab, qoplamaga yuk uzatish sharoitlari keskin o'zgarishi mumkin. Hisoblar ko'rsatishicha, agar bitta g'ildirakdan iborat tayanch ostidagi qoplama qalinligini 1,0 deb olsak, o'sha vazndagi, lekin tayanchchi ikkita g'ildirakli HK uchun qoplama qalinligi 0,7–0,8, g'ildirakli shassi uchun 0,5 qalinlik kerak bo'ladi. Shuning uchun og'ir massali HK ni loyihalashda tayanchini qo'shg'ildirakli deb qabul qilinadi, shunda ular kichik massali HK lariga mo'ljallangan qoplamada ham ishlay oladilar.

Qoplamlarni hisoblashda yuklamalarni aerodrom toifasiga qarab tanlanadi. Samolyotlardan tushadigan hisobiyl yuklamalar, 2.75.08-85 «Aerodromlar» QMQ ga binoan 19.3-jadvalda, vertolyotlar uchun 19.4-jadvalda berilgan.

*19.3-jadval*

Meyoriy yuklama toifasi	Asosiy (shartli) tayanchga tushadigan meyoriy yuklama HK, kN		Pnevmatik shinalardagi havo bosimi, MPa
	to'rt g'ildirakli	bir g'ildirakli	
Toifalardan tashqari	850	—	1
I	700	—	1
II	550	—	1
III	400	—	1
IV	300	—	1
V	—	80	0,6
VI	—	50	0,4

*19.4-jadva*

Vertolyot toifasi, uchish massasi bo'yicha, t	Asosiy (shartli) bir g'ildirakli tayanchga tushadigan me'yoriy yuklama, kN	Pnevmatik shinalardagi havo bosimi, MPa
Og'ir (150 dan yuqori)	170	0,7
O'rta (60–150)	60	0,6
Engil (50 dan kichik)	20	0,4

### **20.1. Gruntlar holatining yil davomida o'zgarishi**

Aerodrom qoplamlari asosidagi gruntlarning mustahkamligi va yuklamalarga bir tekis qarshilik ko'rsata olishi aerodrom xizmatlari normal kechishida muqim rol o'ynaydi. Grunt asoslar HK g'ildiragidan tushadigan bosimni qoplama orqali oladi. Sun'iy qoplalmalarning mustahkamligi va tekisligi, yuklamalarga qarshilik qilish xususiyati va asosdagi gruntning zichlanish darajasiga bog'liq. Har qanday kapital va mustahkam qoplama, agar u yetarlicha zichlanmagan va bir xil bo'limgan grunt ustiga qurilgan bo'lsa, ekspluatatsiya jahrayonida tekisligini yo'qotadi va yemiriladi. Grunt asosning qarshiligi uning namligiga bog'liq. Agar namlik yuqori bo'lsa, qoplamaga hisobidan ancha kam kuch ta'sir etsa ham yemirilib ketadi.

Grunt asosning namligi yil davomidagi yog'in-sochinlar va haroratlar o'zgarishiga qarab o'zgaradi. Yerosti suvlaridan tepadagi grunt qatlami haroratlarining va namligining o'zgarish qonuniyatları aerodrom qoplamlari gruntli asoslarining «suv harorat rejimi» deyiladi. U yil davomida o'zgaradi. Prof. A. Y. Tulayev bu o'zgarishlarning 4 bosqichini ajratib ko'rsatadi:

- atmosfera yog'inlarini shimish va kam bug'latish natijasida gruntning yuqori qatlamlarida namlik orta boshlashning kuzgi bosqichi;
- gruntning muzlashi va harorat gradienti ta'sirida chuqr qatlamlardan manfiy haroratli zonaga namlik ko'tarilib, qayta taqsimlanish bosqichi;
- bahorgi erish bosqichi; bunda grunt namlikka to'yinib, mustahkamligi kamaygan bo'ladi, yuzalarda musbat harorat boshlanadi;

– grunt asosning qurish davri; bunda muzlagan qatlam erib, suv chuqur qatlamlarga singib ketadi va bug'lanadi.


Gruntdagi suv miqdoriga qarab uning yuklamalarga qarshiligi ham o'zgaradi. Suv grunt asosga bir necha yo'l bilan tushadi: yerosti suvlari kapillarlar orqali tepaga ko'tarilishidan, grunt zarralarini qoplab olgan suv pardalaridan ajraladigan bug'lardan, qoplama choklari va yoriqlaridan o'tadigan suv va namlikdan.

Garchi zamnaviy qoplamlalar suv o'tkazmasada, darzlar va choklardan o'tishi mumkin. Qoplama ta'mirlanib turishiga qaramay, ekspluatatsiya davrida choklarni to'ldirgan materiallar qurib, mo'rtlashadi, vintli dvigatellarning shamollari va reaktiv dvigatellarning yuqori haroratli gaz oqimlari ta'sirida mo'rtlashib qoladi va ushoqlari ko'chadi. Kuzatuvlardan ma'lumki, beton qoplalmalarni sinchkovlik bilan kuzatganda ham suv, bari bir grunt asosga o'tib ketadi. Yomg'irlar davrida yerosti suvlari grunt asosgacha ko'tariladi. Yerosti suvlari yuqorisida kapillarlar orqali suvga to'yinadigan zona bor. Bunday suvning ko'tarilish balandligi gruntning donadorligiga va zichlanish darajasiga bog'liq. Qumda 30–50 sm ko'tariladi, changsimon va tuproqli gruntlarda bir necha metrga ko'tariladi.

Yomg'ir paytlarda yerosti suvlar sathi ko'tarilib, kapillarlar orqali suvga to'yinish ham yer yuzasiga yaqinlashadi. Bunday sathdan yuqoridagi grunt qatlqidagi suv grunt zarralarini o'rab olgan yupqa parda ko'rinishida bo'ladi, qalinligi mikrometrning ulushlari bilan o'lchanadi; shuningdek, zarralar oralig'ini to'ldirgan bug' ko'rinishida ham bo'ladi. Bevosita qoplama ostidagi grunt qatlamining namligi chuqurroqdag'i namlikdan ko'p bo'ladi; bunga sabab, undagi suv bug'lari tunda kondensatsiyalanib qolishidir. Qoplama ostidagi gruntlar iviganda hajmi kengayadigan xilidan bo'lsa, qoplama do'ngalak bo'lib qolishi mumkin.

Suv grunt asosda, yil davomida statik muvozanatda turmaydi. Tashqaridan suv kirib kelishi, harorat va atmosfera bosimi ta'sirida suv sathi va kapillar ko'tarilish gorizonti o'zgarib turadi, suv pardalari va bug'lari harorati yuqori joylardan pastroq joylarga suriladi. Suv o'tkazmaydigan qoplama ostidagi grunt asos, chuqur joylarda suv ko'tarilishi hisobiga namlanadi.

Suv rejimining o'zgarishi mahalliy iqlimi sharoitlarga bog'liq, chunki unga ta'sir etuvchi omillarning nisbiy ta'siri turli iqlimlarda turlicha bo'ladi. 20.1-rasmida Rossiya Evropa qismining shimoliy-g'arbidan janubi-shraq tomonga surilgan sari namlanish manbalarining ahamiyati ko'rsatilgan. Janubga yaqinlashganda yerosti suvlarini chuqur joylashgan, yog'inlar kamayib, bug'lanish ko'proq bo'lgani sababli suv rejimi qulay bo'ladi; ayniqsa, namlanish jadalligi kamayib, qishda harorat gradienti tufayli namlik qayta taqsimlanishi ham kamayishi bu qulaylikka qo'shimcha bo'ladi. Shuning uchun janubiy qurg'oqchilik zonalarda gruntning namlanishida yerosti suvlarining ta'siri kamayib, bug'lanish va bug'larning siljishi ko'proq ahamiyatlidir. Cho'l zonalarda gruntning namlanish manbayi, asosan,



20. 1-rasm. Rossiyaning Evropa qismida shimoliy-g'arbdan janubiy-sharqqa surilgan sari gruntni namlaydigan manbalarining o'zgarishi:

I – bug'lanish; 2 – yog'inlar; 3 – yerosti suvlarini sathi; I – qishki ko'pchish;  
II – ehtimoliy ko'pchish; III – suv bug'larining kondensatsiyalanishi.

atmosfera yog‘inlari va grunt g‘ovaklaridagi suv bug‘larining kondensatsiyalanishidir.

Shimoliy zonalarda gruntning namlanishida yerosti suvlarining kapillarlar bo‘ylab ko‘tarilishi ko‘proq ta’sir qilib, bug‘larning suvgaga aylanishi ham ahamiyatli bo‘lib qoladi.

## **20.2. Qoplama asosida namlikning qishda qayta taqsimlanishi va ko‘pchish jarayoni**

Gruntlarda qish mavsumida namlik yig‘ilib, qoplama notekis bo‘lib qolishi va bahorgi erishlar natijasida mustahkamlikning keskin pasayish jarayonlari muhandislik amaliyotida «ko‘pchish» deb ataladi.

Grunt muzlaganda haroratlar farqi (gradienti) yuzaga keladi: yerosti suvlar yuzasida plus 4–6°C bo‘lsa, muzlagan gruntda manfiy harorat bo‘ladi. Natijada namlik iliq gruntdagi muzlagan grunt tomon suriladi. Turli suvlar turli haroratlarda muzlagani sababli parda shaklidagi suv va kapillarlardagi suv muzlagan gruntga qarab harakat qiladi. Buning bir nechta manbalari bor.

1. Namlik grunt zarralarini o‘rab olgan suv pardalari bo‘ylab, iliq zarralardan sovuq zarralarga qarab suriladi.

2. Grunt zarralari oralaridagi suv bug‘lari pastki iliq qatlamlardan tepaga ko‘tarilib, u yerdagi grunt zarralarini qoplagan suv pardasiga tegib, kondensatsiyalanadi. Suv bug‘larining bunday ko‘tarilishi, gruntning namligi kapillar namlik hajmiga tenglashganda to‘xtaydi; bunda kapillarlar «menisk» halqalari bilan yopilib qoladi.

3. Suv pardalaridagi namlik nol izoterma darajasida sarflanishini qoplaydigan ingichka kapillarlar bo‘ylab ko‘tariladi.

Grunt ichidagi yirik g‘ovaklarda harorat 0°C dan pastda muz kristallari hosil bo‘ladi. Uning atrofidagi suv pardalari muz kristalli tomon intilib, kristall panjarasiga kirishadi. Kristallning hajmi kattalashib, atrofidagi namlikni o‘ziga tortadi. «So‘rvuchi kuch» hosil bo‘lib, suv pardalardagi namlikni tortaveradi, gruntda muz qatlarni shakllanadi. Uning tabiatini hozircha yaxshi o‘rganilmagan. Tajribalardan aniqlanishicha, «so‘rvuchi kuch», qumloq tuproqlarda 0,01–0,02 MPa, qumoq tuproqlarda 0,03–0,05 MPa, gil tuproqda 0,7–0,9 MPa.

Namlikning so'rilishi va muzlagan gruntda to'planishi changsimon va zarralari 0,05–0,002 mm bo'lgan gruntlarda jadal kechadi. Bunday gruntlarda zarralarning yuzalari suv pardalaridagi namlikni kristallanish markaziga yaxshiroq tortadi. Grunt g'ovaklari yetarlicha yirik bo'lib, muzlashning boshlanishida bug'larning surilishi ro'y beradi.

Tarkibida tuproq zarralari ko'p bo'lgan gruntlarda ko'p miqdorda so'rilgan suv mineral zarralar yuzasida tutib turiladi va suv sekin siljiydi. Shuning uchun qishda namlikning qayta taqsimlanishi sust kechadi.


Prof. N. A. Puzakov ma'lumotlariga qaraganda harorat 0°C dan minus 3°C gacha bo'lganda namlik jadal qayta taqsimlanadi. Undan past haroratlarda suv pardalari muzlab, gruntda namlik siljishi pasayadi.

## 21-bob. AERODROMLARNING BIKIR BO'LMAGAN QOPLAMALARI MUSTAHKAMLIGINI HISOBBLASH

### 21.1. Bikir bo'limgan qoplamlar mustahkamligining mezoni

Aerodrom bikir bo'limgan qoplamasining deformatsiyasi bir vaqtning o'zida yoki oldinma-keyin keladigan jarayonlarning namoyon bo'lishi natijasidir (21.1-rasm). Grunt asos yuklama ostida, aktiv zona chegarasida siqiladi, natijada qoplama  $\delta$  qiymatga cho'kadi va «bukilish chashmasi» deb ataladigan egri chiziqli yuza hosil bo'ladi. Qoplamaning qalinligi va bikirligi qanchalik yuqori bo'lsa, tashqi yuklamaning bosimi shunchalik katta yuzaga taqsimlanadi va, demak, gruntga tushadigan kuchlanish shuncha kam bo'ladi. Yuklama ostida qoplama materiallarining mustahkamlik chegarasidan ortganda qoplamada yoki uning asosi qatlamlarida darzlar hosil bo'ladi.

Yuklamaning qoplama bilan tutashgan yuzasi perimetrida qirquvchi kuchlanishlar hosil bo'ladi. Yuklama katta bo'lganda qirquvchi kuchlar qoplamani o'pirib yuboradi, yuklama ostidagi qismi pastga qarab kengayib boradigan konus shaklida o'yilib chiqishi mumkin.




21.1-rasm. Bikir bo'limgan qoplamaning yemirilishidagi deformatsiyalar.

Asosdagi bog'lanmagan yoki kuchsiz bog'langan materiallarda (mayda tosh, chaqiq tosh, qum) va tagiga to'shalgan gruntda yuzaga kelgan kuchlanishlar ilashish kuchlaridan oshib ketganda, plastik siljish hodisasi ro'y beradi, u yanada kuchayib ketsa, mustahkamlik yo'qoladi.

Bikir bo'limgan qoplama bir xil yuza orqali turli yuklamalar ko'p marta tushganda, masalan, HK ning g'ildiraklari bitta yuzadan qayta-qayta yurganda, qoplamaning egilish chizig'i, yuklamaga qarab, 21.2-rasmda ko'rsatilgan chiziqlardan biriga mos kelib qoladi.

Agar yuklama qoplamaning hisobiy mustahkamligiga mos kelsa yoki undan kichik, asos gruntining qatlami yaxshi qibbilangan bo'lsa, qoplama faqat qaytuvchi buzilishlarga duchor bo'ladi. SUQT ni ekspluatatsiyaga topshirgan, uzil-kesil shakllanish ro'y berayotgan dastlabki pastda qoplama qoldiq deformatsiyasiga uchrashi mumkin; u qo'shimcha zichlanish bilan bog'liq bo'lib, tez orada to'xtaydi va keyin, qoplama faqat qaytuvchi deformatsiyalar tushadi (1-chiziq).

Yuklama katta bo'lganda yoki grunt asosning mustahkamligi vaqtincha pasayganda bahor yoki kuz mavsumida sekin-asta yig'ilib boradigan plastik deformatsiyalar yuzaga keladi (2-chiziq).




**21.2.-rasm. Yuklamani ko'plab marta qo'yganda qoplama deformatsiyasining o'sishi.**

Agar ularning qoplama susaygan davrdagi umumiyligi qiymati qandaydir joiz qiymatdan oshsa, qoplama buziladi (3-chiziq).

Shunday qilib, qoplamlarning mustahkamligi chegeraviy joiz egilish va qoplama mavsumiy sustlashgan davrda tushgan yuklamalar soniga bog'liq. Yuklamalar juda katta bo'lsa yoki grunt mustahkamligi juda pasayib ketса, avvaliga sekin yig'ilib borayotgan cho'kishlar tezlashib ketadi va qoplama to'la yemiriladi.

Aerodrom nobikir qoplamasini egilishining amaldagi yuklamaga bog'liq chizig'i 21.3-rasmida ko'rsatilgan. Qoplama deformatsiyasining tavsifi, qoplamaning ishi egri chiziqning qaysi uchastkasiga to'g'ri kelishiga va amaldagi yuklama bilan qoplamani yemiradigan yuklama nisbatiga bog'liq. Yuklamalar kichkina bo'lganda bukilishlar yuklamalarga to'g'ri proporsional va qaytuvchi bo'ladi.

Yuklama olib tashlanganda deformatsiyalar to'liq yo'qoladi yoki ozgina qoldiq qoladi, u ham bo'lsa, qoplama va uning tagidagi grunt qo'shimcha zichlangani bilan bog'liq.



21.3-rasm. Nobikir qoplama buzilishining amaldagi yuklama kattaligiga bog'liqlik chizig'i:

1 – mustahkam qarshilik bosqichi; 2 – shartli-mustahkam qarshilik bosqichi;  
3 – yemirilish bosqichi.

Yuklama oshganda qoldiq deformatsiyalar yuzaga keladi, ular yuklamaga to'g'ri proporsional. Qoplama ishidagi bu davr yuklamalarga mustahkam qarshilik ko'rsatish bosqichi deyiladi.

Yuklama yanada oshsa, grunt asos va qoplama surilish deformatsiyasi hosil bo'ladi, u ko'zga darrov tashlanmasa-da, yuklama va deformatsiyalarning proporsionalligini buzadi.

Ilgari aerodrom qoplamalarining shu bosqichdagi ishi hisoblangan bunda grunt asoslarda bahor va kuz mavsumidagi o'ta namlikdan ozgina qoldiq deformatsiyalar bo'lishiga yo'l qo'yilgan. Bu, shartli-mustahkam qarshilik bosqichining oxirida qoplama darzlar paytda bo'ladi, lekin ular hali beri qandaydir darajada qarshilik ko'rsatmaydi.

Qoplamaning yejilish bosqichi, u o'pirilib, bir qismi ilgari qayd qilingan darz chegaralari bo'yicha o'yilib chiqqandan keyin sodir bo'ladi, bu darzlar «shtamp» chetidan ( $0,8 \div 1,2$ )  $D$  masofada chiqib, yuklamaga uzatadi ( $D - \text{shtamp}$  diametri).

Aerodrom qoplamlari va nobikir yo'l liboslariga ko'plab marotaba sinov yuklamalari (katta diametrlı «shtamplar» miqyosida) berilganda ma'lum bo'ldiki, o'pirilishdan oldingi nisbiy tang bukilishlar quyidagi empirik formulaga mos kelar ekan:

$$\lambda_{\text{otn}} = \delta/D = a \operatorname{arctg} \frac{h}{D} 2,5 \sqrt{\frac{E_{\text{qop}}}{E_{\text{asos}}}}$$

bu yerda:  $h$  – qoplama qalinligi;  $D$  – yuklama uzatadigan shtamp diametri;  $a$  – qoplama turiga bog'liq koeffitsyent. Mustahkam qarshilik bosqichining oxirida asfalt-beton qoplamalar uchun  $a=0,03$  (organik material bilan ishlov berilgan chaqiq toshli qoplama uchun  $a=0,035$ ; organik bog'lovchi bilan ishlangan gruntli asoslar uchun  $a=0,04$ ). Shartli mustahkam qarshilik bosqichi uchun  $a=0,055 \div 0,07$  bo'lishi mumkin.

Deformatsiyalar qaytuvchi va qaytmas deformatsiyalar bosqichida sodir bo'lgani sababli, (yuqoridagi) formuladagi qoplama va to'shamma grunt materiallarining deformatsiyalanish xususiyatlari deformatsiya modullari  $E_{\text{qop}}$  va  $E_{\text{asos}}$  bilan tavsiflanadi.

Yaqin-yaqinlarga aerodrom qoplamlarini yo'lsizlik sharoitlarida grunt asosning sustlashuvi davrida plastik deformatsiyalar yig'i-lib qolish ehtimoligidan kelib chiqib, kuchsizlanishni joiz miqdor bilan cheklab hisoblanardi. Bunda, g'ildiraklar bitta izdan o'tishi ko'p elips deb va xavfli deformatsiyalar hosil bo'lish ehtimolligi juda kam, deb qabul qilinardi.

Ko'p o'rini havo kemalari – aerobuslardan foydalanish uchish xavfsizligini kafolatlashga talablarni kuchaytiradi. Shuning uchun aerodrom qoplamlarini loyihalashda plastik deformatsiyalarga o'rinni qoldirmay, qaytuvchi bosqichda ishlash shartidan kelib chiqiladi. Bu usul prinsip jiqaqidan avtomobil yo'llarini loyihalashga yaqin, lekin ancha oddiy.

Qoplamaning umumiy qalinligini, yuklama ko'plab marta qo'yilganda qaytar egilish chegaraviy joiz qiymatdan ishlamasligi kerakligi shartidan kelib chiqib belgilanadi; bunda bog'lovchilar bilan mustahkamlangan bosh materialli konstruktiv qatlamlardagi kuchlanish joiz qiymatlardan oshmasligi kerak. Qoplamlar qaytuvchi egilishga hisoblash asosiy masala hisoblanadi. U qo'pqatlamlari konstruktsiyaning yuklamalarga qarshiliginini kopleks tavsiflaydi.

Qurilish mexanikasi nuqtai nazaridan aerodrom qoplamlari qo'pqatlamlari sistema bo'lib, qatlamlarning bikirligi har xil, grunt asos ustida yotadi, grunt asos esa qaytuvchi – izotron (bir xil xususiyatlari) yarimfazo deb qaraladi.

Bosimni uzatish, alohida qatlamlarning cho'kishi va siqilishi qatlam qalinligi, elastik moduli va deformatsiya jarayonida bir qatlam boshqa qatlam ustida sijishi ehtimoliga bog'liq. Bir jinsli bo'limgan, murakkab deformatsiyalaruvchi materiallar (aerodrom qoplamlarning ko'p konstruktsiyalari, asfalt-beton, zichlangan chaqiq tosh, grunt va boshqalar) uchun grunt asosga uzatiladigan kuchlanishni yuqori aniqlik bilan hisoblab beradigan nazariy yechim hali topilmagan. Shuning uchun qoplamlarni hisoblashda birmuncha shartlilik bilan ko'pqatlamlari muhitlarda kuchlanishning taqsimlanishi qonuniyatidan kelib chiqiladi (elastiklik nazariyasidan ishlab chiqilgan). Bu sxemalarning qoplamlarga qo'llashni shu bilan asoslash mumkinki,

egilishlar ozgina bo'lganda qoplama chiziqli deformatsiyalanuvchi material sifatida ko'rildi.

Masala o'ta murakkab bo'lgani uchun hozircha ba'zi xususiy holatlar o'z yechimini topgan. Qaralayotgan qatlamlar soni qancha ko'p bo'lsa, masala shunchalik murakkablashadi. Shuning uchun e'lon qilingan yechimlarning akslari ikki qatlamlili sistemaga tegishli bo'lib, yuqori qatlamning elastiklik moduli pastdagi qaytuvchi – izotrop yarimfazonikidan katta.


Aerodrom qoplamlari kosntruksiysi ancha xilma-xil. Teng mustahkamlikni ta'minlash va mustahkamlik bo'yicha variantlarni taqqoslash uchun, ular ekvivalent elastiklik moduli bilan baholanadi; shunday bir jinsli yarim fazoning, unga hisobiy yuklama qo'yilgandagi deformatsiyasi ko'pqavatli qoplamadagi kabi bo'ladi.

Aerodrom qoplamasining loyihalanayotgan konstruktsiyasi elastiklik moduli prof. B. I. Kogan tuzgan nomogrammadan aniqlanadi. Bu nomogramma ikki qavatli sistemadagi kuchlanishlar va deformatsiyalar yechimi asosida tuzilgan (21.4-rasm). Nomogramma yuqori va quyi qatamlarning elastiklik moduli –  $E_1$  va  $E_2$  ni, yuqori qatlamning nisbiy qalinligi  $h/D$  ni, ikki qatlamlili yaxlit sistemaning ekvivalent moduli  $E_{ekv}$  ni bir-biri bilan bog'laydi. Bu kattaliklardan to'rtasini bilgan holda, nomogrammadan beshinchisining qiymatini topish mumkin. Masalan, qoplama qalinligi  $h$ , uning elastiklik moduli  $E_1$ , ostiga to'shalgan gruntning elastiklik moduli  $E_2$  va qoplama orqali ostiga to'shalgan gruntga yuklama tushiradigan doira yuzachaning diametri  $D$  ni bilgan holda, ikki qatlamlili «qoplama-grunt» sistemasining ekvivalent elastiklik modulini aniqlash uchun quyidagi amallar bajariladi.

Avval doiraning diametri topiladi. Hisoblash pnevmatik shisha izi orqali olib boriladi; bunda g'ildirakka tushadigan yuklama miqdori tayanchning boshqa g'ildiraklari ta'sirini hisobga oladigan koeffitsiyent qadar ko'paytililadi. Ekvivalent modulini aniqlashda ko'p qatlamlili konstruktsiya bitta qatlam bilan shartli ravishda almashtiriladi; uning qalinligi hamma qatamlar yig'indisi  $H$  ga teng. Elastiklik moduli esa qatamlarning o'rtachalashtirilgan elastik moduliga teng (21.5- rasm); bunda yuqori va quyi qatlam va ostiga to'shalgan grunt hisobga olinadi:

$$E_{\text{ov}} = \frac{E_1 h_1 + E_2 h_2 + E_3 h_3 + \dots}{h_1 + h_2 + h_3 + \dots}. \quad (21.1)$$

Ordinata o'qida (21.4-rasm)  $E_2/E_{\text{ov}}$  ga mos, abssissada esa  $H/D$  ga mos nuqta topiladi. Bu nuqtalardan tik chiziqlar chiqarib, ular kesishgan nuqtadan o'tgan nomogrammdan interpolatsiya bilan chiziqning qiymati aniqlanadi. U  $\psi = E_{\text{ov}}/E_1$  nisbatni beradi; bundan loyihalanayotgan qoplamaning ekvivalent elastiklik moduli topiladi:



**21.4-rasm.** Ikki qatlamlı sistemaning ekvivalent elastiklik modulini aniqlash uchun nomogramma (chiziqlar ustidagi raqamlar ikki qatlamlı sistemaning ekvivalent elastiklik moduli  $E_{\text{ekv}}$  yuqori qatlamning shunday moduliga nisbatini bildiradi –  $E_{\text{ekv}}/E_1$ ).


$$E_{\text{ekv}} = \psi E_1.$$

Hisobiy yuklama ta'sir qilganda bir jinsli, ekvivalent yarimfazoning deformatsiyasi Bussineska formulasidan topiladi. Bu formula elastik izatron yarimfazo yuzasining doira bo'ylab tekis taqsimlangan yuklama ostida eglishi uchun hisoblangan:

$$\delta = \frac{qD(1-\mu^2)}{E_{\text{ekv}}}.$$

G'ildiraklarning pnevmatik shinasidagi bosim  $q$  HK ning hisobiy bosimiga mos, doira diametri  $D$  esa hisobiy yuklamaga mos.


Aerodrom qoplamlari materiallari uchun Puasson koefitsyenti  $\mu=0,25 \div 0,35$ , shuning uchun katta xatolikka yo'l qo'ymay va ilgari yo'l qo'yilgan chekinishlarni hisobga olib,  $\delta=0,9q D/E_{\text{ekv}}$  deb qabul qilish mumkin.



21.5-rasm.

Aerodrom qoplamasasi loyihalanayotgan konstruktsiyasining mustahkamligi quyidagi holda ta'minlanadi: agar qoplamaning nisbiy hisobi  $\lambda_N = \delta/D = 0,99q/E_{ekv}$  qoplamaning me'yoriy eng katta joiz egilishidan kichik bo'lsa, bu joiz egilish tajribasidan yoki aerodromning turli uchastkalarining ish sharoitlarini hisobga oluvchi koefitsiyent  $k_{usl}$  ni kiritib o'tkaziladigan tajribadan topiladi (19.3-jadval).

$$\lambda_r \leq \lambda_{norm} k_{kuch} \quad (21.2.)$$



21.6-rasm.

Turli gruntlar ustiga qurilgan qoplamlarning chegaraviy nisbiy egilish qiymatlari 21.6- rasmida berilgan; bunda HI shinalaridagi bosim turli qiymatlarga ega, shuningdek, HK laridan bir sutkada qoplamaga yuklamalar tushish soni ham har xil va qoplamaning xizmati loyihalangan oxirgi yilga to'g'ri keladi. Bu muddat asfalt-beton qoplama uchun 10 yil, yengillashtirilgan tur uchun 5 yil qabul qilinadi.

Saralangan, organik yoki mineral bog'lovchi bilan ishlangan mustahkam toshlardan qurilgan yengillashtirilgan qoplamlalar uchun hisobiy nisbiy egilishi 21.6-rasmidagi qiymatlarga qaraganda 20% ko'paytiriladi.

Agar aerodromning avval ko'zda tutilgan qoplamasini (21.2) shartni qanoatlantirmasa, qatlamlar qalinligi ilgari nazarda tutilganidan kattaroq olinadi. Mustahkamlik zaxirasi ortiqcha bo'lganda qoplamaning qimmatbaqo konstruktiv qatlamlardan birining qalinligini kamaytirish kerak; bunda turli materiallardan qurilgan qatlamning minimal qalinligiga qo'yiladgan talab bajarilishi kerak. Mustahkamlik zaxirasi yetarlicha bo'lmasa, asos qatlamlarini qalinlashtirish kerak. Eng yaxshi yechimni bir nechta variantni taqqoslab topiladi.

Aerodromlarga tutashadigan yo'llar libosini loyihalayotganda bikir bo'Imagan yo'l liboslarini BCH 46-83 da bayon etilgan usullar bilan hisoblab topiladi («Bikir bo'Imagan yo'llarning bikir bo'Imagan yo'l liboslarini loyihalash bo'yicha yo'rqnoma»). Aerodromdagi bikir bo'Imagan qoplamlarni hisoblash usuli yo'llardagi kabi, lekin qator tafsilotlari farq qiladi.

Yo'l liboslarida bir-biriga bo'sh yopishgan qum yoki mayda toshli qatlamlar bo'lgani uchun shu qatlamlarning siljishlariga qarshilik qilish xususiyatlari tekshiriladi. Agar siljituvcchi kuchlar materiallar bir-biriga ilashish kuchidan katta bo'lsa, yuqori qatlam qalinligi tegishlicha kattaroq qilinadi.

Yo'l libosi qatlamlaridan birini boshqa materialdan qilinadigan ekvivalent qatlam bilan almashtirish zarurati tug'ilganda yo'l libosining «o'rtachalashtirilgan elastiklik moduli» tamoyilidan kelib chiqishi kerak. U prof. G. I. Pokrovskiy tomonidan taklif etilgan bo'lib, quyidagilardan iborat: agar grunt utida yotgan, elastiklik moduli  $E_1$ , va qalinligi  $h_1$  bo'lgan material qatlamini moduli  $E_2$ , bo'lgan material

bilan almashtirish zarur bo'lsa, gruntli asosning ishlash sharoiti o'zgartirmasligi uchun teng yuklamalardan buzilishlar tengligini saqlab qolishi kerak. Agar bu qatlamlarni cheksiz plitalar deb qaralsa, buning uchun ularning silindrik bikirligi teng bo'lishi zarur.

$$\Omega = \frac{Eh^3}{12(1-\mu^2)} .$$

Turli materiallardan qilingan qoplamlalar uchun bikirlangan ifodalarni tenglashtirib va ularning Puasson koefitsientlarini teng deb qabul qilib  $h_1 = h_2 \sqrt[3]{E_1 / E_2}$  ni hosil qilamiz. Biroq, yo'l materialari Guk qonuniga to'la javob bermagani sababli, prof. N. N. Ivanovning taklifi bilan ekvivalent qatlam qalinligi quyidagi formula bilan topiladi:

$$h_1 = h_2 \sqrt[2.5]{E_1 / E_2} .$$

Ko'p qatlamlili yo'l libosining ekvivalent elastiklik modulini 21.4-rasmida nomogrammada topiladi; bunda pastki qatlamdan boshlab yuqoriga qarab ekvivalent modullar topib boriladi; yuqori qatlam bilan tugaydi. Qoplama yuqlama uzatuvchi yuza hamma qatlam uchun bir xil olinadi.

## 21.2. Qoplamaning biriktirilgan qatlamlaridagi cho'zuvchi kuchlanishlarni tekshirish

Aerodrom qoplamlari bukilganda uning ayrim qatlamlarida (ASFALT-BETON, organik yoki noorganik bog'lovchilar bilan ishlangan materiallar qorishmasi) cho'zuvchi kuchlanishlar paydo bo'lib, cho'zishga qarshilikdan ortib ketishi mumkin.

Bukilishga qarshilik qiladigan monolit materiallardan qurilgan konstruktiv qatlamlarning mustahkamlik sharti

$$\sigma_r \leq R_{ab} k_{kuch},$$

bu yerda:  $\sigma_r$  – ko'rileyotgan qatlamni bukishdagi eng katta cho'zuvchi kuchlanish, MPa;  $R_{ab}$  – ASFALT-BETONNING cho'zilishga hisobiy qarshiligi, yuqlama ko'p martalab turishi hisobga olinganda;  $k_{kuch}$  – asfalbt-beton qoplamaning aerodromda yotqiziladigan joyiga qarab qo'llaniladigan

ish sharoitlari koeffitsyenti. A uchastka uchun I Б va B ga – I, I va Г – I.2. Biriktirilgan qatlardagi hisobiy kuchlanish t.f.d. M. B. Korsunskiy taklif qilgan formuladan aniqlanadi.

$$\sigma_2 = \frac{4k_{\text{din}} k_N p}{\pi} \frac{h}{D} \frac{E_1}{E_{\text{asos}}} \left( 1 - \frac{2}{\pi} \arctg 1,1 h \sqrt{\frac{E_1}{E_{\text{asos}}}} \right) \arctg^2 \frac{D}{1,1 h \sqrt{\frac{E_1}{E_{\text{asos}}}}}.$$


bu yerda:  $p$  – hisobiy HKning pnevmatik shinalaridagi bosim;  $k_{\text{din}}$  – yuklamaning dinamikligini hisobga oluvchi zaxira koeffitsyenti;  $k_N$  – qoplamaning ish sharoitlari bir xil emasligini hisobga oluvchi koeffitsyent;  $h$  – qoplamaning cho'zilayotgan qatlarning tagigacha bo'lgan qalinligi;  $E_1$  – qoplamaning elastiklik moduli;  $E_{\text{asos}}$  – qoplama ostidagi konstruktiv qatlamlarning ekvivalent elastiklik moduli (21.5-rasm).  $D$  – doira diametri; samolyot g'ildiragining qoplama bilan tu-tash yuza diametriga teng.

$\sigma_2$  ning qiymatini aniqlash uchun nomogramma ishlab chiqilgan (21.7-rasm).  $E_{AB}/E$  nisbatni  $h/D$  nisbat bilan bog'laydi.  $E_{AB}$  – birlashtirilgan qatlam  $E_{AB}$  ning elastiklik moduli;  $E$  – quyi qatlamlarning ekvivalent moduli.

Ko'p qatlamlili asfalt-betonning mustahkamligini hisoblashda kuchlanishlar faqat quyi qatlamlarda tekshiriladi; bunda hamma asfalt-beton o'rtachalashtirilgan elastiklik moduli

$$E_{AB} = \frac{E_{1AB}h_1 + E_{2AB}h_2 + \dots}{h_1 + h_2 + \dots}$$

ga ega deb hisoblanadi. Asfalt-beton tagidagi asos qatlamlarning ekvivalent elastiklik moduli 21.4-rasmdagi nomogrammadan topiladi. Bu holda  $E_2$  asfalt-beton tagidagi asos qatlamlarining (grunt asosdan tashqari) o'rtacha elastiklik moduli bo'ladi. Aniqlangan eng katta cho'zuvchi kuchlanish joiz qiymati bilan taqqoslanadi. Agar haqiqiy kuchlanish ruxsat etilgandan 5% dan ko'proqqa oqib ketsa, qoplama qalinligi oshiriladi yoki asosning bikirligi ko'paytiriladi. Qoplamaning oraliq qatlamlaridagi cho'zuvchi kuchlanishni tekshirganda nomogrammadan yuqori qatlamlarning o'rtacha moduli topiladi, quyi qatlamlar esa ekvivalent yarimfazoga keltiriladi va ularning o'rtacha elastiklik moduli (21.1.) tenglamadan topiladi.




21.7-rasm. Asfalt-betondagi  $q=1$  yuklamadan hosil bo‘ladigan cho‘zuvchi solishtirma kuchlanishni aniqlash uchun nomogramma.

## 22-bob. AERODROMLARNING BIKIR QATLAMLARI MUSTAHKAMLIGINI HISOBBLASH

### 22.1. Tabiiy omillar va yuklamalar ta'sir etganda qoplamlar ishi

Bikir qoplamlarning bukilishiga nafaqat HK lar g'ildiraklaridan tushadigan yuklamalar, balki qoplama qalnligi bo'yicha haroratlarning har xilligi, havo haroratining o'zgarishlari, grunt qishda yaxlab qolishi, bahorgi erishda notekis cho'zilishi ham sabab bo'ldi. Beton sirtining yemirilishi yuklamalar ko'plab marta ta'sir etishidan ham kelib chiqadi; ayrim hollarda tushgan yuklamalar keltirib chiqargan kuchlanishlar esa ruxsat etilgan chegaradan oshmaydi. Bunday yemirilishlarning sababi bir plitadan boshqasiga yuklama uzatiladigan joylarda kuchlanishlar to'planib qolishidir; bunda qoplama ostidagi gruntda qoldiq cho'kish hosil bo'ladi. Yuklamalar ko'plab marta tushavergach, plitaning ba'zi joylari gruntga tegmay qolib, konsol holatda yoki kontur bo'yicha ishlaydi. Bundan tashqari plitaning o'zida ham qoldiq deformatsiyalar hosil bo'ladi.

Plitaning xizmat muddati asosining ishonchligiga bog'liq. U qanchalik mustahkam bo'lsa va qoldiq deformatsiyalar to'planishiga moyil bo'lmasa, betonda deformatsiyalar shunchalik sekin rivojlanadi.



22.1-rasm. Beton qoplama plitalarining deformatsiyasi:  
a) tepe yuzaning harorati pastkisidan baland; b) aksincha; d) plitaning hamma yog'ida bir xil harorat.

Plitaning yuqori qismi kunduzi qizib, tunda soviydi; ostining harorati, gruntning issiqlik sig‘imi hisobiga sekin o‘zgaradi. Usti va osti harakatlarining farqi hisobiga plita qiyshayadi (22.1-rasm), bunga qo‘shti plitalar va o‘z og‘irligi qarshilik qiladi.


Havoning sutkalik o‘rtacha harorati mavsumga qarab o‘zgarganda, plitaning umumiy harorati ham shunga mos o‘zgaradi. Kuz va qish kelishi bilan plitalarning o‘lchamlari qisqaradi, bahor va yozda kengayadi. Bu holatni qurilishda e’tiborga olib, betonni yotqizish davriga qarab, choklar keraklikcha o‘zgartiriladi.

Plitalar hararkat ta’sirida erkin kegayib, torayishiga, plitaning osti yuzasi bilan asos o‘rtasidagi ishqlanish va ilashish kuchlari qarshilik ko‘rsatadi. Bu kuchlar plita ko‘ndalang kesimining og‘irlik markaziga nisbatan ekssentrik tushadi va qo‘srimcha eguvchi kuchlanishlar hosil qiladi. Plitaning o‘lchamlari va harakatlar farqi qancha katta bo‘lsa, bu kuchlanishlar shuncha yuqori bo‘ladi. Ularni kamaytirish uchun deformatsiya choklari qilinadi.

Beton qoplamlar asosi yaxlaganda namlik boshqa joylarga ko‘chib, muz linzalari hosil qiladi, natijada qoplama vertikal yo‘nalishda ko‘tariladi – ko‘pchiydi. Qoplama yaxlit bir xil masofaga ko‘tarilsa, yaxshi, lekin grunt qatlamlari har xil bo‘lagni yoki yaxlaydigan qatlamga namlik bir tekis yoyilmagani sababli, ko‘pchish jarayoni notekis kechadi va har yer-har yerda do‘ngliklar paydo bo‘ladi, oqibatda plitalarda bukuvchi kuchlanishlar yuzaga keladi (22.2-rasm).

Bahorgi erish davrida qishda ko‘talib qolgan qoplama cho‘kadi. Erish ham notekis kechishi mumkin, shunda, qoplama muzlaganda bir tekis ko‘tarilgan bo‘lishiga qaramay, notekis cho‘kadi.

Notekis ko‘pchiganda yoki notekis erganda plita gruntga bir tekis tegib turmay, ba’zi joylari ko‘tarilgancha osilib qoladi. Shunday paytda plitaning og‘irligi ta’sirida hosil bo‘lgan kuchlanish betonning egilishga mustahkamlik chegarasidan oshib ketib, aerodrom qoplamasini ekspluatatsiyaga topshirilmayoq yemirila boshlashi mumkin. Shuning uchun bunday yemirilishlarga qarshi choralar ko‘pchishlarni umuman yo‘qotishi yoki minimumga keltirishi kerak.



22.2-rasm. Asosdagи grunt hajmi o'zgarganda beton qoplamaning deformatsiyasi:  
a) gruntu larning notejis ko'pchishi; b) grunt eriganda asosning notejis cho'kishi.

## 22.2. Bikir qoplamlar mustahkamligini hisoblashning asosiy qoidalari

Aerodromlarning bikir qoplamlari chegaraviy holatlar usuli bilan hisoblanadi; bu usul qoplamlarning HK laridan tushadigan yuklamalar va tabiiy omillar ta'siri ostidagi ishni to'liq hisobga olish imkonini beradi. Chegaraviy holat sodir bo'lganda konstruktsiya tashqi ta'sirlarga qarshilik qila olmaydi yoki ekspluatatsiya sharoitlari bo'yicha yo'l qo'yib bo'lmaydigan deformatsiyalarga duchor bo'ladi va shikastlanadi. Beton va armobeton qoplamlarda darslar hosil bo'lsa, ularning yuk ko'tarish qobiliyati yo'qoladi. Shuning uchun bunday qoplamlar uchun dars hosil bo'lishiga yaqin holatlar mustahkamlik bo'yicha chegaraviy holat qisoblanib, hisobiy holat sanaladi.

Oldindan zo'riqtirilgan qoplamlarning har tomonidan siqilgan kesimlari uchun darslar hosil bo'lish bo'yicha chegaraviy holat hisobiy sanaladi. Zo'riqtirilmagan armatura quyidagi temir-beton qoplamlarda, ekspluatatsiya davrida darslarga yo'l qo'yiladi, lekin kengligi cheklanadi. Bunday qoplamlar uchun hisobiy chegaraviy holat – mustahkamlikning chegaraviy holati bo'lib, u cho'zilgan armaturadagi kuchlanishlar hisobiy qarshilikka yetganda sodir bo'ladi; hisobiy chegaraviy holat yana, darslarning ochilishi bo'yicha chegaraviy holati bilan ham baqolanadi; uning eni 0,3 mm dan oshmasligi kerak. Qoplamani hisoblash maqsadi ana shunday chegaraviy holatlar ro'y bermasligini kafolatlashdan iborat.

Shu bilan birga bu kafolatlar iqtisodiy jiqatdan bekorchi bo'lmasligi kerak, ya'ni qoplama plitalaridagi kuchlar miqdori chegaraviy joiz qiymatlarga yaqin bo'lishi kerak.

Yuqorida aytilgan chegaraviy holatlar bukvchi kuchlar hosil qilgani uchun bikir qoplamlarni shu kuchlarga hisoblanadi. Shuni hisobga olib hisoblash shartini quyidagicha yozish mumkin:

$$M_h < M_{j.ch.}, \quad (22.1)$$

bu yerda:  $M_h$  – g'ildiraklar eng qulay joylashganda plita kesimidagi hisobiy moment;  $M_{j.ch.}$  – ko'rileyotgan kesim, ular joiz chegaraviy bevruchi moment.

Bu formulaning ma'nosi shuki, konstruktsiyadagi eng katta ehtimoliy kuch (dinamika ortiqcha yuklamani hisobga olgan holda) uning eng kichik yuk ko'tarish qobiliyatidan (material mustahkamligining ehtimoliy o'zgarishini hisobga olgan holda) katta bo'lmasligi kerak.

Qoplamlarni hisoblash  $M_h$  va  $M_{j.ch.}$  momentlarini aniqlashdan iborat; ularning farqi 5% dan katta bo'lmasligi kerak.

Aerodromlarning bikir qoplamlari HK lari g'ildiraklaridan tushadigan yuklamalar ostida ishlashi murakkab jarayon bo'lishidan, shuningdek, grunt va betonning xususiyatlaridan kelib chiqib, hisoblashda quyidagi chekinishlar qabul qilinadi:

1. Qoplama plitalaridan ichki kuchlar (bukuvchi momentlar) va deformatsiyalar (egilishlar) elastik asosga o'rashgan plitaning hisobiy sxemasi bo'yicha aniqlanadi; bunda HK g'ildiraklaridan tushadigan yuklama markazda (simetrik) joylashgan deb qaraladi. Yuklamaning nosemetrik joylashuvi va plitalar bir biri bilan turli usulda biriktirilgani bukvchi momentlarga kiritiladigan tuzatish kondensati orqali aniqlanadi.

2. Hisoblashda HK g'ildiraklaridan yuklamalar statik holatda tushadi deb hisoblanadi. Ularning zarbali va qisqa muddatli ko'ri-nishlari qoplamaning turli uchastkalari uchun dinamik koeffitsiyent orqali hisobga olinadi. Plitadagi chegaraviy holatlar yuklamaning ko'p martalab tushishini hisobga olib aniqlanadi.

3. Gruntlarning qarshiligi yil davomida o'zgarishini hisobga olib, grunt asosining hisobiy tavsifi sifatida qoplamaning eng kichik mustahkamligi (bahorgi erish) olinadi. Grunt asosining yuklamasi va deformatsiyasi orasida chiziqli bog'lanishning yo'qligi grunting

hisobiy tavsifini tanlash yo‘li bilan hisobga olinadi; hisobiy tavsif deganda ko‘rilayotgan turdagи qoplamaga hisobiy yuklamalar tushganda hosil bo‘ladigan zo‘riqish holatidagi to‘sama koeffitsiyenti tushuniladi.

4. Plitalarda yilning turli mavsumlarida, sutkaning turli soatlarida hosil bo‘ladigan harorat va kamchilikdan kelib chiqadigan kuchlanishlar, vaqt o‘tishi bilan beton mustahkamligining ortishi, yuklamalarning takror-takror tushishlari bikir qoplamaning ishslash sharoiti koeffitsiyenti bilan hisobga olinadi.

### **22.3. Bikir qoplamaning plitalarida haroratdan kuchlanishlar**

Bunday kuchlanishlar ikki xil sabab bilan yuzaga kelishi mumkin: plitalarning o‘rtacha harorati o‘zgarganda ularning gorizontal surilishiga gruntlarning qarshiligidan; plitalar erkin buralib ketishiga qo‘shni plitalar (siqib qo‘yishi) qarshiligi, o‘z og‘irligi va plita tagining asos bilan ilashuvidan.

Bu omillar ba’zan plitalardagi kuchlanishlarga shunchalik ta’sir etadiki, beton qoplama, hali unga hisobiy yuklama tushmay turib yemirila boshlashi mumkin.

Bikir qoplalmalarning harorat rejimi unga quyosh radiatsiyasining ta’siri bilan aniqlanadi; bu esa qurilish joyining geografik o‘rni, yil mavsumi va sutka vaqtiga bog‘liq.

Qoplalmalarning harorat kuchlanishiga hisoblash nuqtai nazaridan harorat rejimining quyidagi parametrlari ahamiyatli: beton plitaning o‘rtacha haroratining sutkalik sakrashi – plitaning eng katta va eng kichik o‘rtacha harorat (sutka davomida); beton plitaning mavsumiy o‘rta haroratining sakrashi; plitaning qalinligi bo‘yicha eng katta harorat gradientining plita usti va osti haroratlari farqining qalinligiga nisbati. Hisoblar uchun gradient olinadi; uning vaqt oni haroratlar farqi eng katta qiymatga yetgan (manfiy yoki musbat) vaqtga to‘g‘ri keladi.

Metiostantsiyalarning ma’lumotiga asoslanib, beton qoplalmalarning harorat parametrlarini aniqlash usulini professorlar B. S. Rayev-Bogoslovskiy va L. I. Goretskiy ishlab chiqishgan. Unga ko‘ra qoplama yuzasi haroratining tebranish amplitudasи:

$$A_{\text{his}} = A_{\text{havo}} + A_{\text{ekv}},$$

bu yerda:  $A_{\text{havo}}$  – havo harorati tebranishining amplitudasi.

$$A_{\text{havo}} = \frac{t_B - t_{\min}}{2};$$

$t_B$  – hovaning ko‘rilayotgan oy uchun, soat 13<sup>00</sup> dagi o‘rtacha oylik harorati;  $t_{\min}$  – o‘sha, o‘rtacha minimal harorat;  $A_{\text{ekv}}$  – shartli harorat; beton qaplama yuzasiga hisobiy vaqt mobaynida bevosita tushadigan quyosh radiatsiyasining jadalligini tavsiflaydi (22.1-jadval).

Beton plita o‘rtacha haroratining sutkalik hisobiy sakrashi:

$$\Delta t_{\text{ort}}^{\text{sut}} = A_{\text{his}} f_h.$$

bu yerda:  $f_h$  – betonning harorat o‘tkazuvchanligiga bog‘liq koeffitsiyent (22.2-jadval).

Beton plita o‘rtacha haroratining mavsumiy hisobiy sakrashi:

$$\Delta t_{\text{ort}}^{\text{sut}} = t_{\text{is}} - t_{\text{sov}},$$

bu yerda:  $t_{\text{is}}$  – qavoning eng issiq oydagisi o‘rtacha harorati;  $t_{\text{sov}}$  – o‘sha, eng sovuq oyda.

22.1-jadval

Beton turi	A <sub>ekv</sub> , °C qurilish joyining geografik o‘rnini uchun				
	35°	40°	45°	50°	55°
Oddi, oq	5,5	5,4	5,2	4,5	4,0
Qoramtil sementli	8,2	8,0	7,7	7,0	6,0

22.2-jadval

Beton qoplamaning qalinligi, sm	Beton qoplamaning quyidagi harorat o‘tkazuvchanligidagi, ( $\text{m}^2/\text{soat}$ ) $f_h$ koeffitsiyent			
	$2,5 \cdot 10^{-3}$	$3,0 \cdot 10^{-3}$	$4,0 \cdot 10^{-3}$	$6,0 \cdot 10^{-3}$
10	1,36	1,40	1,54	1,56
20	0,98	1,04	1,12	1,24
30	0,72	0,80	0,88	1,00
40	0,56	0,62	0,68	0,82
50	0,46	0,50	0,56	0,68

Beton plitadagi hisobiy harorat gradienti:

$$t_{\text{grad}} = k_n h + A_{\text{his}} d_n$$

Bu yerda:  $k_n$  – haroratning plita orqali tranzit oqimini hisobga oluvchi koeffitsiyent,  $^{\circ}\text{C}/\text{m}$ ;

$k, ^{\circ}\text{C}/\text{m}$

Aprel	0
May	15–17
Iyun	17–20
Iyul	18–21
Avgust	11–15
Sentabr	0

$d_n$  – betonning harorat o‘tkazuvchanligini va plita qalinligini hisobga oluvchi koeffitsiyent (22.3-jadval).

22.3-jadval

Beton qoplamaning qalinligi, sm	Beton qoplamaning quyidagi harorat o‘tkazuvchanligidagi, ( $\text{m}^2/\text{soat}$ ) $d_n$ koeffitsiyent			
	$2,5 \cdot 10^{-3}$	$3,0 \cdot 10^{-3}$	$4,0 \cdot 10^{-3}$	$6,0 \cdot 10^{-3}$
10	0,71	0,66	0,54	0,51
20	0,97	0,94	0,89	0,82
30	1,06	1,05	1,03	0,96
40	1,06	1,06	1,07	1,05
50	1,06	1,06	1,07	1,07

Beton qoplamlar plitalari haroratining hisobiy tebranishini bilgan holda ularda yuzaga keladigan kuchlanishlarni aniqlash mumkin. Plita haroratining notekis o‘zgarishini hisobga olish. Beton plitaning o‘rtacha harorati pasayganda uning uzunligi qisqaradi, plita uchlari o‘rta chizig‘iga yaqinlashadi; harorat oshganda esa – o‘rtasidan boshlab kengayadi. Ikkala holatda o‘rta qismida surilishlar deyarli bo‘lmaydi.

Yarim plitaning surilishga qarshiligi taxminan yarim plita og'irligini plitaning asos bo'ylab surilishi o'rtacha koeffitsiyentiga ko'paytirilganiga teng va ostki yuzasiga tushadi (22.3-jadval).

$$T = \frac{LBhv}{2} f,$$

bu yerda:  $L$ ,  $B$ ,  $h$  – plitaning uzunligi, eni, qalinligi;  $v$  – beton og'irligi;  $f$  – surilish koeffitsiyenti, 0,9–1,8.

Plitadagi ekssentrik  $e=h/2$  da markazdan chetdagi siqilishdan hosil bo'lgan cho'zuvchi kuchlanish:

$$\sigma = \frac{T}{Bh} \left( 1 \pm \frac{6e}{h} \right) = \frac{T}{Bh} (1 \pm 3).$$

Plitaning qisqarishi va betonda cho'zuvchi kuchlanishlar hosil bo'lishi eng xavfli.  $T$  ning qiymatlarini ifodaga qo'yib, hosil qilamiz:

$$\sigma = \frac{4BLhv^f}{2Bh} = 2fvf \quad \text{yoki} \quad L = \frac{\sigma_d}{2vf},$$

bu yerda:  $\sigma_d$  – beton mustahkamlik chegarasining ulushi; uni hisoblashda harorat kuchlanishlarini qabul qilish uchun ajratish mumkin.

L. I. Goretskiy ma'lumotlariga ko'ra:


$$\sigma_d < (0,10 \div 0,15)R_i^n.$$

Yanada aniqroq hisoblar uchun beton plitaning asos bo'ylab surilishini ko'rib chiqish zarur. Plitadagi harorat tebranishlarining uning gorizontal deformatsiyalari bilan bog'liqligini ifoda qiladigan diferensial tenglama quyidagi ko'rinishga ega:

$$\frac{d\delta}{dx} = \alpha \Delta Q_{cr} - \frac{N(1-\mu^2)}{Eh},$$

bu yerda:  $N$  – plitaning ixtiyoriy kesimidagi normal kuch.

$$\frac{d^2\delta}{dx^2} - \frac{C_q(1-\mu^2)}{Eh} \delta = 0$$



22.3-rasm. Bikir qoplamlarning plitalardagi kuchlanishlarini  
(ularning harorati bir tekis o'zgargandagi) aniqlash uchun hisobiy sxema  
( $f_{\max}, f_{\min}$  – surilishga qarshilik koefitsiyentlari).

Bu tenglamaning yechimini I. A. Mednikov quyidagicha beradi:

$$\delta_{\max} = \alpha \Delta Q_{0r} \frac{th \frac{nL}{2}}{n};$$

$$\sigma = \alpha \Delta Q_{0r} \frac{E}{1-\mu^2} \left( 1 - \frac{1}{ch \frac{nL}{2}} \right); \quad n = \sqrt{\frac{c_g(1-\mu^2)}{Eh}},$$

bu yerda:  $\sigma_{\max}$  – plita chetining siljishi,  $\sigma$  – plitaning o'rta qismidagi kuchlanish;  $\alpha$  – betonning haroratdan kengayish koefitsiyenti;  $\Delta Q_{0r}$  – o'rta haroratinig sakrashi (ko'rilib yotgan davrdagi betonning o'rta harorati bilan qoplamani betonlash paytidagi haroratlar farqi);  $L$  – ko'ndalang chocklar orasidagi masofa;  $c_g$  – plitaning asos bo'ylab surilishiga qarshilik koefitsiyent;  $n$  – giperbolik kosinus argumentiga kiruvchi parametr.

Plita uzunligini, uning harorati bir tekis o'zgarish shartidan kelib chiqib hisoblashda shuni hisobga olish kerakki, bikir qoplamaadagi harorat kuchlanishlari beton qotayotgan dastlabki kunlarda xavfi. Bu paytda betonning mustahkamligi kichkina, hosil bo'ladigan kuchlanishlar esa qotgan betondagi kabi bo'ladi. Bu o'sha dastlabki

kunlarda qilsimon darzlarni paydo qiladi, ular keyinchalik kengayib parron yoriqqa aylanadi va qoplamanı yemiradi.

**Plitaning qalinligi bo'yicha haroratning notejis taqsimlanishini hisobga olish.** Beton qoplamlarini ekspluatatsiya qilish shartlarida plitaning yuqori va ost yuzalaridagi harorat har doim farq qiladi. Bu haroratlar farqi joydagi sutkalik haroratlarga bog'liq; ular qancha keskin o'zgarsa, farq shunchalik katta bo'ladi. Yuqorigi va patski yuzalar haroratning farqi ertalabdan boshlab ko'payadi. Kun oxirida haroratlar tenglashib, kun botgach farq yana ortib boradi. Ertalab plita yuzasi qizib, kengaya boshlaydi va qabarishga intiladi. Tunda, soviganidan plitaning chetlari ko'tarilib, botiqlashga kirishadi. Qiyshayish ancha ortganda plitaning ba'zi uchastkalari asosga tegmay qolishi mumkin.

Agar plitaning qiyshayishi uning yon yuzalariga qo'yilgan shtirli yoki shpuntli birikmalar yoki tirkaklar bilan cheklansa, qo'shni plitalarda kuchlanishlar hosil bo'ladi. Bunday qiyshayishlar butkul mumkin bo'lmay qolganda (plita beshta qirrasidan mahkamlangan, grunt asos bilan mustahkam ilashgan), haroratlar farqi  $\Delta t_y = t_p$  natijasida yuzaga kelgan bukuvchi kuchlanish quyidagicha hisoblanadi:

$$\sigma_t = \frac{\alpha \Delta t E_b}{2(1-\mu_b^2)},$$

bu yerda:  $\alpha$  – betonning haroratdan kengayish koeffitsiyenti;

$\Delta t$  – plita tepasi va osti haroratlarining farqi;

$E_b$ ,  $\mu_b$  – betonning elastiklik moduli va Puasson koeffitsiyenti. Bu formula silindrik yuza bo'ylab qiyshayishini nazarda tutadi, bu plita tomonlarining 1:1,5 nisbatiga mos. Agar qiyshayishga intilish to'liq yo'qotilmagan bo'lsa, harorat gradiantidan hosil bo'lgan kuchlanishlar, yuqoridagi formulalardan aniqlanganiga qaraganda kichkina bo'ladi. Plita o'rtasi asosidan ko'tarilgan onda, qiyshayishning bukuvchi momenti plitada qarama-qarshi bukuvchi moment  $M_b$  hosil bo'ladi:

$$M_{\text{kor}} = \frac{\alpha \Delta t h^2 E_b}{12(1-\mu^2)},$$

$$M_b = \frac{\hbar v L^2}{8},$$

$M_b$  plitaning o‘z og‘irligidan kelib chiqadi va plitani dastlabki holatga qaytarishga harakat qiladi.

$M_b$   $M_{\text{kor}}$  ga teng bo‘lgan onda yoki  $M_b$  undan ko‘paya boshlaganda qiyshayishga intilish butkul to‘xtaydi. Bungacha plita qisman qiyshayadi, bunda harorat kuchlanishlari plitaning o‘z og‘irligi ta’sirida hosil bo‘lgan bukvuchi moment bilan aniqlanadi.

$$\sigma_{\text{kor}} = M_b/W.$$

Bu formulalardan foydalanib, uzun plitalarda qiyshayishning to‘la chekhanish imkonini borligini aniqlash mumkin.

O‘lchamlari kichikroq plitalardan qiyshayish qismi chekhanadi, lekin ularga ekspluatatsiya yuklamasi tushganda qiyshayishni cheklash darajasi oshadi, shuning uchun haroratlar farqidan kelib chiqadigan kuchlanishlar yangi qurilgan uzun plitalarda, kichik plitalardagiga qaraganda xavfliroq. Ekspluatatsiya qilinayotgan qoplamada bu kuchlanishlarni, plita o‘lchamlaridan qatiy nazar, eng yuqori deb qabul qilish mumkin.

Beton qoplamalar qiyshaygandagi kuchlanishlarni L.I. Goretskiy taqlil qilib isbot qildiki, plitalarning qiyshayishi cheklanganidan hosil bo‘lgan kuchlanishlar, o‘rtacha harorat oshganda yoki pasayganda plita asosga ishqalanishidan hosil bo‘ladigan kuchlanishdan 2,5 marta va undan ko‘proq ortiq bo‘ladi.

Harorat kuchlanishlarini hisoblayotganda shuni nazarda tutish kerakki, ular nisbatan sekin rivojlanadi. Bu, ayniqsa, haroratning mavsumiy tebranishlariga tegishli. Shuning uchun bu kuchlanishlarga oquvchanlik hodisasining ta’sirini hisobga olish kerak. Buning hisobiga harorat kuchlanishlari 2–3 marta kamayadi.

## 22.4. Beton va armobeton qisimlarini hisoblash

Beton va armobeton qisimlari uchun mustahkamlit bo'yicha chegaraviy holat hisobiy sanaladi. Kesimlarni mustahkamlikka hisoblash (22.1) shart asosida bajariladi. Bir qatlamlili beton qoplamlarning plitalardagi bukuvchi momentlarning hisobiy qiymatlarini yuklama eng foydali (plita burchagiga) joyga tushgan holat uchun quyidagi formuladan topish mumkin:

$$M_h = M_{\max}^m k k_N \quad (22.2)$$

bu yerda:  $M_{\max}^m$  plita markaziga yuklama tushganda eng katta bukuvchi moment;  $k$  – yuklama plitaning burchagiga tushganda moment ortishini hisobga oluvchi koefitsiyent;  $u$  plitalar bir biriga birlashtirilganda yoki chetlari armaturalar bilan kuchaytirilganda 1,2 ga teng; bular bo'lmaganda – 1,5;  $k_N$  – asos materiallari bog'lovchi bilan ishlanmaganda ulardagi qoldiq deformatsiyalar to'planib qolishini hisobga oluvchi koefitsiyent; A guruh uchastkalari va perranlar uchun 1,1 ga teng; asos materiallari bog'lovchi bilan ishlangan bo'lsa, shuningdek, B guruh (perronlardan tashqari), B, Г guruhlarda, asos turidan qat'i nazar  $k_N = 1$  qabul qilinadi.

Kesim uchun chegaraviy bukuvchi moment:

$$M_{qo} = m R_n \frac{bh^2}{6} k_N, \quad (22.7)$$


bu yerda:  $m$  – qoplamaning ish sharoitlari koefitsiyenti;  $R_n$  – bukishda betonning cho'zilishiga hisobiy qarshilik;  $b$  va  $h$  – plitaning ko'ndalang kesimi eni (odatda 100 sm) va baladnligi;  $k_N$  – qoplamaning loyihibaviy xizmat muddatida HK lari g'ildiraklaridan yuklama tushish sonini hisobga oluvchi koefitsiyent;  $u$  tajriba yo'li bilan topiladi (22.4-rasm). Bikir qoplamlarning loyihibaviy xizmat muddati 20 yil.

Yuklama tushish bo'yicha hisobiy miqdori  $u_d$  quyidagi formuladan topiladi:


$$u_d = \sum_{i=1}^{n_1} u_{ei},$$

bu yerda  $u_{ei}$  –  $i$ -havo kesimi (HK)ning tayanchidan yuklamalar tushish ekvivalent soni; hisobiy HK tayanchidan tushadigan yuklamalarga keltirilgan; 22.5-rasmda grafikdan hisoblab topiladi:

$$u_{ei} = f\left(\frac{u_i; M_i^m}{M_d^m}\right),$$



**22.4-rasm.  $k_u$  koefitsiyentni aniqlash uchun grafik.**



**22.5-rasm. Yuklamalar tushishi ekvivalent sonini aniqlash uchun nomogramma.**

bu yerda:  $u_i$  HK lari turlari soni; va hisobiy HK larning yuklamalaridan hosil bo'ladigan markaziy momentlar;  $M_i^m$ ,  $M_a^m$  HK si tayanchlari yuklamasining tushish soni;  $u_i = n_a N_i$  – qoplamaning xizmat muddatida HK larning uchishlar soni.

Yuklamalar tushishi hisobiy miqdorini quyidagi formuladan aniqlash mumkin:


$$u = \sum_{i=1}^{n_j} k_n n_a N_i,$$

bu yerda:  $k_n$  – keltirish koefitsiyenti, 22.6-rasmdagi grafikdan,  $i$  – HK sining g'ildiragiga tushadigan hisobiy yuklama  $P_i$  ning shu aerodrom uchun qabul qilingan, g'ildirakka tushadigan hisobiy yuklama  $P$  ga nisbatiga qarab topiladi.  $P_i$  va  $P$  ning qiymatlari tegishli hisobiy tavsiflar orqali topiladi.


Ikki qavatli qoplamalarni hisoblashda plitaning yuqori va quyi qatlamlari uchun (22.1) shart qondirilishi kerak.

Chegaraviy bukvuchi moment (22.3) formuladan topiladi; bunda quyi qatlam uchun qisoblangan  $M_{qo}$  ni 22.7-rasmdagi grafikdan aniqlanadigan tuzatish koefitsiyentiga ko'paytirish kerak.

Ikki qavatli qoplamaning yuqori va quyi qavat plitalaridagi bukvuchi momentlar  $M_{hy}$ ,  $M_{hp}$  kN·m/m ning plita qismi eninig birligiga to'g'ri keladigan qiymati quyidagi formulalardan topiladi:



22.6-rasm.  $k_n$  koefitsiyentni aniqlash uchun grafik.



22.7-rasm. Ikki qavatli qoplamlarni hisoblash uchun tuzatish koefitsiyentini aniqlash grafigi.

Choklari ustma-ust tushgan yuqori qatlama plitalarida:

$$M_{hy} = \frac{k^1 M_{max}^m}{1 + B_p/B_y}.$$

Choklari ustma ust tushmagan quyi qatlama plitalarida:

$$M_{hp}^n = k' M_{max}^m - M_{hy};$$

Choklari ustma-ust tushgan yuqori qatlama plitalarida:

$$M_{hp} = \frac{k^1 M_{max}^m}{1 + B_p/B_y},$$

Choklari ustma ust tushmagan quyi qatlama plitalarida:

$$M_{hp} = \frac{M_{max}^m}{1 + B_y/B_p},$$

bu yerda:  $M_{max}^m$  – bikirligi  $B_y + B_p$  bo‘lgan bir qavatli plita markazlaridan yuklangandagi eng katta bukuvchi moment, kN·m/m;  $B_y$ ,  $B_p$  – yuqori va quyi qatlama plitalarining bikirligi, kesim eninig birligiga to‘g‘ri kelgan qiymati: 1, 5 – yuqori va quyi qatlamlarda uchma-uch biriktirish bo‘lganda; 1, 4-faqat quyi qatlama uchma-uch biriktirish bo‘lganda;

1, 2 – uchma-uch biriktirish ikkala qatlamda bo'lganda yoki faqat yuqori qatlamda bo'lib, parametrlari qatlamlarning umumiyligi bikirligi bo'yicha hisoblangan qoplamaning qalinligi bo'yicha qabul qilingan;  $k_1$  – ikki qavatli qoplamaning yuqori qatlamida, quyi qatlam burchaklari va choklari tepasida to'planadigan bukuvchi momentlarni hisobga oladi (22.4-jadval).

22.4-jadval

$B_p/B_y$	$K_1$	$B_p/B_y$	$K_1$
0	1,20	4	2,00
0,15	1,04	5	2,25
1	1,25	6	2,50
2	1,50	7	2,75
3	1,75	8	3,00

## 22.5. Temir-beton qoplamalarini hisoblash

Temir-beton qoplamalarining hisobiy chegarviy holati uchun mustahkamlik va darzlarning ochilish bo'yicha chegaraviy holati qabul qilingan.

Hisoblash natijasida qolamaning shunday qalinligi va armaturalar soni to'planadiki, ular ta'sirida chegaraviy holat yuzaga kelmasin. Cho'zuvchi va bukuvchi kuchlanishlar bukuvchi moment ta'sirida yuzaga kelgani uchun chegaraviy holatlar usulining asosiy shartlarini quyidagicha yozish mumkin:

$$M_h < M_{ch}; a_d < [a_d],$$

bu yerda:  $M_h$  – hisobiy bukuvchi moment;  $M_{ch}$  – plitaning hisobiy kesimidagi chegaraviy bukuvchi moment;  $a_d$  – plitaning hisobiy kesimidagi darzlarning kengayish eni;  $[a_d]$  – darz kengayishining chegaraviy eni, 0,3 mm.

Hisobiy bukuvchi momentni, plitani HK si g'ildiragidan uchta nuqtaga tushadigan yuklama ta'siriga hisoblab aniqlanadi; plita markaziga, chetiga va burchagiga. Birinchi holatda musbat bukuvchi momentlarning ahamiyati katta, ularga qarab plita o'rtasida quyi armaturaning kesimi hisoblanadi. Yuklama plita chetiga tushganda plita chetiga parallel yotqizilgan quyi armatura kesimi va unga perpendikular joylangan yuqori armatura kesimi hisoblab topiladi. Manfiy bukuvchi moment orqali (yuklama plita burchagiga tushishidan hosil bo'ladi) yuqori armaturaning umumiy kesimi aniqlanadi; armatura kuch qo'yilgan joyda kesishadi. Bir qatlamlili temir-beton qatlamlarining turli zonalaridagi bukuvchi momentning hisobiy qiymatlari quyidagicha topiladi:

$$M_h = M_{\max}^m \rho k_N,$$

bu yerda:  $M_{\max}^m$ ,  $\rho k_N$  (22.2), (22.3) formulalarga qarang;  $\rho$  – o'tish koefitsiyenti.

Hisobiy bukuvchi momentni hisoblab topish uchun zarur plitaning bikirligini aniqlashda temir-beton kesimlarini bir jinsli deb qarab bo'lmaydi. Eskplutatsiya jayonida temir-beton qoplamalar cho'zilish zo'nasida darzlar bilan ishlaydi, ular plitaning bir jinsli kesimining bikirligini pasaytiradi. Temir-beton kesim bikirligini aniqlashda darzlar plitaning tagida ham (musbat bukuvchi momentlar ta'sirida), yuqorisida ham (manfiy bukuvchi momentlar ta'sirida) paydo bo'lishini e'tiborga olish kerak.

Darzlari kengayib ishlaydigan temir-beton kesimlarning bikirligi quyidagi formulalardan topiladi:

$$B = \frac{E_a F_a}{\Psi_a} \left( h_0 - \frac{x}{3} \right) (h_0 - x),$$

bu yerda:  $F_a$  – cho'zilgan armaturaning kesim yuzasi;  $E_a$  – armaturaning elastiklik moduli;  $h_0$  – kesimning ishchi balandligi;  $x$  – kesimning siqilgan qismi balandligi;

$$x = (-\theta + \sqrt{\theta^2 + 2\theta})h_0; \quad \theta = \frac{E_a}{E_b} - \frac{\psi_b}{\Psi_a} \mu_0;$$

$$h_0 = h - 3 - d/2; \quad \mu_a = F_a/bh_0,$$

bu yerda:  $\omega_b$  – darzlar orasidagi uchastka kesimining siqilgan qirrasidagi eng chetki tola deformatsiyasining notekis taqsimlanishini hisobga oluvchi koeffitsiyent;  $l_a/h$  ( $l_a$  – armaturaning ko'rيلayotgan kesimga parallel qadami) nisbatga qarab aniqlanadi:

$l_a/h$	0,5	0,75	1,0	1,25	1,5	va undan ortiq
$\psi_b$	0,79	0,67	0,59	0,63	0,48	


$\omega_a$  – cho'zilgan zonada, darzlar orasidagi beton ishini hisobga oluvchi koeffitsiyent; qoplama mustahkamligiga hisoblanganda 0,2 ga teng, darzlarning kengayishiga hisoblanganda 1,0 ga teng deb qabul qilinadi.

Temir-beton kesimlari uchun chegaraviy bukvuvchi moment (22.8-pacm):

$$M_{ch} = mF_a R_a Z_1,$$

bu yerda:  $m$  – ishlash sharti koeffitsiyenti:

$$z_1 = h_0 - \frac{E}{3}.$$



22.8-rasm. Temir-beton plitalarini hisoblash sxemasi.

Hisobiy yuklamalrda, temir-beton kesimlaridagi darzlarning kengayish eni:

$$a_d = \frac{\sigma_a}{E_a} l_d,$$

bu yerda:  $\sigma_a$  – armaturadagi kuchlanish.

$$\sigma_a = M_h / (F_a \cdot z_l),$$

$E_a$  – armaturaning elastiklik moduli;  $l_d$  – darzlar orasidagi masofa:

$$l_t = k_l \frac{F_a}{S_a} \frac{E_a}{E_b} \eta .$$

$S_a$  – armatura kesimining perimetri;  $k_l$  – koefitsiyent, u quyida gicha topiladi:

$$k_l = \frac{bh^2 E_b}{3,5 F_a z_l E_a} - 2 .$$

$\eta$  – koefitsiyent; davriy profillashtirilgan armatura uchun 0,7; sovuq holda cho‘zib ishlatilgan sim to‘r (payvantlangan) uchun 1,25.

Armatura korroziyasining oldini olish uchun darzlarning chegaraviy kengayishi 0,3 mm dan ortiq olinmaydi.

## 22.6. Aerodromlarni rekonstruktsiya qilishda mavjud qoplamlarni kuchaytirishni hisoblash

Bikir qoplamlarning kuchaytiruvchi qatlамини hisoblash nazarイヤ jiqtadan, ikki qatlamlı bikir qoplamlarni hisoblashga qaraganda murakkabroq masala. Bu holda hisobiy sxema elastik asos ustida yotgan ikki qatlamlı plita sifatida qaraladi; uning istalgan uchtaskasiga HK tayanchlaridan yuklama tushishi mumkin. Bunda qatlamlar bir-biriga ilashadimi yo‘qmi, quyi qatlam plitalarida darzlar bormiyo‘qmi, bo‘lsa, soni nechta ekanligi hisobga olinadi. To‘la bo‘lmagan

bunday xos xususiyatlar masalani nazariy jiqatdan yechishni yana murakkablashtiradi. Shuning uchun bikir qoplamlarning kuchaytiruvchi qatlamini hisoblash usulallari tajriba va nazariy ma'lumotlardan keng foydalanishga asoslangan.

Aerodromning bikir qoplamasini kuchaytiruvchi qatlamni hisoblashda quyidagi shart bajarilishi kerak:

$$M_h \leq M_{ch},$$

bu yerda:  $M_h$ ,  $M_{ch}$  – yuqori (yeyiluvchi) qatlamdagagi hisobiy va chegaraviy bukuvchi momentlar

Monolit beton va armabeton qoplamlarni xuddi shunday qatlam bilan kuchaytirganda, uning hisobiy bukuvchi momentini, choklari ustma-ust tushmagan, ikki qatlamli qoplamaning yuqori qatلامи kabi hisoblanadi. Bunda mavjud qoplamaning (pastki qatlam) hisobiy qalinligi yemirilish toifasiga bog'liq bo'ladi (16.11-jadval)

16.11-jadval

$(h_c - \text{mavjud qolpama qalinligi})$			
Yemirilish toifasi	I	II	III
Majud qoplamaning hisobiy qalinligi	$h_c^*$ ,	$0,9h_c^*$	$0,8h_c^*$

Yemirilishi IV toifa bo'lgan mavjud qoplama elastiklik moduli 600 MPa bo'lgan sun'iy asos sifatida foydalaniladi.

Monolit temir-beton qoplamani monolit-beton yoki armabeton qoplama bilan kuchaytirilganda mavjud temir-beton qoplamani hisoblashlarda armabeton sifatida qabul qilinadi.

Oldindan zo'riqtirilgan yig'ma va monolit beton va armabeton qoplamlarni oldindan zo'riqtirilgan yig'ma teimr-beton plitalar bilan kuchaytirilganda, kuchaytiruvchi qatlamdagagi moment quyidagicha hisoblanadi:

$$M_{h.b} = \frac{k_x k_l M_{\max}^m}{1 + B_n / B_b},$$

Mavjud temir-beton qoplamani monolit temir-beton qatlama bilan kuchaytirganda, kuchaytiruvchi qatlama dagi hisobiy bukovchi moment quyidagicha hisoblanadi:

$$M_{h.b} = \frac{k_l k M_{\max}^m}{1 + B_p / B_y},$$

bu yerda:  $M_{\max}^m$  umumiy bikirligi  $B_p + B_y$  bo'lgan cheksiz plitadagi eng katta bukovchi moment;  $k_m$  – 16.7-jadvaldan aniqlanadigan koefitsiyent;  $k_x$  – ortotrop plitalardagi ichki kuchlarning qayta taqsimlanishini hisobga oladigan koefitsiyent (16.8-rasmdagi grafikdan olinadi);  $B_p$ ,  $B_y$  – qoplamaning pastki (mavjud) va ustki qatlamlarning bikirligi;  $k$  – 16.6-rasmdan aniqlanadigan koefitsiyent.

Mavjud bikir qoplamani kuchaytirish uchun asfalt-beton qatlama ning zarur qalinligi:

$$h_{ab} = \sqrt{E_b / E_{ab}} (h_{za} - h_c \geq h_{ab \min}),$$

bu yerda:  $h_{za}$  – berilgan hisobiy yuklama uchun zarur bo'lgan bir qatlamlili beton qoplama qalinligi;  $h_s$  – yuk ko'tarish qobiliyati mavjud qoplama ga ekvivalent beton qoplamasining qalinligi; quyidagicha qabul qilinadi (qoplamar bo'yicha): beton  $h_s = h_r$ ; armabeton  $h_s = 1,1 h_p$ ; temir-beton, zo'riqtirilmagan armaturali, armaturalash foiziga qarab:  $0,25 h_s = 1,1 h_r$ ;  $0,30 h_s = 1,2 h_p$ ;  $0,35 h_s = 1,32 h_r$ ;  $0,40 h_s = 1,41 h_r$ ; oldindan zo'riqtirilgan yig'ma va monolit  $h_s = 1,6 h_r$ ;  $h_{ab \min}$  – asfalt-beton kuchaytirish qatlaming eng kam qalinligi;  $E_b$ ,  $E_{ab}$  – beton va asfalt-betonning elastiklik modullari;  $h_h$  – mavjud qoplamaning hisobiy qalinligi.

Bir qatlamlili beton qoplamaning zaruriy qalinligini aniqlashda materiallar tavsifi, chok va uchma-uch tutashmalar turlarini mavjud qoplamaniki singari qabul qilish kerak; dinamiklik koefitsiyenti  $k_d$  15%

ga kamaytiriladi (19.2-jadvaldagi qiymatlarga nisbatan); ish sharoitlari koeffitsiyentiga tuzatish koefficienti  $X_{sh}$  kiritiladi (22.6-rasmdagi grafikdan aniqlanadi).

Bikir bo'limgan qoplamlarni kuchaytirish hisobi yangidan loyi-halanayotgan qoplama va asosning konstruktiv qatlamlari, ularning holati hisobga olinadi.

Bikir bo'limgan qoplamani bikir qatlam bilan kuchaytirilganda mavjud qatlam sun'iy mustahkamlangan asos qabul qilinadi, uning o'rtacha elastiklik moduli:

$$E_{o:r} = \frac{\sum h_i E_i k_i}{\sum h_i},$$

bu yerda:  $h_i$  – bikir bo'limgan konstruktiv qatlamlar qaliligi;  $E_i$  – ularning elastiklik moduli;  $k_i$  – elastiklik modulini kamaytiruvchi koeffitsiyent (22.5-jadvaldan olinadi).

22.5-jadval

Material turi	Hisobiy HK ning bosh tayanchlari koleyasi zonasidagi yemirilish turlari	$k_i$
Bog'lovchilar bilan ishlov berilgan materiallar	Qatlam materiali – bir jinsli, mustahkam va yeyilmagan	1,00
	Qoplamlarning u yer-bu yerida bir-ikki darzlar (ko'ndalang, bo'ylama va qoplama)	0,90
	Qoplama deformatsiyasi, ko'p darzlar ko'rinishida, ular goho bir-biri bilan ulanib ketgan (ko'ndalang, bo'ylama, qiyalama)	0,80
	Qoplama kuchli deformatsiyalangan; darzlar to'ri ko'rinishida; darz uzunligi 0,5–0,6 m (yo'l enida)	0,60
	O'sha, zich darzlar ko'rinishida; yo'l enidagi uzunligi 0,15–0,2 sm; darz joylarda cho'kishlar	0,50

Tosh materiallar, bog'lovchi bilan ishlov berilmagan	Chaqiq (mayda) tosh materiali sifati dastlab- kisidan farq qilmaydi yoki xizmat muddati 2 yildan kam	1,00
Qum qatlamla	Chaqiq (mayda) tosh qatlamda ezilgan joylar bor (5–10%); ichki yeyilish kuzatiladi yoki tosh qatlamda 2 mm. gacha maydaları (10% gacha) ko'rindi	0,90
	Qatlamda ezib tashlangan chaqiq toshlar 15–20% yoki qatlamda 2 km gacha mayda toshlar bor 15–20%	0,70
	Ezib tashlangan chaqiq toshlar miqdori 25–30%	0,50
	Toza qum; filtrlanish koefitsiyenti dastlabkisiga teng	1,0
	Qum biroz ifloslangan, filtrlanish koefitsiyenti dastlabkisidan 20–25% kam	0,80
	Qum balchiq bosgan, grunt bilan qisman aralashib ketgan	0,50

*Izoh:* Bikir bo'limagan qoplamlarda koleya zonasiga hisobiy HK ning bosh  
tayanchi o'qidan ikki tomonga 2,5 km qiyalikdagi qoplama uchastkalari kiradi.

# MUNDARIJA

---

Kirish .....	3
--------------	---

## **I-bob. HAVO TRASSALARI VA FUQARO AVIATSIYASI AEROPORTLARI**

1.1. Aeroportning qismlari va ularning vazifasi .....	5
1.2. Havo trassalari, aeroportlar va aerodromlarni tasniflash .....	6
1.3. Aeroportdagи transport amallari va texnologik jarayonning umumiy tavsifi .....	10

## **2-bob. AEROPORTLARNING REJAVIY YECHIMLARINI ASOSLASH**

2.1. Aeroportning bosh rejasiga va texnik xizmat hududlariga talablar.....	14
2.2. Aeroportning vaziyatlar rejasi.....	17
2.3. Aerodromoldi hudud va havodan kirib kelish tasmalari.....	19

## **3-bob. AERODROMNING UCHISH TASMALARINILOYIHALASH**

3.2. Uchish-qo'nish tasmalarining uzunligini aniqlash.....	26
3.3. Standart hisobiy sharoitlarda havo kemasining ko'tarilishi uchun zarur bo'lgan uchish tasmasi uzunligini aniqlash.....	29
3.4. Uchish-qo'nish tasmasi enini tayinlash.....	31
3.5. Gruntli uchish-qo'nish tasmasi enini aniqlash xususiyatlari.....	32
3.6. Uchish-qo'nish tasmalari yo'naliishing shamollar rejimiga bog'liqligi .....	34

## **4-bob. AERODROMLARNING UCHISH-QO'NISH TASMALARI VA AEROPORTLARNING O'TKAZUVCHANLIK QOBILIYATI**

4.1. Aeroportlarning o'tkazuvchanlik qobiliyatini baholashda tizimli yondashish....	38
4.2. UQT larining hisobiy o'tkazuvchanligini baholash bo'yicha umumiy qoidalar.....	39

## **5-bob. RULLASH YO'LLARI, PERRONNI VA HAVO KEMALARI TO'XTASH JOYLARINI LOYIHALASH**

5.1. Rullash yo'llari, perronlar va TJ larini rejalashga bo'lga numumiy talablar .....	42
5.2. Rullash yo'llari tarmog'ini rejalash.....	44
5.3. Rullash yo'llarining eni va ular orasidagi masofa.....	45
5.4. Aerodromda havo kemalari turish joylari sonini aniqlash.....	47
5.5. Havo kemalarini turish joylariga qo'yish.....	48
5.6. Passajir perronlarini tanlash.....	51
5.7. Maxsus maydonchalar.....	52

## **6-bob. AEROPORTLARNI REJALASHNING ASOSIY TAMOYILLARI**

6.1. Aeroport rejasini loyihalash tamoyillari .....	54
6.2. Aeroportlarni rejlashning printsipial sxemalari.....	55

## **7-bob. AEROPORT MA'MURIY-TEXNIK HUDDUDINING BOSH REJASI**

7.1. Aeroportning MTH ni zonalash va bino inshootlarini guruhlash tamoyillari .....	59
---	----

## **8-bob. AEROPORTLARNING ATROF-MUHITINI MUHOFAZA QILISH**

8.1. Atrof-muhitni muhofazalash bo'yicha umumiy talablar.....	63
8.2. Aviatsiya shovqinlari darajasini baholash va me'yorlash .....	64
8.3. Aeroport atrofidagi aviatsiya shovqinini baholashi usullari .....	66
8.4. Shovqindan himoya qilish bo'yicha muhandislik-qurilish va ekspluatatsiya tadbirlari .....	68
8.5. Elektromagnit nurlanish bilan kurashish .....	70
8.6. Atrof yerlarni yer yuzida oqadigan suvlar bilan ifloslanishdan saqlash .....	71

## **9-bob. AERODROMLARNI VERTIKAL REJALASHGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

9.1. Vertikal rejashni loyihalash haqida umumiy tushunchalar.....	72
9.2. Aerodrom yuzasi relyefiga talablar .....	76
9.3. Relyefni tasvirlash va aerodromning vertikal rejasini loyihalash usullari .....	80

## **10-bob. AERODROMLARNING GRUNT YUZALARINI VERTIKAL REJALASHNI LOYIHALASH**

10.1. Aerodromlar gruntli yuzalarining gorizontallar bilan tasvirlangan rejashda nuqsonli uchastkalarni aniqlash.....	85
10.2. Aerodromlarning grunt yuzalarini gorizontallar usuli bilan vertikal rejashni loyihalash.....	96
10.3. Aerodromlarning grunt yuzalari vertikal rejasini raqamli belgilari usuli bilan loyihalash .....	101
10.4. Aerodromlarning grunt yuzalari vertikal rejasini raqamli belgilari bilan loyihalash ketma-ketligi.....	107

## **11-bob. AERODROMLARNING SUN'iy QOPLAMALARINI VERTIKAL REJALASHNI LOYIHALASH**

11.1. Sun'iy qoplalmalarni vertikal rejashni loyihalash xususiyatlari .....	110
11.2 Qoplama yuzasining balandlik holati va ko'ndalang profili .....	114
11.3. Qoplalmalarning bo'ylama profilini loyihalash.....	116
11.4. Sun'iy qoplalmalar yuzasini loyihalash.....	120
11.5. Sun'iy qoplalmalar qismalari yuzasi relyefini tuzish .....	122

**12-bob. TUPROQ ISHLARI HAJMINI ANIQLASH. AERODROMNI  
VERTIKAL REJALASH LOYIHASINI RASMIYLASHTIRISH**

12.1. Tuproq ishlari hajmini aniqlash usullari.....	125
12.2. Gumus qatlamni yuzaga chim qoplash muhitisifatida saqlash .....	129
12.3. Tuproq surish loyihasi. Vertikal rejalash loyihasini rasmiylashtirish .....	132

**13-bob. UCHISH MAYDONI GRUNTINING SUV REJIMI SUV  
QOCHIRISH VA DRENAJ TADBIRLARI**

13.1. Gruntlarning suv rejimi haqida asosiy ma'lumotlar.....	139
13.2. Iqlimiylar rayonlashtirish.....	143
13.3 Aerodrom gruntlarining turli darajada o'ta namlanishi va suvni qochirish bo'yicha muhandislik choralarি.....	146

**14-bob. AERODROMLARDA SUV QOCHIRISH VA  
DRENAJ TIZIMLARI**

14.1. Yerusti va yerosti suvlarini jilovlash bo'yicha muhandislik tadbirlari .....	149
14.2. Sun'iy qoplamlarning suv qochirish va drenaj tizimlari.....	155
14.3. Uchish maydonining grunt qismida suv qochirish va drenaj tizimlari .....	170

**15-bob. SUN'iy QOPLAMALAR NING TURLARI**

15.1. Sun'iy qoplamlarga asosiy talablar .....	180
15.2. Sun'iy qoplamlarning konstruktiv qatlamlari .....	181
15.3. Qoplamlar tasnifi va ularni konstruktsiyalash bo'yicha umumiy qoidalar....	183

**16-bob. BIKIR QOPLAMALAR**

16.1. Bikir qoplamlarni konstruktsiyalash tamoyillari .....	189
16.2. Beton qoplamlar.....	194
16.3. Temir-beton va armobeton qoplamlar .....	202
16.4. Oldindan kuchlantirilgan monolit temir-beton qoplamlar .....	208
16.5. Avvaldan kuchlantirilgan temir-beton plitalardan yig'ilgan qoplamlar .....	212
16.6. Aerodromlarni qayta qurishda mavjud bikir qoplamlarni kuchaytirish.....	217

**17-bob. BIKIR BO'LМАGAN QOPLAMALAR**

17.1. Aerodromning bikir bo'lмаган qoplamarini konstruktsiyalash tamoyillari.	221
17.2. Asfalt-beton qoplamlar.....	224
17.3. Shmdirish usuli bilan quriladigan chaqiq toshli qoplamlar .....	229
17.4. Mayda va chaqiq toshlarni aralashtirish usuli bilan qurilgan qoplamlar.....	232
17.5. Oddiy qoplamlar.....	237
17.6. Mustahkamligi kam toshlar va sanoatning yordamchi mahsulotlaridan qoplama qurish.....	241

17.7. Aerodromlarni qayta qurishda mavjud bikir bo'limgan qoplamlarni kuchaytirish .....	244
<b><i>18-bob. GRUNTЛИ UCHISH TASMALARI</i></b>	
18.1. Gruntli uchish tasmalariga talablar .....	246
18.2. Uchish maydonining gruntli yuzasida chim qoplama .....	248
<b><i>19-bob. HAVO KEMALARINING AERODROM QOPLAMALARIGA TA'SIRI</i></b>	
19.1. Havo kemalari g'ildiraklarining qoplamaga ta'siri .....	255
19.2. Aerodrom qoplamlariga ta'sir etadigan gorizontal kuchlar .....	264
19.3. Qoplamaga havo oqimlari va reaktiv dvigatellar chiqindi gazlarining ta'siri ..	267
19.4. Aerodrom qoplamasining turli uchastkalariga havo kemalari ta'siri xususiyatlarini hisobga olish.....	269
19.5. Aerodromning uchish-qo'nish tasmalari qoplamlariga tushadigan hisobiy yuklamalar.....	272
<b><i>20-bob. AERODROM ASOSLARIDAGI GRUNTLARNING ISHI</i></b>	
20.1. Gruntlar holatining yil davomida o'zgarishi .....	275
20.2. Qoplama asosida namlikning qishda qayta taqsimlanishi va ko'pchish jarayoni .....	278
<b><i>21-bob. AERODROMLARNING BIKIR BO'LМАGAN QOPLAMALARI MUSTAHKAMLIGINI HISOBASH</i></b>	
21.1. Bikir bo'limgan qoplamlalar mustahkamligining mezoni.....	280
21.2. Qoplamaning biriktirilgan qatlamlaridagi cho'zuvchi kuchlanishlarni tekshirish .....	290
<b><i>22-bob. AERODROMLARNING BIKIR QATLAMLARI MUSTAHKAMLIGINI HISOBASH</i></b>	
22.1. Tabiiy omillar va yuklamalar ta'sir etganda qoplamlalar ishi.....	293
22.2. Bikir qoplamaflar mustahkamligini hisoblashning asosiy qoidalari.....	295
22.3. Bikir qoplamaning plitalarida haroratdan kuchlanishlar .....	297
22.4. Beton va armobeton qisimlarini hisoblash .....	304
22.5. Temir-beton qoplamlarini hisoblash.....	308
22.6. Aerodromlarni rekonstruktsiya qilishda mavjud qoplamlarni kuchaytirishni hisoblash .....	311

*Surat Ibragimovich Xolmuhamedov,  
Rayhon To'rayevna Hakimova*

## AERODROMLARNI QIDIRISH VA LOYIHALASH

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi*

*Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 5580200 va 5A 580 206  
mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim oluvchi talabalar uchun darslik  
sifatida tavsija etilgan*

«VORIS-NASHIRIYOT» – 2012

Muharrir N. G'oipov  
Texnik muharrir M. Akramova  
Badiiy muharrir J. Gurova  
Musahhih H. Musaxo'jayeva  
Kompyuterda sahifalovchi B. Babaxodjayeva

Nashriyot litsenziyasi AI 195. 28.08.2011. Bosishga 29.06.2012-y. da ruxsat etildi.  
Bichimi 60×84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. «Tayms» garniturada ofset bosma usulida bosildi.  
Bosma t. 20,0. Jami 200 nusxa. 358-raqamli buyurtma.

«Niso Poligraf» ShK bosmaxonasida bosildi.  
Toshkent, H. Boyqaro ko'chasi, 41-uy.